

**S.MATCHONOV, X.G'ULOMOVA,
Z.DOLIMOV**

МАЖБУРИЙ
НУСХАЛАР

4-SINFDA

O'QISH DARSLARI

O'QITUVCHI KITOBI

**TOSHKENT
“YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE”
2007**

4-sinfda o'qish darslari: O'qituvchi kitobi/S.Matchonov,
X.G'ulomova, Z.Dolimov. — T.: "Yangiyul poligraph
service", 2007 — 192 b. — (O'qituvchilar uchun metodik
qo'llanma)

I. Matchonov S. va boshq.

BBK 74.268.1 Uzb

№ 652-2007/1094

Taqrizchilar — *N. Ahmedova*, RTM boshlang'ich ta'lif bo'limi boshlig'i;
R. Ubayxo'jayeva, TVPKQTMOI mактабгача va boshlang'ich ta'lif kafedrasi dotsenti;
M. Nabiyeva, Angren shahar 41-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Ushbu qo'llanmada qabul qilingan shartli belgilari



— Dars boshi



— Lug'at ishi



— O'qituvchi hikoyasi



— Suhbat



— Uyga vazifa



— Yangi mavzu

10 33498
391

20 07 Alisher Naveiy
nom'dagi
O'zbekis on Ma

A4212

ISBN 978-9943-309-29-6

© "Yangiyul poligraph service", 2007

© "Huquq va Jamiyat" nashriyoti, 2007

KIRISH

O'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rinn tutadi. Barcha predmet darslarini o'qish faoliyatjisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki matni tushunib, bir maromda, to'g'ri va ifodali o'qishni o'rgatish bilan o'qish darslari shug'ullanadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning DTS bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilimlarni hamda o'quvbiluv ko'nikma va malakalarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turki beriladi. Shuning uchun "O'qish kitobi" darsligiga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnat, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular kiritilgan. Mazkur mavzularga oid badiiy va ilmiy-ommabop asarlar ta'limiyl, axloqiy xarakterda bolib, ular o'quvchilarning aqliy kamoloti va ma'naviy axloqiy tarbiyasiga qaratilgan.

"O'qish kitobi"da o'qishning barcha bosqichlariga oid mavzular berildi. Uning o'ziga xos xususiyati o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, dunyoqarashlatini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanaadi. Tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha bilim va tarbiya berishni ta'minlaydi. Ularning ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinushi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egalaydilar. Ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

"O'qish kitobi" darsligidagi materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatdan ham, mazmun jihatdan ham kengaya borishi hisobga olingan. 1-sinfda o'rgatilgan "Ajdodlarimiz — faxrimiz", "Ilm — aql chirog'i", "Bizning bahor", "Kumush qish" kabi mavzular 2—4-sinflarda ham davom ettiriladi. Natijada o'quvchilarning oldingi bilimlari to'ldiriladi va boyitiladi.

Darslikdagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog'liq mavzudagi asarlar yordam beradi.

Badiiy asarlar matni ustida ishslash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik isnlar tasnkil qilinadi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishslashda tabiat bag'riga sayohat uyuştirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman "O'qish kitobi" darsligidagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berish bilan birga, ularning og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga yordam berishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan.

O'quvchilarning darslik yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlari nazarda tutilgan.

Darslikda o'qish darslari oldiga qo'yiladigan quyidagi didaktik vazifalar alohida inobatga olingan:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxonadan chuqr mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk kishilar qilib va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir vazifani bajarishning aniq metodik usullari mavjud. Ammo ular boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda o'qish darslari va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Yaxshi o'qish sifatlarini egallash matabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

O'qish metodikasi ilmida o'qish malakasini shakllantirish so'zlarni bo'g'inlab o'qish malakasini shakllantirishdan boshlanishi qayd etiladi. So'ngra so'zlar sidirg'a o'qitiladi. Ma'lumki, so'zlar ko'rish orqali idrok qilinadi. So'zlearning ma'nosini to'g'ri talaffuz qilish orqaligina aniqlash mumkin.

To'g'ri o'qish matndagi so'zlarni tovush jihatidan xatosiz va bir maromda ravon o'qishdir. Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yiladigan barcha talablar o'quvchilarning to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga ham taalluqlidir. O'qiganda tovush va so'zlarni tushuriib qoldirmay, o'rmini almashtirmay, yangi tovush qo'shmay, so'z urg'ulariga rioya qilgan holda o'qish to'g'ri o'qish sanaladi.

O'qituvchi o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilislariha hamda ma'nosini anglashlariga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Ko'p bo'g'inli, tuzilishi jihatidan murakkab hamda oldin eshitilmagan va ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash talab etiladi.

Matndan o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlash, matnning yaxshi, o'rta va yomon o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqish zarur.

Urg'uni noto'g'ri qo'yib o'qish so'zlearning ma'nosini tushunishga xalal beradi.

4-sinfda o'quv materiali hajmi nisbatan katta. Shuning uchun o'quvchilarni to'g'ri va ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatishda, asar voqealari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda turli topshiriqlar asosida tanlab o'qishga katta e'tibor beriladi. Badiiy matnlar mazmuni asosida reja tuziladi, to'liq va qisqartirib, shaxsini o'zgartirib qayta hikoyaltiladi.

Lug'at ustida ishlash

Ma'lumki, so'z predmet, belgi, harakat va miqdorga nom bo'lishi bilan birga atrofimizdagi narsa va hodisalar, harakat-holatlarning ham nomi sifatida vujudga keladi. O'quvchi maktabga kelgan kunidan boshlab, turli darslar vositasida lug'atini boyitib boradi. O'quvchi lug'atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o'rabi olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqatlari asosiy manba vazifasini bajaradi.

Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo'lishi natijasida so'z, ibora tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlarni o'rganadi, ularni o'z so'zlariga aylantiradi.

Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqjini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi.

Masalan, yil fasllariga oid mavzular bilan tanishish jarayonida tabiatdagi o'zgarishlar, qushlar, jonivorlar, hayvonot olami, dovdaraxtlar, maysa-giyohlar bilan bog'liq tushunchalari shakllantirilsa, ma'naviyat, yaxshilik va yomonlik, do'stlik mavzularidagi asarlarni o'rganish orqali insoniy munosabatlar, ahloq-odob yuzasidan muayyan xulosalarga keladi.

Matnni o'qish jarayonida so'zning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o'quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg'itilmay, qisqa izoh berib o'tib ketiladi.

Ko'chma ma'noda ishlatalgan so'zlar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi.

Bundan ko'rinish turibdiki, o'quvchilarning o'rganishi ko'zda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylantirishlari muhimdir.

Boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlashning umumiy yo'l-yo'riqlari, yo'nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi.

Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida darslik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi.

Lug'at ustida ishlash onat tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida izchil olib borilishi lozim.

Boshlang'ich sinflar uchun izohli, imlo lug'atlarining yaratilmaganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri uyuştirishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lugat ishi qat'iy reja asosida izchil amalga oshirilsa, o'quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlik va sabot bilan ishslash zarur.

Mazkur metodik qo'llanma 4-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi barcha bo'limlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan darslar ishlanmasida asarlar bilan tanishishdan ko'zlangan maqsad va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan ayrim darslarning qisqacha bayoni o'z ifodasini topgan.

Darsda o'rganiladigan asarlar uchun yozilgan dars ishlanmalari bugungi kunda noan'anaviy darslar deb atalayotgan, interfaol usullar asosidagi darslarga qo'yilayotgan talablar nuqtai nazaridan ken-gaytirib yoritildi. Ulardan foydalanishda sind o'quvchilarining savyasi, qobiliyati, darajasi va o'qituvchining imkoniyatlardan kelib chiqib ish tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir bo'lim oxirida test topshiriqlari berildi. O'qituvchi ular dan o'tilgan mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkam-lashda, bo'lim mavzulari o'rtaqidagi bog'liqliknini ta'minlashda, bo'lim bo'yicha umumlashtiruvchi darslarda foydalanishlari mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yoritilgan ayrim dars ishlanmalari darsda bir necha metodik usullarni qo'llash namunalari tarzida keltirilgan bo'lib, ko'proq o'quvchilarni o'z ustida ishslashga, mavzu yuzasidan o'ylab, mushohada yuritishga, ayrim holatlar, masalalar yuzasidan turlicha umumlashma xulosalar chichqarishga yo'naltirilgan. Ularni qat'iy metodik qonuniyat tarzida tushunmaslik, ularga imkoniyatga qarab ijodiy yondashish zarur. Shuningdek, ayrim mavzular bo'yicha yoritilgan metodik ko'rsatmalarni boshqa mavzularni o'rganishga ham tadbiq qilish mumkin.

ISTIQLOLIM – ISTIQBOLIM (6-soat)

Hozirgi 4-sinf o'quvchilari — istiqlol mevalari. Ular boshqalarga qaraganda istiqlol tushunchasini yaxshiroq anglaydilar. Ular istiqlol masalasi har soatda tilga olinayotgan davrda yashamoqdalar.

4-sinfda «Istiqlolim — istiqbolim» bo'limiga kiritilgan she'rlar, proza asarlari ko'proq ta'limiylar xarakterga ega. Ularda istiqlol sharoфati bilan qo'lga kiritilgan yangiliklar o'z ifodasini topgan. Istiqlol tufayli ma'naviy qarashlarimiz, ma'naviy ongimiz yanada yuksaldi. Insonlarda ma'naviy huquqiy tarbiyaga ehtiyoj o'sdi. «Istiqlolim — istiqbolim» mavzusida S. Barnoyevning «Mangulikka tatigulik kun» asari orqali o'quvchilarga mustaqillik haqida, mustaqillik qaytib bergen allomalarimiz haqida bilim beramiz. Bolalarning mard, jasur, haqsevar, elparvar, vatan uchun qayg'uradigan insonlar haqidagi tushunchalari boyiydi. Asarni o'qish orqali o'quvchilarning nutqiga mustaqillik, erk, ozodlik, O'zbekiston boyliklari, bug'doy, paxta kabi so'zlar kiradi va nutqiy o'sishi yuzaga keladi. Sal kam bir ast turg'unlikda yashagan davlatning haqiqiy vorislariga aylanganliklari bilan faxrlanadilar.

Bo'limni o'rganish jarayonida “Nima uchun 1991-yil 31-avgust «Mangulikka tatigulik kun» deb tarixga kirdi? Mustaqillik qaytib bergen allomalarimiz kimlar? O'zbekistonning haqiqiy egalari kimlar?” savollari ustida ishlash orqali o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi.

Keyingi darslarda shu kabi topshiriqlar asosida testlar ishlansa, bilimlari uzoq vaqt xotiradan o'chmaydi.

A. Oripovning «Istiqboli buyuksan» she'ri o'quvchilarning istiqlol tushunchalarini boyitadi. «Gulla, yashna, hur Vatan” mavzusida E. Malikovning «Assalom, Neksiya» matnini o'qib, O'zbekiston taraqqiyoti haqidagi bilimlari kengayadi.



MAVZU. MUSTAQILLIK — BAXT-SAODATIMIZ

O'quv materiali. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi. Abdulla Oripov.

Darsning maqsadi.

1. Ta'limiylar maqsad. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhi-

yasi misoldida o'quvchilarning mustaqillik haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. Tarbiyaviy maqsad. O'quvchilarda mustaqil Vatanimiz bilan faxrlanish va milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad. To'g'ri, ifodali va ongli o'qish sifatlarini takomillashtirish, nutqini o'stirish, nutq madaniyatini tarbiyalash.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, madhiya o'qish darsi.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Dars metodi. Kichik guruqlar bilan ishslash, izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash metodlari.

Dars jahozi. Sinf bayramona bezatiladi. Yurtboshimiz I.A. Karimov va O'zbekiston qahramoni shoir A. Oripov portreti, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yozilgan gerb, bayroq rasmlari ifodalangan plakat.

O'zbekistonning mustaqilligidan so'nggi taraqqiyoti ifodalangan rasmlar ilinadi. Texnik vositalar o'tnatiladi, kinolenta namoyish qilinadi.

Tashkiliy qism. O'quvchilar 3 guruhgaga bo'linib o'tiradilar. Sinfning ilg'or o'quvchilari, o'qituvchi o'quvchilar javobini hisobga olib baholab boradi.

Darsning borishi.

Kirish suhbat.

O'qituvchi: Bugun Vatanimizda qanday kun?

O'quvchi: 2-sentabr - hamma maktablarda o'qish boshlangan kun. Bu kundan boshlab o'z bilimimizni oshirib boramiz.

O'qituvchi:

Shodlik to'lsin desangiz,

Yuragimga, dilimga.

A'llo o'qing matabda

Mehr qo'yib bilimga. (S. Barnoyev)

Siz yozgi ta'tildan kuch-g'ayratga to'lib, bilimga chanqoq bo'lib qaytdingiz degan umiddaman.

O'quvchilar bilan yozgi ta'til haqida qisqa suhbat o'tkaziladi.

Darsda o'quvchilarning vazifalari belgilab olinadi. O'qituvchi har bir o'quvchiga turli rangda qog'ozlar tarqatadi va unga darsdagi o'z vazifasini yozishlari zarurligi aytildi. O'quvchilar yozganlari doskaning bir tomoniga chizilgan daraxt shoxchalariga

qistirib qo'yiladi. O'quvchilarning javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin.

- Darsda tartib-intizomga rioxalaman.
- Savollarga qo'l ko'tarib, o'rnimdan turib javob beraman.
- Darsda faol ishtirok etaman.
- Aytيلاتقان ما'lumotlarni e'tibor bilan tinglayman.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yozilgan lenta qo'yiladi. Ozbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasiga oquvchilar jor boladi. O'zbekistonning go'zal tabiatni, davlat tashkilotlari, go'zal maskanlari, ishlab chiqarish korxonalarini va boshqa tarixiy qadamjolar tasvirga olingan videolenta namoyish qilinadi.

O'qituvchi: O'zbekiston xalqi kecha qaysi kunni bayram qildi?

- Nima uchun Mustaqillik kuni katta bayram qilinadi?
- Mustaqillik so'zini qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?

1- o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlariga nimalar kiradi?

Sinf doskasi oldiga davlat bayrog'i va gerbini ko'targan o'quvchilar saflanadilar.

3. Saflangan o'quvchilar sinfdoshlari bilan davlat ramzlarini haqidagi savol-javob o'tkazadilar.

2- o'quvchi: Madhiyaning 3-bandini yod aytin va uning ma'nosini tushuntirib bering.

3- o'quvchi. «Madhiya» so'zining ma'nosini izohlab bering.

O'quvchilar javobi quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

 *Oqituvchi hikoyasi:* Madhiya istiqlolgacha bo'lgan davrda gimn deb nomlangan. Gimn yunoncha so'z, qadimgi Yunonistonda xudolar va xalq qahramonlarini sharaflab aytilgan hamma maqtov qo'shiqlar gimn (maqtov) deb nomlangan. Gimnlar ayrim hollarda davlat birligini ham ifodalashga xizmat qilgan. Davrlar o'tishi bilan vatan va xalq birligini ifodalashga aylangan.

Shu o'rinda madhiyalarning yuzaga kelishi tarixi to'g'risida quyidagicha ma'lumot berish o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» xudolar va ma'budalar madhiyasi bag'ishlangan. «Yasna», «Yasht» nomlari bilan yuritiladigan she'rlar hozirgi tushunchamizdagi madhiyalarning ilk ko'rinishlari bo'lgan. Ularda quyosh va osmonga hamdu sanolar [maqtovlar] aytildi. Masalan:

*Xurshid yuzin ochganda
Ilohiylar tik turar
Baxt chashmasi qulf urib
Bari sevinch-la yig'lar.*

(*Xurshid — quyosh, qulf urib — yashnab*).

Ma'lumotlarga qaraganda, turkiy xalqlar milliy qahramoni Alp Er To'nga va afsonaviy xalq qahramoni Siyovushlarning vafotidan keyin baxshilar uzoq vaqt motam tutib, mungli qo'shiq kuylashgan. Navro'z kunlari Siyovushning qabriga kelib, qurbanlikka xo'rozlar so'yishgan. Siyovush sharafiga qo'shiqlar kuylashgan. Bu qo'shiqlar «Siyovush qissasi» deb yuritilgan. Ular madhiyaning ilk namunalaridan sanaladi.

1- o'quvchi: Madhiya matnidan kelajakka ishora qilingan o'rinni topib ifodali o'qib bering.

Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon.

2- o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasini kim yozgan? Madhiyaga kim kuy bastalagan? Ular haqida nimalar bilasiz?

O'quvchilar javobi to'ldiriladi: Abdulla Oripov Qashqadaryo viloyatining Kitob shahrida ziyorolar oilasida dunyoga kelgan. O'zbekiston Milliy universitetida o'qigan. Ko'plab she'riy va dramatic [dramatic] asarlar yozgan. O'zbekiston qahramoni A. Oripov qalamiga mansub Davlat madhiyasida Vatandan faxlanish, uning taqdiri uchun mas'ullik va iftixor tuyg'ulari ifodalanadi.

Taniqli bastakor Mutal Burxonov davlat madhiyasiga kuy basta-lagan.

3- o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qachon qabul qilingan? Nima munosabat bilan qabul qilingan?

Javob: Davlat ramzları, madhiya Vatanimiz mustaqilligining qo'lga kiritilishi munosabati bilan qayta qabul qilindi. Mustaqillik yurtboshimiz I. A. Karimovning dadil harakatlari va dono maslahatlari tufayli qo'lga kiritildi. Davlat madhiyasi qabul qilingan.

II. Madhiya matni ustida ishslash.


1- o'quvchi: Madhiyaning birinchi bandini yod ayting va o'qing mazmunini tushuntirib bering.

2- o'quvchi: Madhiyaning naqoratini yod ayting va uning ma'nosini izohlang.

3- o'quvchi: Madhiyani ifodali yod aytish musobaqasi.



1- o'quvchi: Bayroq qachon qabul qilingan? (1991-yil 18-noyabr) Davlatimiz bayrog'idagi ranglarni va narsalar tasvirini tarmoqlash usulida ko'rsating va ma'nosini izohlang.(Guruhsar doira shaklini olib, flomaster bilan vatman qog'ozda javob tayyorlaydilar.)



Guruhsar javoblari yozilgan plakat doskaga ilinadi. 1—2-o'quvchi va o'qituvchi kuzatib baholaydi.[Qarang.1-tarmoqlash]

2- o'quvchi. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon

qabul qilingan? Unda nimalarning tasviri bor? Tarmoqlash usulida javob tayyorlang.[Qarang.2-tarmoqlash.]

Bu javoblarni o'quvchilar to'la bajara olmasligi mumkin.

O'qituvchi suhbat orqali eslatadi, to'ldiradi, qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

5. «Istiqlolim — istiqbolim» mavzusining ma'nosini ochish.

O'qituvchi: — O'zbekiston nima tufayli o'z ramzlariga ega bo'ldi?

— «Istiqlolim — istiqbolim» deganda nima nazarda tutilgan?

— Istiqlol bizga nima berdi?

Istiqlol va istiqbol so'zlarining ma'nosini izohlanadi va o'quvchilarning lug'at daftariga yozdiriladi:

Istiqlol — boshqalarga tobe bo'lmay, o'z erki bo'yicha yashash, mustaqillik, erkinlik.

Istiqbol — baxtli taqdir, baxtli kelajak, baxt, omad.

6. Vatan madhi.

2- o'quvchi: Vatanni madh etgan, Vatan mavzusidagi she'rlarni eslang, ifodali yod aytинг.

O'quvchilar Vatan haqidagi yod olgan she'rlaridan aytadilar. So'ng o'qituvchi quyidagi she'rni o'qiydi:

Eshit zamon, eshit samo!
Bizning kuyni eshitsin navo.
Mehr bilan tutashsa qalb
Boshimizga qo'nar humo.
Humo qushim, samo qushim.
Qutlar, qutlar favvoralar,
Yurtga shodlik va obodlik
Keltirar kimlar?

O'qituvchi: O'ylang, shodlik va obodlik keltirar kimlar? Guruhlar o'z fikr va mulohazalarini bildiradilar.

7. Dars yakunida tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

Xalqimizda —«Bulbul chamanni sevar, Odam Vatanni» maqoli bor. Odam nima uchun Vatanni sevadi? Ta'tilda qayerda dam oldingiz? Sizga davlatimiz qanday sharoitlar yaratib berdi.

Mustaqillikni mustahkamlashga qanday hissa qo'shishingiz mumkin? O'quvchilar javobi umumlashtiriladi.

8. G'olib guruhlar to'plagan ballarni e'lon qilish va rag'hatlantirish.

 9. *Uya vazifa.* «Istiqlolim — istiqbolim» mavzusida 5-6 gapli matn tuzing yoki she'r yozing.



MAVZU. 1-SENTABR — MUSTAQILLIK KUNI

O'quv materiali. Mangulikka tatigulik kun. Safar Barnoyev.
Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga mustaqillik qaytarib bergan allomalarimiz haqida ma'lumot berish. 2. Mustaqillikning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish. 3. O'quvchilarining O'zbekiston taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. 4. O'quvchilarni allomalarimiz kabi mard, jasur, haqsevar, elparvar, vatan uchun qayg'uradigan insonlar qilib tarbiyalash. 5. O'quvchilar nutqiga allomalarimiz ismlarini, *O'zbekiston bug'doyi, bug'doy zahirasi, dunyo darvozalari, ko'zimiz ochilib, qayta tug'ilmoq* kabi so'z va iboralarni kiritish, bog'lanishli nutqlarini o'stirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, ilmiy-ommabop asar o'rjaniladigan dars.

Dars metodi. Izohli o'qish, suhbat, aqliy hujum metodi.

Dars shakli. Noan'anaviy dars — sayohat darsi.

Darsning jahozi. Allomalarimizning portreti, allomalar uchun qurilgan maqbara, xotira maydoni, shahidlar qabristoni tasvirlangan rasmlar.

Tashkiliy qism. Sinf to'plangan materiallar asosida bezatiladi. Sinfning markaziga I. A. Karimovning rasmi qo'yiladi.

Sinfning bir qismi Buxoro, bir qismi Samarqand, bir qismi Shahrisabz, bir qismi Toshkent va hokazolarga ajratiladi. Har birining tepasiga shu nomlar yozib ilib qo'yiladi. Uning ostiga shu shaharlarda yashab ijod etgan allomalarimiz, davlat arboblari, shoir va yozuvchilar, umuman mashhur tarixiy shaxslarning portretlari osiladi, tagiga nomlari, qilgan ishlari yoki gaplari yoziladi, ular uchun qurilgan maqbaralar tasvirlangan rasmlar qo'yiladi.

Darsning borishi.

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi kuylanadi.

Madhiyadan so'ng o'quvchilar xor bo'lib, «Mustaqillikni mustahkamlashga o'z hissamizni qo'shishga va'da beramiz» deb qasamyod qiladilar.

O'qituvchi o'quvchilar diqqatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning portretiga qaratadi: — Doskaning yuqori qismiga kimning portreti qo'yilgan? — I. A. Karimovning xizmatlari haqida nimalar bilasiz? — Portret haqidagi gapni o'qing. Bu gap kimga qarata aytigan? “Sog'lom, ilmli va fidoyi farzandlari

bo'lgan xalq albatta o'zining kelajagini harpo etadi". I.A.Karimov.

— Prezidentimiz kutgandek inson bo'lish uchun nima qilishimiz kerak?

2. O'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlash. Sinf bo'ylab sayohat.

O'qituvchi: — Bugun biz tarixiy shaharlarga sayohat uyushtiramiz. Siz 4 guruhgaga ajralib, tarixiy shaharlarga borasiz. Har bir guruh o'zi borgan shaharda yashagan allomalarini, ular haqidagi fikrlarni, tarixiy obidalarni, ishlab chiqarish korxonalarini yaxshilab o'rghanadi. So'ng u haqda gapirib beradi.

O'quvchilar «Toshkent», «Buxoro», «Shahrisabz», «Samarqand» guruhlariga ajratiladi. (O'qituvchi shahar yoki viloyatlarning biri o'rniga o'zлari yashab turgan viloyat yoki shaharni tanlashi mumkin). So'ng boshqa shaharlarga ham o'tib, u joylarni ham tomosha qiladi. Bunga 5—6 daqiqa beriladi.

3. Sayohat yuzasidan suhbat.

- «Toshkent» guruhi, sayohat davomida nimalarni bilib oldingiz?
- «Shahrisabz» guruhi, sayohat sizda qanday taassurot qoldirdi?
- «Samarqand» guruhi, bu shahar o'zida qanday sirlarni saqlagan ekan?
- Buxoro guruhi, bu shahar allomalari, ustalari, tarixiy binalari sizda qanday taassurot qoldirdi?

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtiradi va «1991-yil 31-avgust tarix sahifalariga qanday kun bo'lib kirdi?» savolini beradi.

4. Yozuvchi haqida ma'lumot.

5. Asar bilan tanishtirish. O'qituvchi asarni ifodali o'qib berishdan oldin «Men asarni o'qib beraman. Siz diqqat bilan tinglang, so'ng matn yuzasidan savollar beraman» deb o'quvchilarni ogohlantiradi.

6. Asar matni yuzasidan dastlahki suhbat.

- O'ylang, yozuvchi Safar Barnoyev qaysi kunni «Mangulikka tatigulik kun» deb aytgan? Nima uchun?
- Asarda kimlar va nimalar haqida hikoya qilingan?

7. Asar matni ustida ishlash.

 Ichda o'qish. Topshiriq. Matnni ichingizda o'qing. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni daftaringizga yozib boring.

 **Lug'at ishi.** So'zlarning ma'nosi o'quvchilar bilan birga izohlanadi

tilimiz qulfi ochildi — mustaqillik tufayli erkin fikrlab, fikrimizni erkin ayta oldik

<i>ko'zimiz ochildi</i>	— haqiqatni tushundik
<i>sohibqiron</i>	— shoh, podshoh
<i>alayhissalom</i>	— payg'amar
<i>bug'doy zaxirasi</i>	— g'amlab qo'yilgan bug'doy
<i>abadiy</i>	— mangu, doimiy
<i>dunyo darvozasi</i>	— dunyoga chiqiladigan joy (shahar)
<i>abadiy multk</i>	— doimiy saqlanadigan multk

O'quvchilar so'zlar izohini daftarlariiga yozib oladilar.

Matnni qismlarga bo'lib o'qitish. Asar to'rt qismga bo'linadi va to'rt o'quvchiga o'qitiladi.

Topshiriqlar asosida matnni qayta o'qitish.

- Matnda “ Yoshi ulug'lar ham, yoshi kichiklar ham qayta



tug'ildi”, degan jumla bor. Uning ma'nosi ifoda etilgan parchani topib o'qing va mazmunini tushuntirib bering.

- O'zbekiston rivojlanib borayotganini asoslash uchun asarni o'qing. Tarmoqlash usulida asoslang.

Javob namunasi:

- O'zbekistonda yoshlarga qanday sharoitlar yaratilgan? Asar dan shu o'rinni topib o'qing.

8. Darsda o'rganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi suhbat: Bugungi o'qish darsi sizda qanday taassurot qoldirdi? Darsda o'zingiz bilmagan nimalarni bilib oldingiz? O'ylang, nima tufayli biz buyuk allomalarimizni tanidik? Allomalarimiz bizlarga qanday milliy-madaniy meros qoldirgan? O'zbekistonning haqiqiy egalari kimlar? O'qituvchi o'quvchilar javobini umumlashtiradi.

9. Uyga vazifa. Asarni ifodali o'qishga va qayta hikoyalab berishga tayyorlanib kelish. O'qish daftariga O'zbekistonning mustaqillikka erishgan sanasini va allomalarimizning nomini yozib kelish.

10. O'quvchilarni rag'batlantirish.



MAVZU. IQBOLI PORLOQ BOLALAR

O'quv materiali: Iqboli buyuksan. Abdulla Oripov

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarning istiqlol haqidagi tushunchalarini boyitish.
2. Vatan oldidagi burchlari, insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarini kengaytirish.
3. Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish, atrofidagi odamlarni qadrlashga o'rgatish.
4. Ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Dars metodi. Ifodali va izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash metodlari.

Darsning jahozi. Shoир portreti, bolalar hayoti aks etgan suratlar, testlar, Konstitutsiya kitobchasi.

Tashkiliy qism. O'quvchilarning o'qish darslari uchun zarur o'quv qurollarining mavjudligi (darslik, o'qish uchun tutgan daftari, ruchka, kundalik daftari va hokazo) aniqlanadi.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va kengaytirish.

 1. **O'zbekiston qomusi haqida suhbat.** — O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qachon qabul qilingan? O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini nima uchun baxtimiz Qomusi deb ataymiz? Madhiya, gerb va bayroqning Konstitutsiyaga qanday aloqasi bor? Sizning oldingizda qanday vazifalar turibdi? — Yaxshi o'qib, Vatanni gullatib-yashnatishimiz lozim. — O'z ishlarimiz bilan Vatanning dovrug'ini olamga taratishimiz kerak.

2. **Matnni ifodali o'qish.** Matn rollarga bo'lib o'qtitiladi. Savol asosida musobaqa uyuştilriladi: «Qaysi juftlik matnni xatosiz va ifodali o'qiydi?» Musobaqa so'ngida 1-, 2-, 3- o'rın aniqlanadi. G'olib juftlik rag'batlantiriladi.

 II. **Yangi mavzu.** Doskaga «Iqboli porloq bolalar» mavzusi va «Iqboli buyuksan» o'quv materiali, muallif Abdulla Oripov nomi yoziladi.

1. She'rni o'qish o'rganishga o'quvchilarni tayyorlash.

— Biz qanday davrda yashayapmiz? — Istiqlol sizga nima berdi? (Biz XXI asrda mustaqil O'zbekiston quchog'ida yashayapmiz.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Undagi xalqlar ahil-inoq yashaydilar. Biz tinch mamlakatda bilimlarimizni boyityapmiz. Shod va baxtli hayot kechiriyapmiz).

A) *Lug'at ishi.*

D) *Istiqlol* degan so'zning ma'nosini izohlang.

Istiqlol deganda nimani tushunasiz?


Iqbol so'zi qanday ma'noni bildiradi?

— She'rni kim yozgan ekan?

— Abdulla Oripov haqida nimalar bilasiz?

O'quvchilarning javobi doskaga yozib boriladi.

2. Asar bilan tanishtirish. O'qituvchi she'rni yoddan ifodali aytib beradi.



 3. *She'r yuzasidan dastlabki suhbat:* — Shoир she'rida kim-larga murojaat qilyapti? — Farzandlar hayotni kimlardan o'rGANADI? — Shoир nima uchun «Iqboli buyuksan» deyapti?

O'qituvchi: Shoир she'rni sizlarga — O'zbekistonning asl farzandlariga murojaat shaklida yozgan. «Iqboli buyuksan» deyishga sabab Vatan hamisha farzandlarining iqbolini — baxtli kelajagini ko'zlaydi.

She'rda aytilayotgan fikrlarni o'qib o'rGANAMIZ.

4. *She'r o'quvchilarga bir marta ichda o'qitiladi so'ngra navbat bilan ovoz chiqarib o'qitiladi.*

5. *She'r matni ustida ishlash.*

— «Avvalo rahmatdir onaga. So'ng esa albatta otaga» misralari orqali nima deyilgan?

O'quvchilarning javoblarini aniqlashtirish uchun o'qituvchi hadis keltiradi: «Jannat onalar oyog'i ostidadir». So'ng izoh beradi:(Onalar

farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazadi. Shuning uchun ularga rahmat izhor qilinadi).

She'rdagi ikki misra mazmuni hadisda ham ifodalangan.Unda ota-onaga minnatdorchilik bilidirish zaruruligi ta'kidlangan.

— Keyingi ikki misrani o'qing. Bu misralarda shoir kimlarni nazarda tutgan? — Vatan barchaga barobar teng erur misrasining ma'nosini tushuntiring. Vatan boyliklaridan hamma birdek bahramand bo'ladi. Hamma o'qish, mehnat qilish, dam olish huquqiga ega. — Mehnatda qotsa ham suyaging. Hech yerga tegmasin kuraging misralarining mazmunini tushuntiring. — She'rda «farzand» so'ziga ohangdosh bo'lib kelayotgan so'zni toping. — D i l b a n d so'zining ma'nosini bilasizmi? (Dilband —dilni o'ziga tortuvchi, maftun etuvchi, siz Vatanning, ota-onalarning dilbandisiz).

Suhbat quyidagicha yakunlanadi: Qadrli bolalar! Sizlar mustaqil va ozod Vatanda yashayapsiz. Vatanimizning kelajagi sizlarga bog'liq. Uning gullab-yashnashi, bundan keyingi taraqqiyoti ko'p jihatdan sizlarning bilimingizga, odob-axloqingizga bog'liq. Vatanni sevish, milliy urf-odatlarimizni qadrlash va rivojlantirish, sidqidil-dan o'qish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishingiz lozim.

6. Ifodali o'qish musobaqasi. Sinfdag'i har bir qator bir guruh deb qaraladi. O'quvchilarning hammasi she'rni o'qiydi. Musobaqa so'ngida har bir qatorda necha o'quvchi ifodali o'qigani e'lon qilinadi va shu qator g'olib sanaladi. Musobaqani bunday tartibda yakunlash o'quvchilar guruhida bir-biriga yordam berish hissini tarbiyalaydi.

7. Tarmoqlash usulida o'quvchilarning «Vataniga munosib, iqboli farzand qanday bo'lishi zarur?» savoliga javob olinib, tarbiyaviy xulosa chiqariladi.

— Sizda shu fazilatlarlardan qaysi biri mayjud?



O'qituvchi: Demak, Vatanimiz sizlarni xalqi uchun xizmatini ayamaydigan, sog'lom farzandlar bo'lib yetishishingizni istaydi.

8. Test yechish. (mavzuga oid testlar har bir bo'lim so'ngida berilgan). Test o'qitish yo'li bilan tekshiriladi.

9. Uyga vazifa. She'rni yod olish. «Mening orzularim mavzusida 4—5 gapli matn tuzib kelish. «Baxtli bolalik» mavzusida rasm chizish.



MAVZU. GULLA, YASHNA, HUR VATAN!

O'quv materiali. Assalom, Neksiya! Erkin Malikov.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti haqidagi tushunchalarini boyitish. «Neksiya», «Tiko», «Damas», «Matiz» avtomashinalari haqida ma'lumot berish.

2. O'quvchilarda dunyoga mashhur bo'lgan shunday avtomobilarni ishlab chiqarayotgan Vatandan faxlanish tuyg'usini uyg'otish.

3. Nutq boyligini oshirish, bog'lanishli nutqini o'stirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, ilmiy-ommabop asar o'qish darsi.

Dars metodi. Izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash metodi.

Dars jahozi. Avtomobillar rasmi, aftomobil zavodining ishlab chiqarish faoliyati tasvirlangan rasm.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash. 1. Suhbat uchun savollar: Uyga kimning she'ri yod olishga berilgan?

— Abdulla Oripov haqida nimalarni bilasiz?

— She'r nima uchun «Iqboli buyuksan» deb nomlangan?

— She'rdagi qaysi so'zlarning ma'nosini o'rgangan edik?

2. **She'rni yod aytirish** (yod olmagan o'quvchilarga o'qitiladi).

3. **She'r matni yuzasidan suhbat.** — She'rning dastlabki ikki misrasining ma'nosiga doir qaysi had isni o'rgangan edik? Yod aytинг. — Siz hayotni kiplardan va nimalardan o'rganasiz?

4. O'tilgan mavzuni xulosalash va o'quvchilar bilimini baholash.


II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. Asarni o'qishga o'quvchilarni tayyorlash.

Aqliy hujum. O'zbekiston yo'llarida qaysi mashinalar qatnaydi?

Qaysi mashinalar kishilar mehnatini yengillashtiradi?

O'quvchilar javobi doskaga yozib beriladi?



- Ularning qaysilari avtomobillar guruhiga kiradi?
 - Qaysi avtomobillar O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqda?
 - Tiko, Neksiya, Damas, Matiz ishlab chiqarilgan.
- Savol-javob orqali o'quvchilar fikrlarining to'g'ri va noto'g'riliгини bilib oladilar.

Doskaga mavzu va muallif nomi yoziladi va o'quvchilarning muallif haqida oldingi darsda olgan bilimlari so'raladi.

O'qituvchi: O'quvchilar, “Assalom, Neksiya” asarida nimalar haqida hikoya qilingan?

2. **Matn bilan tanishtirish.** Asar matnini o'qituvchi o'qib beradi.

3. **Asar yuzasidan dastlabki suhbat.** Asar nima haqda ekan? Mashina zavo'di qaysi davlatlarning hamkorligida qurilgan ekan? Zavo'd qurish haqida qachon qaror qabul qilingan? Zavo'd qaysi yildan qurila boshlangan? Neksiya, Tiko, Damas avtomobilari qaysi yili dunyo yuzini ko'rди?

4. **Ichda o'qish. Topshiriq.** Matnni ichingizda oqing. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni daftaringizga yozing.

5. **Lug'at ishi.**
Loyihalash — bino, inshootlar, mashinalarni qurish, tiklash — uchun ishlangan chizmani tuzmoq.

Konveyr — ishlanayotgan narsalarni bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga yetkazib, to'xtovsiz aylanib turadigan maxsus moslama.

Kapot — turli mexanizmlarning changdan, namdan saqlab turadigan, ochilib yopiladigan temir qopqog'i.

Qoliplash — qolipga solmoq.

Kuzov — avtomashinalarning odamlar yoki yuk joylashadigan qismi

6. Matnni qismlarga bo'lib o'qitish. Topshiriq.

— Bolalar, matnni o'qiyotgan vaqtingizda sanalarni esda olib qoling, ishlar nimalar orqali bajarilishini yodda tuting.

1-, (2-, 3-) qismni o'qing va mazmunini qayta hikoyalab ber-ning.

7. Matnning 2-qismi ustida ishlash. Matnning 2-qismida mu-rakkab jarayonlar ifoda etilgani, turli atamalar mavjudligi uchun uning ustida quyidagicha suhbat o'tkaziladi.

Suhbat davomida avtomobil ishlab chiqarilayotgan jarayon tas-virlangan rasmlar ilib qo'yiladi:

— Matnning 2-qismida zavo'd nimaga o'xshatiladi?

— Avtomobil ishlab chiqarishda nimalardan foydalanilar ekan? (Ro'bot, avtomat va yarim avtomatlardan).

— Ishchilar ularning ishini nima orqali boshqarib turar ekan?

— Mashinaning birinchi nimasi yasaladi?

— Demak, mashina qanday usulda yaratilar ekan? (Konveyr usulida).

O'quvchilar matnni qayta-qayta o'qib, savollarga javob topadilar.

8. Matnni to'liq qayta hikoyalash.

Buning uchun doskaga quyidagi reja osib qo'yiladi.

Reja.

1. O'zbekiston va Koreya qo'shma korxonasining tashkil etilishi.

2. Avtomobil ishlab chiqarish jarayoni.

3. Eng arzon va qulay avtomobillar.

Reja o'qish daftarlariiga yozdiriladi.

9. Umumlashtiruvchi suhbat.

— 1996-yil qanday zavo'd ishga tushirildi?

— Zavo'dda qanday mashinalar ishlab chiqariladi?

— O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mashinalar boshqa avto-mobillardan qanday farq qiladi?

10. Tarbiyaviy xulosa chiqarish.

— Rivojlanayotgan O'zbekiston sanoatini, dunyoga mashhur mashinalari haqidagi matnni o'qib-o'rganish davomida sizda qanday orzular paydo bo'ldi?

— Siz kelajakda qaysi kasbni egasi bo'lmoqchisiz?

11. O'quvchilarning faoliyatini baholash.

 **12. Uyga vazifa.** Matnni o'qish va qayta hikoyalashga tayyorlan-

ish, o'zлари орзу qilgan mashina rasmini chizib kelish. Shuningdek, «Istiqlolim — istiqbolim» mavzusida rasmlar chizib kelish. Keyingi darsda rasmlar ko'rgazmasi tashkil etilishi e'lon qiliлади.



MAVZU. MUSTAQILLIK — SHARAF-SHONIM

«Istiqlolim — istiqbolim» bo'limi yuzasidan umumlashtiruvchi dars.

Dars maqsadi. 1. «Istiqlolim — istiqbolim» bo'limi yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarni sistemaga solish.

2. O'quvchilarning bo'lim yuzasidan olgan bilimini takrorlash, umumlashtirish.

3. Bo'lim yuzasidan egallagan bilimlarning, hayotdagи ahamiyatini tushunishlariga, mustaqillik buyuk ne'mat ekanligini anglashlariga erishish.

Dars turi. Umumlashtiruvchi dars.

Dars metodi. Suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihози. «Istiqlolim — istiqbolim» bo'limini o'rganishda qo'llangan rasmlar va o'quvchilar chizgan rasmlar. Test topshiriqlari.

Darsning borishi.

Sinf o'quvchilari ikki guruhgа bo'linadi. 1-guruh ilmiy-om-mabop asarlar ustida ishlaydi. Guruh nomi: «Mustaqil yurt farzandлari».

2-guruh sahna va she'riy asarlar ustida ishlaydi. Guruh nomi «Istiqboli porloq bolalar».

O'qituvchi har bir guruh vakillari uchun savol-topshiriqlar tuzadi va uni oldindan o'quvchilarga berib qo'yilishi mumkin. Savol-topshiriqlar dars vaqtida konvertda guruh sardoriga beriladi. Topshiriqlarni o'quvchilar darsda jamoa bo'lib bajaradilar.

1-tur topshiriq. 1-guruh uchun. «Mangulikka tatigulik kun» asari yuzasidan savollar tuzing va 2-guruh a'zolaridan javob oling.

2-guruh uchun: «O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi» sahna asari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzing va 1-guruh a'zolaridan javob oling.

O'quvchilar taxminan quydagicha savollar tuzadilar.

1-guruh a'zolari: 1. 1991- yil 31- avgust nima uchun «Mangulikka tatigulik kun» deyiladi. 2. Mustaqillik sharofati bilan biz qaysi allomalarimizni tanib oldik? 3. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda nimalar rivoj-

landi? 4. Mustaqillikka erishgach, O'zbekistonda paxtadan tashqari nima ekila boshlandi? 5. Asakada qanday zavo'd qurilgan? U nimalar ishlab chiqarmoqda?

2-guruh a'zolari. 1. O'zbekiston xalqining huquqi, burchi va vazifasi qaysi kitobda o'z ifodasini topgan? 2. Konstitutsiya mamlakatimizning ni-masini ifodalaydi? 3. «O'zbekiston qonuniy davlat» gapining ma'nosini tushuntirib bering. 4. «Istiqboli buyuksan» she'rini yod aytib bering.

Guruhlarni 1-tur bo'yicha baholash.

2-tur topshiriq. Berilgan she'rni ifodali o'qing va uning nima haqida ekanini aytинг.

1-guruh uchun.

Ajdoddardan meros bo'lib qolgan tuproq,
Bobolarning qon va teri tomgan tuproq.
Qizg'aldoqlar ochilganda qilmay kanda,
Qir, adirlar gulxan bo'lib yongan tuproq,
To'kin-sochin dasturxonni solgan tuproq.

(Tursinboy Adashboev.)

2-guruh uchun;

Alla bo'lib jaranglagan	Bobur Mirzo she'ridan
Ona tilim — jon-u dilim.	Rang va ohang olgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan,	Shunday tildan tonar bo'lsam
Merros bo'lib qolgan tilim	Yoki o'gay sanar bo'lsam,
Qiyma-qiyima bo'lsin tilim.	
Ona tilim — jon-u dilim.	

(Tursunboy Adashboev.).

3-tur topshiriq. «Zinama-zina» o'yini. Shohsupaga birinchi chiqqan guruuh unga «O'zbekiston bayrog'ini» o'rnatadi. Sxema.

1-guruh uchun savol-topshiriqlar: 1. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikka erishdi? 2. O'zbekistonning rivojlanib borayotganini asoslab bering. 3. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini ta'riflab bering. 4. Istiqlolni ulug'lashimizning sababi nimada deb bilasiz?

2-guruh uchun savol-topshiriqlar: 1. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» gapini kim aytgan? O'zbekistonning buyukligini qanday izohlaysiz? 2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan? 3. O'zbekiston Respublikasi Gerbini ta'riflab bering. 4. Mustaqillik o'zbek xalqiga qanday erkinliklar berdi?

4-tur topshiriq. 1. Konstitutsiyadan yod organ moddalariningizdan aytib, uning ma'nosini izohlab bering. 2. «Istiqlolim — istiqbolim» mavzusida tuzgan 5-6 gapli matningizni o'qing yoki ijod etgan

she'ringizni ayting. 3. «Istiqlolim — istiqbolim» mavzusida chizib kelgan rasmlar ko'rgazmasini namoyish qiling.

5-tur topshiriq. Ifodali o'qish musobaqasi. O'qituvchi bo'limdagi asarlardan belgilab kelgan parchalarini o'qitadi. Masalan: «Mangulikka tatigulik kun» asaridan bug'doy haqidagi parchani ifodali o'qing. Shu asardan O'zbekistondagi yer-mulk egalariga bildirilgan istaklarni ifodali o'qing. Avtomobil zavo'dini tashkil etilishi haqidagi parchani ifodali o'qing.

6-tur. Test yechish. Bo'lim yuzasidan testlar ilova qilinadi.

Guruhlarning har bir tur topshiriqlari bo'yicha to'plagan ballari e'lon qilinadi. Guruhlarda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanaadi.

Darsga yakun yasash.

7-tur topshiriq. Krossword yechish. Krossword ikkala guruhga beriladi, birinchi yechgan guruh g'olib sanaladi.

Bo'yiga.

1. Mustaqillik so'ziga ma'nodosh so'z.
2. O'zbekiston ramzi.
3. Chaqaloq belanadi-gan narsa nomi.
4. Eng mo'tabar zot.
5. Farzandiga ona ayt-gan qo'shiq.
6. O'zbekiston ramzi.
7. Madhiyaga kuy basta-lagan kompozitor.
8. Kalendrar so'ziga ma'nodosh so'z.
9. Yulduzlar ilmi bilan shug'ullangan olim.
10. Davlat qomusi.
11. Avtomobil nomi.
12. Avtomobil zavo'di joylashgan shahar.
13. Avtomobil nomi.

Javoblar to'g'ri topilsa, shu bo'limda yod olingan she'r nomini o'qiyisz.
(Iqboli buyuksan)

O'quvchilarni rag'batlantirish.



O'ZBEKISTON – VATANIM MANIM (8-soat)



Bu bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarning Vatan haqidagi oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslangan holda bilim beriladi. O'quvchilar O'rta Osiyo respublikalari va O'zbekistonning barcha viloyat, tumanlarini, u yerdagi kishilarning yashash sharoitlari va turmush tarzini televizor orqali, kitoblar orqali bilib oladilar, undan tashqari o'zi yashab turgan shahar yoki qishloqdan tashqariga sayohatlarga chiqish orqali boshqa millat bolalari bilan do'stalshgan bo'lishlari mumkin.

O'quvchilar O'zbekistonning turli shahar va qishloqlarida bo'lib, u yerdagi go'zal tabiat manzaralarini tomosha qilganlar. "O'zbekiston — Vatanim manim" degan mavzudagi ilk darslar dayoq o'qituvchi o'quvchilar onggi va shuuriga Vatanning bir siqim tuprog'idan tortib, katta-katta boyliklarigacha barcha-barchasi aziz va muqaddas ekanligi haqida bilim berishni maqsad qilib oladi.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, muqadas Hadisi shariflarda qayd qilingan "Vatanni sevmoq iyomondadir" yoki "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" degan fikrlar naqadar buyuk haqiqat ekanligini his qiladi. O'zbekiston xalqi va bu xalqning mehnatda topgan yutuqlari, qalbi pok kishilarning mehnat faoliyatlari bilan yaqindan tanishtib boradi.

Bo'limda berilgan Zafar Diyorning "Serquyosh o'lka", A.Oripovning "Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi", M.A'zamning "Mardlik va aql yorug'ligi" kabi she'rlerida Vatan va do'stlik tarannum etilganiga o'quvchining diqqatini qaratish zarurligi ko'zda tutilgan.

Bo'lim materiallari quyidagicha rejalashtiriladi.



MAVZU: SAXOVATLI DIYOR

O'quv materiali. Serquyosh o'lka. Zafar Diyor.

Darsning maqsadi. 1. O'quvchilarni serquyosh o'lka tabiatini va uning in'omlari bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarni Vatanimizning boyliklari bilan faxrlanishga o'rgatish.

3. O'quvchilar nutqiga beg'ubor, navo, madh, sharbat, tortiq so'zlarini kiritish.

4. Ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. Yod olish malakalarini hosil qilish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, lirik she'r o'qish darsi.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Dars metodi. Izohli o'qish, suhbat, bahs-munozara elementlari va mustaqil ish metodi.

Dars jahozi. O'zbekistonning bog'-rog'lari, qir-adirlari tasvirlangan manzarali rasmlar, Zafar Diyor surati, shoir haqidagi ma'lumot.

Darsning borishi.

4. Yangi mavzuni o'rganishga o'quvchilarini tayyorlash. So'ng o'qituvchi quyidagi she'riy parchani yod aytadi:

O'tib ketdi qishning sovuq	Dalalarga, bog'larga.
Ham bo'ronli kunlari,	Quchoq-quchoq yog'du sochar,
Ortda qoldi oy, yulduzsiz,	Adirlarga, tog'larga
Tim qorong'u tunlari...	Bezanishar dala — qirlar
Endi quyosh ko'proq boqar	Chechak taqar o'tloqlar...

— Shu she'rni o'qiganmisiz? — Bu she'r nima haqda? — Qaysi yurtning bahori, tabiatи haqida? — Bu she'rni qaysi shoir yozgan?

O'qituvchi o'quvchilar javobini aniqlashtirib to'ldiradi.

Bu she'rni 3-sinfda o'qigansiz. Uni shoir Zafar Diyor yozgan. Bu she'r O'zbekiston tabiatи, bahori haqida ekan, to'g'ri fikrlarni aytdingiz.

— Zafar Diyorning yana qaysi she'rlarini bilasiz? («Archa qo'shig'i», «Binafsha», «Qushlar haqida qo'shiq», «Kel, uchaylik shimolga» she'rlari).

— Zafar Diyor haqida nimalar bilasiz? Shoirning portreti doskaga ilib qo'yiladi.

O'qituvchining hikoyasi. Zafar Diyor Namangan viloyatining Chust tumanida tug'ilgan. Ota-onasi dehqon bo'lgan. Kambag'allikda kun kechirishgan. Zafar Diyor to'rt yoshga to'lganda uning oilasi Toshkentga ko'chib keladi. Onasi bosmaxonada ishlaydi.

O'zi eski mabtabda o'qiydi. Keyin Toshkentdagи 7-bolalar uyida tarbiyalanadi.

Shoirning birinchi she'rlar to'plami 21 yoshida bosilib chiqadi

To'plamlari ko'rsatiladi. She'rlaridan parchalar o'qib beriladi.

— Bolalar, bugun shoirning qaysi she'rini o'qir ekanmiz?

II. Anglash bosqichi. Maqsad. «Quyoshli o'lka» she'ri orqali O'zbekiston tabiatini haqidagi tushunchalarni boyitish, tabiatini sevish va qadrlashga o'rgatish.

Metod. Suhbat, mustaqil ish metodi.

1. She'r bilan tanishtirish. O'qituvchi she'rning nomini, mualifini doskaga yozadi va she'rni yod aytib beradi.

2. She'r yuzasidan daslabki suhbat. — She'r sizga yoqdimi?

— She'r nima haqda ekan? — She'r kimning tilidan aytildi?

— Shoир Vatan tabiatini qanday tasvirlagan?

3. Ichda o'qish. Topshiriq. — She'rni ichingizda o'qing. Uning qaysi to'rtligi sizga juda yoqqanini aytasiz. — She'r matnidagi ma'nosi sizga tushunarsiz bo'lgan so'zlarni daftaringizga yozing.

Topshiriqlarni qanday bajarganliklari aniqlanadi. O'quvchilar o'zlariga yoqqan to'rtliklarni o'qib beradi. O'qituvchi «Nima uchun yoqdi?» savollariga javob oladi.

4. Lug'at ishi.

Madh — maqtov

Navo — kuy, qo'shiq, ashula

Tortiq — sovg'a

Sharbat — mevalarning suvi

Dong'i — dovrug'i, nomi

Beg'ubor so'ziga ma'nodosh so'z toping (toza, g'uborsiz, tiniq).

5. She'rni qismlargacha bo'lib o'qitish.

1. She'r matni ustida ishslash. She'r matnining 1-qismi *1-o'quvchiga* (8 qatori) o'qtiladi. O'qilgan qism yuzasidan savol-javob o'tkaziladi:

— Shoир o'z Vatani, uning havosini qanday ta'riflagan?

(Vatanimning ta'rifi, dong'i butun olamga yoyilgan. Uning havosi sof, toza, beg'ubor. Bu odamlarning ko'nglini shod etadi.)

2-o'quvchiga she'rning 2-qismi (12 qatori) o'qtiladi.

— Bu bandlarda shoир Vatanimiz qir-adiri va bog'larini qanday ta'riflagan?

(Qir-adirlar ko'm-ko'k o'tlar bilan, gul-lolalar bilan qoplangan.

— Gulzor va bog'larda bulbullar gulni madh etadi. Bundan ko'ngillarimiz zavqlanadi.

— Bog'larida sharbatga to'la mevalar g'arq pishgan.

Ularni har qadamda uchratasiz, gullar yo'lingizga to'shalib yotadi, - deydi shoир.)

3-o'quvchiga she'rning oxirgi 8 qatori o'qtiladi. Shoир Vatanimning yil fasllarini qanday maqtaydi?

(Har bir fasl bir-biridan yaxshi. Har bir fasl o'z ne'matlarini xalqimizga tortiq qiladi.)

— Nima uchun shoir O'zbekistonni «Serquyosh o'lka» deb nomlagan?

(Chunki hamma fasllarda ham quyosh nur sochib turadi. Odamlarga issiq taftini ulashadi.)

O'quvchilarning fikri to'ldiriladi. O'lcamizda kuz fasli hukmron, bahorda boshlangan mehnatning natijasi o'zini namoyon qilmoqda. Bu jannatmakon o'lkanning bir tomoni tog', qir-adirlar, lolazor bo'lsa, bir tomoni gulzor-u bog'lar. Ular shirin-shakar mevalarga boy. Shoirimiz Zafar Diyor yurtimizning ana shu saxiyliklarini «Serquyosh o'lka» she'rida madh etgan.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad. O'quvchilarning she'r mazmunini ongli o'zlashtirib olganliklarini va ularni ifodali o'qish malakalarini aniqlash.

Metod. Suhbat.

1. She'rni qismlarga bo'lib ifodali o'qish musobaqasi.


O'quvchilarga o'qiganda har bir satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shart emasligi, ritmik to'xtamda ovozni pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi eslatiladi. Natijada o'quvchilarda asar mazmun mohiyati bilan birga she'r iyutqning o'ziga xosligi haqida ham ilk tushuncha hosil bo'ladi.

2. Rasmlar ustida ishlash. — Serquyosh o'lcamizning nomi nima deb ataladi? — She'r dan rasmlarga mos to'rtliklarni topib o'qing.

3. Krossvord.

Bo'yiga.

1. O'zbekistondagi asosiy millat nomi.
2. Bir onadan yuz bola, yuzovi ham bo'z bola. (*Uzum*)
3. Dum-dumaloq shakli bor, Palovda obro'yi bor. (*Behi*)
4. Zafar Diyor she'ri nomining birinchi so'zi. (*Serquyosh*)
5. Shu she'rning ikkinchi so'zi. (*O'lka*)
6. Yer tagida oltin qoziq, u yammaga bo'lar oziq. (*Sabzi*)
7. Boshimizdag'i ko'k gum-baz nomi. (*Osmon*)
8. Oppoq sochli boshlari, daryo bo'lar yoshlari. (*Tog'*)
9. Meva nomi. (*Nok*)
10. Bug'doydan tayyorlanadigan dasturxon ko'rki. (*Non*)



11. Oina emas, jimirlar, tek turolmas. (*Suv*)
12. Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha. (*Anor*)
13. To'ni silliq tuki yo'q, ichi qizil po'ki yo'q. (*Tarvuz*)
14. Qir so'zi bilan ko'p qo'llanadi. (*Adir*)
15. Poliz ekini. (*Qovun*)
16. Guli bitta yarim oy,boshginamdan olar joy. (*Do'ppi*)
17. Rangi har xil, nomi bir xil. (*Qalam*)
18. Qishda suv yuzini qoplaydi. (*Muz*)
19. Birlashtirib kiyimni, issiq tutadi sizni. (*Tugma*)
20. Ikki ajib qulog'l bor,biri tinglar,biri so'zlar. (*Telefon*)
21. Tikuvchiga o'rtoq o'zi,bittagina jajji ko'zi. (*Igna*)
22. Yoz,kuz bo'yи chirqillab,don tashiydi pirillab. (*Chumchuq*)

Eniga. Bo'yiga katakchalarni to'g'ri to'Idirsangiz,siz o'gangan bo'lim nomi kelib chiqadi. (*O'zbekiston-Vatanim manim*) Krossvord vaqt imkoniyatiga qarab sinfda yoki uyda bajariladi.

4. Test yechish.

5. Darsda o'rganilganlar asosida tarbiyaviy xulosa chiqarish.

— Tabiat qo'ynida o'zingizni qanday his etasiz? — Odamlarning Vatanining tabiatini sevish bilan cheklanishlari yetarlimi? Inson unga qanday munosabatda bo'lishi lozim deb hisoblaysiz?

 7. *Uyga vazifa.* She'rni yod olish.

8. *O'quvchilarni baholash.* Doskaning bir tomoniga ilingan o'quvchilar familiyasi va ismining to'g'risiga sariq (5 ball), qizil (6 ball), ko'k (7 ball) va yashil (8-10 ball) rangdagi doirachalar yopishtirib boriladi.



MAVZU: TOSHKENTIM – ONAM

O'quv materiali. Toshkentnoma. Maqsud Shayxzoda.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning Toshkent haqidagi bilimlarini aniqlash, yangi ma'lumotlar bilan boyitish.

2. O'quvchilarda Vatanga muhabbat uyg'otish, fidoyi insonlarga xos xususiyatlarni shakllantirish..

3. Mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, bog'lanishli nutqini o'stirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, qasida o'qish darsi.

Darsning jihozi. M.Shayxzoda portreti, Toshkent manzarasi tasvirlangan rasmlar.

Darsning borishi.

I. Da'vat bosqichi. Maqsad: O'quvchilarda mavzuni o'rganish va izlanishga rag'bat uyg'otish.

Metod. Aqliy hujum, izlanish, suhbat metodi.

1. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash.

- Shoir “Serquyosh o'lka” she'rida Vatanimizni qanday ta'riflaydi? — She'r nima uchun “Serquyosh o'lka” deb nomlangan?
- She'rda qaysi mevalar ta'riflanadi? — Vatanimizni ta'riflashda qaysi so'z va iboralardan foydalanilgan? Vatan deganda nimani tus-hunasiz? — She'rni yod aytинг.

2. O'quvchilarни yangi mavzuga tayyorlash. Aqliy hujum. Toshkent haqida nimalar bilasiz? O'quvchilarning javobi umum-lashtiriladi. Bugun qaysi shahar haqida asar o'qir ekanmiz? Savoli bilan dars mavzusi aniqlashtiriladi.

3. Shoir haqida ma'lumot. Maqsud Shayxzoda o'zi to'g'risida shunday deydi:

Men «Alifboni egallamasdan oldin she'r yaratganman, ... bu chin gap. Mening otam ... bolalarga she'r o'qib berar va ko'pincha ayrim so'zlarni aytib berar, shu so'zga mos qofiya topishni talab qilar edi...».

(O'qituvchi shu o'rinda «Men so'z aytaman, siz ham ohangdosh so'z topishga harakat qiling: bosh, tosh ...» desa o'quvchilar davom ettiradi: mosh, dosh, shosh.)

Men besh yasharligimda 8-10 misradan iborat bir «Masal» to'qiganim esimda... 21 yoshimda «Sharq haqiqati» gazetasida birinchi she'rim bosilgan», - deydi shoir.

M.Shayxzoda Ozarbayjonda tug'ilgan. Lekin umrining oxiriga-chá Toshkentda yashagan.

II. Anglash bosqichi. Maqsad. O'quvchilarni «Toshkentnoma» asari bilan tanishtirish, mustaqil o'qishga, mulohaza yuritishga, o'zaro muhokamaga o'rgatish, o'rganilayotgan asar mazmun-mohiyatini o'quvchilarning to'liq anglab etishlariga erishish.

Metod. Mustaqil ish, aqliy hujum, kichik guruhlar bilan ish-lash.

1. Doston bilan tanishtirish. O'qituvchi: «Eshiting. Shoir Toshkent haqida nimalar deb yozgan ekan?» — deb matnni ifodali o'qib beradi.

2. Matn ustida ishlash. I-topshiriq. Berilgan she'riy parchani ifodali o'qishga tayyorlaning.

2- topshiriq. O'qigan matn parchasidagi ifoda etilgan ma'lumotlarni bilib oling va izohlashga tayyorlaning.

— Fikringizni asoslashda asar matnidan misollar keltiring. 2-topshiriq bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini taxminan quyidagicha ifodalaydi. Namuna.

1-guruhi: M. Shayxzoda Toshkent ob-havosini Toshkentda 3 fasl yoz: bahor shoshib kelgan yoz, yoz fasli asl yoz, kuz kechikkan yoz deb izohlaydi. Shoir yoz atrofidagi qo'shni fasllarga suqilib kirib oladi, har bir fasldan bir necha oyni boj qilib to'latadi. Bu quyidagi misralarda ifodalangan: *Go'yo yoz zo'rlik qilib O'ng-u so'lni talabdi. Qo'shnilar siqilib Unga bojlar to'labdi.*

2-guruhi: Yoz fasllarga o'z hukmini o'tkazganidan qishning ham zarbi, shiddati kichraygan, qish o'zining oylik muddatini ham arang, zo'rg'a o'taydi deb Toshkentning ob-havosi issiq deb aytmoqchi bo'lgan. Toshkent xalqi yashashidan mamnunligini quyidagi cha ifodalaydi:

Toshkent xalqi kuylaydi,
Yettidan yetmishgacha
Naqoratni bog'laydi
Oshga, ishqqa va ishga.
Yallachilar sho'x, bashang.

3-guruhi ham fikrlarini shu tarzda ifoda etadi.

Bu topshiriqlar konvertga solinib, har bir guruhga beriladi.

3- topshiriq. O'z qismingizni ichingizda qayta o'qing, ma'nosi tushunarsiz so'zlarni daftaringizga yozing

4- topshiriq. Asar matnidagi o'xhatish, jonlantirish, ko'chma ma'noli so'zlarni belgilang va izohlashga harakat qiling.

Asar yuzasidan savol-topshiriqlar tuzing.

O'qituvchi: «Toshkentnomá» asarini mustaqil o'qib o'rganishga harakat qildingiz. Endi asar yuzasidan savollarga javob bersangiz. Beriladigan savollarni qutichadan olasiz va javob tayyorlaysiz. She'rdan Toshkent ob-havosi haqidagi fikrlarni topib o'qing.

— Shoir «Osiyo qo'ynida yashil shahar bor» deganida nimaga ishora qiladi?

— She'rdan xalqimizning mehmondo'stligi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

— Og'aynilar gapida, shahar ahliman birikmalarining ma'nosini izohlang. She'rning uchinchi qismidan o'xhatish qo'llangan misralarni ifodali o'qing. Shoirning do'stlariga qarata aytgan gaplarini topib o'qing.

2. Ifodali o'qish musobaqasi. 4 ta guruhdan 2 tadan o'quvchi turib, she'r matnini ifodali o'qib beradi.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad. Asar yuzasidan berilgan savol – topshiriqlarga javob olish orqali o'quvchilar egallagan bilimlarni, mustaqil fikrlash darajasini aniqlash.

Metod. Suhbat, musobaqa metodi

O'quvchilar topshiriqlarni quyidagicha bajarishlari zarur. Namuna.

1-guruhan «Bosh, so'l, boj» so'zlarining ma'nosini izohlang (2-guruhan bajaradi). Bu so'zlarni doskaga yoziladiyoki qog'ozlarga yozib osib qo'yadi. O'quvchilar so'zlarni izohi bilan daftarlariiga yozadilar.

- So'l-chap: o'ng-u-so'l deb qo'llanganda «atrofdagi» degan ma'noni bildiradi.

- Boj – to'lov.

- Shoshgan, zo'rlik qilib talabdi, qo'shnilarini siqilib so'zları qanday ma'nolarda qo'llagan? Yozning boshqa fasllarga zo'rlik qilgan o'rirlarni topib o'qung.

- Har boji bir necha oy. Shu tufayli yoz ko'p boy misralarining ma'nosini izohlab bering.

2-guruhan: Boshqa guruh a'zolari, marhamat qilib quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlab, tushuntirib bersangiz.

 *Qandil*

- bir necha lampochkalar qo'yiladigan osma chiroq.

Shinam

- ko'r kam, ixcham, qulay.

Muhayyo

- tappa – tayyor, mavjud.

Bashang

- yasangan, bezangan.

Gapida, qo'ynida, yoziladi so'zleri qanday ma'noda qo'llanganini misollar bilan izohlab bering. (Dadam gapga bordi- ko'chma ma'no; Osiyo qo'ynida – ko'chma ma'no)

Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish: bugungi dars sizga yoqdimi? Darsda nimalarni bilib oldingiz? Toshkent haqida yana nimalarni bilishni xohlaysiz?

Dostonda o'zbek xalqining yana bir necha fazilatlari tilga olin-gan. U qaysi fazilat? Ularga munosabatingizni bildiring.

 **4. Uyga vazifa:** «Toshkentnoma» dostonidan olingan parchani ifodali o'qishga tayyorlanib kelish. «Toshkent-katta shahar» mavzusida uy inshosi yozish.

O'quvchilar guruhi va har bir o'quvchi to'plagan ball e'lon qilinishi.



MAVZU: O'ZBEKISTON – BEPOYON DIYOR

O'quv materiali. Dehqon bobo va o'n uch bolakay qissasi.
A.Oripov.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarni o'zi tug'ilib o'sgan joyi va bu yerda yashovchi kishilarning asosiy faoliyatları bilan tanishtirish.
2. O'quvchilarda vatan hissini uyg'otish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
3. O'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini, to'g'ri, ongli va ifodali o'qish sifatlarini takomillashtirish, lug'atni boyitish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Darsning metodi. Suhbat, izlanish.

Darsning jahozi. O'n uch viloyatning tarixiy va mashhur joylari tasvirlangan rasmlar. Viloyatlar haqida ma'lumotlar yozilgan plakatlar.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzu, yuzasidan o'quvchilar bilimi aniqlash va boyitish.

1. *Suhbat uchun savol – topshiriqlar:*

- «Toshkentnomा» dostonini kim yozgan?
- Shoirning «Toshkentda uch fasl yoz» deb har bir fasliga bergen ta'rifini aytинг.
- Toshkentni qanday shahar deb ataydi?
- Parchada o'zbek xalqining qanday sifatlari madh etiladi?
- Nima uchun “Toshrent- non shahri”, “Toshkent – Tinchlik shahri” dyeiladi?
- Azim shahar Toshkent haqida yana nimalarni bilasiz?

2. *Sher'ni qismlarga bo'lib ifodali o'qitish.*

3. *Tanlab o'qitish.*


- She'rdan o'zbek xalqining mehmondo'stligi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.
- Yoz manzarasi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. *Asarni o'qishga o'quvchilarni tayyorlash.*

Asar muallifi Abdulla Oripov haqida suhbat. 4-sinf o'qish darslarida shoir Abdulla Orirovning qaysi she'rlarini o'qib o'rgandik? Bu she'rlar nima haqida edi? Shoirning yana qaysi she'rlarini bilasiz? A.Oripov qayerda tug'ilgan? O'zbekistonda nechta viloyat bor? Bu

savolga o'quvchilar javobi tarmoqlash usulida yoritib va to'ldirilib boriladi O'quvchilar viloyatlarni to'liq ayta olmasalar, ularni asarni o'qish davomida topishlari va yozishlari aytildilar



Doskaga asar nomi «Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi» yoziladi

Aqliy hujum.

— Asar nima uchun «Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi» deb nomlangan? Asar nima haqida bo'lishi mumkin?

O'qituvchi: Bu savollarga qaysi javobning to'g'riligini asarni o'qib bilib olamiz.

2. *Asar matni bilan tanishtirish. Asar oldindan tayyorlangan o'quvchilarga rollarga bo'lib o'qitish orqali tanishtiriladi.*

3. *Asar yuzasidan dastlabki suhbat.* — Asar nima haqida ekan?
— O'zbekistonda nechta viloyat bor ekan? (Klasterni chala o'rnnini to'ldiring). — Asarda kimlar ishtirok etar ekan?

4. *Asarni o'quvchilarga qismalgarda bo'lib o'qitish.*

5. *Mustaqil o'qish mashqi. Topshiriq.* Har bir viloyatga tegishli misralarni ichingizda o'qib, klasterga yangi tarmoqlar qo'shing va uni daftarlaringizga ko'chirib oling.



6. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash. Qo'shimcha savollar: Dehqonbobo va o'n uch bolakay Moskvaga nima sababdan borgan edi, deb o'ylaysiz? O'n uch bolakay o'z viloyatlari haqida nimalarni bilishar ekan? Siz o'zingiz yashayotgan viloyat, (shahar, qishloq) haqida nimalar bilasiz? Tarmoqlashga bilgan ma'lumotlaringizni qo'shing.

7. Darsda o'rjanilganlarni umumlashdirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Bugungi o'qish darsida nima haqidagi bilimlaringiz boyidi?
- Vatan deganda endi qayerlarni tushunasiz?
- O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillari qanday yashayapti?
- Vatanga muhabbat deganda nimani tushunasiz?
- Sizning Vatan oldidagi burchingiz nimalardan iborat?

8. Uyga vazifa. Qissani ifodali o'qib berishga tayyorlanib kelish. Ota-onalaringizdan o'z hududingiz haqida qo'shimcha ma'lumotlar oling va daftaringizlagi tarmoqlashni davom ettiring.

9. Faol ishtirok etgan o'quvchilarни rag'batlantirish.



MAVZU: MARDEEK TURSIN MAYDONDA

O'quv materiali. Mardlik va aql yorug'ligi. Miraziz A'zam.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga mardlik va ilmnинг zarurligi, ilm yoshlarga barcha eshiklarni ochuvchi kalit ekanligi, ilmlni kishilar hayotda o'z o'tinlarini qiyalmay topa olishlarini tushuntirish. Mardlik tushunchalarini to'g'ri shakkantirishga erishish.

2. O'quvchilarda ilmli va mard kishilarga hurmat hissini tarbiyalash.

3. O'quvchilar lug'atini boyitish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'riy hikoya o'qish darsi.

Dars shakli. Uchrashuv darsi.

Dars metodi. Suhbat, izohli o'qish...

Dars jahozi. Miraziz A'zamning portreti, sport bilan shug'ullanayotgan bolalar va qizlar rasmi, kutubxonada va uyda kitob o'qib o'tirgan o'quvchilar rasmi, mashhur olimlar portreti.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash, mustahkamlash va boyitish oldingi darslardagi kabi uyushtiriladi.

1. *Uy vazifasi yuzasidan og'zaki savol-javob.* — «Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi» asarini kim yozgan? — Abdulla Oripovning yana qaysi asarini o'qib o'rgangansiz? — Abdulla Oripov haqida nimalar bilasiz? — «Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi» kimlar haqida? — Bu asar orqali siz nimalarni bilib oldingiz? — Dehqonbobo o'n uch bola bilan nima haqida suhbatlashdi? — O'zbekistonda hozir nechta viloyat hor?

Daftaringizdagi tarmoqlashdan foydalanib, biror viloyat haqida so'zlang.

2. *Ifodali o'qish musobaqasi.* Rollarga bo'lib o'qitiladi va qaysi o'quvchi to'g'ri va ifodali o'qigani aniqlanadi.

Bir o'quvchi muallif so'zlarini, 2-o'quvchi bolaning so'zini, 3-o'quvchi boboning so'zlarini, qolgan har bir o'quvchi biror viloyat vakilining gapini o'qiydi.

3. *Tanlab o'qish.* — Dehqonboboning Vatan haqidagi gaplarini topib o'qing.

- Lolaning gapini topib o'qing.
- Matmurodning gapini topib o'qing.

4. *Asar yuzasidan yakunlovchi suhbat.*

- Shoir Dehqonbobo orgali kimlarni birlashtirdi? Shoir bu asari orqali nima demoqchi?
- Vatanimiz haqida yana nimalarni bilishni istaysiz?

II. Yangi mavzu ustida ishslash.

Doskaga Miraziz A'zam va mashhur olimlar, shoir va yozuvchilar portreti ilinadi.

Sahna ko'rinishi, sahnaga Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiy, Alisher Navoiy chiqib kelishadi. Ular o'zlarini haqida navbatma-navbat ma'lumot berishadi.

Beruniy: Men bolalik chog'imdayoq o'z yoshim va sharoitimga qarab, imkon boricha ko'proq bilim olishga intildim. ... biz turadigan joyga bir Yunon ko'chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug'lar va mevalarni olib borib unga ko'rsatar va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so'rab, nomini yozib qo'yар edim. Hamma sohaga oid ilmlarni va hind tilini yaxshi o'zlashtirdim.

Ibn Sino: Men kechalari kam uxlardim, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsalar bilan shug'ullanmas edim. Ana shu zaylda hamma bilimlarni mustahkam egallab oldim.

Men tibbiyotga oid — tabobat ilmiga oid kitoblar yozdim. U bilan butun yer yuziga tanildim.

Firdavsiy: «Qudratilidir kimki bo'lsa bilimdon, bilimdan keksalar dili navqiron».

Alisher Navoiy: Oz-oz o'rganib donno bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Men Mir Alisher 5 yoshligimda Farididdin Atorning «Lison ut tayr» asarini yod olgan edim. Keyinchalik o'zim «Mantiq ut tayr» asarini yozdim.

O'qituvchi: Siz yana qaysi olimlarni bilasiz? Ilmli bo'lish uchun nima qilish kerak? Firdavsiy bobongizning gapini izohlab bera olasimi? Alisher bobongiz nima demoqchi?

Ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilatdir. har bir kishi ilm olishga intilishi, bilimlarni tinmay o'zlashtirishi, jonajon Vatanimizning gullab-yashnashi yo'lida xizmat qilishi lozim.

— O'quvchilar, bugun o'qimoqchi bo'lgan asarimiz nima haqidagi ekan? O'quvchilar she'r va shoirning nomini o'qiydi.

She'rning va shoirning nomini o'qing.

— Miraziz A'zam haqida nimalarni bilasiz?

O'qituvchi hikiyasi. Miraziz A'zam 1936 yilda Toshkentda tug'iladi. Otasi urushda halok bo'ladi. Onasi qo'lida tarbiyalangan bo'lajak shoir mакtabda yaxshi o'qiydi. Uning bolalar uchun «Yerga dovrug' solamiz», «Bir cho'ntak yong'oq», «Qirq savolga qirq javob», «Yer aylanadi» kabi ko'plab she'riy to'plamlari e'lon qilingan.

2. She'riy hikoya matni bilan tanishtirish. O'qituvchi she'rni o'qib, ayrim o'rinalarini yoddan aytib beradi.

3. She'r mazmunini o'quvchilar qay darajada anglab olganchalarini aniqlash.

— She'r sizga yoqdimi? Nima uchun?

— Qanday savol shoir qalbiga og'ir tegadi?

— O'g'il bola qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak ekan?

4. *She'rni ichda o'qish. Topshiriq.*

— She'rni ichingizda o'qing. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni, iboralarni daftaringizga yozib boring.

5. *Lug'at ishi.*

O'git — nasihat

Yuragida qo'r bo'lsin — yuragida o'ti bo'lsin

holiga yig'lar maymun — ahvoli yomon bo'ladi, yomon holatga tushadi

6. *She'rni to'rtliklarga bo'lib o'qitish.*

7. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash orqali asar g'oyasini ochish.

8. *She'rni ifodali o'qish musobaqasi.* Musobaqa qatorlararo o'tkaziladi.

9. Yangi o'rganilgan asar yuzasidan o'quvchilar bilimini umumlashtirish va tarhiyaviy xulosa chiqarish. — She'rt orqali shoir nima demoqchi? — Siz shoirning fikriga qanday munosabat bildirasiz? — Siz o'zingizda qaysi sifatni ko'proq bo'lishi uchun intilasiz? Nima uchun?

10. Uyga vazifa. She'mni ifodali o'qishga tayyorlanib kelish. Tarixda yashab, o'z ilmi va mardligi bilan elga tanilgan insonlarning nomini va o'zingiz yashayotgan hududdagi ilmli, mashhur kishilar nomini yozib keling.

11. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish.



MAVZU: QISHLOG'IMIZ XARITASI

O'quv materiali. Xarita. Normurod Norqobilov (1-dars)

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarni «Xarita» asari mazmuni bilan tanishtirish.
2. Asarning asosiy g'oyasi «Intilganga tole yor» ekanligi o'quvchilarongiga yetkazish.

3. O'quvchilarga do'stlik, o'rtoqlik tuyg'ularini singdirish. Ularda o'zлari yashayotgan Vatanga (shahar, qishlog'iga) bo'lgan muhabbat hissini tarbiyalash.

4. O'quvchilar nutqini o'stirish va o'qish malakasi: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish sifatlarini shakllantirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Darsning metodi. Izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash metodi.

Darsning jahozi. Matn mazmuniga mos rasmlar, O'zbekiston xaritasi.

Darsning borishi.

1. Asar yuzasidan suhbat. 1. Shoirning "Mardlik va aql yorug'ligi" she'rini yozishiga nima turtki bo'lgan? 2. Shoir mardlik haqida nima deydi? 3. Ilm haqidachi? 4. Shoir o'g'il bolalarning qanday bo'lishini istaydi? Nima uchun?

2. Tanlab o'qish. Shoirning "Bur o'g'lonning gapi menga og'ir hotdi" degan o'rinni topib o'qing. — Shoir mardlik uchun nima kerak deb hisoblaydi? Shu o'rinni topib o'qing. — Ilmning xosiyati ifodalan-gan o'rinni topib o'qing.

3. Ifodali o'qish musobaqasi.

4. Asar yuzasidan yakunlovchi suhbat. - Haqiqiy mardlik de-ganda nimani tushunasiz? Siz nima ushun muktabga kelasiz? Ilmli kishilsr hayotda nimalarga erishadi?

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. O'quvchilarни asarnи o'qishga tayyorlash. Xarita haqida topishmoq aytildi.

Shahari bor, odami yo'q, daryosi bor, suvi yo'q. (Xarita)

Topishmoqning javobi asosida bugungi dars mavzusi o'quvchilarga aniqlatiladi.

2. Asar muallifi haqida suhbat. N. Norqobilov kim? U haqda nimalar bilasiz?

 *O'qituvchi hikoyasi.*

Aqliy hujum. O'qituvchi: «Xarita» hikoyasi nima haqda bo'lishi mumkin?

O'quvchilar javobi doskaga yozib boriladi.

— O'zbekiston xaritasi haqida hikoya qiladi. — Xaritani bilmaydigan bola haqida. — O'zbekiston chegaralari haqida. — Xarita chizish musobaqasi haqida va hokazo.

O'qituvchi: endi asarni o'qib, kimning farazi to'g'riligini bilib olamiz.

3. Asar matni bilan tanishтирish.

O'qituvchi asarning 1-bo'limini o'qib beradi.

 **4. Asar yuzasidan dastlabki suhbat.**

— Hikoya kimlar haqida ekan?

— Samad Rasulni nima bilan qoyil qoldirmoqchi bo'ldi?

— Samadning ishi Rasulga qanday ta'sir qildi?

5. Ichda o'qish. Topshiriq. Ichingizda o'qing, quyidagi savol-larga javob bering. — Sinf rahbari Rasulni nima sababdan Samadga biriktirib qo'ydi? — Samad Rasulga chizgan xaritasi haqida nimalarni so'zlab berdi? — Qorovul bilan chegarachining farqini aytib bering. — Samad nima uchun Rasuldan arazladi. — Nochor, podayotoq, sir boy bermaslik, tap-tortmay so'z va iboralarining ma'nosini tushuntirib bering.

6. Matnni qismlarga bo'lib o'qitish.

O'quvchilarning to'g'ri, tez, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

7. Reja tuzish.

— Matnning 1-(2- 3-) qismini o'qing va undagi asosiy fikrni aytинг. Uni reja shakliga keltiring.

— Sinf rahbari Rasulni Samadga biriktirib qo'ygandi — Samad beg'araz do'st.


- Hali bizda hech kim qishlog'imiz xaritasini chizmagan — buni birinchi bo'lib men chizdim — qishloq xaritasi.
- ... buni qorovul emas, chegarachi deydilar — Rasulning noo'rin ranjishi.

Reja namunasi

1. Samad beg'araz do'st
2. Qishloq xaritasi
3. Rasulning noo'rin ranjishi

8. Reja asosida tanlab o'qish.

9. Reja asosida asarni to'liq qayta hikoyalatish.



10. Tarmoqlash usulida asar yuzasidan tarbiyaviy xulosalar chiqarish.

- Sizda shu ikki o'rtoqning qaysi xususiyatlari bor?
- Kimga o'xhashni istaysiz?

11. O'zbekiston xaritasi ustida ishlash.

— Xaritadan Toshkent (o'quvchilar yashab turgan viloyat, shahar)ni ko'rsating.

— O'zbekiston qaysi davlatlar bilan yonma-yon joylashgan (chegaradosh) (Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog'iston...)

— O'zbekistonda qaysi daryolar bor?

— O'zbekistondagi tog'larni xaritadan ko'rsating.

12. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirib yakunlash.

13. O'quvchilarni rag'batlantirish.

14. Uyga vazifa. «Xarita» hikoyasining 1-bo'limini o'qib, to'liq qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish. O'zi yashab turgan joyning xaritasini chizib kelish.



2-DARS

«Xarita» asarining 2-bo'limi ham shu dars kabi o'tkaziladi.

Matn tahvilida quyidagilar amalga oshiriladi.

1. **Ichda o'qish** – ichda o'qing va quyidagi savollarga javob tayyорlang. — Rasul qanday o'y-xayol va maqsad bilan stolga o'tirdi? — Rasul akasining qaysi gapidan hayratlandi? — Akasi Rasulga qanday maslahat berdi? — Rasul shaharlarni xaritaga qanday tushirdi? — Cho'lni qanday tasvirladi? — «Tog'li zona» degan bo'limni qanday tasvirladi? — Rasul chizgan xaritasini nima uchun «O'zbekiston» deb nomladi?

2. So'z va iboralar ustida ishlash.

Og'zing ochilib qolsin — hayron bo'lib qolgin

Qolipdan chiqqan g'ishtdek — hamma tomoni birdek silliq

Loqayd — befarq

Kashfiyat — izlanishlar natijasida yaratilgan narsa; ixtiro

Ayilday botdi — qattiq tegdi, ranjitdi

Pisanda qilmoq — oldindan biror shart qo'ymoq; ta'kidlamoq

3. **Matnga reja tuzish.** O'quvchilar bilan birgalikda taxminan quyidagicha reja tuziladi.

1. Rasulning ahdi.

2. Rasulning xarita chizishdagi qiyinchiliklari.

3. Rasulning ijodkorligi. 4. Reja asosida matn mazmunini qayta hikoyalatish.

4. Reja asosida matn mazmunini qayta hikoyalatish.

4. Asar mazmunini ijodiy davom ettirish.

Topshiriq. Rasul bilan Samadning keyingi uchrashuvidan munosabatlari qanday bo'ldi deb o'ylaysiz? Tasavvuringizdagi fikrni bayon qiling. Bunda «... surat betgani sayin u Samadga ... bo'lgan alamini unutib bordi» degan gapiga e'tibor bering.

5. Qahramonlarni tavsiflash va tarhiyaviy xulosa chiqarish.

O'qituvchi o'tgan darsda Rasulga berilgan tavsif bilan bu darsda berilgan tavsifni T tizimiga soladi. O'quvchilarga har ikkala tavsifni taqqoslang. Qaysi tavsif ijobi? Nima uchun? R asuga berilgan keyingi tavsif o'zgardi?

Siz qaysi Rasulga o'xshashni istaysiz? Savollariga javob olinadi.

1-Rasul	2-Rasul
dangasa	harakatchan
o'yinqaroq	irodali

 **O'qituvchi:** — O'quvchilar, demak, har bir insonning imkoniyatlari cheksiz ekan, agar inson biror ishga astoydil kirishsa, u albatta ishining uddasidan chiqadi. Shuning uchun inson qiyinchiliklardan qo'rmasdan maqsadi sari intilishi, harakat qilish zarur. Axir xalqimiz «Istagan imkoniyat, istamagan bahona qidiradi» deb bekorga aytmagan. Siz ham hamisha o'z oldingizga aniq maqsadlar qo'yib,unga erishish uchun harakat qiling. Shunda hayotning barcha darvozalari siz uchun ochiq bo'ladi. Mashhur olimlar muhandislar, shoir va yozuvchilar, uchuvchilar, ilg'or dehqonlar maqsadi sari intilganlar.

6. O'quvchilar chizib kelgan xaritalar ko'rgazmasini tashkil qilish.



MAVZU: «O'ZBEKISTON – VATANIM MANIM» BO'LIMI YUZASIDAN UMUMLASHTIRUVCHI DARS

2-guruh uchun dars moduli

Dars metodi: modulli o'qitish usuli, guruhlarga bo'lib o'qitish, mustaqil ish metodi.

Dars jihosi.: Tarqatma material ,davlat ramzlari, jadval, buyuk tarixiy shaxslar portreti, darslik.

Dars shakli. An'anaviy dars.

1-guruh uchun dars moduli.

O'quv faoliyati elementi (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'shatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
1-O'FE	<p>Maqsad. O'quvchilarning Vatan haqidagi bilim-larini kengaytirish va mustahkamlash, og'zaki nutqini o'stirish. Savol-topshiriqlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. «O'zbekiston — Vatanim manim» bo'limida yod olgan she'ringizni aytинг. 2. Z. Diyor nima uchun she'rini "Quyoshli o'lka" deb nomlagan. 	Ichingizda she'mni eslangu. «Quyoshli o'lka» she'rini o'qib chiqing	daqiqa
2-O'FE	<p>Maqsad. Mustaqil fikrlashga, izlanishga o'rgatish.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Vatan haqidagi maqollarni aytинг. 2.O'zbekistondayetishirtiladigan sabzavollar haqida topishmoq aytинг. 3. Test topshiriqlarini yeching. <p>1) Osiyoning qo'yinda yashil shahar bor degandaqaysi shahar ko'zda tutiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> Buxoro. Samarqand. Toshkent <p>2) Quyidagi misralar qaysi asardan olingan? Vatanni qorovul emas, chega-rachi qo'riqlaydi.</p> <ol style="list-style-type: none"> Mardlik va aql chirog'i. Xarita. Toshkentnomma. 	Quyi sinflarda yodolg'an topish-moqlaringizni eslangu. Testning javobini to'liq aytинг. (A-Vatan tarzida)	daqiqa
3-O'FE	<p>Maqsad. O'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish, o'qish sur'atini oshirish.</p> <p>Topshiriq. «Toshkentnomma» dostonini rollarga bo'ib, ifodali o'qing.</p>	Avval muallifva qahramonlaming nutqini belgilab oling va o'qishni mashq qiling.	daqiqa
4-O'FE	<p>Maqsad. O'quvchilarning Vatanimiz tarixi haqidagi bilimlarini aniqlash.</p> <p>«Zinama-zina» o'yini. Topshiriqlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekistondagi qadimiy shaharlar nomini aytинг. 2. Qadimiy shaharlarda qanday tarixiy obidalar bor? 3. Qadimiy shaharlarimizda yashagan buyuk shaxslar nomini aytинг. 	Har bir topshiriqni bo'lib olib, uning javobini kartochkaga yozing va zinaning o'z bosqichiga qo'ying. Shohsupaga birinchi yetib kelgan guruh g'olib sanaladi va o'z tamg'asini qo'yadi.	daqiqa
5-O'FE	<p>Maqsad. O'quvchilarning ijodiy fikrlashini takomillashtirish va yozma nutqini o'stirish.</p> <p>Topshiriq. «Biz Vatanimizning kelajagimiz» mavzusida yozib kelgan matningizni o'qing.</p>	Har bir gapningizni qisqa va aniq bo'lishiga imloviy to'g'ri shakllanishiغا e'tibor bering.	daqiqa

2-guruh uchun dars moduli.

O'quv faoliyat elementi (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
1-O'FE	Maqsad. O'quvchilarning Vatan haqidagi bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash, og'zaki nutqini o'stirish. Savol-topshiriqlar: 1. «O'zbekiston — Vatanim manim» bo'limida yod olgan she'ringizni aytинг. 2. «Toshkentnoma» asarida nima uchun Toshkentda uch fasl yoz deyiladi?	She'rnı eslang. «Toshkentnoma» dostonining 1-qismini o'qib chiqing.	daqiqa
2-O'FE	Maqsad. Mustaqil fikrlashga, izlanishga o'rgatish. 1. Vatan haqidagi maqollarni aytинг. 2. O'zbekistonda yetishtiriladigan mevalar haqidagi topishmoqlardan aytинг. 3. Test topshiriqlarini yeching. 1) «Toshkentnoma» dostonida shoir mehmonlarni kimga o'xshatgan? A. Oyga. B. Yulduzga. C. Quyosha. 2) Quyidagi misralar qaysi asardan olingan? Bir o'lka hor dunyoda, biroq Bitilmagan dos4ondir bori. A. Qozog'iston. B. O'zbekiston. C. Turkmaniston.	Quyi sinflarda yod olgan maqol va topishmoqlari-ningizni eslang. Testning javobini to'liq aytинг. (A-Vatan tarzida)	daqiqa
3-O'FE	Maqsad. O'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish, o'qish sur'aini oshirish. Topshiriq. «Toshkentnoma» dostonini rollarga bo'lib, ifodali o'qing.	Avval muallifva qahramonlaming nutqini belgilab oling va o'qishni mashq qiling.	daqiqa
4-O'FE	Maqsad. O'quvchilarning Vatanimiz tarixi haqidagi bilimlarini aniqlash. «Zinama-zina» o'yini. Topshiriqlar. 1. Tarixda o'z Vatani uchun jo-nini fido etgan qaysi tarixiy shaxslarni bilasiz? 2. Yulduzlar ilmini o'rgangan shoh va olim nomini aytинг. 3. Umri bo'yи Vatani sog'inchi bilan yashagan shoh va shoir kim?	Har bir topshiriqni bo'libolib, uning javobini kartochkaga yozing va zinaning o'z bosqichiga qo'ying. Shohsupaga birinchi yetib kelgan guruh g'olib sanaladi va o'z tamg'asini qo'yadi.	daqiqa
5-O'FE	Maqsad. O'quvchilarning ijodi fikrlashini takomillashtirish va yozma nutqini o'stirish. Topshiriq. «Men Vatanimni sevaman» mavzusida yozib kelgan matningizni o'qing.	Har bir gapingizni qisqa va aniq bo'lishiga, imloviy to'g'ri shakllanishiغا e'tibor bering.	daqiqa

Dars yuzasidan ko'rsatmalar.

Darsning tashkiliy qismi uchun 3 daqiqa ajratiladi. Bunda darsni tashkil etish va uning shakli haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar 2 ta guruhga — jamoaga ajratiladi. Jamoalar o'z ichida mustaqil ravishda kichik guruhga ajralib, savollarni bittadan bo'lib olib bajarishlari, bir-biriga uzatib to'ldirishlari mumkinligi aytildi.

Darsda intizom alohida baholanishi (5 ball) tushuntiriladi.

O'quv faoliyati elementining har bir savoli, topshirig'I alohida kartochkaga yozilib, konvertga solinib, guruh sardoriga beriladi. O'FE o'qituvchi tomonidan darsga tayyorgarlik vaqtida o'quvchilarning bilim darajasiga qarab kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir o'quv faoliyati elementining bajarilishiga qarab, o'quvchilar jamoasi va ayrim faol o'quvchilar ballar bilan rahbatlantiriladi. Doskaga har bir jamoa ro'yxati alohida ilib qo'yiladi. O'qituvchi ballni e'lon qilib, qo'yib boradi.

Jamoa to'plagan umumiyl ball dars yakunida e'lon qilinadi. Har bir o'quv faoliyati uchun 5 yoki 10 ball me'yori asos qilib olinadi.

Darsga yakun yasash uchun 2 daqiqa ajratiladi.

Darsning bu qismida quyidagi savollarga javob olinadi:

- Bugungi dars sizda qanday taassurot qoldirdi?
- Dars yuzasidan qanday takliflarингиз bor?
- Darsda qanday kamchiliklar bo'ldi?
- Savol-topshiriqlar sizda qanday qiyinchiliklar tug'dirdi?

 **Uyga vazifa.** Kutubxonadan vatan mavzusida badiiy hikoya va ertaklarni olib o'qish. O'qituvchi ularning muallifi va nomini aniq aytishi maqsadga muvofiq..

Dars uchun qo'shimcha materiallar.

Ona yurtning omon bo'lsa
Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

Vataning tinch — sen tinch.

Toshkent — non shahri.

Toshkent — do'stlik shahri.

Yurt qursang o'zarsan

Qurmasang to'zarsan.

Dum-dumaloq jajji oy

Chaqib yesang g'ij-g'ij moy.

(Yong 'oq)

Yer tagida oltin qoziq
U hammaga bo'lar oziq. (*Sahzj*)

Gulsiz meva qiladi
Ko'p yesang til shiladi
Qir — g'ildirak oy kulcha
Bu nima, kim biladi. (*Anjir*)

Bir onadan yuz bola
Yuzovi ham bo'z bola. (*Uzum*)

OLTIN KUZ (6 SOAT)

Bu bo'limdagi materiallarda o'quvchilarning atrof-muhit, yer, suv, tabiat haqidagi bilim va tushunchalarini kengaytirib, ularga kuz faslining go'zal manzarasini to'laligicha yetkazish maqsad qilib qo'yilgan.

O'qituvchi bu bo'limdagi materiallar bilan tanishtirish jarayonida oldingi sinflarda o'rganilgan materiallarning mazmuniga va o'quvchilarning shaxsiy tajribalariga tayanadi.

O'quvchilar kuz kelishi bilan tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatishlari, bu o'zgarishlarning sabablarini tushunishlari muhimdir. Bolalar kuz faslining o'ziga xos manzarasini, to'kin-sochinlikning ota-onalari va kattalar mehnati evaziga bunday bo'lganini tushunishlari va his qilishlari kerak.

Kuz kelishi bilan odamlar kayfiyatidagi xursandchilik va mammunlik hissi boshqa fasllardagi kechinmalardan farq qilishini albat-ta bilishlari kerak. Chunki dehqonlarning kuz fasli bilan bog'liq bo'lgan ruhiy kechinmalari ularning bu yilgi mehnat natijalariga bog'likdir.

Birinchi darsda o'rganiladigan "Kuzning ziynati" hikoyasining o'zidayoq bu fasl boshqa fasllardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qilishini o'quvchi bilib oladi. Keyingi darslardagi kuz mavzulari bilan bog'liq turli asarlar bilan tanishish orqali o'quvchilarning kuz faslidagi o'zgarishlar, kuz manzarasi, yig'im-terim bilan bog'liq bo'lgan manzaralar, kattalar mehnati va u yerda bolalarning ishtiroki haqidagi taassurotlari yanada boyib boradi.

Kuz fasilda yig'ib olinadigan paxta, sholi va poliz ekinlari-yu, bog'-rog'lardagi mevalarning barchasi dehqonlarning peshona teri bilan yetishtirilgan hosil ekanligini o'quvchilarga tushuntirib o'tish lozim.

"Oltin kuz" bo'limdagi materiallarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash maqsadida mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda dalar, bog'-rog'larga sayohat uyuştirish, kuz faslining ob-havosi va shu paytda kattalarning qiladigan mehnatlarini kuzatib borish maqsadga muvofiqdir.



MAVZU: KUZ ZIYNATI

O'quv materiali. Saxovatlari fasli.

Darsdan o'qituvchining maqsadi. 1. O'quvchilarning o'zi yashayotgan yurti, uning go'zal va maftunkor tabiatini, boyligi zahmatkash ota-onalarining kuzgi mehnati haqidagi bilimlarini boyitish.

2. O'quvchilarda ona-Vatan, tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat hissini tarbiyalash;

3. Ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qish sur'atini oshirish, lug'atni barakali sepi, shaffof shalolalar sadosi, asriy muzalar, tog' havzalari, uzunqanotlar, go'ngqarg'alar kabi so'z va iboralar bilan boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish.

Darsda o'qituvchining maqsadi. Kuz fasli, kishilar, qushlar va hayvonlarning hayoti haqidagi bilimlarini oshirish; ona-Vatan boyliklarini asrash va avaylashga mas'ulligini anglash; ifodali o'qish, o'z nutqini boyitish, o'qiganlarini izchil va ifodali hikoya qilib berish:

Darsning turi. Yangi mavzu o'rganiladigan, ilmiy-ommabop asar o'qiladigan dars.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Darsning metodi. Izohli o'qish, suhbat, aqliy hujum, tarmoqlash usuli.

Darsning jahozi: Kuz fasliga doir mazmunli rasmlar.

I. Chaqiruv bosqichi: Maqsad. O'quvchilarning kuzatishlari asosida mustaqil egallagan bilimlarini aniqlash, kuz fasli haqidagi asarni o'qishga qiziqish uyg'otish.

1. O'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi:

1-guruh: Kuz tabiatidagi o'zgarishlarni so'zlab bering.

2-guruh: Bog' va tog'li yerdagi mevalar haqida so'zlab bering.

3-guruh: Qushlar hayotidagi o'zgarishlar haqida so'zlab bering.

4-guruh: Kuzda bog'lardagi kishilar mehnati haqida so'zlang.

5-guruh: Kuzda paxta dalalaridagi mehanat haqida so'zlab bering.

6-guruh: Polizlardagi mehnat haqida so'zlab bering.

Guruhlardan bir-birlarining javoblarini to'ldiradi, o'qituvchi umumlashtirib yakunlaydi.

2. Aqliy hujum. O'qituvchi: Kuz fasli nima uchun «Oltin fasl» deb ataladi?

O'quvchilar javobi tarmoqlash usulida doskaga yozib beriladi.

Namuna:

Daraxt barglar sarg'ayadi
 Ko'katlar sarg'ayadi
 Oltin fas!
 Yerga oltin rangli barglar to'kiladi
 Paxtamiz oltinga teng
 Mevalar g'arq pishadi

Guruuhlar javobi baholanadi.

O'qituvchining hikoyasi: Dov-daraxtlarning hargi oltin kabi sariq rangga kiradi. Shuning uchun kuz fasli «Oltin fasl» deb aytildi. Bunda tashqari, kuzda hosili yig'ib olinadi. Kuzda yig'ib olingan hosil yanagi kuzgacha yetadi. Kuzning shu fazilatini hisobga olib ham uni odamlar «Oltin fasl» deb ardoqlaydilar.

3. O'quvchilarning kuz fasli haqida yod olgan she'rlari eslatiladi. O'quvchilar 3-sinfda o'qigan A. Obidjonning «So'nggi axborot», T. Yo'ldoshning «Kuz kelganda», Yusuf Shamansurning «Kuz» kabi she'rlarini aytadilar.

4. Topishmoqlarni toping, ularning qaysi fasl bilan bog'liqligini ayting:

Musht tugilgan besh barmoq,
 Tuxumga o'xshar o'rtoq,
 Uzilsa besh barmog'i
 Ko'rinar hosil qaymog'i. (*Ko'sak*)

Tunukani chertadi,
 Kesaklarni kertadi.
 Bir oz sho'xlik qilgach u,
 Yerga singib ketadi. (*Yomg'ir*)

O'qituvchi: O'ylab toping! Biz bugun qaysi mavzudagi asar bilan tanishamiz?

II. Anglash bosqichi. Maqsad. O'quvchilarning «Oltin fasl» matni orqali kuz fasliga xos xususiyatlarni anglab, tabiatga ongli munosabatda bo'lishga erishish.

1. Asar sarlavhasi («Oltin fasl») doskaga yozib qo'yiladi. Magnet tasmasi orqali asar matni eshittiriladi.

2. **Matn yuzasidan dastlabki suhbat.** — «Oltin fasl» matni nima haqida ekan? — Kuz tabiatini qanday tasvirlangan? — Qush va hayvonlar hayoti haqida nimalar deyilgan? — Bog'lar, paxtazorlar, dalalar haqida-chi? — Matnda kimning she'ridan parcha keltirilgan?

3. **Ichda o'qish.** Topshiriq. «Oltin fasl» matnini ichingiz-

da o'qing. To'g'ri, tez, ifodali o'qishga tayyorlaning. O'zingizga ma'nosi tushunarsiz so'zlarni daftaringizga yozib boring.

AB 4. *Lug'at ishi:*

D Shaffof — tiniq.

Shalola — daryo suvining yuqorida tik pastlikka shiddat bilan qu'yilib tushadigan joyi.

Chug'urchiq — qora, gala bo'lib yuradigan qush.

Havza — sun'iy ko'l, suv ombori.

Zarrin nurlar — yarqiroq nurlar.

5. *Matnni qismalgarda bo'lib o'qitish.* (matnn 5 qismiga bo'linadi)

6. *Tanlab o'qish.* O'qilgan qismini qayta hikoyalatish:

— Kuz manzarasi tasvirlangan o'rinni o'qing va o' so'zingiz bilan tasvirlang. — Quyosh botayotgan payt tasvirlangan o'rinni topib o'qing. — Qishga kuch to'plash uchun tuyogli jonivorlar nima qiladi? Shu o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. — Kuz insonga nimasi bilan huzurbaxsh etadi? Shu o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. — Qushlar haqida hikoya qiluvchi o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang.

7. *Matnga reja tuzish.* Reja sinf jamoasi bilan birgalikda tuziladi.

Reja:

1. Ona diyorimizda oltin kuz.
2. Paxtazor manzarasi.
3. Kuzda qushlar hayoti.
4. Kuzning hosili dilga huzur.
9. Matnni reja asosida qayta hikoyalash.

III. Fikrlash bosqichi.

1. *Mehnat mavzusiga oid maqollar aytishuvi.*

Yer haydasang kuz hayda, Mehnatdan kelsa boylik
Kuz haydamasang yuz hayda. Turmush bo'lar chiroli.

Mehnat baxt keltirar.

2. *Darsdan tarbiyaviy xulosa chiqarish.* O'quvchilar bugungi darsimizda nimalarni bilib oldingiz? Yana nimalarni bilib olishini istaysiz?

— Kuzda dehqon va bog'bonlar qanday ishlar bilan band bo'ladilar?

— Kuz faslida qanday ishlar bilan ularga yordam berishingiz mumkin? Ularga yordam zarur deb hisoblaysizmi? Nima uchun?

3. *Uyga vazifa:* Kuz faslini tasvirlab rasmlar chizish.

Matnni ifodali o'qib va ijodiy so'zlab berishga tayyorlanib kelish.

4. *O'quvchilarining dars davomida to'plagan ballarini e'lon qilish.*



MAVZU: OLTIN KUZ

O'quv materiali. Kuz. Sh. Sa'dulla.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning kuz haqidagi bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash. 2. O'quvchilarda tabiatdan zavq ola bilish, uning sofligini saqlash hissini tarbiyalash. 3. She'rni ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi. Yangi mavzu o'rganiladigan, she'r o'qiladigan dars.

Darsning metodi. Izohli o'qish, ifodali o'qish metodi.

Darsning jahozi. She'r mazmuniga mos mazmunli rasmlar, Sh. Sa'dulla portreti.

Darsning borishi.

1. «Oltin fasl» mavzusida o'quvchilar chizgan rasmlarni namoyish etish. «Oltin fasl» matni mazmunini o'quvchilarga so'zlatish.

2. «Oltin fasl» matnnini o'quvchilarga qismrlarga bo'lib o'qitish.

3. Shaffof, shalola, zarrin, havza, chug'urchiq so'zlarining, ko'chma ma'noli so'zlarning va badiiy til vositalarining ma'nosi ustida ishlash.

4. «Oltin fasl» matni ostida berilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Qo'shimcha savol-topshiriqlar: «Oltin» so'zini yana nimalarga nisbatan ishlatamiz? Shu so'z ishtirokida birikma tuzing va ma'nosini aytинг («oltin bosh», «oltin boshoq», «oltin odam», «oltin qo'llar», «oltin barglar» "oltin barkash" kabi).

5. Matnni reja asosida qayta hikoyalatish.

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. **O'quvchilarni Sh. Sa'dullaning «Kuz» she'rini o'qishga tayyorlash.** Shoir Sh. Sa'dulla hayoti va ijodi haqida qisqa ma'lumot berish.

— Shukur Sa'dulla kim? Uning qaysi asarlarini o'qigansiz?

O'qituvchining hikoyasi. Sh. Sa'dulla Jizzaxda tug'ilgan. Samarqandda o'qigan. O'sha paytlardayoq u sizga atab she'r va hikoyalar yozgan. "Sen nima qilding", "Ko'k buloq", "Dastyor qiz", "Aziz qishlog'im" kabi kitoblari nashr qilingan.

Shoir va yozuvchi Sh. Sa'dulla 1972-yil vafot etgan.

2. **She'r bilan tanishitish.** She'rni o'qituvchi yoddan ifodali aytib beradi.

3. She'r yuzasidan daslabki suhbat: She'r sizga yoqdimi? She'r nima haqida ekan? She'rni kim yozgan ekan?

4. She'rni ichda o'qish. Topshiriq.Sherdag'i ko'chma ma'noli so'zlarni daftaringizga yozing.


5. *Lug'at ishi.*

Palla so'zi qaysi ma'noda qo'llangan? She'rda qo'llangan ma'nodosh so'zlarni toping. («shamol», «yel»; «yuz», «aft»).

«Shamol» so'ziga ma'nodosh so'z toping. («yel», «sabo», «shabada»).

— «Shamol yeladi» gapini shunday ma'nodosh gap bilan almashtingir. Ma'nosidagi farqni ayting («Shabada esadi»).

— She'r matnida qollangan qo'llangan ko'chma ma'noli so'zlarni ayting. (yuz, olting, tushar, taftidan, oqar, solinar). Shu so'zlarni so'z ma'nosida qo'llab birikma va gaplar tuzing. Bu topshiriq «Zinama-zina» o'yini asosida o'tkazilishi mumkin. Bunda topshiriq quyidagicha bo'ladi: Har bir zinadagi so'zni o'z ma'nosida qo'llab birikma tuzing. Kim «Shohsupa»ga birinchi chiqsa, u she'rni ifodalni o'qib beradi.



— She'rning qaysi misrlarida jontantirish bor?

a) O'giradi yelga yuz:

— Marhamat! Kel, oltin kuz!

b) Oltin oqar daladan.

d) Quyosh tushar taftidan

Qo'rqib qishning aftidan — misralari orqali shoir nima demoqchi?. «Zamin» so'zi qanday ma'noda qo'llangan? Uning yana qanday ma'nosibor? («Zamin» — asos ma'nosida qo'llangan. Tilda «yer» ma'nosini ifodalovchi «zamin» so'zi ham bor) She'rda ifodalangan mazmunni o'z so'zingiz bilan hikoya qiling. Hikoyangizni she'r bilan taqqoslang. Kimning tuzgan matni ta'sirchanligini ayting.

6. *She'rni ifodaki o'qish mashqi.*

7. *Tanlab o'qish.*

— She'r dan ob-havo haqida gap borgan o'rirlarni topib o'qing. (G'ir-g'ir shamol yeladi; Quyosh tushar taftidan.) She'r dan tabiatda yuz beradigan o'zgarishlar ifodalangan misralarni topib o'qing. Sarg'ayadi ko'katlar. Barg to'kadi daraxtlar. Kuzda qilinadigan ish-

lar haqida gap borgan misralarni topib o'qing. Maktab borar o'g'il-qiz; Hosil yig'ib olinar.

8. Ifodali o'qish musobaqasi uyuşdırıldı.

9. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirib yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Darsda nimalarни bilib oldingiz?

«Kuz» she'rini kim yozgan? She'r sizga yoqdimi? Nimasi yoddi?. She'r mazmuniغا mos rasm chizsangiz qaysi ranglardan foydalanasz? «Hosil yig'ib olinar. Qishga zamin solinar» misralaridagi ma'noni misollar bilan izohlang. «Maktab borar o'g'il-qiz Qo'lda kitob hamda gul» misralari orqali shoir nimaga ishora qilyapti? Sizga nima demoqchi? Shamol, quyosh, paxta haqida kim topishmoqlar aytadi?

Ko'k sandig'im ochildi,
Ichidan zar sochildi.

Qorday oppoq,
Yungday yumshoq.

Qo'siz, oyoqsiz eshik ochar

 **10. Uyda she'rni yod oling.** Kuz bilan bog'liq maqol va topishmoqlar topib, daftaringizga yozing. Kuz mavzusida she'r yozushga harakat qiling.

MAVZU. SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATIDA

O'quv materiali. Qovun sayli. Sh. Sa'dulla.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Asosiy masalalar. O'quvchilarning kuz fasilda poliz mahsulotlarini yig'ib olishning tartib-qoidalari, dehqonchilik, xalq an'analari haqidagi tushunchalarini boyitish, qovun turlari bilan tanishtrish, o'qish malakalarini takomillashtirish.

Tayanch tushunchalar. Umbirvohi, ko'kalampish, doniyor, qizilurug', qo'zivoy.

Darsda foydalaniладиган та'limiy vositalar: turli qovun rasmlari, poliz mahsulotlarini yig'ib olish tasviri, test.

Dars metodi. Izohli o'qish, tarmoqlash, muomoli o'qitish metodlari.

O'qituvchining maqsadi. 1. O'zbekistonda yetishtiriladigan poliz ekinlari, qovun sayli haqida o'quvchilar bilimini boyitish. 2. O'quvchilarda ona-yurtimiz boyliklarini asrash, xalq an'analarni

hurmatlash va davom ettirish hissini tarbiyalash. 3. Lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, o'qish malakalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadi.

1. Hikoya matnini to'g'ri, o'quv sur'atiga mos, ongli va ifodali o'qiydilar.

2. Asar matni yuzasidan berilgan topshiriqlarni yakka va juft bo'lib bajaradilar.

3. Matn mazmunini qayta hikoyalaydilar.

Darsning borishi.

1. Da'vat bosqichi.

1. **«Kuz» she'ri ifodali yod ayttiriladi va o'qitiladi.**

2. O'qituvchi o'quvchilarning oldingi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida kuz haqida, uning noz-ne'matlari haqida suhbat o'tkazadi. O'l kamizga kuz fasli kelganini nimalardan bilish mumkin? «Saxovatli fasl» matnidan tabiat tasvirini topib o'qing. Kuzda qaysi sabzavot va mevalar pishadi? Stol ustidagi uzum rasmlarini olib, nomini aytинг. Uzum nomlarini tarmoqlash usulida ko'rsating.

3. **Yangi mavzuni o'rganishga o'quvchilarni tayyorlash.** Suhbat: Qovun qaysi turkumga kiradi? Sabzavotgami yoki mevalargami? Qovun nomlarini bilasizmi? Ularning nomlarini ham tarmoqlash usulida yozib ko'rsating. «Kuz» she'ri kim yozgan edi? Sh. Sa'dullaning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?



4. **Sh. Sa'dullaning «Qovun sayli» hikoyasi bilan tanishamiz.** Hikoyaning birinchi darsga mo'ljallangan qismi o'qib beriladi yoki magnit tasmasi orqali eshittiriladi.

5. **Kichik guruuhlar bilan ishlash.** O'quvchilar 5 guruuhga bo'linadi. O'quvchilar 1,2,3,4,5 deb sanadilar. O'z raqamlari bo'yicha guruuhlanib stol atrofiga o'tiradilar.

Har bir stol atrofidagi o'quvchilarga hikoyaning qismlari bo'lib beriladi va topshiriqlar konvertlarda uzatiladi.

1-topshiriq. Guruhingizga nom quying. Uni ta'riflang.

1. «Handalak» guruhi. Handalak bahor faslining oxirgi oyida erta pishadi. Odamlar uni sog'inib kutishadi. Handalak dumaloq, uning hidi yoqimli, o'tkir bo'ladi. Ustki qismi serto'r, mazasi tilni yorar darajada shirin bo'ladi.

2. «Qo'zivoy» guruhi...
3. «Umrboqi» guruhi...
4. «Ko'kalampish» guruhi...
5. «Doniyor» guruhi...

II. Anglash bosqichi. 1-topshiriq. Hamma guruhga bir xil topshiriq beriladi. Berilgan qismni, to'g'ri va ifodali o'qishga, tayyorlaning. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni o'qish daftaringizga yozing. Asosiy fikrni aniqlang.

2-topshiriq. 1. O'qigan qismingizni matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalab bering. 2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarning ma'nosini izohlashga harakat qiling. 3. O'z qismingizdagi bering ko'chma ma'noli so'zlarni toping va izohlang. 4. O'qigan qismingizga sarlavha qo'ying va daftaringizga yozing.

Guruhlar ishlariidan namuna.

ABD «Handalak» guruhi. Lug'at ishi: qovun boshiga — boshiga ko'chma ma'noda; bejirim — ixcham; sertor — po'stida taramtaram chiziqlari bor.

ABD **Sarlavha.** «Bolalik xotiralari».

«Qo'zivoy» guruhi. Lug'at ishi: Dasturxon yozdilar — yozdilar — yoydilar ma'nosida; yozdi xat yozdi — shakldosh so'zlar; o'choq boshi — boshi so'zi ko'chma ma'noda; karch — qovun yoki taruz qismidan ko'ndalangiga kesilgan qism; tilni yoray deydi — ibora, o'ta shirin ma'noda; kosa — kuchma ma'noda, qovunning 4 dan 1 qismi.

ABD **Savlavha.** Qovunxo'rlik.

«Ko'kalampish» guruhi. Sarlavha. Tog'amning fikri.

«Doniyor» guruhi. Lug'at ishi: oy chiqdi — chiqdi ko'chma ma'noda; quloq solinglar — echshitinglar; qovun dum beryapti — pishdi ma'nosida.

Savlavha. «Tungi voqealar».

O'quvchilar uch guruhning lug'atini va topgan sarlavhasini davtarlariga yozib boradi. Ular aniqlay olmagan so'zlarni o'qituvchi ayтиб, izohlab beradi.

4. Ifodali o'qish va qayta hikoyalash mashqi. Har bir guruh o'z qismini o'qib gapirib beradi.

5. Rollarga bo'lib o'qitish, har bir guruhdan o'quvchilar tanlanadi. (Tog'a, muallif, Hasan, Zuhra).

III. Fikrlash bosqichi.

1. Darsdag'i savol-topshiriqlar ustida ishlash. Har bir guruh

asar matni ostida berilgan 1-, 2-, 3-, 5- savollarga javob beradi. O'quvchilarga qo'shimcha savollar: O'zbek xalqining kuz faslida o'tkaziladigan qaysi an'anaviy bayramlarini bilasiz? «Qovun sayli»da qanday ishlar qilinadi?

Javob namunasi. O'zbek xalqining juda yaxshi va ko'p an'analari bor. Shulardan «Hosil bayrami», «Qovun sayli» bayramlaridir. «Qovun sayli» qovunlar ayni g'arq pishgan pallada qovun polizda o'tkaziladi.

«Qovun sayli»da qovunlar aytishuvi ham bo'ladi. Bunda har bir qovun o'zini ta'riflaydi, maqtaydi. Qovun-tarvuzlarni uzib, yig'ib olishga yordam beradi. «Qovun sayli»da yig'ilgan odamlar pishib ketgan qovunlarni so'yib, qovun qoqi qiladilar. Qishki qovunlarni osib qo'yish uchun to'ra xaltalar to'qiydilar.

Bular hammasi dehqonga ancha yordam bo'ladi.

2. Reja tuzish. Har bir guruh o'z qismiga reja tuzadi.

Reja namunasi:

1. Cho'lda qovun polizlari.
2. Qovunxo'rlik.
3. Tungi voqealar.

3. Reja asosida hikoyaning 1-bo'limini to'liq qayta hikoyalash musobaqasi.

4. Test yechish. Har bir guruhga konvertda test topshiriqlari beriladi.

5. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Fasllar va dehqonchilik bilan bog'liq qanday an'analarni bilasiz? O'zingiz shunday an'analarda ishtirok etganmisiz? An'analarni saqlab qolish va davom ettirish uchun nima qilish kerak?

6. Uyga vazifa. Asarning birinchi bo'limni ifodali o'qishga tayy-orlanib, matn yuzasidan savollar tuzib kelishi.

7. Guruhlarning to'plagan ballarini e'lon qilish. Har bir guruhda faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish..

Izoh: «Qovun sayli» hikoyasining 2-bo'limi ham 5 qismiga bo'linadi. Oldingi guruhalr o'quv faoliyatini davom ettiradilar. O'qituvchi matn tahlili yuzasidan topshiriqlar ishlab keladi.

MAVZU: «OLTIN KUZ» BO'LIMI YUZASIDAN UMUM-LASHTIRUVCHI DARS

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarning oltin kuz fasli haqidagi bilimlarini sistemaga solish.

2. Kuzdag'i tabiat manzarasini tasvirlash qobiliyatlarini o'stirish.
3. Kuzgi ob-havo haqidagi tushunchalarini boyitish.
4. Dehqonlarning, bog'bonlarning, mehnatkash o'zbek xalqining mehnatini qadrlash va to'kin-sochinlikning qadriga yetish ruhi-da tarbiyalash, mehnatga rag'bat uyg'otish.

Darsning turi. Umumlashtiruvchi o'qish darsi.

Dars metodi. Mustaqil ish metodi, suhbat.

Dars jihizi. O'quvchilarning «Oltin kuz» bo'limi yuzasidan tayyor-lagan rasmlari ko'rgazmasi. Sh. Sa'dullaning to'plamlari, kartochkalar.

Darsning borishi.

I. «Oltin kuz» bo'limida o'rganilgan asarlar yuzasidan suhbat.

1) Kuz fasilda tabiatidagi o'zgarishlar yuzasidan suhbat. Kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi? Ular qaysi asarlarda bayon qilingan? («Oltin fasl» matnida va «Kuz» she'rida).

— Shu asarlardan tabiatdagi o'zgarishlar tasvirlangan o'rnlarni topib o'qing. («Oltin fasl» matnida: Salqin kechalar, ertalab maysa-ko'katlar, dov-daraxtlar bargini bezaydigan shudringlar kuz kelganidan darak beradi.

Tog' daralaridagi shaffof shalolalar sadosi pasayadi, asriy muzlar erishdan to'xtaydi, tog' havzalarida suvlar kamayadi. Na'mataklar mevasi qizil rang oladi. Ertalab va quyosh botayotganda chug'urchiqlar galasi ko'zga tashlanib qoladi...

— Tabiatdagi o'zgarishlar haqida yana o'zingiz nima deya ola-siz? — Nima uchun kuzni «Oltin fasl» deb ataymiz? — K u z d a g i ob-havo haqida biz o'qigan qaysi asarlarda ma'lumot berilgan?

«Kuz» she'rida: «G'ir-g'ir shamol yeladi, Quyosh tushar taftidan»; «Qovun sayli»da: «Bora-bora tun salqini tushdi»kabi ma'lumotlar berilgan...

— Kuzgi ob-havoni ifodalashda qaysi so'zlar ko'p qo'llanadi? Shu so'zlardan foydalaniib, kuzgi ob-havoni aytib bering.

2) Odamlarning kuzgi mehnati haqida suhbat. Kuzda dalada nimalarning hosili yig'ib olinadi? Bog'larda bog'bonlar nima ishlar bilan shug'ullanishini aytинг. Dehqonlar bahorgi ekish mavsumiga qanday tayyorgarlik ko'radilar? Mehnat haqidagi maqollardan aytинг.

O'qituvchi plakatga mehnat haqidagi maqollarni yozib ilib qo'yadi, ularni o'quvchilarga o'qitadi, ma'nosini izohlatadi.

Namunalar:

Mehnat baxt keltirar

Odam qo'li cho'lni bo'ston qiladi.

Ter to'kib sochsang urug',
Yer seni qo'ymas quruq.

Inson qo'li guli.

Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.

Bugungi ishni ertaga qo'yma.

— Paxta terimida paxtakorlar ko'rsatgan jasorat haqida qanday ma'lumotlar tayyolab keldingiz? Kuz faslida qaysi an'anaviy bayramlar o'tkaziladi?

 **3. Hayvonlar va qushlarning kuzdagi hayoti haqida suhbat.** Kuzda qaysi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi? Qishlash uchun qaysi qushlar O'zbekistonga keladi? Qaysi qushlar o'lkamizda qishlab qoladi. Yovvoyi hayvonlar kuzda nima qiladi? Ularning insonlarga foydasi bormi? Bo'limdagи asarlarni tez va ifodali o'qish mashqi.O'quvchilarining o'qish sur'ati dastur talablari asosida nazorat qilinadi.

O'quvchilarining ijodiy ishlari ustida ishlash.

2. *O'qish ko'nikmalarini aniqlash.*

3. *O'quvchilarining «Oltin kuz» mavzusidagi ko'rgazmasini tashkil qilish.* Ko'rgazma yuzasidan suhbat: Ko'rgazmadan olgan tasavvurlaringizni bayon qiling. Kimning tasviriy san'atga qobiliyatib bor deb hisoblaysiz? Nima uchun? Rasmlar orqali kuz fasli haqida yana nimalarni bilib oldingiz? Kuz faslini tasvirlashda ko'proq qaysi ranglar ishlatiladi.

4. «Kuzgi to'kin-sochinlik» mavzusidagi o'quvchilar tuzgan **hikoyalari tanlovi**.

5. Kuzdagi tabiiy hodisalar, kuz ne'matlari haqida **topishmoqlar aytish musobaqasi**. Sinf qatorlar bo'yicha 3 guruhg'a ajratiladi. O'qituvchi ham topishmoqlar yozilgan plakatlar olib keladi. Topishmoqlardan namunalar:

Zar gilam, zargar gilam,
Ko'taray desam og'ir gilam. (Yer)

Yurar tekis egatdan,
Barmoqlari po'latdan.
Yelkasida yuki bor,
Katta temir savatdan. (Paxta terish mashinasi)

6. «Oltin kuz» mavzusida o'quvchilar bilgan yoki yozgan she'rlarini ayttirish. va hikoyalarni so'rash.

7. **Test yechish.** Testlardan namunalar:

1. Oltin so'zi qaysi fasliga qo'shib aytildi?

A. Bahor.

B. Kuz.

D. Qish.

2. «Hosil yig'ib olinar,
Qishga zamin solinar» misralari qaysi she'rdan olingan?
- Shukur Sa'dulla «Kuz».
 - Qudrat Hikmat «Bahor».
 - Tursunboy Adashboyev «Qish».
3. Ali polvon qaysi hikoya qahramoni?
- «Qovun sayli».
 - «Musicha».
 - «Buzilmagan uya».

8. Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- “Dehqonlar mehnatini qadrlang” deganda nima nazarda tutilgan?
- Kuzdag'i ishlar faqat kattalar uchunmi Siz nima deb o'ylaysiz?
- Yoshlar dehqonchilik, bog'bonlik ishlarini qanday o'rganadilar?

9. Darsda faol ishtirot etgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

MANAVIYAT — QALB QUYOSHI (11 soat)


Bu bo'limda o'rganiladigan mavzular o'quvchilarning ma'naviyaxloqiy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Bo'limning “Salomlashish odobi” (H. V. Koshifiy) mavzusi bilan boshlanishining o'ziyoq o'quvchilarning ruhiyatiga ma'naviy ozuqa berishga qaratilganligiga misoldir. Bo'limdagi matnlar bilan tanishish jarayonida o'quvchilar insondan faqat yaxshi nom qolishi, chaqimchilik, xiyonatdan hazar qilish, non-tuz haqiga xiyonat qilmaslik kerakligini o'rganadilar, “Hadislardan namunalar” mavzusida oq-u qorani ajratishga, ilmnинг afzalligini, ilmli xor bo'lmasligi haqidagi bilimlarni o'rganib boradilar. Bu maqsadlarga erishish uchun esa o'qituvchi turli ko'rgazmali qurollardan, hikoyat, rivoyat, maqollardan foydalanishi maqsadga muvosiqidir.

Bo'lim materiallarini quyidagicha rejalashtirish mumkin:


MAVZU: MA'NAVİYAT — QALB QUYOSHI

O'quv materiali. Salomlashish odobi. Husayn Voiz Koshifiy
Darsda o'qituvchingin maqsadi.

1. Husayn Voiz Koshifiy haqida ma'lumot berish.
2. O'quvchilarning salomlashish odobi haqidagi bilimlarini boyitish.
3. Salom so'zining asl ma'nosini tushuntirish.
4. O'quvchilarni kattalar va tengdoshlari bilan salomlashishga o'rgatish.
5. O'qish malakasining sifatlari: to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishlarini takomillashtirish.
6. O'quvchilar lug'atni mavdrid, jamoat joylari, vidolashish, maqbara, kanda qilmaslik, ochiq chehra kabibi so'z va so'z birikmalarini bilan boyitish.
7. Fikrni izchil tartib bilan bayon qilishga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, ilmiy-ommobop asar o'qish darsi.

Darsning metodi. Izohli o'qish, suhbat, ko'rgazmalilik metodlari.

Darsning jahozi. Salomlashish holati ifodalangan rasmlar.

Darsning borishi.

I. Yangi mavzuni o'rghanishga o'quvchilarni tayyorlash.

1. Dars ikki xil sahna ko'rinishi bilan boshlanadi.

1-ko'rinish

1-o 'quvchi: Salom, qalaysan?

2-o 'quvchi: Nechego, bratan. Senchi?

1-o 'quvchi: Bekorchilik

2-ko'rinish

1-o 'quvchi: Assalom-u alaykum, do'stim Hasan.

2-o 'quvchi: Vaalaykum-assalom, Anvar.

1-o 'quvchi: Hasan, yo'l bo'lsin?

2-o 'quvchi: Do'stim, kutubxonaga ketyapman.

O'qituvchi: — Siz qaysi do'stlarning muomalasini, salomlashishi ni to'g'ri deb hisoblaysiz?

Darsda o'qituvchi o'quvchilar bilan qanday salomlashadi? Bir o'quvchi javob beradi, so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi.

O'qituvchi: Assalom-u alaykum, aziz o'quvchilar:

O'quvchilar: Assalom-u alaykum, ustoz.

O'qituvchi: Bugungi darsimizning mavzusini angladingizmi? Qaysi mavzuni o'rGANAR ekanmiz?

Doskaga «Mavzu. Ma'naviyat — qalb quyoshi».

O'quv materiali. Salomlashish odobi. Husayn Voiz Koshifiy deb yozib qo'yiladi.

 2. **Bo'lim mavzusi haqida suhbat.**

- Bugun o'rGANADIGAN bo'lim qanday nomlanar ekan?
- Ma'naviyat — qalb quyshi deganda nimani tushunasiz?

 *O'qituvchining hikoyasi:* Ma'naviyat — insoning fe'l-atvori, axloq-odobini, madaniyati va dunyoqarashini anglatadigan tushuncha. Xushmuomala, keng tushunchali, boshqalarga faqat yaxshilik qiluvchi, mehnatsevar, fidoyi kishilarning ma'naviyat dunyosi boy deb ulug'lanadi. Aksincha, faqat o'zini o'ylaydigan xudbin, baxil, ta'magar va yalqov kishilarga ma'naviy dunyosi past, qashshoq deyiladi. Ma'naviy boylikning birinchi belgisi salomlashish odobidir.

 3. **Muallif haqida ma'lumot.** O'qiladigan asar nomi va uning muallifi o'quvchilarga o'qitiladi.

- Husayn Voiz Koshifiy haqida nimalarni bilasiz?

 *O'qituvchining hikoyasi:* — Husayn Voiz Koshifiy XV asrning yirik olimlaridan bo'lgan. U bundan 500 yil oldin yashagan odob-axloqqa doir ko'pgina asarlar yozgan. Koshifiy Xurosonda Husayn Boyqaroning odil maslahatchisi bo'lgan. Saltanat ishlariда shohga ko'maklashgan.

 — O'ylang. «Salomlashish odobi» asarida nima haqida hikoya qilinadi?

O'qituvchi: Insonning xulq-odobi avvalo uning boshqa kishilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. Salom bilan boshlangan har bir suhbat yomon niyatni ham qaytaradi, yaxshilik eshiklarini ochadi. Lekin salomlashishning ham o'z qonun-qoidalari hor. Asarni o'qish davomida bu qoidalarni bilib olasiz.

 4. **Lug'at ishi.** — Mavrid so'zining ma'nosini bilasizmi? (ma-vrud — biror ishning amalga oshirilishi uchun qulay fursat, vaqt.)

 5. **Asar matni bilan tanishtirish.** Matnni o'qituvchi o'qib beradi.

Topshiriq. Asarni diqqat bilan tinglang. Nega mavridda salomlashish kerakligini bilib oling.

 6. **Asar yuzasidan dastlabki suhbat.** Asar mazmunini o'quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash yuzasidan savollar: — «Salom» so'zi qanday ma'noni bildiradi? — Necha mavridda salomlashiladi? — Ularning qaysilari esingizda qoldi? — Qanday holatlarda salom berilmaydi?

 3. **Asarni ichda o'qitish.** Yuqorida berilgan savollar dsokaga yozib qo'yiladi. Topshiriq. — Ichingida o'qing. Doskadagi savol-larga javob berishga tayyorlaning.

 4. **Tanlab o'qish.** — Birinchi mavrid salomlashish qoidasini o'qing... — Yettinchi mavrid salomlashish qoidasini o'qing. — To'rtinchi mavrid salomlashish qoidasini o'qing... — Qaysi hol-

atlarda salom berilmaydi? Shu fikrni topib o'qing. — Salom bera-yotgan kishining holati qanday bo'lishi kerak? Shu o'rinni topib o'qing.

A 5. *Lug'at ishi.* Quyidagi so'zlar doskada yoziladi: mavrid, ja-moat joylari, vidolashish, maqbara, kanda qilmaslik, ochiq chehra so'zлari va so'z birikmalari

Izohli lug'at o'qish daftariga yozdiriladi.

6. *Qayta hikoyalash.* 7 xil mavrid salomlashish holati tasvirlangan rasmlar doskaga ilinadi. O'quvchilar har bir mavrid salomlashish qoidasini va mazmunini o'z so'zлari bilan hikoyalab beradilar.

7. *Asarni qismlarga bo'lib o'qish.* Doskaga 8 o'quvchi chaqiriladi; Ularning biri asarning bosh qismini qolgan 7 o'quvchi 7 mavrid salomlashish odobini o'qiydi.

Oxirgi 2 xat boshini 1-o'quvchi o'qiydi.

8. *Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.* Darsda nimalarni bilib oldingiz? Asarni o'rganish orqali qanday xulosalarga keldingiz? Odob-axloq haqida qanday maqlalarni bilasiz? Ma'nosini izohlashga harakat qiling.

Namuna:

Odob bozorda sotilmas.

Husn to'yda kerak, odob kunda kerak.

Odobni odobsizdan ham o'rganish mumkin.

Odobli bola elga manzur.

9. *O'quvchilarни rag'batlantirish.*

 10. *Uyga vazifa.* O'qish daftariga salomlashish mavridlarini yozib kelish va ularni yod olish.



MAVZU. YAXSHILIK — INSON ZIYNATI

O'quv materiali. Odamdan nima qoladi? Yusuf Xos Hojib Dars rejasи.

1. Tashkiliy qism
2. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va baholash

3. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish

4. Yangi mavzuni o'rganish:

5. Test savollari asosida o'quvchilar bilimini aniqlash va baholash.

6. Yangi mavzuni umulashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

7. Uyga vazifa berish.

O'quvchilarning vazifasi.

1. O'quvchilarni guruhlarga ajratilib, guruh a'zolarining o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishlariga erishish;
2. O'quv materialini yaxlit holda o'zlashtirishga erishish.
3. Yangi mavzu yuzasidan guruhlar o'rtasida savol-javob, bahsmunozarada ishtirot etish.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzu ustida ishlash.

1. Asar matni ostida berilgan savollarga javob olish.

2. Asar muallifi haqida suhbat.

3. Ifodali o'qish mashqi. Savol-topshiriqlar. — Salomlashishning 7- mavridi berilgan qismni ifodali o'qib bering. — Qaysi holatda salom berilmaydi? Shu o'rinni ifodali o'qib bering. — Kim kimga salom beradi? Shu o'rinni ifodali o'qib bering. — Salomlashganda insonning chehrasi qanday bo'lishi lozim? Shu qismni topib o'qing!

4. O'quvchilar javobi umumlashtirilib, tarbiyaviy xulosa chiqarish. — Qanday holatlarda salom beriladi? — Kim kimga salom berishi kerak? — Qanday holatlarda salom berilmaydi?

Yangi mavzu ustida ishlashni modul dasturi asosida ifodalash. O'quvchilar darsni olib borish tartibi bilan tanishtiriladi.

O'quvchi faoliyati elementining har biri yozilgan varaq o'quvchilar guruhiga beriladi.

Har bir o'quv faoliyati elementidan so'ng o'quvchilar javobi to'ldirilib, umumlashtirilib, baholanib boriladi.

2. Ayrim misralar izohi

1. Tiriklikda jami ezguliklarni yig'moq kerak. Ular keyinchalik egulik va kiygulik bo'ladi.

2. Dono maqtov olar, nodon-chi — so'kish,
O'zing o'yla, senga ma'qul qaysi ish.

3. Yaxshi nom oladi, ko'r ezgu kishi.
Yomonlar nasibi — el-yurt qarg'ishi.

4. Yomonlik go'yo o't, yondirar, yoqar, o'tishga kechik yo'q, u soy tez oqar.

3. Yangi mavzuni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

— Qanday odamlar yaxshi nom qoldiradi? — Qanday odamlardan yomon nom qoladi? — Qanday kishilar maqtov oladi? — O'zingida qanday yaxshi va yomon xususiyatlar bor? O'ylab ko'ring.

Home **Uyga vazifa.** Asarni ifodali o'qishga tayyorlanib kelish. O'zlariga ma'qul misralarni yod olish. Asar matni ostida berilgan savollarga javob topib kelish.

Izoh. «Odamdan nima qoladi?» (Yusuf Xos Hojib) asari ikki darsga mo'ljallangan.

1-modul dasturi¹

O'quv faoliyat elementi (O'FE)	O'quv materiali yuzasidan topshiriqlar	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Vaqti	Baho
1-O*FE	<p>Maqsad. O'quvchilarni ichda mustaqil o'qishga o'rgatish. So'z ma'nolari ustida ishilashga o'rgatish Yusuf xos Hojib haqida ma'lumot boshish.</p> <p>Savol-topshiriqlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Asarni ichda o'qing. 2. Ma'nosini tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozing. 3. Asar mavzusini aniqlang 4. Qanday odamlarni yaxshi deyish mumkin? 	Darslikdan «Odamdan nima qoladi?» (Yusuf xos Hojib) asarini o'qing. Savollarga yakka tartibda javob hering. Savol-javobda ishtirok eting. O'z faoliyattingizni haholab boring.	daqiqa	
2-O*FE	<p>Maqsad. Asar voqealarini qismlargg ajratib, har bir qismining mazmunini, ilgari surilayotgan fikrni o'zlashtirish olishlariga erishish, o'qish malakalarini takomillashtirish.</p> <p>Savol-topshiriqlar: 1. Asarni necha-qismga ajratish mumkin? 2. Birinchi qismni o'qing va qaysi hikoyalang. 3. Birinchi qismdailgari surilgan asosiy fikrni aniqlang.</p>	Asarni ichingizda o'qing va qismlargaga ajrating. Birinchi qismni o'qing vaqayta hikoyalashga tayyorlaning. Birinchi qismdagi asosiy fikrni ifodalovchi gaplarni toping.	daqiqa	
3-O*FE	<p>Maqsad. O'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrflashga o'rgatish. Tanlab o'qish orqali asardagi muhim fikrlarni o'zlashtirishlariga erishish.</p> <p>Savol-topshiriqlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yozuvchi tiriklikda nima qilmoq kerak deydi? Shu o'rnlarni topib o'qing va ma'nosini tushuntiring. 2. Dono va nodon kishilar haqida ayttilgan fikrni topib o'qing va ma'nosini izohlang. 3. Yaxshi va yomon kishilar haqida ayttilgan fikrlar haqida topib o'qing va ma'nosini tushuntiring. 4. Yomonlik haqidagi misralarni topib o'qing va ma'nosini tushuntiring. 	Savol va topshiriqlarga javob topish uchun asarni ichingizda o'qing. Ma'nosini o'z so'zlarining bilan so'zlab berishga tayyorlaning.	daqiqa	

Ikkinchchi dars ham shu tarzda tashkil etiladi. Yuqoridagi savol-topshiriqlardan foydalilaniladi.

¹2-modul dasturi ham shu tarzda tuziladi.

Foydalanish uchun savol-topshiriqlar.

1. Bilimsiz kishilar haqidagi o'rirlarni topib va ma'nosini tushuntiring.

2. Turkchadagi masal keltirilgan misralarni topib o'qing va ma'nosini tushuntiring.

3. Alp Er To'nga haqidagi fikrlar bayon qilingan misralarni topib o'qing. O'ylab ko'ring, sizning tabiatingizda unga yaqinlik bormi?

Misralar izohi.

1. Bilimsiz kishi to'rdan joy olsa,
To'r poygak, poygak esa to'r bo'ladi.

2. Kishining husni yuz-ko'zida bo'lgani kabi tilning ko'rki so'zdir.

3. Alp Er To'nga turklarning mashhur qahramonidir.
Uning ding'i olamga yoyilgan.



MAVZU: KEKSALAR — SUYANCH, YOSHLAR — TAYANCH

O'quv materiali. Har kim ekkanini o'rar. Munavvarqori Abdurashidxonov 1-dars.

Darsning maqsadi.

1. Keksalarni izzat-hurmat qilishga, ularning o'gitiga amal qilishga o'gatish.

2. O'qish ko'nikmalarini takomillashirish.

3. O'quvchilar lug'atini xilvat, mashaqqat so'zlar bilan boyitish.

4. She'riy hikoyani o'z so'zi bilan to'liq qayta hikoyalashga o'rgatish orqali bog'lanishli.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, she'riy hikoya o'qish darsi.

Darsning metodi. Suhbat, izohli o'qish, tarmoqlash metodi.

Darsning jihizi. Xonada keksa kishi, nevara, kelin va o'g'il suhbat, chol va nevara tasvirlangan mazmunli rasmlar, vatman, flamber.

Darsning borishi.

I. O'tilganlarni so'rab, o'quvchilarning bilimini, o'qish ko'nikmalarini aniqlash va mustahkamlash.

1. Savol-topshiriqlar.

1. «Odamdan nima qoladi?» asarini kim yozgan?

2. Yusuf Xos Hojib haqida nimalarni bilib oldingsiz?
 3. «Odamdan nima qoladi?» asarida nimalar haqida yozilgan?
 4. Insonning vafotidan keyin qanday esgu oladi?
 5. Zahhok nima uchun qarg'ishga duchor bo'lgan? U kim bo'lgan?
 6. Faridunni nima uchun duo qiladilar? U kim bo'lgan?
 7. Qanday kishilar yaxshi degan nom oladi?
 8. Saxiy odam deganda qanday kishilarni tushunasiz? Nima uchun ularning nomi tarixda qoladi deyiladi?
 9. Qanday kishilar dono bo'ladi?
 2. **Tanlab o'qish.** Topshiriq. Yozuvchi bilimsiz kishini nimaga tenglashtirgan? Shu o'rinni topib o'qing.
- Yaxshi so'zli kishilar haqida nima deyilgan? Shu o'rinni topib o'qing.

3. **Lug'at ishi.** Ezgu, ezgulik, zohhok, faridun kabi so'zlarning ma'nolari so'raladi.

4. **Yod aytish musoboqasi.** O'quvchilar yod olib kelgan misralarini ifodali qilib aytadilar va mazmunini o'z so'zlar bilan gapirib beradilar.

5. **Uyga berilgan test ustida ishlash.**

 Alp Er To'nga qanday inson? Savoliga javob tarmoqlash usulida olinadi.



6. O'quvchilarning asar yuzasidan egallagan bilimlari **umumlashtiriladi va baholanadi**.

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. **Asarni o'qishga o'quvchilarni tayyorlash.** — Har kim ekkanini o'rар deganda nimani tushunasiz? — Oilangizda keksa kishilardan kimlar siz bilan yashaydi? — Ularga qanday muomala qilasiz? — O'ylang, bugun darsimizda nima haqidagi asarni o'qiymiz? Doskaga asar nomi va muallifi yoziladi. — Munavvarqori Abdurashidxonov haqida eshitganmisiz?

2. She'riy hikoya bilan tanishtirish. Hikoya magnit tasmasi orqali eshittiriladi.

3. Asar yuzasidan dastlabki suhbat.

- Sher'iy hikoya sizga yoqdimi?
- Unda kim haqida hikoya qilinadi?
- Asarda kimlar ishtirot etgan?
- Kimning gaplari sizga yoqmadni?
- O'g'li sizga yoqdimi? Nabirasi-chi?

4. Ichda o'qish. Topshiriq. — Ichingizda o'qing va ma'noasi tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozib boring.

So'zlarni izohlashda darslikdagi lug'atlardan foydalaning.



5. Lug'at ishi.

Xilvat — ko'zdan pana joy

Mashaqqat — bajarish og'ir bo'lgan ish

6. Qismlargacha bo'lib o'qish. She'riy hikoyaning 1-bo'limi qismga bo'linadi. Ikki o'quvchiga o'qitiladi. So'ng «She'riy hikoyani necha qismga bo'lish mumkin?» deb so'raladi. Vaqt imkoniyatiga qarab 2-3 marta o'qitiladi.

7. Tanlab o'qish.

— Keksa ota tasvirlangan o'rinni topib o'qing (Non yeganda... Boshi bukilgan).

— Ikkinchini qismni topib o'qing.

Unda nima haqida gap boradi?

8. Badiiy vositalalar ustida ishslash.

— Asarda jonlantirish, ya'ni jonsiz narsalarni jonli narsalardek gapirtirish qo'llanganmi? Ichingizda o'qib topishga harakat qiling. (Non yeganda lablari burni bilan so'zlashur)

9. Asarning 1-bo'limini rollarga bo'lib o'qitish.

10. Reja tuzish.

1. Keksa otaning holati.
2. Uzoq cho'zilgan majlis.
3. O'g'il va nabira yo'lga tushdi.
4. Otaning pushaymoni.
5. O'g'il xizmatga bel bog'ladi.

11. Reja asosida to'liq qayta hikoyalash.

12. Kelunga tavsif berish. Tarmoqlash usulida amalga oshiriladi.

— Kelin sizda qanday taassurot qildirdi? — Kelinni qaysi so'zlar bilan ta'riflashni to'g'ri deb hisoblaysiz?

13. Keksa otaga tavsif berish. Keksa ota sizda qanday taassurot qoldirdi? Keksa otani qaysi so'zlar bilan tavsiflashni to'g'ri deb hisoblaysiz?



— Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

— Bugun kimning asari bilan tanishdingiz?

— Asarda kimlar haqida hikoya qilingan?

— Siz o'g'ilning o'rnida bo'lganiningizda nima qilgan bo'lardingiz?

— Siz kelin bo'lganiningizda qanday ish tutgan bo'lardingiz?

Uyga vazifa. Asarning 1-bo'limini ifodali o'qishga va qayta hikoyalab berishga tayyorlanib kelish. Testlarni yechish.

Shu mavzuda ota-onangiz bilan suhbatlashing, ularning fikrini eshitib, kichik hikoyacha yozing.



MAVZU: HIKMATLAR XAZINASI

O'quv materiali: Hadislardan namunalar.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga Qur'oni Karim va Hadisi Sharif haqida ma'lumot berish.

2. O'quvchilarda yaxshi fazilatlarni o'z shaxsida shakllantirishga ishtiyyoq, intilish hosil qilish. O'tmishdagi komil insonlar hayotidan ibrat olishga da'vat etish, ular e'zozlashga loyiq insonlar ekaniga ishonch hosil qilish.

3. Lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, yod olish va xotirada saqlash qobiliyatini tarbiyalash.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hadis o'qish darsi.

Darsning metodi. Izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash metodi.

Darsning jahozi. Hadis, «Qur'on» kitoblari, hadislar yozilgan karton.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash. Savollar: —

Bir kishi safari oldidan do'stiga nima dedi? — Do'st unga qay tarzda xiyonat qiladi? — Qozining tadbirkorligini so'zlab bering. — Asarda bu voqealardan qanday xulosa chiqarilgan? — Hiyonatchiga qanday jazo qo'lladilar? Bu jazo sizningcha og'irmi yoki yengilmi?

U kishining do'sti o'rnida bo'lganingizda nima ish qilgan bo'lardingiz?

Ifodali o'qish malakalarini aniqlash. Asar matni o'quvchilarga qismlarga bo'lib o'qitiladi.

Asar matni yuzasidan o'quvchilar tuzib kelgan reja o'qitiladi.

Reja namunasi

1. Bir kishi do'stiga omonatini topshirdi.
2. Do'stining xiyonati.
3. Xiyonatning jazosi.

Reja asosida to'liq qayta hikoyalatish.

O'quvchilar javobi misollar bilan to'ldirilib xulosalanadi.

II. Yangi mavzu ustida ishslash.

1. Hadislardan namunalarni o'qib-o'rganishga tayyorgarlik.

O'qituvchining bayoni. Bunda «Qur'on» va Hadis haqida qisqa ma'lumot beriladi. Kitoblar ko'rsatiladi. «Qur'on» haqida ma'lumot.

«Qur'on» — musulmon kishilarning muqaddas kitobi. «Qur'on» — «Qiroat» degan ma'noni bildiradi. Qur'onning so'zlari Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va boshqalar tomonidan 23 yil davomida yod olingen va xat bilan bitilgan. Qur'on kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, saxiylikka undaydi. Qur'onda yolg'onchilikning ko'p turlari aytildi. Uning eng yomon xiyonat deyilgan.

Chaqimchilik qoralangan. Shirinsuxan bo'lishlik targ'ib qilingan.

«Qur'on» oyatlarida eng asosiy muomala qoidalari sifatida quyidagilar berilgan:

- Ota-onaga bilan gaplashganda ularga og'ir botadigan gap aytmaslik.
- Ota-onaga ehtirom bajo keltirish.
- Ota-onaga rahm-shafqat bajo keltirish.
- Ularning haqiga duo qilish.

O'qituvchi bularning ma'noasini o'quvchilar bilan suhbat orqali ochadi.

Hadis haqida ma'lumot

Hadis — Sunnat so'zi bilan bir xil ma'noda. Hadisda Rasullohning hayoti va faoliyati, axloqiy ko'rsatmalari haqida rivoyatlar berilgan.

Hadislar oldin og'zaki bo'lgan. Ularni hadischilar el orasida, davrlarda aytib yurgan. Imom Ismoil al Buxoriy ishonchi 100 000 va ishonchsiz 200 000 hadisni yod bilgan. U hayoti davomida 600 000 hadis to'plagan.

Al Buxoriy bilan Barsada hadis eshitgan Homid ibn Ismoil shunday

deydi:

Biz birga ustozdan 15000 hadis eshitdik. Buxoriydan «Nega siz hadislarni yozib olmayapsiz? deganimizda ular bu hadislarni men yodlab olayotirman» deb javob bergan va yoddan aytib turgan, biz esa xatolarimizni tuzatib olganimiz.

Rivoyatlarda: «U qaysi bir kitobni bir marotaba mutolaa qilsalar, hammasi yod qolaverardi», deyiladi.

2. Hadislар matni bilan tanishtirish.

 **3. O'qilgan matn yuzasidan suhbat.** — Qur'on Karim — qanday kitob? — Qur'oni Karimda nima haqida fikrlar berilgan? — Hadisda qanday rivoyatlar berilgan?

4. Matnni o'qitish. Shu savollarga mukammal javob berish uchun matn o'quvchilarga qayta o'qitiladi.

5. Hadis namunalarini o'qish va ularda ifoda etilgan fikrning ma'nosini izohlash.

6. Tanlab o'qish. — Ilm haqidagi hadislarni topib, qiroat bilan o'qing. — Tangri qanday kishilarni yoqtiradi? Kimlarni yoqtirmaydi? Shular ifoda etilgan hadisni o'qing. — Salomlashishning xislati ifoda etilgan hadisni topib o'qing. — Tangri qanday kishilarni do'st tutadi? Shu hadisni ifodali o'qib bering. — Chaqimchilik haqidagi hadisni qiroat bilan o'qing. — Rasulloh amallarning eng yaxshilari deb nimalarni ko'rsatadi? Shu hadisni qiroat bilan o'qing.

7. Darsda o'rganilgan hadislар yuzasidan yakunlovchi suhbat.

— Darsda nimalardan namunalar o'qidik? — Qur'oni Karim insonlarni nimaga undaydi? — Qur'oni Karim kimlar tomonidan necha yilda yod olingan? — Hadis nima haqida bo'lar ekan? — Hadis aytuvchilardan kimlarni bilib oldingiz? — Hadis o'qib, unga amal qilmaganlarni haqiqiy inson deb bo'ladimi? — 3-sinfda o'qigan hadislaringizdan yod ayta bilasizmi?

8. Hadislardan tarbiyaviy xulosa chiqarish.

— Hadisdislarda aytigelan qaysi ijobjiy xislatlar sizda bor? — Yomon xususiyatlardan qaysilari bor? — Inson o'zidagi yomon xususiyatlarni qanday qilib yo'qotadi? Siz bu borada nima qilyapsiz?

 **9. Uyga vazifa.** Hadislardan namunalar matnini ifodali qilib o'qib kelish. Ularning ma'nosini izohlash. O'zlariga yoqqan hadislarni yod olish.

10. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

XALQ OG'ZAKI IJODI. QO'SHIQLAR QANOTIDA (6 SOAT)

O'quvchilar badiiy adabiyot namunalari bilan alla misolida go'dakligidan tanishadilar. Keyinchalik ertak, sanama, tez aytish topishmoq, maqol kabi turli janrga mansub asarlarga duch keladilar. Har bir asarning o'ziga xos maqsadi, mazmuni bo'lgani kabi, har bir adabiy janrning ham o'ziga xosligi bo'lishi tabiiy.

Xalq og'zaki ijodiga mansub qo'shiqlar ohangdorligi musiqa yordamida ijro etilishi, yengil kuylanishi bilan ajralib turadi. Qo'shiqlarning ta'sir quvvati kuchi bo'ladi: bir marta eshitilgan yoki ijro etilgan qo'shiq uzoq vaqtlar qulog'imiz ostida sado berib turadi.

Qo'shiqlarning inson qalbiga yaqinligining asosiy omillaridan biri xalq orzu-istagi, umid va armonlari, quvonch-u tashvishlarining nozik pardalarda kuylanishi bilan bog'liq.

Ayrim qo'shiqlar tabiat hodisalari bilan bog'liq bo'lsa ("Boychechak"), ayrimlari hayvonot olami ("Xo'p hayda"), ba'zilari xotirani mustahkamlash ("Chori chambar") bilan bog'liqdir.



MAVZU. KO'KLAM ELCHISI

O'quv materiali. Boychechak.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga xalq ogzaki ijodi, xalq ertaklari, qo'shiqlari haqida ma'lumot berish. Ularning she'rni ifodalgi o'qish ko'nikmalarini oshirish. O'quvchilar lug'atini ayron, baxmal so'zлari bilan boyitish.

2. O'quvchilarda do'stlikni qadrlash, saxiylik, nochorlarga g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini shakllantirish.

3. O'quvchilarni xalqimiz ijodiy merosini o'rganish, ular haqida mushohada yuritish, xalq og'zaki ijodi namunalarini mustaqil o'qish va saqlab qolishga o'rgatish.

Darsning metodi. yarim izlanishli muammoli metod. Suhbat metodi.

Darsning jihizi. Xalq urf-odatlari aks etgan rasmlar, "O'zbek xalq ertaklari" kitobi, "Alpomish" dostoni.

Darsning borishi.

1. O'quvchilarni xalq qo'shiqlarini o'rganishga tayyorlash.

- 1) Doskaga kelin salom, sumalak pishirish, beshik tebratayotgan

ona aks ettirilgan rasmlar ilib qo'yildi. "O'zbek xalq ertaklari" kitoblari ko'rgazmaga qo'yildi. Rasmlar asosida suhbat.

— Rasmlarda nimalar aks ettirilgan? (Kelinsalom, sumalak sayli, alla aytayotgan ona)

— Kim menga alla qo'shig'ini aytib bera oladi?

O'qituvchi:

Alla

Yot bolam, uxla qo'zim,

Uylarda o'chdi chiroq.

Uxlar asalarilar

Uxlar baliqlar tinchroq.

Ko'zlarining yumgina qo'zim

Yot quvonchim, kunduzim,

Alla bolam allayo

Orom olgin allayo.

— Allani kim yaratadi? — Ko'rgazmaga qo'yilgan kitoblarga e'tibor qiling. Ular nima haqida yozilgan? (Biz eshitgan va o'qigan ertaklar haqida yozilgan.) — Qanday ertaklarni o'qigansiz? ("Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar", "Bo'g'irsoq".)

Suhbat yakunida o'qituvchi aytigelgan she'r, qo'shiq, ertaklarning muallifini so'raydi. O'qituvchi hikoyasi.

O'qituvchi hikoyasi: Allalarni, ertaklarni, dostonlarni kim yaratgan?

Yozgan kishilar noma'lum. Shuning uchun ularni xalq yaratgan deymiz.

Ular xalq og'zaki ijodi deyiladi. Xalq she'r, qo'shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, lof, doston kabilarni yaratgan. Hozir xalq qo'shiqlaridan "Boychechak"ni o'qiyimiz.

Kim «Boychechak» qo'shig'ini biladi?

2. *She'rni o'qituvchi o'zi ifodali yod aytib beradi.*

3. *Lug'at ustida ishlash*

ayron — qatiqdan tayyorlanadigan ichimlik

baxmal — qalin mato, bu yerda yashil o't-o'lan ma'nosida kelgan.

4. *Yangi mavzu yuzasidan dastlabki suhbat.*

— She'r nima haqida ekan? (Boychechak haqida ekan.)

— Boychechak qaysi faslning darakchisi hisoblanadi? (Boychechak bahor darakchisidir.) — Bu qo'shiqni qaysi bayramda ijro etadilar? (Qo'shiqni Navro'z bayramida ijro etadilar.)

5. *Sherni o'qitish*, she'r 8-10 o'quvchiga ifodali o'qitiladi.

6. *She'r matni tahlili.*

Sinf bir necha guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga she'r matniga doir savol-topshiriq beriladi.

O'qituvchi guruhlarga savolni bir so'z ko'rinishida doskaga yozadi. Masalan:

I guruh Ohangdosh so'zlar	II guruh Naqorat	III guruh Bo'g'in
IV guruh Jonlantirish	V guruh She'r misralari	

1-guruh javobi: Ohangdosh so'zlar – misralarning oxirida keladi. Ular qofiya deb yuritiladi. Masalan, “Boychechak” she'rida boylandi, ayrondi, vayrondi; qatalab, yumalab; tutdilar, osdilar, chopdilar, yopdilar so'zları qofiyadosh bo'lib kelgan.

2-guruh javobi: Naqorat qo'shiqda takrorlanib kelgan misralar. Masalan: *Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak* misralari naqorat hisoblanadi.

– Madhiyadagi naqoratni eslang.

3-guruh javobi: Bo'g'in – so'zdagi qismlar. So'z bo'g'inlarga bo'linadi. “Boychechak” she'rining 1-misrasida 7 bo'g'in bor:

Boy-che-cha-gim boy-lan-di.

Naqorat 12 bo'g'nli:

Qat-tiq yer-dan qa-ta-lab chiq-qan boy-che-chak.

4-guruuh:

Jonlantirishda jonsiz narsalar jonlanadi:

Boychechagim boylandi,

Ko'chama-ko'cha aylandi.

5-guruuh:

She'r “misra va naqoratda” bor.

Guruhlarga o'qituvchi yoki guruhlar o'zar o'quvchilar ham baho berishadi. G'olib guruhgaga o'qituvchi biror badiiy kitob sovg'a qilishi mumkin.

7. *Tanlab o'qish.*

– 1-to'rtlikni o'qing. Unda nima uchun ayron so'zi ishlatilgan?

– Odamlar boychechakni nima qiladilar? Shu o'rinni topib o'qing.

– 3-to'rtlikni o'qing. Bu to'rtlikda qanday fikr ifodalangan?

8. *Ifodali o'qish musobaqasi.*

9. *Yangi mavzuni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.*

– Bahor faslida, Navro'z bayramida yana qanday qo'shiqlar kuylanadi? Qo'shiqlar odamlarning tarbiyasiga ta'sir qiladimi? «Boychechak» qo'shig'ini o'rganish orqali sizda qanday kayfiyat

paydo bo'ldi? (Boychechak guli ko'z oldimga keldi. Bahor keldi, deb dilim quvonchga to'ldi. Odamlarga yaxshilik qilgim keldi...)

 **10. Uyga vazifa.** She'rni yod olish. Boychechak rasmini chizish.

11. O'quvchilarning reyting ballarini e'lon qilish.



MAVZU: JONIVORLARGA G'AMXO'RLIK

O'quv materiali. "Ho'p hayda" she'ri.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilariga xalq qo'shiqlaridan bo'lgan mehnat qo'shiqlari, ularning turlari haqida ma'lumot berish. Mehnat qo'shiqlarida voqelikning inson ichki kechinmalari orqali ifodalananishi haqida tus-huncha hosil qilish. O'quvchilarning mehnat qo'shiqlarining mazmuni bilan tanishtirish, matn va lug'at ustida ishslash malakalarini oshirish.

2. Mehnat qo'shiqlari orqali o'quvchilarini mehnatni sevishga, o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rgatish.

3. Dars mavzusiga bog'liq holda o'quvchilarining lug'atini boyitish, fikrlashga, xulosa chiqarishga o'rgatish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish.

Darsning metodi: Deduktiv, suhbat metodi.

Darsning jahozi: Darslik, qadimgi hunarmandchilik buyumlari, rasmlar.

Darsning borishi:

1. *O'tgan darsda o'rganilgan bilimlarni so'rash va mustahkam-lash.*

- "Tuyalar" qo'shig'i nima haqida ekan?

- Nima uchun pirning sochi oltin soch deyilgan?

- "Boychechak" qo'shig'ida qanday badiiy vositalar qo'llangan?

O'tilgan she'rlardan o'xshatishni topib, uni izohlab bering.

- "Oftob chiqди olamga" she'ridagi qofiyadosh so'zlarni toping.

- "Laylak keldi — yoz bo'ldi" she'rini yod aytинг?

O'qituvchi "Laylak keldi — yoz bo'ldi" qo'shig'ini, butun sinf bilan kuylaydi.

2. **Guruhlararo bellashuv.** "Bo'lishi mumkin emas" o'yini.

Bu o'yinni o'tkazishda o'qituvchi matnlarni guruhlarga tarqata-di. Guruh ishtirokchilari bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealar ifo-

dalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Matn oxirida qo'shimcha savol-topshiriqlar ham berish mumkin. Masalan, Matnga sarlavha qo'ying, Matnni qismlarga bo'ling, Qismlar bo'yicha savollar tu-zing.

Hazil-mutoyibaga asoslangan bu o'yin o'quvchilardan ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo'layotgan voqeа va hodisalarga befarq bo'lmaslikni talab qiladi. Ularning hikoya tinglash ko'nikmasini takomillashtiradi.

Darsda hunarmandchilikka oid matnlar tanlanadi.

1-guruh matni. Akromning otasi Adham aka duradgor. U odamlarga rom, eshik, chaqaloqlarga beshik, ro'zg'or buyumlari: xontaxta, o'qlov, sabzitaxta yasaydi. Uning tikkan ko'ylaklarini el sevib kiyadi. Kelajakda Akrom ham mashhur usta duradgor bo'lmoqchi. Shuning uchun hozirdan tikuvchilik sirlarini sidqidildan o'r ganmoqda.

2-guruh matni. Halima opa — tikuvchi. Halima opani mahallamiz xotin-qizlari yaxshi bilishadi. Opa ko'ylaklarni bejirim, chiroli tikadi. Pishiriqlar mazali bo'lgani uchun uning uyidan odamlar arimaydi. Halima opaning pishiriq pishiradigan shogirdlari ko'p.

3-guruh matni. Farhodning buvisi tog'da turadi. Buvisinikida si-gir, qo'y, echki boqishadi. Farhod buvisinikida sigirlarga don berishga yordamlashadi, buvisi sigir sog'ayotganda uloqchasini ushlab turadi. Uloqchaning suti juda mazali va to'yimli bo'ladi.

4-guruh matni. Kashtachilik bilan o'zbek xotin-qizlari qadimdan shug'ullanishadi. Ular do'ppi, sochiq, chopon, qiyiqcha kabi buyumlar-ga nafis, chiroli kashtalar tikishadi. Yurtimizda ayniqa zardo'zi piyola, choynaklar juda mashhur. Ular yosh kelinchaklarga juda yarashadi.

5-guruh matni. Saharda tog'da havo salqin bo'ladi. Shunga qaramay Shokir ota erta turib qo'y-qo'zilarni o'tlatgani olib chiqadi. Chorvachilik unga ota kash. Har gal qo'ylar qo'zilaganda otaning dili yorishib ketadi. Har bir gulni alohida e'tibor bilan parvarish qiladi.

3. O'quvchilar o'rinsiz ishlatilgan jumlanı topishgach, kasblar yuzasidan suhbat o'tkaziladi. — Uyga qadimda kishilar shug'ullangan hunarlar haqida ma'lumot to'plab kelish topshirilgan edi. Qanday kasb-hunar haqida ma'lumot to'pladingiz? (Etikdo'zlik, dehqon-chilik, chorvachilik, kashtachilik, sholikorlik va hokazo haqida bilib keldik.) — Dehqonchilik bilan shug'ullangan kishilar nimalar yetishtirishadi? (Dehqonlar poliz ekinlari: qovun, tarvuz yetishtirishadi.) — Sizlarga qanday kasblar yoqadi? (Kashtachilik, bog'bonlik, tikuvcilik, zargarlik va hokazo.) Kasbning ustasi bo'lish uchun nima qilish kerak?

4. Yangi mavzu.

O'qituvchi hikoyasi.

— Qadimda O'rta Osiyoda "32 xil hunar" egalari yashaydigan joy shahar hisoblangan. Dehqonchilik bilan asosan qishloqlarda shug'ullanishgan. Shahar mehnatkashlari bo'zchilik, shoyido'zlik, misgarlik, aravasozlik, gilam to'qish, namat bosish, temirchilik, zargarlik, kulolchilik, pichoqchilik bilan shug'ullanar ekan.

Xalq mehnatkashlari ezilib kun ko'rар, topganlarini bazo'r ro'zg'orga yetkazar edilar. Mehnat qilish jarayonida ular o'zi ichki kechinmalarini qo'shiqlar orqali ifoda etar edilar. Shu tariqa xalq qo'shiqlari paydo bo'lgan. Bu qo'shiqlarda mehnatkashlarning dard-alamlari, g'amtashvishlari, quvonchlari, istak-xohishlari kuylangan. Bugun darsda yanchish qo'shig'i bo'lgan "Ho'p hayda" qo'shig'ini o'rganamiz. Bu qo'shiqnini bug'doyni po'stidan ajratish vaqtida kuylashgan.

O'qituvchi she'rni ifodali o'qib beradi.

5. Lug'at ustida ishlash.

Qalqon — jangchini dushman quroldidan himoya qiluvchi aslaha. She'rda qulog'i qalqonga o'xshatilgan.

tuyog — molning oyog'i

xirmon — yeg'ishtirilib, to'plangan, yig'ib olingan hosil

judo — ayriliq

6. Ifodali o'qish mashqi.

7. *Ifodali o'qish musobaqasi.* Har bir guruhdan tanlangan ikki o'quvchi she'rni ifodali o'qib berishadi.

8. *She'rdagi badiiy vositalar aniqlatiladi.* Savollar asosida otning qulog'i qalqonga, tuyog'i temirga o'xshatilgani; mayda-qayda

9. Darslikdagagi savol topshiriqlar ustida ishlash.

— Xirmon egasi otni qanday so'zlar bilan erkalatadi? (Otni qalqon qulog'im, temir tuyog'im, jonivorim deb erkalatadi.)

— She'rda xirmon egasining ahvoli qanday tasvirlangan?

10. *Mavzu yuzasidan o'rganilganlarni umumlashtirish, tarbiyaviy xulosa chiqarish.* — Bugun qaysi mavzudagi qo'shiqnini aytdingiz? — Bu qo'shiqlar qanday paytlarda to'qilgan va aytilgan? — Mehnat qo'shiqlarini odamlar nima maqsadda aytgan? — Qadimda mehnat og'ir bo'lgan deyishadi? Nima uchun? Siz darsdan tashqari paytda nima ishlar qilasiz?

 11. *Uyga vazifa. She'rni yod olish.* Mehnat qo'shiqlaridan namunalar topib kelish.

12. O'quvchilarni rag'batlantirish.

ERTAKLAR MAMLAKATIDA (22 soat)

Xalq og'zaki ijodi janriga mansub bo'lgan ertaklar xalqimizning asrlar mobaynida orttirgan boy hayotiy tajribasi, kuzatishlari, xulosalari asosida yaratilgan bo'lib, insonni ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik, hushyorlik, ziyraklik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Insondagi fazilat va kamchiliklar ba'zi ertaklarda hayotdagি real qahramonlar orqali ko'rsatilsa, ayrim ertaklarda hayvonlar, parranda-yu darrandalar misolida yoritiladi.

Ertaklardagi sirli, sehrli voqealar tasviri o'quvchilarning yosh xususiyatlariiga mos bo'lib, asarning mazmun-mohiyatining o'zlashtirilishlariga imkon yaratadi.

Bo'lim materiallarini quyidagicha rejalashtirish mumkin:

Darslar o'qish va yod olish uchun materiallar. Darsning mavzusi ajratilgan soat



MAVZU. ITTIFOQLIK — BADAVLATLIK ASOSI

O'quv materiali. «Davlat» ertagi.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga ertak, uning kelib chiqishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Ertakni ifodali, rollarga bo'lib o'qish ko'nikmasini o'stirish. O'quvchilar lug'atini sharofat, tanob, beqiyos, huzur, ijozat, musibat, xushnudlik so'zлari bilan boyitish. Ertak matnini qimsлага bo'lish, reja tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

2. «Davlat» ertagi orqali o'quvchilarda hamjihatlik, inoqlik, do'stlikni qadrlash tuyg'ularini o'stirish. Halol mehnat qilishga undash.

3. Ertakni o'qib qissadan hissa chiqarishga, uni do'stlari bilan mushohada etishga o'rnatish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Darsning metodi: Deduktiv, suhbat metodi.

Darsning jihози: Ertak kitoblari, tarqatma materiallar, ertakka ishlangan rasmlar.

Darsning borishi.

I. Uyga berilgan «Xop hayda», «Chori chambar» she'rlarini so'rash va baholash.

Xalq qo'shiqlari yuzasidan suhbat.

- Xalq qo'shiqlarining qanday turlarini o'randingiz?
- (Bolalar folklori, mehnat qo'shiqlarini o'rgandik).
- Qanday bolalar qo'shiqlarini bilasiz?
- («Boychechak», «Tuyalar», «Oftob chiqdi olamga», «Yomg'ir yog'aloq», «Chori chambar» qo'shiqlarini bilamiz).
- Qo'shiqlarda qanday badiiy vositalar qo'llanar ekan? Misollar bilan tushuntiring.
- Ko'chama-ko'cha aylandi» misrasida jonlantirish; «Pring keltir, ko'rayin,
- Oltin sochib yuvayin» misralarida o'xshatish qo'llangan).
- «Ho'p payda» qo'shig'i qaysi mehnat turi jarayonida kuylangan? («Xo'p hayda» donni po'stidan ajratish paytida kuylanadigan qo'shiq).
- «Qo'shiqlar qanotida» bo'limida yod olgan qo'shiqlaringizni yod aytинг.

II. Yangi mavzu bayoni.**1. O'quvchilarни ertak o'qishga tayyorlash.**

O'quvchilardan qaysi ertaklarni o'qilganliklari, ulardan olgan taassurotlari so'raladi.

O'qituvchinig hikoyasi: — Ertaklarni o'qish sevimli mashg'ulotingizdir. Ertaklardagi qiziqarli voqealar — uchar gilamda sayohat, ur to'qmoq, ochil dasturxon, qayna xumchaning sehrli fazilatlari sizni o'ziga tortadi. Ertaklar ham xalq qo'shiqlari singari xalq og'zaki ijodi mahsulidir. Ertaklarda xalqning orzu-umidlari, o'yfikrlari, xohish-istiklari o'z aksini topgan.

2. Ertaklar qanday gaplar bilan boshlanib, qanday tugaydi?

Ertaklar quyidagicha boshlanib: «Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Och ekanda, to'q ekan. Bo'ri bakovul ekan, chumchuq chaqimchi ekan. Qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan...». Hammalari murod-maqsadlariga yetibdilar deb tugallanadi.

3. Lug'at ishi:

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| D <i>tanob</i> | — qadimgi yer o'lchovi; |
| <i>beqiyos</i> | — o'xhashi yo'q; |
| <i>huzur</i> | — halovat, rohat; |

4. Guruhlarga bo'linib ertak matni ustida ishlash. Jami o'quvchilar 4 ekspert guruhiга bo'linadi.

O'qituvchi ularni **ekspertlar** deb nomlaydi. Har bir ekspert guruh o'ziga tegishli matn qismini o'qib o'rganadi. So'ng ekspertlar boshqa guruhlarga tarqalishadi. Yangi tashkil qilingan guruh-

lar har bir ekspert guruuhda bittadan vakil bo'lishi shart. Matning boshlang'ich qismini qaysi ekspertga tegishli bo'lsa o'qib, mazmuni ni so'zlab beradi. Shu tariqa barcha guruh a'zolari o'ziga tegishli qism bilan boshqa o'quvchilarini tanishtiradi. Guruh a'zolari eng yaxshi tushuntirgan ekspertni tanlaydi. Qaysi ekspert guruh ko'p ovoz to'plasa g'olib chiqadi.

5. Savol tuzish mashqi.

6. Har bir guruh o'z qismining rejasini aytadi.

Guruhlar qaytadan ekspert guruhlariga birlashib, o'ziga tegishli qism asosida savollar tuzishadi. Bunda o'qituvchi ularga yordam berib turadi. Quyidagicha savollar tuziladi. Kimning sharofati bilan dehqon boyib ketadi? Davlat nima deb dehqondan ruxsat so'rabdi? Deqon Davlatga nima uchun ruxsat bermabdi? Dehqon kimlarni yig'ib maslahatlashibdi? Dehqonga kichkina kelin nima deb javob beribdi? Oila a'zo kelinning gapiga ko'nishibdimi? Nima uchun Davlat dehqonning uyida umrbod qolishga jazm qilibdi? Davlat qanday oilada bo'lar ekan?

7. Rollarga bo'lib ertakni o'qish mashqi. O'qituvchi har bir ekspert guruhdan bittadan ishtiroqchi tanlashni buyuradi. Har bir ishtiroqchiga rol taqsimlab beriladi. Rollarga bo'linib o'qishda tinish belgilariga rioya qilish uqtiriladi. Eng yaxshi o'qiydigan o'quvchi g'olib sanaladi.

8. Darslikdagagi savol-topshiriqlar ustida ishslash.

— Deqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan? (Dehqonnikida bir necha yil Davlat yashar ekan. Shuning uchun xonadoni rohat-farog'atda, boy-badavlat yashar edi: Dehqonning mollari, yerlari, oltinlarining hisobi yo'q ekan). — Nima uchun Davlat dehqonning uyidan ketishni xohlamadi? (Kelinning gapi bilan hammalari ahil bo'lib mehnat qilishga kirishishadi: Bunday inoqlikni ko'rib, Davlat dehqonning uyidan kетmabdi).

9. Mavzuga oid maqollar to'plash. Har bir guruhga biror maqol asosida rebus tuzdirish mumkin. O'qituvchi rebus tuzishda yordam berib turadi.

Quyidagicha rebuslar tuzish mumkin.

Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer.

Do'st so'zini tashlama,

Tashlab boshing qashlama.

Quyosh havoni istar,

Do'tslik qalbni.

Darsda o'rganilganlar yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqaring. «Davlat» ertagini o'qish orqali qanday xulosaga keldingiz? Sizning oilangizdagilar bir-birlariga qanday munosabatda bo'ladilar? Ular qanday ishlar bilan shug'ullanadilar?

10. *Uyga vazifa.* «Davlat» ertagini ifodali o'qib, gapirib berishga tayyorlanish. Ertak asosida rasm chizish.

11. *O'quvchilarni rag'batlantirish.*



MAVZU. BILIM OL, HUNAR TANLA

O'quv materiali. «Ilm afzal» ertagi.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning ertak janri haqidagi bilimlarini boyitish. Ularning ertak matnnini ifodali o'qish, qismlarga bo'lib reja tuzish, savollar tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish. Ertakda qo'llangan badiiy san'at turlari haqida ma'lumot berish.

2. O'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish. Ertak matni, ilmga oid maqol va matallar orqali ilm olishning afzalligini tushuntirish.

3. O'quvchilarni guruuhda ishslash, yangi mavzuni guruuhda munozara orqali anglab yetish ko'nikmasini shakkantirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Darsning metodi. Induktiv, suhbat, izlanish metodi.

Darsning jahozi. Asar mazmuniga ishlangan rasm, rebuslar to'plami.

Darsning borishi:

1. ***O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat o'tkazish.*** — Ertaklarni kim ijod etadi? — «Davlat» ertagi nima haqda yozilgan? («Davlat» ahil, inoq bo'lib mehnat qilish haqida yozilgan ertak). — Ertakning bosh qahramonlarini sanab bering. (Davlat, dehqon va uning kenja kelini). — Sizlarga qaysi qahramon yoqadi? Nima uchun? — Ertakdan qanday xulosaga keldingiz? (Ahil, inoq, halol mehnat qilib, boylik orttirish kerak).

2. ***Ertak janri bo'yicha qo'shimcha ma'lumot.*** Qadimda o'zbeklar orasida ertaklar «Cho'pchak» deb yuritilgan.

Ertaklarda xalqning orzulari ifodalangan. Ularda urto'qmoq, ochildasturxon, qaynarxumcha, uchargilam orzu qilingan. Ulardan ayrimlari so'zlatiladi.

3. ***Guruhlarga bo'linib yangi mavzuni o'zlashtirish.*** O'quvchilar 5 guruhgaga bo'linadilar. Guruhdagi ishtirokchilariga rollar bo'lib beriladi. Har bir rol egasiga biror vazifa yuklatiladi. Guruh ishtirokchilarining rollari:

1. Matndan parchalarni topuvchi — bu o'quvchilar vazifasi guruh eshtishni xohlagan mantdan savollarga javob bo'ladi va boshqa talab asosida biror parchani tanlaydi.

Tadqiqotchi — matndan har qanday savolga tegishli ma'lumotni taqdim qiladi.

Savollar heruvchi — munozara uchun asar matni asosida savollar tuzdi.

So'zlar axtaruvchi — bu o'quvchi lug'at ishi uchun material to'playdi.

Nazoratchi — guruhdagi o'quvchilarga yordam beradi, o'quvchilar bir-birining so'zini bo'lmasligini, ishda qatnashishini, ajratilgan vaqtga rioya qilishni nazorat qiladir.

Qahramonlarning tafsilotchisi — matn qahramonlariga tavsif beradi va ular qandayligi haqida boshqa o'quvchilar bilan muhokama qiladi.

Namoyishchi — matnga doir rasmlar chizadi.

O'qituvchi o'zining yoki o'quvchilarning xohishiga ko'ra yangi rollar o'yashi mumkin. Guruh ishtirokchilari rollarni o'zaro guruh ishida taqsimlaydilar.

O'qituvchi rollarni taqsimlashda guruhga yordam berib turadi.

Ertak matni 5 qismga bo'linadi va 5 guruhga 1 tadan qism ajratiladi. Har bir guruh o'ziga ajratilgan qism bo'yicha rollarga bo'linib ish olib boradi.

Matnni o'qituvchi oldindan o'zi yoki o'quvchilar bilan birgalikda qismlarga bo'ladi:

«Ilm afzal» ertagi taxminan quyidagicha qismlarga bo'linadi:

1. Otaning qizidan maslahat olishi yoki aqli qiz masalahati.
2. Ota va o'g'illar munozarasi.
3. To'ng'ich o'g'il javobi.
4. O'rtacha o'g'illarining javobi.
5. Kenja o'g'ilning javobi.

Quyida bir guruh ishtirokchilar bajaradigan ishlar tavsilini keltiramiz.

1. Matndan parchalar topuvchi — guruhga berilgan qismning boshi va oxiri — chegarasini aniqlab guruh ishtirokchilariga o'qib beradi. Ular bilan qism chegarasining to'g'ri belgilaganligi yuzasidan munozara uyushtiradi: 1-qismning chegarasi — ertak boshidan «o'g'illar otasining bu gaplarini eshitib, hayron bo'lishibdi...» joyigacha belgilanadi.

2. So'zlar axtaruvchi — o'qib berilgan matndan ma'nosi tushu-

narsiz so'zlarni yozib boradi. Guruh ishtirokchilari bilan ularning izohini topadi.

<i>Qariya</i>	— keksa kishi
<i>omi</i>	— bilimsiz
<i>badbaxt</i>	— baxtsiz
<i>Moli padar, pasi padar</i>	— ota moli o'zi bilan (tojik maqoli)
<i>Savollar beruvchi</i>	guruh ishtirokchilarining e'tiborini qism yuzasidan savollar tuzishga qaratadi. Bu savollar ertak parchasini gapirib berishga yordam berishi kerakligi uqtiriladi.

1-qism bo'yisa taxminan quyidagi savollar tuziladi.

- Qariya qaysi qishloqda yashagan ekan?
- Boboning nechta farzandi bor ekan?
- Ota qiz bilan qanday qarorga kelishdi?
- Cholning o'g'illari savollarga qanday javob berishdi?

Tadqiqotchi — matndagi badiiy til vositalarini aniqlash va guruh ishtirokchilarini ularni izohlashga da'vat etish lozim.

Matda qo'llangan badiiy til vositalari o'xshatish: «Bu dunyodan ko'z yumsam» — vafot etsam.

Qahramonlarning tafislotchisi — cholning o'g'illariga tavsif berishadi, munozara uyuşturmali.

«Chol, o'zim omiligimcha qoldim, qani endi o'g'illarim o'qib odam bo'lsa, deb orzu qilarkan».

Namoyishchi rassom — matndan foydalanib chol va qiz suhbatining rasmini chizadi.

Nazoratchi — guruh ishiga ajratilgan vaqtini, ishning aniq va to'liq bajarilayotganini, guruh a'zolarining o'z vazifasini qanday bajaryotganligini nazorat qilib turadi:

4. *Taqdimot.* Guruh a'zolari o'zлari bajargan ishni sinf hukmiga taqdim etadi.

5. *Baholash.* Guruhlar jadval asosida baholaydi. Jadvaldagи baracha baholat yig'indisi 5 ga bo'linadi. Baholanayotgan guruh o'ziga ham baho qo'yadi.

Matndan parcha topping

Tadqiqotchi

Savol ber.

So'z axtar.

Nazoratchi

Rassom

Darsda agar vaqt qolsa rollarga qarab eng yaxshi tadqiqotchi, eng yaxshi savollar beruvchi va hokazo rol egasi aniqlanib, taqdirlanishi mumkin.

 **6. Uyga vazifa.** «Ilm afzal?» ertagini o'qib kelish. «Nima uchun ilm afzal» savoliga yozma javob yozish. Ilmnинг afzalligi haqida maqollar to'plash.

Izoh. «Ilm afzal» ertaginining 2-bo'limi ham shu tarzda o'r ganilishi mumkin.

ADABIY ERTAKLAR



MAVZU. ZULM JAZOSIZ QOLMAS

O'quv materiali. Bo'rining tabib bo'lgani haqidagi ertak. (I,II,III bo'lim) Anvar Obidjon

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning ertak jangi haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash, boyitish. Ularning matnni ifodali o'qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.
2. O'quvchilarning rostgo'ylik, to'g'riso'zlik fazilatlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, yolg'onchilik, ochko'zlikka qarshi nafrat uyg'otish.
3. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog'lanishli nutqini o'stirish, nutqlarining ta'sirchan bo'lishiga erishish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Darsning borishi:

Da'vat bosqichi: Maqsad. O'quvchilarda mavzuni o'rganishga va izlanishga rag'bat uyg'otish.

Metod: Izlanish, suhbat metodi. — Ertaklar qanday janr? (Ertaklar xalq og'zaki ijodi janri.) — Ertaklarni qadimda qanday nomlashgan? (Ertaklarni cho'pchak deb atashgan). — Ertaklarda xalqning nimasi hikoya qilinadi? — Ertaklarni kimlar ijod etadi? (Ertaklarni xalq va yozuvchilar ijod qiladi).

 **O'qituvchi hikoyasi.** Bolaligida eshitgan ertagidan ilhomlanib yozuvchilar bolalarga atab ertaklar yozishadi. Sizlar sevib tomosha qiladigan «Oltin baliqcha», «Shoh sultan haqidagi ertaklarni ham rus yozuvchisi Aleksandr Sergeevich Pushkin yozgan. Bugun o'qib o'rganadigan «Bo'rining tabib bo'lgani haqidagi ertak»ni ham bolalar shoiri Anvar Obidjon yozgan. Ertakni Anvar Obidjon she'r shaklida bitgan.

2. Anvar Obidjon haqida ma'lumot berish. Anvar Obidjon haqida nimalar bilasiz?

II. Anglash bosqichi. Maqsad: O'quvchilarni «Bo'rining tabib bo'lgani haqidagi ertak» asari bilan tanishtirish, ifodali o'qishga, ertak

mazmun-mohiyatini to'g'ri va to'liq anglab, mulohaza yuritishga, o'zaro muhokama qilishga o'rgatish.

Metod. Mustaqil ish, aqliy hujum, kichik guruhlada ishlash metodi.

O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga bir darsga ajratilgan ertak bo'limining bir qismi beriladi.

Topshiriqlar ustida ishlash. Quyida berilgan topshiriqlar konvertga solib, har bir guruhga beriladi.

1. Topshiriq. Berilgan parchani o'qing, ifodali o'qib berishga tayyorlaning.

Bu topshiriq bo'yicha ifodali o'qish musobaqasi uyuştiriladi; 5 ta guruhdan 2 o'quvchi turib, matnni ifodali o'qidi.

2. Topshiriq. O'qigan matn parchasida ifoda etilgan ma'lumotlarni bilib oling. Izohlashga tayyorlaning.

O'quvchilar taxminan quyidagicha fikri bildiradi:

1-guruhi: Anvar Obidjon jahonda qiziq ishlar bo'ladi, yer teskarri aylanib hayvonlarni yeydigan bo'ri ularni davolaydigan tabib bo'ladi, — deydi. Tabib bo'lsa ham yirtqichligini tashlamaganini quyidagi misralarda ifoda etgan:

Ana qarang
Tish qayrab
O'tirar shum shifokor
Yo'lga boqar jodirab,
Tezroq kelsa deb bemor.

2-guruhi: Bo'ri yirtqich bo'lishi bilan birga, hech narsani bilmaydi. Bilimsiz tabibdir. U quyonning biqini qolib chap ko'zini tekshirdi. Oshqozon og'riqni tumov deb ataydi.

Bunga mana bu misralar misol bo'lishi mumkin:

Bo'ri yaqin o'tirdi,	— Kechikamiz dingquloq,
Biqin qolib	Ko'rmasak tez chora gar
Tekshirdi —	Oshqozoning sal chatoq
Quyonning chap ko'zini.	Buni «tumov» deydilar...

3-guruhi: Bo'ri tabib bo'lib bemorlardan faqat o'z foydasini ko'zlaydi. To'ng'izchaning davosini go'shtini kesib topish mumkin deydi.

Tomoq og'riq boshlanar
O'ng oyoqning payidan
Kesib olsak soz bo'lar
Go'shtlikkina joyidan.

3. Topshiriq. Lug'at ustida ishlash. Har bir guruh o'ziga tegishli parchadagi tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzadi. Darslikdag'i lug'atdan foydalananib ma'nosini izohlaydi.

1-guruh quyidagi so'zlarni doskaga yozadi:

ters — teskari; yirtqich — vahshiy; bemor — kasal, betob.

2-guruh: inim — ukam; gar — agar; muolaja qilamiz — davolaymiz.

3-guruh: payi — muskuli; rostlab qoldi juftagin — qochib qoldi.

4. Topshiriq. Berilgan parchadan o'xshatish, jlonlantirish, ko'p ma'noli so'zlarni aniqlang.

Namuna. **1-guruh:** dingquloq (quyon ma'nosida) — ko'chma ma'noda ishlatalig'an.

3-guruh: Rostlab qoldi juftagin (qochib qoldi) — ibora ko'chma ma'noda.

5. Topshiriq. Berilgan parcha asosida savollar tuzing.

Namuna. **1-guruh:** — Bo'ri kim qilib saylandi? — Shum shifokor nimalarni o'ylab o'tiribdi?

2-guruh: — Quyon tabib oldiga qanday kirib keldi? — Uning qayeri og'riyotgan edi? — Bo'ri unga qanday tashxis qo'ydi? — U quyonga qanday davo ni qo'llamoqchi bo'lida?

3-guruh: Tolng'iz bo'rining oldiga qay holatda keldi? Bo'ri to'ng'izning kasali sababini nima deb ko'rsatdi? Nima uchun To'ng'iz juftakni rostlab qoldi?

6. Topshiriq. — Har bir bo'limga mos sarlavha toping.

Namuna. 1. Shum shifokor.

2. Bemor quyoncha.

3. Juftakni rostlagan To'ng'izcha.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad. Darslikda berilgan savol-topshiriqlar orqali egallangan bilimlarni aniqlash. O'quvchilarning xulosa chiqarish ko'rnikmalarini shakllantirish.

Metod. Suhbat, test usuli.

1. Darslikda berilgan 1-2— savollar ustida ishlash.

— Quyon bilan to'ng'iz nima uchun qochib qolishdi?

— Bo'rining huzuriga kimlar shifo izlab keldi?

— Qo'shimcha savollar. Bo'ri nima maqsadda tabib bo'ldi? Tabiblar qanday bo'lishi lozim? Sizning ichingizda shifokor bo'lishni istovchilar bormi? Shifokor bo'lish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

2. Test sinovi.

 3. **Uya vazifa.** Ertakni ifodali o'qishga tayyorlanib kelish.

4. **Guruqlar to'plagan ball e'lon qilinadi.**

 **Izoh.** Ertakning 2-bo'limi ham shu tarzda o'rganilishi mumkin.

Guruqlar quydagi so'zlar ustida lug'at ishi olib boradi.

Tul kampir — beva kampir;
muttaham — aldoqchi, shum;
Dil xushlab — xursand bo'lib;
notetik — og'rib;
darg'azab — g'azabnok, g'azabli;
ozor — tashvish;
quvvatdori — quvvat beruvchi dori;
xapdori — tabletkalar.



MAVZU: TOPISHMOQLAR.

O'quv materiali. Topishmoqlar.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga topshiriqlarning janriy xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Ularning topishmoqni ifodali o'qish, javobini tez topish malakalarini oshirish, ziyraklikka o'rgatish.
2. O'quvchilarning muomala madaniyatini oshirish.
3. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. Ijodiy faoliyatga yo'llash.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, topishmoq o'qish darsi.

Darsning borishi.

Da'vat bosqichi. Maqsad. O'quvchilarning topishmoq haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuga qiziqish uyg'otish.

Metod. Suhbat, izlanish metodi.

1. O'qituvchi doskaga osmondagи yulduzlar, yong'oq, yeryong'oq, arra rasmlarini ilib qo'yadi.

Doskaga quyidagi topishmoqni yozadi: Tunda ko'rib, cho'g' deysan,

Tongda ko'rib yo'q deysan.

— Shu rasmlar ichidan topishmoqning javobini toping.

- Qaysi so'zlar orqali topishmoqlarning javobi yuluz ekanini bilingiz?

Doskaga 2-topishmoq yoziladi: Qo'shaloq tovoq. Ichi to'la yog'.

— Qaysi belgilari ko'ra topishmoqning javobini topdingiz?

3-topishmoq yoziladi. Pilla kabi bo'g'indor. Har bo'g'inda mag'zi bor.

— Yeryong'oqning qaysi belgilari topishmoqda keltirilgan?

4-topishmoq.

Og'zi yo'g'-u tishi bor, Duradgorda ishi bor.

— Javob qaysi so'zlar orqali topdingiz?

O'qituvchi. Topishmoqlarni topishda sizga nimalar yordam berdi?

— Topishmoqda narsaning belgilarini ifodalovchi so'zlar bo'ladi.

— Topshimoqlarda ko'pincha kim?, nima? so'zlariga javob bo'ladigan so'zlar yashirinadi.

2. *Topishmoqlar haqida ma'lumot berish. O'qituvchining hikoyasi.*

 Topishmoq matnida — narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa tomonlari berilgan bo'ladi. Topishmoqlar qadimda jumboq, top-top deb yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusmlari bilan bog'liq bo'ladi.

II. Anglash bosqichi. Maqsad. Darslikda berilgan topishmoqlar bilan tanishtirish. Mustaqil o'qishga, topishmoqlar yuzasidan o'zaro muhokama qilishga o'rgatish.

Metod. mustaqil ish, krossvord yechish, suhbat metodi.

1. *Topishmoqni ifodali o'qish va javobini topish.*

2. *Savol-javob o'tkazish. Savollar.* — Birinchi topishmoqning javobi nimaga o'xshatilgan? (G'o'zaga) Tungi osmon nimaga o'xshatilgan? (ko'k ko'yakka). — 2-topishmoqda oy nima deb ta'riflangan? (patir) — 3-topishmoqda karamni qaysi belgilariga ko'ra topdingiz? (Karamning qavat-qavat bargi qat-qat to'nga o'xshatilgan).

3. *Krossword yechish.*

O'qituvchi krossvordni vatmanga oldindan quyidagicha tayyorlashi mumkin. Krossvord savollari topishmoqlar ko'rinishida bo'ladi. Sinfni 3 guruhg'a bo'lib, har bir guruhg'a 1 tadan krossvord yechish uchun beriladi. Bu, bolalarning topishmoqni tez topishga ishtiyoqini oshiradi.

1-guruh uchun krossvord. *Bo'yiga:*

1. Keragida suvg'a otasan
Qimirlashin poylab yotasan.

2. Kasbi doim taqir-tuqur,
Qayda ilon ko'rsa cho'qir.

6. Birlashtirib kiyimni
Issiq tutadi sizni.

Eniga:

2. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.

4. Katta oppoq dasturxon
Yer yuzini qoplagan.

5. Og'zi yo'g'-u, tishi bor,
Duradgorda ishi bor.

Javoblari: 1. *Qarmoq.* 3. *Laylak.* 6. *Tug'ma.* 3. *Shamol.* 4. *Qor.*
5. *Arra.*

2-guruh uchun krossvord. Bo'yiga:

- | | |
|-------------------------|---------------------------------|
| 1. Tikuvchimas, | <i>Eniga:</i> |
| Bichuvchimas, | 2. Uyning shiftida ini, |
| Ignasi ancha ekan. | Kuylab berar har kuni |
| 3. Kundalik tarix o'zi | Bahorda kutib olib |
| Har yerda uning so'zi | Kuzatamiz kuz uni. |
| 5. Bir onadan yuz bola, | 4. Xo'ppa semiz, bir tuki yo'q. |
| Yuzovi ham bo'z bola. | 6. Uzun terak, ichi kovrak. |

Javoblar: 1. *Tipratikan.* 2. *Gazeta.* 5. *Uzum.* 2. *Qaldirg'och.* 4. *Tarvuz.* 6. *Qamish.*

3-guruh uchun krossvord. Bo'yiga:

- | | |
|----------------------------|------------------------------|
| 1. Pishirsang osh bo'lur, | 5. Bodom kabi yaprog'i, |
| Pishirmasang qush bo'lur. | Sollanadi butog'i, |
| 3. Gulsiz meva qiladi, | O'zi shirin, tukligina, |
| Ko'p yesang — til shiladi: | Mazasi ham totligina |
| G'ir-g'ildirak oy kulcha, | <i>Eniga:</i> |
| Bu nima, kim biladi? | 2. Ikki ajib qulog'i bor: |
| 4. Chopsa chopilmaydi, | Biri tinglar, biri so'zlar. |
| Ko'msa ko'milmaydi. | 6. O'zi qizil, go'zal biram, |
| | Qirga yozar qizil gilam. |
| | 7. Pak-pakana bo'yi bor, |
| | Yetti qavat to'ni bor. |

Javoblar: 1. *Tuxum.* 3. *Anjir.* 4. *Soya.* 5. *Shaftoli.* 2. *Telefon trubkasi.* 6. *Lola.* 7. *Piyoz.*

III. Fikrlash bosqichi. Maqsadi. Darslikdagi savol-topshiriqlarga javob olish orqali egallagan bilimlarini aniqlash. O'yinlar orqali ijodiy izlanish ko'nikmasini shakllantirish.

1. Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash.

- Topishmoqlarni kim yaratgan?
- Topishmoqlar qadimda nima deb nomlangan?
- Topishmoqning qanday foydasi bor?
- O'zingiz qanday topishmoqlar bilasiz?

2. O'quvchilar bir necha qatorlarga ajratiladi. Qator boshliqlari o'quvchilarga biror narsa rasmini beradi. O'quvchi rasmga oid topishmoq aytadi. U aytolmasa, orqadagi o'quvchiga uzatadi. O'quvchilarning o'zlariga shunga doir topishmoqni o'zingiz

to'qishingiz ham mumkin deb aytildi. Qaysi qator topishmoqni birinchi aytsa, o'sha g'olib sanaladi.

 **3. Uyga vazifa.** Darslikda o'qilmagan yangi topishmoqlar topib, daftarga yozib kelish.

4. O'quvchilarni rag'batlantirish.



MAVZU. TOPGAN TOPALOQ

O'quv materiali. "Buni toping, qizlarim". G'afur G'ulom.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning topishmoqlarni ifodali o'qish, matnini tahlil qilish ko'nkmalarini shakllantirish. G'afur G'ulom ijodi haqida ma'lumot berish. Narsa, voqeа, hodisalarni tasvirlay olishga o'rgatish.

2. O'quvchilarda tabiat in'omlaridan bahra olish, uni isrof qilmaslik tuyg'ularini o'stirish.

3. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, ijodiy faoliyatga yo'llash.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi dars.

Dars shakli. Noan'anaviy.

Darsning borishi.

I. Da'vat bosqichi. Maqsadi. O'quvchilarning topishmoq haqidagi tushunchalarini aniqlash va boyitish ularda mavzuga qiziqish uyg'otish. G'afur G'ulom ijodi bilan tanishtirish.

Metod. Suhbat, aqliy hujum metodi.

O'qituvchi darsga oldindan 2 o'quvchini Muxtorjon va Munisa obrazlariga tayyorlaydi. "O'yashni o'rganamiz" she'ridan 2 o'quvchi rollarga bo'lib yod aytadilar. O'qituvchi bir parcha topishmoq aytadi.

 **O'qituvchi:** Sizlar eshitgan bu she'rga qanday sarlavha qo'yish mumkin? ("O'yashni o'rganamiz") deb nomlanadi. Sizlar ham tog'dey morojniyi, gilos bog'ni, bir qozon qaymoqni, qo'g'irchog'u-o'yinchoqlarni orzu qilsangiz kerak. Kichkintoy bolajonlarning orzusini yaxshi bilgan, shunday quvnoq she'rni yozgan shoir kim bilasizmi? "Shum bola" kinosini sevib tomosha qilasiz. "Shum bola" qissasini kim yozgan? Shoir G'. G'ulom yozgan.

G'. G'ulom yoshlikdan otadan yetim bo'lib, azob-uqubat, qiyinchilik bilan hayot kechirdi. Oilani tebratishda onasiga yordam berish uchun turli yumushlarni bajarishga majbur bo'ldi.

G'afur G'ulom Toshkentdagи "Urfon" internatida tarbiyachi hamda mudir bo'lib ishladi. U bolalarga atab "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi",

“Avval o'qi”, “Ikki yoshlik”, “O'rdak va Turg'un”, “Kekkaymachoq Sobir”, “Ola buzoq” degan she'rlar yozgan. Bugun darsda shoirming “Buni toping, qizlarim” nomli she'riy topishmog'ini o'qiyamiz.

Topishmoq janri haqida suhbat. — Topishmoq ertak she'rlardan nimasi bilan farq qiladi? — Topishmoqlar qadimda qanday nomlangan? — Yod bilgan topishmoqlaringizdan aytинг. Topishmoqni topa olmagan odamdan nimalar so'raladi?.....

II. Anglash bosqichi. Maqsad. O'quvchilarning she'rni ifodali o'qish, uning matnini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Metod. Yarim izlanishli metod.

Sinf 4 guruhgaga bo'linadi. Har bir guruhgaga she'riy topishmoqning bir bandi bo'lib beriladi. Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Topshiriq. Ifodali o'qing.

Har guruhdan 2 o'quvchi chiqib, parchani ifodali o'qib beradi. O'qituvchi guruhlarni baholab boradi.

2. Topshiriq. She'r tuzilishini tahlil qilish.

Topishmoq necha misradan iborat? Topishmoqdagi qofiyadosh so'zlarni toping. Masalan, I guruh taxminan quyidagi so'zlarni aytadi:

Topishmoq 6 misradan iborat. *Tuki, po'ki, ko'ki so'zлari o'zaro qofiyadosh.*

3. Topshiriq. She'riy topishmoqda yashiringan poliz ekinini tasvirlovchi so'zlarni toping.

Guruhdagi o'quvchilar taxminan quyidagilarni yozadilar:

Tarvuz — to'ni silliq, tuki yo'q. Hammasi to'q, po'ki yo'q. Ichi qizil, ko'ki yo'q.

Uzum — marjon-marjon, yumaloq, yaproqlari shapaloq. Qora, qizil, sariq, oq.

Behi — malla, tukli, sap-sariq, murabbosi mazali, palovga bosa bo'lur, omborga ossa bo'lur.

Anor — mayday, yoqtiday qizil, shirin, nordon, xilma-xil, qalin, taxir po'sti.

4. Topshiriq. Tasvirlangan mevalarning foydali tomonlarini aytинг.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad: mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol-topshiriqlarga javob olish orqali o'quvchilarning egallagan bilimlarini aniqlash. Mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish.

Metod. Aqliy hujum, suhbat, mustaqil ish metodi.

1. Aqliy hujum. Savol:— Topishmoqlarni kimlar yaratadi? Topishmoq yaratgan shoir, yozuvchilar nomini aytинг. Ularning ja-

vobi tarmoqlash usulida yozib boriladi.

— Topishmoqning asosiy xususiyatlari nima?

2. *Topishmoqlar aytish (guruhlar aro) musobaqasi.*

3. *Mustaqil ish.*

“Buni toping qizlarim” topishmog‘ida foydalanilgan so‘zlar yuzasidan krossvord tuzish.

Taxminan quyidagicha krossvord tuziladi.

Bo'yiga:

1. Qishda kiyiladigan ustki kiyim.

3. Kichkina qush.

Eniga:

2. Qizlar ismi.

4. Poliz ekini.

Javoblar: 1. To'n. 2. Qunduz. 3. Chumchuq. 4. Tarvuz.

Bo'yiga.

1. Meva turi.

3. Qizlar sevadigan taqinchoq.

Eniga:

2. Qizlar ismi.

4. Rang turi.

Javoblar: 1. Uzum. 2. Mamlakat. 3. Marjon. 4. Qora.

3. *Guruhlarning to'plagan ballarini e'lon qilish.* Faol ishtirokchilarni baholash.

 4. *Uyga vazifa.* She'riy topishmoqni yod olish. O'qish daftariiga topishmoqlar yozib kelish va ijod qilish.



MAVZU. XALQ HIKMATLARI

O'quv materiali. Maqollar

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga maqollarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Maqollarni ifodali o'qish, mazmunini to'liq anglab yetish malakasini oshirish.

2. Maqollar orqali o'quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnat-sevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqko'ngillik tuyg'ularini singdirish.

3. O'quvchilarni ko'rgan-bilgan, eshitgan, o'qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga, o'z nutqida maqollardan foydalanishga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, maqol o'qish darsi.

Darsning borishi.

I. Da'vat bosqichi. Maqsad. O'quvchilarda yangi mavzuni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'otish. Maqollarnig xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Metod. Suhbat metodi.

1. O'qituvchi dokaga quyidagi maqollarni yozib qo'yadi:

Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Avval o'yla, keyin so'yla.

O'qituvchi: Abdulla Avloniyning «Yaxshilik yerda qolmas» hikoyatini bilasizmi?



O'qituvchining hikoyasi: Yaxshilik yerda qolmas. Doskaga hikoya mazmuniga mos rasmlar ilinadi.

Bir ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvgaga yiqilib ketdi. Qanotlari ho'l bo'lib ucharge kuchi yetmadni. O'lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko'rib, ariga rahmi kelub darhol bir cho'pni tishlab, suvgaga tashladi. Bechora ari bu cho'pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Arodan ko'p o'tmadni. Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rgan zamon kelub, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola qulog'ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtini g'animat bilib, uchib ketub, o'limdan qutuldi.

2. Topshiriq. Doskadan siz tinglagan hikoyaga mos maqolni topib, belgilang. (O'quvchilar "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" maqolini belgilaydilar.) — Qolgan maqollarga mos qanday hikoya, ertaklar o'qigansiz? ("Bilim — aql chirog'i" maqoli mazmuniga mos "Ilm afzal" ertagini o'qiganmiz.) — Maqollarni yana qanday nom bilan atash mumkin? ("Dono fikr" deb atash mumkin.) — Bugungi darsda nimalarni o'rganar ekanmiz? Maqollar nima haqda bo'ladi? Maqollar nima maqsadda yaratiladi?

3. O'quvchilar javobi to'ldirib, umumlashtiriladi. — N a z a r i y ma'lumot. Maqollar — xalqning hikmatli ifodalari. Hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan dono fikrlarning ixcham shakli. Maqollar she'riy va nasriy tuzilishga ega. Maqollar ona — Vatanni sevishga, uning har bir qarich yeri uchun kurashga, kasb-hunar egallashga, mehant qilishga, to'g'ri so'z bo'lishga, yaxshi odob va oljanob xulqili bo'lishga chaqiradi.

II. Anglash bosqichi. Maqsad. Maqollarni ifodali o'qish, mazmunini misollar bilan ochib berishga o'rgatish.

Metod. Suhbat, guruhlarga bo'linib ishslash.

1. O'quvchilar 4 guruhgaga bo'linadi. Har bir guruh uchun ma'lum mavzudagi maqollarni o'qib o'rganish topshiriladi.

2. Topshiriq. Ifodali o'qish mashqi. Guruhdagi har bir ishtirokchi bittadan maqolni ifodali o'qib beradi. Mustaqil ish. O'quvchilar darslikdan o'qigan maqollariga darslikdan mos asar-larni tanglab, maqolning ma'nosi bilan asarda aytilayotgan fikrning bog'liqligini izohlab beradilar. Masalan, «Elidan ayrilgan yetti yil yig'lar, Vatandan ayrilgan o'lguncha yig'lar» maqoliga Bobur haqidagi “Hidi tilimi va mazasidan” asarini misol qilib keltiradilar. Darslikdan “El boshiga tushgan ish”.

“Er boshiga tushgani” maqoliga mos asarni eslang. Shu maqol qaysi asar goyasiga mos keladi? Bilagi zo'r birni yiqrar, bilimi zo'r mingni yiqrar maqoliga qaysi asar g'oyasi mos (“Mardlik va aql yorug'ligi”) va hakozo.

3. Maqollar yuzasidan rebus yechish.

- 4) — [oltin rasm] [o't rasmi]da bil[in rasm] [ari rasm] (r d), [odam rasm] — [mehnat qilayotgan kishi rasm]da
 - 2) [ko'z rasm](k)i [100]sizning [ko'z rasm](k s)i [tuz]siz. an maqolni ifodali o'qib beradi.
 2. Topshiriq. 3) Bil[ari rasm](r g) [to'r rasm](t z) [l]ni yi[qor rasm](o a),
- [bol] (o i)imi [bo'r rasm] [1000]ni.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad. O'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash. Nutqida maqollardan foy-dalanish konikmasini shakllantirish. Xulosa chiqarishga o'rgatish.

Metod. Aqliy hujum, suhbat metodi.

1. Aqliy hujum.

- Qaysi mavzulardagi maqollarni o'qidingiz?
- Maqollar qanday paydo bo'lgan?

2. Maqollardan yod aytish musobaqasi.

- 1-guruh. Mehnatsevarlik haqidagi maqollardan aytинг.
- 2-guruh. Vatanparvarlik haqidagi maqollar aytинг.
- 3-guruh. To'g'riso'zlik haqidagi maqollar aytинг.
- 4-guruh. Do'stlik haqidagi maqollardan yod aytинг.

3. Mustaqil ijodiy ish.

Har bir guruhgaga bitta maqol beriladi. Guruh ishtirokchilari birlgilikda oxiri berilgan maqol bilan xulosalanadigan hikoya tuzib yozishadi. O'qituvchi guruhlarga quyidagi maqollarni bo'lib berishi mumkin:

- 1) Hamjihatlik – davlat,

Yolg'izlik – kulfat.

- 2) Ilmi yo'qning ko'zi yumuq.
- 3) Odobli – elda aziz.
- 4) Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'liningda.

Hikoyani ertak tarzida yoki hayotda uchraydigan biror voqealarda yozish bo'yicha maslahat va yordam beriladi. Masalan, "Odobli – elda aziz" maqoli asosida taxminan quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

Odiljon oyisi, adasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni pista-bodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan siyladi. Odiljon mehmonda sho'xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo'l cho'zavermadidi. Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni "odobli bola ekan" deyishdi. Odiljon "Odobli – elda aziz" ekanligini bilib oldi.

Bu uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.

4. *Mavzu yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish.*

- Bugungi maqollarni o'rganish darsi sizga yoqdimi?
- Maqollar bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi deb o'ylaysizmi? Qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?

- Siz bugun o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
- O'qigan qaysi maqolimiz sizga ham tegishli?

5. *Guruqlar to'plagan ballarni e'lon qilish.* O'quvchilarni rag'batlantirish.

-  **6. *Uyga vazifa.*** Maqollarni ifodali o'qish va yod olish. Darslikdan o'qigan ertaklari mazmuniga mos maqollar topib, daftarga yozib kelish.



MAVZU. BO'LIM YUZASIDAN UMUMLASHTIRUVCHI DARS

- Darsning maqsadi.** 1. O'quvchilarning "Xalq og'zaki ijodi" bo'limi yuzasidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash. 2. O'quvchilarni xalq merosini o'rganish va qadrlashga o'rgatish. 3. O'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Dars metodi. Modulli o'qitish usuli.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Darsning jihizi. Tarqatma materiallar, jadval, darslik, turli rasmlar.

1-guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementi (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriglar	Topshirilqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
1-O'FE	<p>Maqsad: O'quvchilarning xalq og'zaki ijodi haqidagi bilmlarini aniqlash va mustahkamlash.</p> <p>Savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> Xalq og'zaki ijodining qanday turlari bor? Qanday xalq qo'shiqlarini yod oldingiz? «Davlat» ertaginining bosh qahramonlari kimlar? Xalq og'zaki ijodini kim yaratadi? 	<p>Savollarni guruh ichidabo'lib olib, javobgatayordaning Javoblarni guruhda muhokamaqilgach bering. Vaqt ni nazorat qiling.</p>	6 daqiqa
2-O'FE	<p>Maqsad: O'quvchilarning ifodalı o'qish malakalarini oshirish.</p> <p>Savol-topshiriglar:</p> <ol style="list-style-type: none"> Mehnat haqidagi qo'shiqni yoddan aytинг. «Xop hayda» she'rda topilgan ta'rifni topib, belgilang. «Ilm afzal» ertagida berilgan maqolni topib, ma'noini izohlang. 	<p>Darslikning 54-betini oolib she'ni takrorlab yod oling. 2-topshiriqni shu she'r asosidabajaring. Darslikning 58-64-betlarini oolib qay-taring. Izohni birga-likda berish-gaurinib ko'ring.</p>	8 daqiqa
3-O'FE	<p>Maqsad: mustaqil fikrlesh ko'nikmasini shakllantirish. 1. Test topshiriglari.</p> <ol style="list-style-type: none"> Anvar Obidjon qaiamiga mansub she'riy ertakni belgilang. a) «Laqma it». b) «Bo'ring tabib bo'lgani haqidaertak. d) «Da'vat». 2. Do'stlik kuchi haqidatik nomini toping. a) «Ovchi, Ko'kchava dono»; b) «Ilm afzal»; d) «Ziyarkuch yigit». 3. «Odob bozor-dasotilmas» nima? a) Topishmoq; b) ertak; d) Maqol. 4. Topishmoq aytish musobaqasi: Mevalar haqidaxalq. shoirlar, o'zingiz to'qigan topishmoqlarni aytинг. 	<p>Test savollarigat o'liq javob bering. 1-2-3-sinfdayod olgan topishmoqlarni ham eslang.</p>	8 daqiqa
4-O'FE	<p>Maqsad: Ijobji fikrlesh, mutaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p>Topshiriglar:</p> <ol style="list-style-type: none"> Javoblarni quyidagi so'zlardan tashkil topgan krossvord tuzing. Kamalak, maslahat, lavlagi, varrak, rassom, asalari. «Aql yoshdaqmas, boshda» maqoli mazmuni asosida kichik hikoya tuzing. 	<p>Krossvord tuzishda savolni topishmoq tarzida berishga harakat qiling. Hikoya tuzishda o'qigan ertak, ibratlari hikoyalaringizni esga oling.</p>	8 daqiqa
5-O'FE	<p>Maqsad: O'yin orqali o'quvchilarni ijodiy qobiliyatini o'stirish. «Oq terakmi, ko'k terak» o'yini. Yonin-gizdagagi guruh ishtirotkchilariga ta'rif berish chiqing. O'yinni quyidagicha boshlang.</p> <p style="text-align: center;">Keling qo'shiq aytamiz, Qo'shilishib hammamiz, Oq terakmi, ko'k terak Bizdan sizgakim kerak?</p>	<p>Ta'rif bergandache garadan chiqmay odob doirasidata'rif lang. Masalan, «Orif a'lachi kerak» yoki «Shaxlo shoshaqloq kerak» deb javob qaytaring. Eng chiroyliga'rif baholanadi.</p>	8 daqiqa

2-guruh uchun dars moduli

O'quv faoliyati elementi (O'FE)	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar	Topshiriqlar uchun ajratilgan vaqt
1-O'FE	<p>Maqsad. O'quvchilarning xalq og'zaki ijodi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash.</p> <p>Savollar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ertaklarni qadimda nima deb nomlashgan? 2. Hunarning afzalligi haqida qanday ertak o'qidingiz? 3. Topishmoq qadimda qanday atalgan? 4. Maqol mazmuniga ko'ra necha turli bo'ldi? 	2-savolga javobni topishda darslikning 84-86 betlariga qarang...	6 daqiqa
2-O'FE	<p>Maqsad. O'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini oshirish.</p> <p>Savol-topshiriqlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. «Laylak keldi – yoz bo'ldi» she'ri ni yoddan aytинг. 2. Xalq qo'shiqlaridan jondorligiga misol topib, yozing. 3. «Baqa bilan taqa» ertagi mazmuniga mos maqol topib, mazmunini izohlang. 	Darslikda berilgan xalq qo'shiqlarini sinchiklab o'qib chiqing...	8 daqiqa
3-O'FE	<p>Maqsad. ustaqil fikrleshish ko'nikmasini shakllantirish.</p> <p>I. Test topshiriqlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Anvar Obidjon qalamiga mansub she'riy ertakni belgilang. a) «Aqma ib»; b) «Bo'ning tabih bo'lgani haqida ertak»; c) «Davlat». 2. Do'stlik kuchi haqida ertak nomini toping: a) «Ovchi, Ko'kcha va donov»; b) «Ilm afzal»; d) «Ziyarak uch yigib». 3. «Odob bozorda sotilmas» nima? a) Topishmoq; b) Ertak; d) Maqol. 4. Topishmoq aytish musobaqasi: Mevalar haqida xalq, shoirlar, o'zingiz to'qigan topishmoqlarni aytинг. 	Test savollariga to'liq javob bering. 1-2-3-sinfda yod olgan topishmoqlarni ham eslang	8 daqiqa
4-O'FE	<p>Maqsad: ...</p> <p>I. Test topshiriqlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shukur Sa'dullaqalamigamansub ertakni belgilang. a) «Lagmait»; b) «Ilm afzal»; d) «Tulki bilan Ko'zach». 2. Bilmolish afzalligi haqidagi ertak nomini toping: a) «Davlat»; b) «Baqabilan taqa»; d) «Ilm afzal». 3. «Boychechak» asari qanday asar? a) qo'shiq; b) ertak; d) topishmoq. <p>II. Topishmoq aytish musobaqasi: Tabiatga aloqador topishmoqlarni aytинг.</p> 	Krossvord tuzishda savolni topishmoq tarzida berishga harakat qiling. Hikoya tuzishda o'qigan ertak, ibratlari hikoyalariningizni esga oling.	8 daqiqa
5-O'FE	<p>Maqsad: ...</p> <p>1. Javoblari quyidagi so'zlardan tashkil topgan kros-sword tuzing: tugma, gultuvak, tarvuz, uzuk, karavot, laylak.</p> <p>2. «Go'zallik hushda emas, mehnatdadir» maqoli mazmuni asosida kichik hikoya tuzing.</p>	Ta'rif berganda chegaradan chiqmay odob doirasida ta'riflang. Masalan, «Orif a lochi kerak» yoki «Shaxlo shoshqaloq kerak» deb javob qaytarining. Eng chiroyliga ta'rif baholanadi.	8 daqiqa

3-guruh uchun dars moduli yuqoridaqilar kabi tuziladi.

KUMUSH QISH (5 soat)

“Kumush qish” bo'limida 4 ta asar berilgan bo'lib, ularning har biri uchun bir soatdan dars ajratilgan. Bu bo'limdagi asarlarni o'qib-o'rganish orqali qish faslining go'zal ko'rinishi, go'zallikka muhabbat, oppoq qorning beg'uborligini bolalar qalbida saqlab qolish ko'zda tutildi. Bo'lim materiallari bilan tanishgan o'quvchilar “qish” mavzusi orqali hayvonot olamiga muhabbat ruhida tarbiyalash ham ko'zda tilganini his qiladilar.

O'qituvchi qish manzarasiga oid rasm, she'r va ertaklarni topib, bo'lim materiallarini yanada to'ldirishi mumkin.



MAVZU. QOR — HAYOT SUVI

O'quv materiali. Qish to'zg'itar momiq par. Qudrat Hikmat.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarni she'rni ifodali o'qishga, she'r matni ustida ishslashga o'rgatish; shoirning qishning xususiyatlarini she'r orqali tasvirlashdagi mahoratini ochib berish; o'quvchilarning qishning xususiyatlari, qorning hayot uchun foydasi haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. O'quvchilarning lug'atiga bulut to'shagi, momiq par, oq namat (qor), izg'irin, hovuz, mo'rkom, surunkasi, fayz bermoq, oq choyshab kabi so'z va ibora, tasviriy ifodalarni kiritish.

3. O'quvchilarning mustaqil ishslash, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish.

4. Tabiatni sevish, uning ehsonlarini qadrlashga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, lirik she'r o'rganiladigan dars.

Darsning metodi. Izohli o'qish, mustaqil ish metodi, tarmoqlash metodi.

Darsning jihizi. Qish fasli tasvirlangan rasmlar. Q.Hikmat portreti, shoir haqidagi ma'lumotlar.

Darsning borishi.

1. O'quvchilarda yangi mavzuni o'rganishga qiziqish uyg'otish, topishmoq aytish yo'li bilan bugungi darsning mavzusini aniqlashtirish:

**Oppoqqina dasturxon
Yer yuzini qoplagan. (Qor)**

Bostirdim ikki tovuq,
Biri issiq, biri sovuq. (*Yoz, qish*)

Savol: Bugungi o'qish darsimiz qaysi mavzu haqida ekan?

2. *Qish fasli haqida kirish suhbati.* Doskaga qish fasli tasvirlangan rasmlar ilinadi. Savollar.

— Yil qaysi fasl bilan boshlanadi?

— Qish fasli haqida nimalarni bilasiz? Rasmlardan foydalanib so'zlang.

— Qish bekorchilik faslimi?

— Qor haqidagi afsonani bilasizmi? Afsona qisqa so'zlab beriladi: Qadimda osmondan un yog'ilar ekan. Odamlar o'z ehtiyojlariga yarashasini olib, uylariga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochko'z boy unlarni o'ziga keragidan ham ortig'ini qoplab o'z uyg'iga tashiy boshlabdi. Hatto yer yuzini chegaralab olibdi. O'z yerim degan joylardagi unlarni boshqalarga bermabdi. Shunda osmon-u qish va bulutlarning jahli chiqib, unlarni muzdek qorga aylantirib qo'yishibdi.

Savol: Tabiatda ranglar har xil. Siz qaysi ranglarni yaxshi, yoqimli deb hisoblaysiz?

3. *O'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlash.* **Topshiriq.** Qish fasliga xos xususiyatlarni ayting. O'qituvchi tarmoqlash usulida yozib boradi:



4. Doskaga «Qish to'zg'itar momiq par» Qudrat Hikmat, deb yoziladi. O'qituvchi: — She'r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

5. *O'qituvchi hikoyasi.*

Qudrat Hikmat — iste'dodli bolalar shoiri. U qisqa umr ko'rgan. Shoir o'z ijodini kichkintoylarni ilmga ishtiyoyq, ona-Vatanga, jonajon yur-

timizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag'ishladi.

Qudrat Hikmat 1925-yilda Toshkent shahrida kambag'al dehqon oila-sida tug'ildi. Birinchi she'rlari 1945-yilda bolalar gazetalarida bosildi: 1960-yildan boshlab bolalar nashriyotida ishladi.

Uning «Mening Vatanim» (1950), «Baxtli bolalar» (1952), «Obodlik» (1953), «Do'stlik» (1954), «Rodnoy Uzbekistan» (1955) kabi qator she'riy to'plamlari nashr etilgan. Keyinchalik «Illoshoh va uning amaldori ari haqida ertak» (1963), «Soatjonning soati» (1964), «Toshbaqalar hujumi» (1965), «Daydi bola», «O'g'lim bilan suhbat» kabi kitoblari bosildi.

Kitoblari ko'rsatiladi. Ularni o'qishga da'vat etiladi.

O'qituvchi uning biror she'rlaridan parcha o'qib berishi ham mumkin:

Tinchlik haqida qo'shiq

Tinchlik juda soz,

To'kin-sochin yoz.

O'q tovushi chiqmas,

Yangrar do'stlik, soz, — Bo'lsa-chi urush

O't tushar har yon.

Tinch, shirin turmush,

Bo'ladi vayron.

5. She'r bilan tanishtirish. O'qituvchi she'rni ifodali o'qib (yoki yod aytib) beradi.

6. She'r yuzasidan kirish suhbatি.

— She'r nima haqda ekan?

She'rdagi qaysi jumlalar sizga juda yoqdi? Nima uchun?

7. She'r ichda o'qitiladi.

8. She'rni topshiriglar asosida o'qitish.

— Birinchi to'rtlikni o'qing. Unda qaysi so'z va iboralar o'z ma'nosida qo'llanmagan? Ularning qaysi ma'noda qo'llanganini izohlashga harakat qiling.

— Ikkinci to'rtlikni o'qing:

Mahalla-ko'y ko'chada

Chuvurlashib qor kurar,

Esim sovuq izg'irin:

— Tezroq yur! — deb buyurar. Qaysi misralarda jonlantirish qo'llangan? Jonlantirish deganda nimani tushunasiz?

— Uchinchi to'rtlikni o'qing.

Pirpiratib ko'zini

Avtobuslar o'tadi.

Qahraton qish hovurni

Mo'rkon kabi yutadi.

- Shu to'rtlikning keyingi ikki misrasidagi so'zlarning ma'nosini tushuntirishga harakat qiling.

Mustaqil ish. 1-topshiriq.

She'rni ichingizda qayta o'qing. Qaysi misrada o'xshatish borligini aniqlang.

O'quvchilar:

Tomlar kiydi oq qalpoq

Hovlilarda sen tepa?

Osmon elak, nazdimda,

Shahrimizga un separ.

- Oxirgi to'rtlikda 3-misrada bor. O'ra kumush choyshabga.

2-topshiriq. She'rni yana ichingizda o'qib, qorga berilgan buyruqni toping.

Yetar shuncha yoqqaning

Uzoq dala, qirga bor — buyruq.

Vodiylarg'a fayz berib

Gullat bog'-u rog'ini — buyruq.

O'ra kumush choyshabga,

O'l kamning har yog'ini.

3-topshiriq. Jonsiz narsalar she'rda jonli qilib ifoda etilgan misralarni toping.

Ular seni kutmoqda

Har zarrangga bo'lib zor.

Savab bulut to'shagin

Qish to'zg'itar momiq par — misralarida qaysi badiiy vosita qollanganini aytng.

9. She'rlagi qahramonlar ustida ishlash. Savollar: — She'rda nimalar haqida gap boryapti? — Ularni she'rdagi qahramonlar deyish mumkinmi? Nima uchun? — O'lang, she'rda nechta qahramon bor? Ular qaysilar? (Qish, izg'irin, avtobus, osmon) — She'rda kim g'orga qarata gapiryapti? (Shoir) — Shoiring qorga qarata aytgan gaplarini o'qing.

10. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Osmon elak nazdimda

Shahrimizga un separ...

O'ra kumush choyshabga

O'l kamning har yog'ini,

deganda shoir nimalarni nazarda tutadi?

11. Uyga vazifa. She'rni yod oling. She'r mazmuniga mos rasm ishlang.

11. She'r dan olgan taassurotingizdan foydalaniib, qish, qor, sovuq haqida 4-5 gapli matn tuzing. Matningizda she'r matnidagi quyidagi so'z va iboralardan foydalaning: momiq par, oq choyshab, qahraton qish, osmon elak, qor zarralari, izg'irin, fayz beradi, oq kiyimda.

Namuna: Qahraton qish kunlari edi. Osmon elak kabi qor zarralarini yerga elardi.

Yer bir zumda oq choyshabga o'raldi.

Daraxtlar qordan oq kiyim kiydi. Bu qishlog'imizga fayz berib turardi.

12. Yakunlovchi suhbat. — Darsda nima haqdagi she'r bilan tanishdingiz?

— Biz bugun qish fasli haqidagi she'rni o'qidik. Buning go'zal elchisi — qor haqida, uning yoqishi dagi go'zal manzaralar bilan, foydasi bilan tanishdik.

Tabiatning ehsonlariga qanday munosabatda bo'lish kerak ekan?

— Qor, qish haqida qanday topishmoqlarni bilasiz? Maqollar-chi?

13. O'quvchilarни rag'batlantirish.



MAVZU: BAXTIMIZ QOMUSI

O'quv materiali. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Erkin Malikov.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqidagi tushuncha berish. Bolalarning huquqlari, burchi va majburiyat-lari bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarini qonun bilan belgilangan qoidalarga rioya qilishga o'rgatish.

3. O'quvchilarda huquqiy tarbiyani shakllantirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi dars. Asarining matnnini o'qish.

Darsning jahozi. Konstitutsiya kitobi, Konstitutsiya mazmuniga doir rasmlar.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash.

1. O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat:

— Safar Barnoyev asarini nima uchun «Mangulikka tatigulik kun» deb nomlagan?»

— Bu yil Mustaqilligimizning necha yilligini nishonladik?

— Shu yillar ichida O'zbekiston qanday yutuqlarni qo'lg'a kiritdi?

2. Turli topshiriqlar asosida asar matnini o'qitish va o'quvchilarning o'qish malakalarini aniqlash.

— Mustaqillik tufayli qaysi allomalarimiz hayoti va ijodi bilan tanishish baxtiga muyassar bo'ldik? Asardan shu o'rinni topib, ifodalni o'qing.

— Istiqlol sharofati bilan O'zbekistonda qaysi sohalar rivojlandi? Shu haqdagi o'rirlarni topib o'qing.

— O'zbekistonda fuqarolar, bolalar kelajak uchun qanday kishilar bo'lib yetishishi zarurligi ifodalangan o'rinni topib o'qing.

— Safar Barnoyev o'quvchilarga qanday umid bildirgan? Orzusini qanday ifodalagan? Shu misralarni yod ayta olasizmi?

3. O'quvchilarning o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlarini umumlashtirish:

Istiqlol — Mustaqillik hammaga ham nasib etavermaydi. Unga osonlik bilan erishib bo'lmaydi. Biz mustaqillikka urushlarsiz, tinchlik yo'li bilan erishdik. Mustaqillik sharofati bilan o'tmishni o'rganishimiz mumkin bo'ldi. Bizning ajdodlarimiz orasida buyuk olimlar, yozuvchi va shoirlar, polvonlar, san'at arboblari ko'p bo'lganligini bilib oldik. Demak, Mustaqillikni qadrlashimiz, uni mustahkamlashga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. O'quvchilarni matnni o'qib-o'rganishga tayyorlash. Suhbat uchun savollar.

— O'zbekiston Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan? (Konstitutsiya kitobi ko'rsatiladi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi). Konstitutsiyada nimalar o'z ifodasini topgan? O'zbekiston Respublikasining asosiy qonunlari o'z ifodasini topgan.

— Qonunlarda nimalar ifoda etilgan?(Uning moddalarida insonlarning haq-huquqlari, burchlari, vazifalari bayon etilgan. Konstitutsiyada har bir insonning baxtli yashashi, o'qishi, mehnat qiliishi, dam olishi, davolanishi mumkin deb yozilgan.)

Siz o'qishni tugatib, yozda oromgohlarda dam oldingiz, salomatlik sihatgohlarida davolandingiz? Bular nima tufayli?

O'qituvchi: Konstitutsiyada bolalarning majburiyatları ham belgilab berilgan. Ular quyidagilar: tirishqoqlik bilan o'qish, xalq mulkini asrab-avaylash, tabiatni qo'riqlash, uning boyliklarini muhofaza qilish. (O'qituvchi kitobdan yuqoridagi mazmunga oid biron moddani o'qib beradi.)

2. Lug'at ishi.

Lug'at daftarlari so'zlar izohi bilan yozdiriladi. Qomus, maqbul, xalqchil, nafaqa, muhofaza, kafolatlanadi, nazorat so'zlarinining ma'nolari yuzasidan suhbat o'tkaziladi. So'zlar izohi:

3. Matn bilan tanishtirish. Matn magnit lentasi orqali eshit-tirilishi yoki sahnalashtirilishi mumkin. Sahnalashtirilganda matnni bir o'g'il va bir qiz o'qydi.



Sinf O'zbekiston xaritasi, Madhiya matni, bayroq va gerb rasmlari bilan jihozlanadi.

Sahnadagi o'quvchilar o'zlarining so'zlarini ularga mos rasmlarni ko'rsatib, harakatlar qilib o'qydi yoki yoddan aytadi.

4. Asar matni yuzasidan dastlabki suhbat.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» matni orqali nimalarni bilib oldingiz?

O'quvchilar javobi tarmoqlash usulida yozib beriladi.

Tarmoqlar izohli o'qishdan so'ng yana to'ldiriladi.

5. Matn tahlili. Rollarga bo'lib o'qitish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi matni ta'limiy maqsadga qaratilgan bo'lib, uning har bir moddasi o'qituvchi tomonidan izohlashni, hayot bilan bog'lab talqin qilishni taqozo etadi.

Shuning uchun o'qituvchi matndagi har bir gapni o'quvchilarga o'qitib, uning ma'nosini izohlaydi. Matnda berilgan ayrim moddalar.

O'quvchilarga Konstitutsiya kitobidan yoki plakattan o'qitsa, qiziqarli hamda tushunarli bo'ladi

41-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega. (Mamlakatimizda 9 yillik majburiy ta'lim joriy qilingan. Undan so'ng har kim o'z istagi bo'yicha bilim olishi mumkin).

Bepul ta'lif olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

(Mamlakatimizda har bir kishining bepul ta'lif olishi kafolatlangan).

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. (Onalik va bolalik huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi).

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

(Ta'lif mazmuni va ta'minoti davlat tomonidan amalga os-hiriladi).

“Konstitutsiya davlatning jismi-joni – qomusidir”, deganda ni-mani angladingiz?

7. Topshiriqlar asosida ichda o'qitish. Konstitutsiyadan yana nimalarni bilib oldingiz? Bilib olganlaringizni oldingi tarmoqlar yo-niga qo'shib yozing .

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi
Keksalarning tinchligi, sog'ligi, nafaqasi kafolatlangan.

Konstitutsiya

Maktab ishlari davlat nazoratidadir

Doskadagi tarmoqlash vaqt imkoniyatiga qarab o'qish daftariga yozdirilishi mumkin.

8. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» matnini kim yoz-gan ekan?

Erkin Malikov haqida qisqa ma'lumot beriladi. Yozuvchi va noshir E. Malikov Toshkentda tug'ilgan. U ko'plab hikoyalari, maqolalar, qis-salar yozgan. Bolalar bilan tez-tez uchrashib, suhbatlar o'tkazadi.

9. Umumlashtiruvchi va yakunlovchi suhbat.

— Konstitutsiya deganda nimani tushunasiz?

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida nimalarni bilib oldingiz? (Tarmoqlar asosida tushunchalarini bayon etadilar).

— Siz huquq, burch va vazifalarningizni bilish uchun qaysi kitobni o'qishingiz kerak ekan?

— «Konstitutsiya — shu mamlakatning mazmunidir» jumlasini tushuntirib bering.

 **O'qituvchi:** Haqiqatan, bu mavzuni o'r ganish bilan, siz o'z huquq va burchlaringizni, O'zbekiston qonuniy davlat ekanligini, qonun hamma uchun barobarligini bilib oldingiz. Shu olgan bilimlaringizdan hayotda to'g'ri foydalаниб yashaysiz degan umiddaman.

 **10. Uyga vazifa.** «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» matni ni ifodalni o'qishga tayyorlanib kelish. Ayrim moddalarini yod olish.



MAVZU. KUMUSH QISH

O'quv materiali. Rangin qorlar. Olloyor.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini boyitish.
2. Tabiatdan zavq olishga, unga zarar keltirmaslikka o'rgatish.
3. Ularni mustaqil fikrlesh qobiliyatlarini o'stirish, xotirasini mustahkamlash.

O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'atini so'zlar bilan boyitish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Dars metodi. Izohli o'qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ish-lash.

Darsning jahozi: Qog'oz, flomaster, yelim, qisqich, qaychi, mikrotestlar, akvarium, baliqlar, rag'battalantirish uchun jetonlar.

Sinf sharoiti. O'qituvchi turli usullar bilan o'quvchilarni guruhlarga ajratadi. Sinfdag'i partalar doira shaklida qo'yib chiqiladi.

Tashkiliy qism. Sinf o'quvchilari guruhg'a bo'linib o'tiradilar. O'qituvchi guruhlari bilimi teng bo'lishi uchun qizil, ko'k, oq, yzshil, sariq rangli doirachalardan foydalanishi mumkin. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhn'i tashkil etishi aytildi. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi. Buning uchun o'quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun topishmoqlardan foydalanish lozim. — Topishmoqning javobini toping.

Elakdan un elandi

Supra unga belandi.

— Qor qaysi faslda yog'adi?

— O'ylang, bugun o'rghanadigan o'qish mavzuimiz ham nima haqida ekan?

Doskaga bo'lim nomi - «Kumush qish» yoziladi. So'ng guruhg'a qish fasli bilan bog'liq holda nom tanlashlari mustaqil ish qilib beriladi.

Taxminan 1-guruh «Qorparcha», 2-guruh «Ayozbobo», 3-guruh «Qorbobo», 4-guruh «Sumalak», 5-guruh «Qish» deb nomlaydi. Guruh a'zolari o'zlarining ichidan sardor saylaydi.

Darsning borishi.

I. Chaqiruv bosqichi. Guruhlar taqdimoti.

Har bir guruh o'z nominining ma'nosini izohlaydi, nomini ifodalovchi rasm chizib ko'rsatishi ham mumkin.

1-guruh — «Qorparcha»: Men qish faslida dunyoga kelgaman. Qir-adir, tog'u-tosh, dala-dashtda uchib, o'ynoqlab yerga tomon intilaman. Hammayoqni oq choyshab bilan o'rayman. Men yog'ganda bolalar, hatto kattalar ham qorbo'ron o'ynaydi, qorbobo yashashadi. Qorxat yozishadi.

2-guruh — «Ayozbobo»: Men issiq havoni sovutaman. Yerlarni, suvlarni muzlataman. Men tufayli yaxmalaklar paydo bo'ladi. Bolalar yaxmalakda chang'ida, chanada uchadi, konki otadi. Tarnovlarda sumalaklar osiladi.

3-guruh — «Qorbobo»: Men qish faslida bolalarning eng sevimli bobosiman. Uzoq-uzoq o'lkalardan ularga yangi yil bayrami sovg'alarini, qorqizimni olib kelaman. Ularning kuy-ko'shiqlari, o'yin-kulgilar jaranglagan bayramni birga nishonlayman. Men tufayli Ayozboboning izg'irin sovuqlarini sezmaydilar. Men ularga kuch-quvvat bag'ishlayman. Hammangizni yangi — qutlug' yilingiz bilan tabriklayman.

4-guruh — «Sumalak»: Men Ayozbobo bilan Qorparchalarning farzandiman. Tomlarning bo'g'otida qishning quyosh nurlarida yaltirab turaman. U yerdan bolalarning o'yin-kulgilarini tomosha qilaman. Borib bolalarga qo'shilib o'ynay olmaganimdan ko'zlarimdan chak-chak yoshim oqadi. Shu ko'z yoshlarim bilan yerning dardlariga malham bo'laman.

5-guruh — «Qish»: Yuqoridagi so'zga chiqqanlarning barchasi menin dilbandlarim. Ular tufayli men borman. Ular tufayli men yilning boshida turaman. Dekabr, yanvar, fevral oylari menin qo'ynimda yashaydi. Ularning har biriga yaxshi kunlarni — bayramlarni taqsimlab bergenman.

8-dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini, 31-dekabr Yangi yil bayramini nishonlaydi. 14-yanvar Harbiylar kunini bayram qiladi. 9-fevralda ulug' bobomiz Mir Alisher Navoiyning tavalludi nishonlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtirib, har bir guruhni rag'batlantiradi. Shu tarzda yangi bo'limni, asarni o'qishga tayyorgarlik davri yakunlanadi.

II. Anglash bosqichi. Bu bosqichda "Rangin qorlar" (Olloyor) ertagi (o'qituvchi qismlarga bo'lib kelgan bo'ladi)ning har bir qismi guruhdagi yaxshi o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladi. "Ifodali o'qish" musobaqasi uyuştiriladi. Eng yaxshi o'qigan o'quvchi aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Shundan so'ng guruhlarga asar matni ichda o'qishga topshiriladi. Guruh o'quvchilariga quyidagi topshiriq beriladi:

— Har bir guruh o'z qismini ichida o'qiydi. Uning mazmuniga va qahramonlariga doir savol-topshiriqlar tuzadi va konvertga solib uzatadi.

O'quvchilar tuzgan savollardan namunalar:

— Qadimda qorbo'ron qanday qorlar bilan o'ynalgan? Nima uchun? — Buyoq bozori qancha yilda bir bo'lar ekan? — Nega qorlar oq rangda yog'ar ekan? — Bahoroy qaysi bo'yoqlarni xarid qilibdi?

— Kuz kelganda qozonlarda qaysi bo'yoqlar bor edi? — Qish kelganda qozonda qaysi bo'yoq qolgan edi? — Yoz uyqudan uyg'onib nimani o'ylab ketibdi? — Yoz qaysi buyoqlarni olganini o'ylab topping. — Kuz qaysi bo'yoqlarni o'chirib, uning o'trniga qaysi bo'yoqlarni surtib chiqdi? — Qish o'z zahrini nimalarga sochadigan bo'lib qolibdi?

Har bir savol va uning javobi rag'batlantirib boriladi.

2. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash. Bularni barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo'yiladi.

3. O'qituvchi sardorlar uchun asar matni yuzasidan quyidagi savol-topshiriqlarni tuzib keladi: Bu savol-topshiriqlar konvertlarga solinib guruhlarga beriladi.

1-guruh uchun. Ayozbobo deraza oynalariga qanday qilib naqshlar chizadi? — Qiyomiga kelib — birikmasining ma'nosini izohlab bering, (ayni me'yoriga, maromiga yetgan normal holga kelgan).

— Bahoroyning gullari nomini sanab bering?

2-guruh uchun. Falak, libos so'zini qaysi so'zlat bilan almashtirish mumkin? (falak — osmon gumbazi, osmon, ko'k; libos — kiyim, ust-bosh)

3-guruh uchun. Shitob so'zining ma'nosini bilasizmi? (harakatingning bajarilishidagi tezlik). — Saraton qaysi payt ekanini aytинг.

4-guruh uchun. Bahor tabiatida yuz beradigan hodisalarini aytинг? — Za'far, zarg'aldoq ranglar qanday rang? Ranglar ichidan olib ko'rsating. (zarg'aldoq — to'q sariq rang; za'far — sap-sariq, somon rang)

5-guruh uchun. Qish chillasi necha kun va unga qaysi vaqt kirdi? — Ertakda badiiy vositalardan nima ko'proq qo'llangan? (jonlantirish)

3. Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Dars sizga

yoqdimi? Niması yoqdi? Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz? Siz qishda tabiatni, tabiat ehsonlarini asrash uchun nimalar qilyapsiz?

6. O'quvchilarning umumiy ballarini e'lon qilish.

 7. *Uyga vazifa:* Ertak matnni ifodali qilib o'qishga, unga reja tuzib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.



MAVZU: «KUMUSH QISH» BO'LIMI YUZASIDAN UMUMLASHTIRUVCHI DARS

Dars metodi. Mo'dulli o'qish usuli, guruhlarga bo'lib oqitish, mustaqil ish metodi.

Dars shakli. Noan'anaviy.

Dars jahozi. Savol-topshiriqlar yozilgan kartochkala, rasmlar, testlar, ta'limiyl o'yin uchun sxemalar.

1-guruh uchun dars moduli

O'FE	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'satmalar	Ajratilgan vaqt
O'FE-1	Maqsad: O'quvchilarning «Qish haqida bilimlarini kengaytirish, aniqlash v'c mustahkamlash, og'zaki nutqini oshirish. Mustaqil fikrlashga, izlanishgao'rgatish. Savol-topshiriqlar: 1. Qishdatabiyatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi? 2) Jonivorlarning qishdag'i hayoti to'g'ri-sidanimalarni bilasiz? 3. Bo'limdag'i qaysi she'r va hikoyadaqish manzarasi tasvirlangan? 4. Qish fasligaqaysi oylar kiradi? S.Nima uchun dekabr oyi yangi yilgakirmaydi. 6. Qish faslini sevishga sabab bo'lgan holdalarini aytинг.	Savollarga kichik guruhlargab o'linib javob tayyorlang. Javobingiz qisqa va aniq bo'lsin. Javobingizni tarmoq-lash usuli orqali ifodalashningiz mumkin. Savollarga javob tayyorlash uchun jami 3 daqiqa da vomida-javob berish.Qishga qaysi oylar kirishini o'ylang. Yangi yilni qaysi oyda qaysi sanada kutib olishingizni o'ylang.	10 daqiqa
O'FE-2	Maqsad: O'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini oshirish lug'atini boyitish. Tabiat go'zalligini his qilishga o'rgatish. Savol-topshiriqlar. 1.Qish tabiatini tasvirida qanday so'z va iboralardan foydalanish mum	«Kumush qish» bo-'li-midagi she'rlarni es-lang, ularni ich-ningizda aytib ko'ring. «Qish» she'rini o'qib chiqib, undagi so'zlargadiqqat qiling. 3-savolga o'qigan, eshitgan topishmoq	6 daqiqa

	kin? 2. Shunday so'z vaiboralarni daftaringizgayozing. 3.Qish fasli haqida qanday topishmoq va maqollarni bilasiz?	yoki maqollaringizga javob berishga harakat qiling.	
O'FE-3	Maqsad: Ifodali o'qish malakasini takomillashtirish. «Kumush qish» bo'li-mida o'rganilgan asarlardan parchalar o'qitish.	Ichingizdarbir marta o'qib chiqing.	4 daqiqa
O'FE-4	Maqsad: O'quvchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga o'rgatish. Test topshiriqlari. 1. «Savob bulut to'shagin Qish to'zg'itar momiq par» deganda shoir nimani tasvirlagan? a) ob-havoning sovuqligini; b) qor va yom-g'ir-ni; s) laylakqornig yog'ishini. 2 Archadaraxtini nimaga qishning ramzi sifatida ifoda etamiz? a) hamma yaxshi ko'rganiuchun; b) qor yoqqanda chiroyli ko'ringani uchun; s) qishdaham o'z rangini yo'qotmagani uchun. 3.Qorbohoning yordamchisi hikoyasini kim yozgan? a) Mahmud Murodov; b) Tursunboy Adashboyev; s) Qudrat Hikmat. 4.Shoir Qudrat Hikmat «elakda un» sepilishini nimaga o'xshatigan? a) hammayoqning muzlashini; b) yomg'ir yog'ishini; s) qor yog'ishini.	Testning javobini toping, aytинг. Masalan (s — laylakqorming yog'ishini).	10 daqiqa
O'FE-5	Maqsad: O'quvchilarni erkin fikrlash asosidaqish qish haqidagi bilimlarini yanadakengaytirish «Zinama-zina» o'yi-ni: 1. Hakim Nazir «Damiming qulog'i yo'qmi?» degandani mani nazarda tutgan. 2.Tursunboy Adashboyevning «Qish» she'ridakiyikurgan so'qmoqlarning yo'l-yo'l bcqasamga o'xshatishini qanday tushunasiz? 3.«Qish» she'ri bilan «Qish to'zg'itar momiq par» she'riни bir-birigataq-qoslang. Ular nimasini bilan o'x-shaydi, nimasini bilan farq qiladi; 4) Qorbohoning yordamchisi kim edi? Uni qanday biliб oldingiz?	Savollarga to'liq, aniq va to'g'ri javob bering. To'g'ri javob berган o'quvchi bir pog'ona-ga ko'tariladi. Javob berolmagan o'quvchi joyidaqoladi. Kim shohsupaga birinchi chiqar ekan?	80 daqiqa

2-modul ham shu tarzda tuziladi.

VATANIMIZ O'TMISHIDAN (10 SOAT)

Bo'limdagи materialлarnи o'ргanish orqali o'quvchilar vatanimizda yashab ijod etgan ajdodlarimiz, ularning hayot va ijodlari bilan tanishtiriladi. Bo'limda ajdodlarimiz hayotining ibratga loyiq tomonlari aks ettirilgan. Ularni o'qish jarayonida o'quvchilar ajdodlarimiz hayotidan ibrat olishga, o'zлari ham ularga o'xshashga harakat qiladilar. Bu esa mavzularni o'ргanishdagi asosiy maqsadlardan biridir. O'qituvchi hikoyalarni o'rgatishda ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashi kerak. Ajdodlarimiz hayotini o'ргanish mustaqilligimiz sharofati bilan amalga oshganligi o'quvchilar ongiga singdiriladi. O'qituvchi mavzuni o'rgatishda matn mazmuniga mos rasmlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdир.

Bo'lim materiallarini quyidagicha rejalashtirish mumkin:



MAVZU. KITOB — BILIM BULOG'I

O'quv materiali. Kitobga ixlos. Mirkarim Osim.

Darsning maqsadi.

1. O'tmishdagи vatanparvar olimlarimizdan Abu Ali ibn Sino hayoti bilan tanishtirish, uning kitobga bo'lgan muhabbatini o'quvchilar qalbiga ko'chirish.

2. O'quvchilarda ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini tarbiyalash.

3. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, o'quvchi nutqiga istilochi, Xusayn, mutolaa, yarog' kabi so'zlarni kiritish, qayta hikoyalash asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars shakli. Sayohat darsi.

Dars metodi. Izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish metodi.

Darsning jahozi. Buxoro, Samarkand, Registon maydonlari suratlari, Abu Ali ibn Sino rasmi. Ibn Sinoning gaplari yozilgan plakatlar, asar mazmuniga ishlangan rasm.

Darsning borishi.

1. O'tilganlar yuzasidan qisqacha suhbat.

— O'qish darsida qaysi mavzudagi bo'limlarni o'rgandik?

— «O'zbekiston — Vatanim manim» bo'limida qanday bilim-

larga ega bo'lgan edik? (O'zbekistonning tabiatini, xalqimizning hozirgi hayotini bilib olgan edik).

2. Bugun biz Vatanimizning o'tmishiga sayohat qilamiz. Doskaga «Vatanimiz o'tmishidan» mavzusi yozib qo'yiladi. Sayohatchilar ikki guruhgaga bo'linadi va ularga sardor tayinlanadi. Bugungi sayohatimiz Buxoroga bo'ladi. Sayohatchi guruhlar bir necha tilsimlarni yechib, zinalardan shohsupaga chiqsa, Buxoro darvozalarini uchun ochiladi:

Savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalar solingen konvertlar guruh sardorlariga beriladi.

— Tarixda yashagan buyuk olimlar, sarkardalar, shoir va yozuvchilar nomini aytинг.

- Buxoroda qaysi buyuk shaxslar yashagan?
- Buxoroda qanday tarixiy binolar, joylar bor?

(Doskaga buyuk shaxslar portreti, tarixiy joylar tasvirlangan rasmlar ilib qo'yiladi. O'quvchilar ulardan foydalanib savollarga javob tayyorlashlari ham mumkin. Javob berish jarayonida rasmlardan tarixiy shaxslarni, tarixiy joylarni ko'rsatadi.

Javoblardan namunalar.

— Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Yusuf Xos Hojib, Zahriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi va hokazo.

— Abu Ali ibn Sino.

— Sitorai Moxi Xosa, Minorai kalon, Ark, Labi hovuz.

— Buxoro shahridamiz. Buxoroning tarixiy joylariga yo'l olamiz. (Buxoroning tarixiy joylari tasvirlangan joylari bir ansambl shakliga keltiriladi. Shu narsaga o'quvchilar diqqati tortiladi.

Mana, Buxoro tarixida yashab o'tgan olimlar haqida ma'lumot beruvchi muzey.

Abu Ali ibn Sino — ma'rifatparvar alloma

Abu Ali ibn Sino — buyuk hakim

Men kechalari kam ular, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmas edim. (Abu Ali ibn Sino)

Bir kuni shohdan kutubxonasiga kirishga va u yerdagi tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so'radim. Shoh menga ruxsat berdi.

(Abu Ali ibn Sino)

Ibn Sino dorivorlar tayyorlash, yurak kasalligi, jarrohlilik va boshqa sohalarga doir 400 dan ziyod asar yozgan

Ibn Sino she'r ham yozgan

*Qora yer qa'ridan avji Zuhal,
Koinot mushkulim barin men qildim hal,
Ka'p chigal tugunni angladim, yechdim,
Yechilmay qolgani birgina ajal.*
(Abu Ali ibn Sino)

Hozir Ibn Sino uchun ajratilgan xonaga kiramiz. Devorga ilib qo'yilgan Ibn Sino portreti va u haqidagi yozuvlarga o'quvchilar e'tibori qaratiladi va o'qitiladi.

4. O'qituvchi: hozirgi kunda yashab ijod etayotgan yozuvchilarimiz ham Ibn Sino haqida asarlar yozishmoqda.

Hozir kitob javoni oldiga boramiz. (Javonga Mirkarim Osimning «Kitobga ixlos» asari kitobcha shakliga keltirilib qo'yilgan bo'ladi. Kitob rasmlar bilan bezatilgan bo'lishi lozim.) Javondan shu kitob olinadi: — Bolalar, shu kitobdagи asarni o'qiymiz. Qani, bu kitoba Ibn Sino haqida nimalar deyilgan ekan?

O'qituvchi asarning 1-bo'limini (bir darsga mo'ljallangan) ifodali qilib o'qib beradi.

5. Asar yuzasidan kirish suhbati.

- Asar orqali Ibn Sino haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Ibn Sino qanday davrda yashagan ekan?
- Yosh hakimning yuragi nimani sezdi?

6. Endi «So'zlar olamiga sayohat»imizni boshlaymiz.

O'quvchilar bilan og'zaki suhbatdan so'ng, quyidagi so'zlar lug'ati yozilgan karton doskaga ilib qo'yiladi. O'quvchilar so'zlarni o'qiydilar va daftarlariiga yozib oladilar. Ularning ma'nosini darslikdagi izohli lug'atchaga qarab aniqlaydilar. Ayrimlarini o'qituvchidan so'raydilar.

*Qorabug'xonon — Shimoliy Turkiston xoni
suron — shovqin, to'polon*

zayl — biror joyni tomosha qilish

mutolaa — o'qish, kitob o'qish

yarog' — qurof

istilochilar — bosqinchilar.

Kim so'z ma'nosini to'g'ri yozib borsa, shu sayohatchiga Ibn Sino kutubxonasiiga kirishga, «Kitobga ixlos» asarini olib o'qishga ruxsat beriladi.

7. Asarni qismlarga bo'lib o'qitish va qayta hikoyalatish. Asarning 1-bo'limi 4 qismga bo'linadi. Ikki guruh o'tasida «Kim to'g'ri, va ifodali o'qiydi?» musobaqasi uyuşhtiriladi.

Har bir guruhdan ikkitadan o'quvchi o'qiydi.

8. Badiiy vositalar ustida ishlash.

Kartonga quyidagi ko'chma ma'noli so'zlar yozib qo'yiladi. Ularning ma'nosini izohlash bo'yicha savol-topshiriqlar beriladi.

Birikmalarни o'qing. Tagiga chizilgan so'zlarning ma'nosiga diqqat qiling. Ularning qaysi ma'noda qo'llanganini izohlashga harakat qiling.

olovning qip-qizil tillari — gurulab yonayotgan olovning yuqoriga buralab-buralab ko'tarilish

olovning ... tillari osmonni yalar — baland ko'tarilar
o'zini o'tga urmoqchi — olovning ichiga kirmoqchi

O'quvchilarga yordam berish maqsadida shu so'zлarni o'z ma'nosida qo'llab, taqqoslash uslubidan foydalanish mumkin:

olovning tili — odamning tili

odam tili bilan yalaydi — olov tili bilan osmonni yalaydi
o'tga urmoqchi — bolani urmoqchi

Qaysi birikmada til, yalaydi, uradi so'zлari o'zining ma'nosida qo'llangan? Qaysi birikmada ko'chma ma'noda qo'llangan?

O'xhatishlar ustida ishlash. Gaplar oldindan doskaga yoki kartonga yozib qo'yiladi va ular yuzasidan topshiriq beriladi. Gapni o'qing. Alanga nimaga o'xhatilyapti?

... yong'in borgan sari kuchayar, qimmatli kitoblarni ajdahodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshididan tutun aralash chiqib turar edi.

— Suv alangaga qanday ta'sir qildi? Nima uchun?

— Chelaklab sepilgan suv unga kor qilmas, aksincha moydek ta'sir qilayotgandek edi.

— Ibn Sinoning holati nimaga o'xhatilyapti?

— Ibn Sino xuddi yaqin kishisini ko'rib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyi solib, yarim-yorti kuygan kitobni qo'ltilqlagan holda uyg'a jo'nadi.

— Ibn Sino qora quzg'unlar uyasiga aylangan shaharni tark etib...

Iboralar ustida ishlash. Bunda quyidagi topshiriq beriladi:

Berilgan gaplarni o'qing, tagiga chizilgan iboralarning ma'nosiga diqqat qiling. Ularni bir so'z bilan almashtirish mumkinmi? Yoki: ularning ma'nosini boshqa so'z bilan ifodalash mumkinmi?

Askarlarning suroni qulogni qomatga keltiradi. — qattiq eshitiladi

Kechasi uyqusi kelib, ko'ziga qum tiqila boshlaganda ... hovliga tushdi. — Ko'zi og'riy boshlaganda, uyqusi kela boshlaganda

Ba'zilar mehnati bekorga ketayotganini ko'rib, qo'llarini qo'litiqqa urdilar —

... ko'pchilikning hafsalasi pir bo'ldi — ishini to'xtatdi

... kiyimi bilan o'zi yonib ketishi turgan gap edi. — aniq edi

Oxiri baxayr bo'lsin — yaxshilik bilan tugasini.

...nima to'g'risida bosh qotirayotganini bilib turibman — o'ylaotganini

Bul yerda qolsam bir kuni meni chaqirib, oyog'imga bolta uradilar — yo'q qiladilar

9. Reja tuzish. Asar mazmuni yuzasidan reja tuzish har bir guruhga mustaqil ish qilib beriladi.

Topshiriq. Matnni ichingizda o'qing. Har bir qismga reja tuzing.

Reja.

1. Qorabug'roxonning xalq boshiga qora kunlarni solishi.
2. Ibn Sinoning tungi mashg'uloti.
3. Kutubxona o't ichida.
4. Ibn Sinoning uyg'a qaytishi.

10. Har bir reja asosida asarni qismlarga bo'lib o'qish.

11. Reja asosida qayta hikoyalash. Guruhlar o'rtasida «Kim reja asosida to'liq va izchil qayta hikoyalaydi?» musobaqasi uyushtiriladi. G'olib guruhlar va ularning ballari e'lon qilinadi.

12. Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Kitoblarni nima uchun bilimlar koni deymiz?
- Kitob o'qigan odam undan nima oladi?
- O'zingiz o'qigan kitoblar haqida gapiring.

Sayohatimiz Ibn Sino kutubxonasida to'xtaydi. Keyingi darsda yana sayohatimizni davom ettiramiz.

O'qituvchi: — Ibn Sino bobomiz sizda qanday taassurot qoldirdi?

Sizda nimaga intilish paydo bo'ldi?

13. Keyingi sayohatga borish uchun 1-bo'lim yuzasidan darslikda berilgan savol-topshiriqlarga javob tayyorlab kelish. Asar mazmuni yuzasidan savol tuzib, kartochkalarga yozib kelish. Matnni rollarga bo'lib o'qishni mashq qilish.

Izoh. «Kitobga ixlos» asarining 2-bo'limi ham shu dars kabi tashkil etiladi.



MAVZU. PAHLAVON SHOIR

O'quv materiali. Pahlavon va shoir. Hamidjon Hamidov.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarni o'tmishda yashab, ijod etgan Pahlavon Mahmud hayoti bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarni Pahlavon Mahmudga o'xshab ham jismoniy jihatdan, ham aqliy jihatdan barkamol bo'lish ruhida tarbiyalash.

3. O'qish malakasi sifatlarini takomillashtirish, lug'atini boyitish, bog'lashli nutqni o'stirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Darsning metodi. Izohli o'qish, suhbat.

Darsning jahozi. Pahlavon Mahmud maqbarasi surati, kurash maydoni aks ettirilgan surat.

Darsning borishi.

1. Asarni o'qishga tayyorgarlik.

O'qituvchi hikoyasi.

— Filolog olim, bugungi kunda TDPU filologiya fakultetida talabalariga saboq berayotgan Hamidjon Hamidov o'tmishda yashab ijod qilgan vatandoshlarimiz hayotidan xabar beruvchi qator hikoyalar yaratgan. Bugun biz uning «Pahlavon va shoir» hikoyasini o'rganamiz.

Pahlavon Mahmud 1247-yili Xiva yaqinida po'stinduz oilasida dunyoga keldi.

Xiva madrasalarida tahsil olgan, turli bilimlarni egallash bilan birga jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullangan, milliy kurash qoidalalarini o'rgangan, kuragi yerga tegmagan bahodirlardan. Pahlavon Mahmud qanday ishni amalga oshirganini esa hozir asarni o'qish jarayonida bilib olamiz.

2. Asar matni bilan tanishtirish. Oldindan tayyorlangan o'quvchilarga rollarga bo'lib o'qitiladi.

3. Asar yuzasidan dastlabki suhbat.

— Asar kim haqida ekan?

— Sizga Pahlavon Mahmudning qaysi jasorati ko'proq yodqi?

Nima uchun?

4. Ichda o'qish. Ichingizda o'qing. O'zingizga ma'nosi tushunarsiz so'zlarni daftaringizga yozib boring.

5. Lug'at ustida ishlash.

Dehli — Hindistondagi shahar nomi.

ayyom — kun, kunlar (bayram kuni)

shikast — jismoniy zarar, lat.

mulozim — amaldorlar huzurida xizmatda bo'lgan kishilar.

qadamjo — ziyoratgoh, muqaddas deb sanalgan joy.

zaif — quvvati kam, kuchsiz, bequvvat.

arkoni davlat — davlat arboblari, yuqori martaba egalari.

kunda — to'nka.

olihimmat — yaxshilikni ayamaydigan, saxovatli.

6. Asarni qismlarga bo'lib o'qitish.

Asar o'quvchilarga qismlarga bo'lib o'qitiladi. Asarni 4 qismga bo'lib 4 o'quvchiga o'qitiladi. O'quvchilar qismlarning qayerdan qayergacha davom etishini bilib boradilar. Ular asar necha o'quvchiga o'qitilganiga qarab, uni shuncha qismga bo'linganini bilib oladilar.

2-qayta qismlarga bo'lib o'qitilganda, har bir qismdagi asosiy fikr aniqlanadi: Mahmud rozilik bildirdi (1-qism). Ona nolasi (2-qism). Fil halokatdan qutqarildi (3-qism). Mahmudning oliy janobligi yoki Pahlavon Shohdan nimani iltimos qildi? (4-qism).

O'qituvchi bu asosiy fikrlarni doskaga yozib boradi. O'quvchilar daftarlari yozib oladilar. Uyda shular asosida reja tuzib kelish topshirig'i beriladi. Reja 4 qismdan ko'proq bo'lishi mumkinligi ham aytildi.

7. Tanlab o'qish. Topshiriqlar:

— Pahlavon Mahmudning bahodirga yutqazib qo'yish sababi ifodalangan o'rnnini topib o'qing.

— Pahlavon Mahmudning jasorati ifodalangan o'rinni topib o'qing.

— Pahlavon Mahmudning insonparvarligi ifodalangan o'rinni topib o'qing.

— Shoirni hamshaharlari qanday qadrladi? Shu o'rinni topib o'qing.

8. Badiiy til vositalari ustida ishlash. O'qituvchi doskaga quyidagi iboralarni yozib qo'yadi. Ularning ma'nosini o'quvchilardan so'raydi.

G'azab otiga minibdi; yolg'iz o'g'limning qo'lini baland qilgan; kuragi yerga tegmagan bahodir.

9. Darslikdagagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Siz sportning qaysi turiga qatnashyapsiz? Nima uchun?

10. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

— Pahlavon Mahmudning yaxshi fazilatlatlaridan biri nima edi. (Musobaqalardan oldin ulug'larning qadamjolarini ziyorat qilishi).

— P. Mahmudning yosh bahodirdan yengilishga jazm qilishini qanday baholaysiz? Siz Pahlavon Mahmuddagi qaysi xislatlarni qadrlaysiz? Hozirgi kunda kurash sporti bo'yicha musobaqalar g'oliblaridan, mashhur sportchilardan kimlarni bilasiz? Siz qaysi sport turiga qatnashasiz?

 **11. Uyga vazifa.** Asarni o'qish va matn yuzasidan test yechish, Pahlavon shoirning xislatlarini yozib kelish.

NIMA YAXSHI-YU, NIMA YOMON? (22 soat)

Bu bo'limda 18 ta asar berilgan bo'lib, ularning har biri bir soatlari darsda o'tishga mo'ljallangan. Bu bo'limdagи asarlarni o'qib-o'rganish orqali bolalardagi salbiy illatlar bartaraf etiladi, ezzulik urug'ini sepish ko'zda tutiladi. Asar qahramonlari fe'l-atvoridagi ijobjiy fazilatlarni o'quvchilar shaxsida tarkib toptirishga harakat qilinadi. Bo'limning "Odobli bo'lish osonmi?" (Anvar Obidjon) asari bilan boshlanishining o'ziyoq bo'lim oldida turgan vazifaning nechog'li muhim ekanini anglashga qaratilgan.

Bo'lim materiallari bilan tanishgan o'quvchilar oila a'zolari, begona kishilar, tengdoshlari va kattalar bilan qanday munosabatda bo'lishni, hayvonot olamiga g'amxo'rlikni o'rganadilar. Bolalarning nutqi o'yinlar, yangi so'z va iboralar yordamida boyiydi. Bo'limdagи 2-, 3-, 4- darslar 1- dars kabi uyuşhtiriladi.

Bo'lim materiallari quyidagicha rejalashtirish mumkin:

Darslar. O'qish va yod olish uchun materiallar. Darsning mavzusi.



MAVZU: NIMA YAXSHI-YU, NIMA YOMON?

O'quv materiali. Odobli bo'lish osonmi? Anvar Obidjon.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi dars, ertak o'qitish darsi.

I. Da'vat bosqichi.

Maqsad. O'quvchilarning nima yaxshi-yu, nima yomon haqidagi tushunchalarini aniqlash va ularni boyitish.

Metod. Aqliy hujum, izohli o'qish, suhbat. Guruhlab o'qitish.

Jihoz. Anvar Obidjon portreti, hayvonlar mamlakati, tabiat tas-viri, hayvonlar maketi.

Aqliy hujum.

1. Hayotda nimani yaxshi deb hisoblaysiz?

O'quvchilar javobi doskaning bir tomoniga yozib boriladi yoki bir o'quvchi o'z fikrini qo'lidagi kartochkaga yozib, uni o'qib «Yaxshilik» daraxtiga iladi. Daraxt bo'lim tugaguncha turadi, o'quvchilar har darsda ularning shoxini boyitib boradi.

Taxminiy javoblar: Kattalarga salom berish; Odamlarning iltimosini bajarish; Yaxshi o'qish; Mehnat qilish; Kichiklarga yordam berish; Tabiatni sevish; Daraxtlarni sindirmaslik; Ko'p kitob o'qish; Hayvonlarga ozor bermaslik; Qishda qushlarga don berish...

2. Hayotda nimani yomon deb hisoblaysiz? Bularga aytilgan va yozilgan javob sandiqqa solinadi. Butun bo'limni o'rgnish jaray-onida yomon narsalar sandiqqa solib boriladi.

— Kichiklarni xafa qilish;

— Atrofdagi kishilarga salom bermaslik... va hokazo

3. Odobli bola bo'lish osonmi?

— Odobli bo'lish insonning o'z qo'lida.

— Faqat yaxshilik qilishni istagan odamga odobli bo'lish oson.

— Odobli bo'lish qiyin.

Odobli bo'lish oson, deb hisoblaydiganlar o'ng tomonga, odobli bo'lish qiyin, deb bilganlar chap tomonga o'tib o'tiring. Har bir tomon o'z fikrini asoslaydi.

4. O'qituvchining hikoyasi. O'qigan asarlaringiz asosida hayotda nimaning yaxshiligini, nimaning yomonligini farqlay boshladin-giz.

Bugungi o'qish darsimizdan boshlab, «Nima yaxshi-yu, nima yomon?», «Odobli bo'lish osonmi?» kabi savollarimizga javob topa boramiz.

5. Shoir Anvar Obidjon portreti doskaga ilib qo'yiladi. Anvar Obidjonning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar eslatiladi.

— Anvar Obidjon kim?

— Uning qaysi asarlarini o'qigansiz?

— Yod olgan she'ringizni aytинг.

O'quvchilar bilimini yangi ma'lumotlar bilan boyitish: Shoirning «Ona zamin», «Bahromning hikoyalari», «Juda qiziq voqeа», «Olovjon va uning do'stlari» to'plamlari sizlar o'qiydigan kitoblar-dir. Shoir ularda juda qiziqarli hangomalarini hikoya qiladi.

Bugun Anvar Obidjonning «Odobli bo'lish osonmi?» degan ertagini o'qiyimiz.

«Odobli bo'lish osonmi? savoliga Anvar Obidjon nima deb javob bergen ekan? Muammoli savol o'rtaqa tashlanadi.

6. «Odobli bo'lish osonmi?» ertagi bilan tanishtirish.

Ertak qahramonlari maketi tayyorlanadi. Asarni o'qish davomida ular doska tagligiga yoki maxsus stolga tartib bilan terib boriladi. Bu o'quvchilarning asar voqealaridagi ketma-ketlikni izchil o'zlashtirishlariga yordam beradi. Qayta hikoyalash uchun reja vazifasini o'taydi.

7. Asar sujeti yuzasidan dastlabki suhbat.

— Ertakning asosiy qahramoni nima?

— U asarda nimalar bilan uchrashdi?

— Sichqonchani odobli deya olasizmi? (U uxlab yotgan toshbaqaga ham tinmay salom beradi...)

Bu savollar yordamida o'quvchilarning asar yuzasidan dastlabki taassurotlari aniqlanadi.

II. Anglash bosqichi.

Maqsad. Salomlashish odobi haqidagi bilimlarini boyitish. «Assalomu alaykum» so'zining quadratini, salom berish har bir kishining vazifasi ekanligini anglashlariga erishish.

O'quvchilarning lug'atini boyitish. O'qish malakasi sifatlarini takomillashtirish.

Metod. Suhbat, tarmoqlash metodi.

1. **Ichda o'qish. Topshiriq.** Asarni ichingizda o'qing. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozib boring.

2. **Matnning lengvistik tahlili.** *Suyukli* so'zini qaysi so'z bilan almashtirish mumkin? *Esingni yig'ib ol* iborasini qanday tushunasiz? *Ko'ngli tog'dek ko'tarilib* iborasini-chi? Sichqoncha o'zini o'tlarning bag'riga uribdi gapidagi bag'riga, uribdi so'zları qanday ma'noda qo'llangan? *Esingni yig'ib ol, zavqi jo'shib ketibdi, qittak, mo'jizagir, samimiyl chehralar, sho'ra, dong qotib qolibdi* va hokazo.

3. **Matnni topshiriqlar asosida o'qitish.**

— Mittigina sichqoncha yashayotgan joy ifoda etilgan qismini o'qing.

— Sichqonchaning onasi bilan qilgan suhbatini o'qing. Sichqonchaning «Odobli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?» savoliga onasi qanday javob bergenligini so'zlab bering.

— Sichqonchaning Mushuk bilan uchrashgan holatini topib

o'qing. «Shum baroq» ko'zidagi yovuzlik bordaniga so'nibdi» nima uchun?

- Nima uchun sichqonchaning ko'ngli tog'dek ko'tarilibdi?
- Echki nima uchun sichqonchani «kam bo'lma», deb duo qildi. Shu o'rinni topib o'qing.
- Sichqoncha yanada odobli ko'rinish uchun nima qildi? Shu o'rinni topib o'qing.
- Echki sichqonchaning ortidan qanday o'y-xayollar bilan qoldi? Shu o'rinni topib o'qing.
- Qanday orzular sichqonchaning yana oldinga qarab boraverash istagini yuzaga keltirdi? Shu o'rinni topib o'qing.

4. Reja tuzish. O'quvchilar hayvon maketlarining joylashish tartibiga qarab, matnni qismlarga bo'ladilar. Asarning bir darsga mo'ljallangan 1-bo'limi 3 qismga bo'linadi.

Reja

1. Onasining nasihatni.
2. Mushukning duosi.
3. Echki buva xursandi.

5. Reja asosida qayta hikoyalash. Topshiriq.

— Asar matnnini bir marta o'qib chiqing va reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlaning.

— 1-guruh o'quvchilari rejaning 1-qismini, 2-guruh o'quvchilari 2-, 3-qismini 3-guruh o'quvchilari qayta hikoyaladi.

— Qayta hikoyalashda nutqingizda matndagi badiiy so'z va iboralarни qo'llang.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad. O'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini aniqlash. Ertak g'oyasini ochish. Tarbiyaviy xulosa chiqarish.

Metod. Mustaqil ish, tarmoqlash metodi, test.

1. Sichqonchaga T tizimida tavsif berish.
1. Asar g'oyasini ochish. Savollar.
 - Ertakni o'qib nimalarni bilib oldingiz?
 - Anvar Obidjon bu ertakni yozish bilan sizga nima demoqchi?

O'zgalarga qanday holatlarda salom beriladi? Salom berish mavridini eslang.

Har bir guruuh tarmoqlash usulida javoblarini tayyorlaydi.

2. Tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Biror narsadan hafa bo'lib turganingizda odamlar bilan qay-

tarzda salomlashasiz?

- Xursandlik chog'ingizda-chi?

O'quvchilar javobi sinf o'quvchilarining xatti-harakatlaridan, tartib-intizomga rioya etishlaridan misollar, dalillar keltirib umum-lashtiriladi.

3. Test yechish.

 **4. Uyga vazifa.** Ertakni ifodali o'qish va reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib keling. Sichqonchaning xususiyatlarini tarmoqlash usulida yozib keling. Asardagi o'zingizga juda yo-qqan o'rinni rasmida tasvirlang.

5. Guruhlarning to'plagan ballari e'lon qilinadi, guruhda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

Izoh: Asarning 2-bo'limi ham shu tarzda o'rganiladi.



MAVZU. KEKSALIK HIKMATLARI

O'quv materiali. Sharq hikoyasi. A. Oripov.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarni hikoya matni bilan, unda ifodalangan ota va o'g'il sarguzashti bilan tanishtirish.

2. Ota-o'g'il o'rtasidagi muomala munosabatlarini o'rgatish.

3. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. Matn ustida ish-lashga o'rgatish. Bog'lanishli nutqini o'stirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'riy hikoyat o'qish darsi.

Dars metodi. Suhbat, ifodali o'qish metodi.

Dars jahozi. Abdulla Oripov portreti, asar mazmuniga ishlangan rasmlar.

Darsning borishi. I. «Odobli bo'llish osonmi?» ertagi yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish.

 **4. Ertak mazmuni yuzasidan suhbat.** Savollar olma daraxtiga il-ingan olma rasmlari orqasiga yoziladi. O'tgan darsdagi guruhlar bittadan chiqib, olmani uzib olib savolga javob beradi. Savolga javob bersa, olmani olib o'zining yashikchasiga soladi, javob bera olmasa, olmani olib borib joyiga iladi. Bu savolni keyin boshqalar olib javob heradi.

- Sichqonchaga onasi nimalar haqida nasihat qildi?
- Mushuk sichqonchani nima sababdan duo qildi?
- Keksa echki mamnunligini sichqonchaga qanday bildirdi?
- Nima sababdan toshbaqa sichqonchadan norozi bo'ldi?

- To'rtko'z nima uchun sichqonchaga qo'pollik qildi?
- Keksa echki nasihatidan so'ng sichqoncha onasidan nima-larni bilib olishni ko'ngliga tugdi?


5. Reja asosida asarni o'qitish va qayta hikoyalatish.

Reja doskaga ilib qo'yiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilarga o'rtoqlarining xatolarini hisobga olish va tuzatish topshirig'i beriladi.

6. Ertakning ayrim qismlarini rollarga bo'lib o'qish.

7. Sichqoncha timsoliga tavsif.

- Sichqonchani odobli deb hisoblaysizmi?
- Sichqoncha onasining va echkining nasihatlariga amal qildimi? O'quvchilar sichqonchaning onasi va keksa echkining nasihatiga amal qilganini toshbaqa va To'rtko'zning qo'pol muomalasiga qaramay, gap qaytarganini aytib isbotlaydilar.



O'qituvchi: Sichqoncha Toshbaqa va To'rtko'zga o'z o'rnida salom berdimi? Bu savol Sichqonchaning kamchilagini aniqlashlariga yordam beradi.

— Sichqonchaning tavsifi berilgan plakatingizni doskaga iling. Fikringizni misollar orqali isbotlang. (Har bir guruh o'zlari tuzgan tarmoqlarini dalillab beradi).

8. Ertakka ishlangan ko'rgazmalar ko'rigi. Har bir guruh o'zi o'tirgan tomonining devoriga chizib kelgan rasmlarini iladi. Har bir guruhdan 2 tadan bola ularga baho beradi.

9. O'quvchilarning tarbiyaviy xulosalarini eshitish.

Ertak orqali o'zingizda qanday yaxshi xusuyatlarni tarbiyalashga ahd qildingiz?

H. Yangi mavzuning bayoni.

1. Asarni o'qishga o'quvchilarni tayyorlash.

- Odamlar safarga nimalarda chiqishadi?
- Qadimda transport vazifasini qishloqda nimalar bajargan?

Topishmoq orqali aniqlashingiz mumkin?

To'rtdir uning oyog'i,

Temir mixli tuyog'i.

Manzilga yetishtirar

Toshdan qattiq tuyog'i. (Ot).

- Qadimda odamlar qanday kun kechirishgan?

— Xonadonlarning hammasida ot bo'lganmi? Nimalari bo'lgan?

2. Abdulla Oripov haqida o'quvchilar bilgan ma'lumotlar so'raladi: A. Oripov kim? Uning qaysi she'rini yod olgansiz? She'rlaridan biror parchani yod aytинг.

 Abdulla Oripov haqida o'qituvchining hikoyasi. Shoir A. Oripov — O'zbekiston xalq shoiri. Uning she'ri rus, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uning nomi ko'p mamlakatlarga yetib borgan. Shoirning onasi Turdi Karovonga bag'ishlab yozgan she'ridan bir parcha aytib berish mumkin.

3. She'r matni bilan tanishtirish. — 1-darsga mo'ljallangan qismi o'qib beriladi.

4. Hikoyat mazmuni yuzasidan dastlabki suhbat.

- Hikoyat kimlar haqida ekan?
- Ular qanday kun kechirishar edi?
- O'g'il otaga qanday hurmat ko'rsatdi?
- Ota-o'g'il nima sababdan yo'lovchilarning malomatiga - gap so'ziga qoldi?

- Otasi o'g'liga xafa bo'lib nima dedi?

5. Hikoyatni ichda o'qish. Sinf o'quvchilari guruhga bo'linib, o'zlariga biriktirilgan qismni o'qiydi. (Hikoyat qismga ajratiladi). O'quvchilar o'qib bo'lgach, o'z qismini qayta hikoyalab beradi.

6. Hikoyatning har bir qismini ovoz chiqarib o'qitish.

7. Tanlab o'qish. Topshiriq.

- Nima sababdan hikoyada ota-o'g'il bir eshakda yo'lga tushdi? Shu o'rinni topib o'qing.

— 1-yo'lovchi ota-o'g'ilga qanday ta'na toshlarini otdi? Shu o'rinni topib o'qing. Uning gaplari to'g'rimidi?

— Ota-o'g'il birga nima qilishdi?

8. Reja tuzish.

1. Ota-o'g'ilning og'ir hayoti.
2. Ota-o'g'ilning malomatga qolishi.
3. Ota-o'g'il nima qilishga hayron.

9. Reja asosida hikoyatni to'liq qayta hikoyalatish.

10. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirib, yakun yasash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Ota o'g'liga qanday muomala qildi? O'g'il otaga qanday muomalada bo'ladi. Yo'lovchilarning gap-so'zlariga o'z munosabatingizni bildiring. Ularning o'rnida bo'lganiningda nima qilgan bo'lardingiz?

11. Uy vazifasi. «Sharq hikoyasi»ni ifodali o'qib kelish.

Yo'lovchilarga tavsif yozib kelish.

Izoh. Hikoyatning 2-bo'limi ham shu tarzda o'rganiladi.



MAVZU: IKKI DO'ST

O'quv materiali. Qodir bilan Sobir. H. Nazir.

Darsning maqsadi. 1. O'quvchilarni Hakim Nazirning «Qodir bilan Sobir» hikoyasi bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarni do'st, ahil-totuv bo'lishga undash, do'stlik-o'rtoqlik, ahillik, totuvlikning inson hayotidagi ahamiyatini yoritish. Zo'ravonlik, maqtanchoqlik kabi salbiy sifatlarning o'zaro o'rtoqlik va do'stlikka rahna solishini o'quvchilarga yetkazish.

3. O'quvchilarni matnni qismlargaga bo'lish, ularga sarlavha qo'yish, lug'at ustida ishlash ko'nikmalarini o'stirish.

4. Lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars metodi. Suhbat, bahs-munozara.

Dars jihizi. Hikoya mazmuniga ishlangan mazmunli rasm, Hakim Nazir portreti.

Darsning borishi.

I. O'tilgan «Sharq hikoyasi» asari yuzasidan o'quvchilar bilimini suhbat yo'lli bilan aniqlash. 1. Nima uchun ota-o'g'il bir es-hakda yo'lga tushdi? Ota eshakka nima uchun birinchi mindi? Ota-o'g'ilning birga piyoda ketishiga qanday malomatlar sabab bo'ldi? Ota o'g'lini koyib nima dedi? Ota-o'g'il yo'lidagi vo-

qealarning oqibati haqida yozuvchi nima dedi? Atrofdagi odamlarning gap-so'zlariga munosabatingizni bildiring.

2. Tanlab o'qish. Ota-o'g'ilning og'ir hayoti tasvirlangan o'rinni ifodali o'qing. Ota-o'g'il suhbatini topib o'qing. Yo'ldagi odamlarning gaplarini topib o'qing. («Ahmoq ekan» deb boshlanadi») Ularning o'zлari nimani xohlashayotganini bilisharmidi? Hikoya qanday yakun topdi? Shu o'rirlarni topib o'qing.

3. Hikoya asosida shoir nima demoqchi? O'zgalarning malomatlariga qulq solgan odamlar to'g'ri qiladimi? O'zgalarning gaplariga qarab bilib-bilmay qilgan ishlaringiz bo'lganmi?

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

1. Asarni o'qishga o'quvchilarini tayyorlash. Suhbat uchun savollar: — Hakim Nazir kim? U haqda nimalarni bilasiz? Hakim Nazirning qaysi asarini o'qigansiz?

O'qituvchining hikoyasi: Hakim Nazir Toshkentda tug'ilgan. U bolalarga bag'ishlab ko'p hikoyalar yozgan. 3-sinfda siz «Dadam qurgan dengis» hikoyasini o'qigansiz. Uning «Qishloqdagi jiyanlarim», «Yonar daryo», «Kenjatoy» nomli kitoblarini o'qishingiz mumkin. Ular kutubxonamizda bor.

Aqliy hujum. Bolalar o'rtasida qanday holatlarda do'stlik bo'ladi? Doim birga yuradigan bolalarni do'st deyish mumkinmi?

O'quvchilar javobi doskaga yozib boriladi: boshqa-boshqa joylarda yashab do'st bo'lish mumkin; bir-biriga maslahat bergen bolalar do'st bo'ladi; do'stlar darslarni so'raganda tushuntirib beradi; bir-biriga yordam bergen bolalar do'st bo'ladi; do'stlar yolg'on gapirmaydi; do'stlar bir-biriga ishonadi.

Hakim Nazirning «Qodir bilan Sobir» asarida nima haqda hikoya qilinarkin? Bu ikki bola do'stmikin? Siz nima deb o'ylaysiz? Bir-ikki o'quvchining javobi eshitiladi.

2. Hikoya bilan tanishtirish. O'quvchilarning diqqati hikoyaning nomiga qaratiladi.

3. Hikoya mazmuni yuzasidan dastlabki suhbat. Hikoyada asosiy qahramonlari kimlar ekan? Qodirning xulq-atvori sizga yoqdimi? Sobirni maqtanchoq deya olasizmi? Qodir bilan Sobir do'st ekanmi? Nima uchun?

4. Ichda o'qish. Topshiriq. Hikoyani ichingizda o'qing. Matndagi ma'nosini tushunmagan so'zlariningizni daftaringizga ko'chiring. Darslikning oxirida berilgan izohli lug'atdan ma'nosini bilib oling. Asar mazmunini tushunib olishga harakat qiling.

O'quvchilarning asarni shivirlab o'qishlariga yo'l qo'yiladi.

5. Lug'at ishi:

Qaysi so'zlarining ma'nosini izohlash lozim deb hisoblaysiz?

Nishon — belgi;

bo'rsiq — dala-dashtlarda yashaydigan hayvon;

o'chakishmoq — qasdan ish qilmoq;

alahsib — chalg'imiq.

6. Hikoyani qismrlarga bo'lib o'qitish.

— Bolalar, hikoya necha qismga bo'linar ekan? (Matni nechta o'quvchi o'qiganiga qarab belgilashadi.)

7. Topshiriqlar asosida o'qitish. Matndan o'rtoqlarining Qodir haqidagi fikrini topib o'qing. O'qigan qismingizning mazmunini gapirib bering. Qodir bilan Sobir nima haqda suhbatlashdi? Shu o'rinni o'qib, qayta hikoyalab bering. Qodirning qo'rroqligini qaysi voqeadan keyin bilish mumkin? Shu o'rinni topib o'qing. Sobirning haqiqiy do'stligi qaysi voqeada bilindi? Shu qismni o'qib bering.

8. Sarlavha topish. O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi.

Topshiriq. Har bir qismiga sarlavha qo'ying.

Namuna.

1. Qodir zo'ravon.

2. O'rtoqlar gurungi.

3. Qo'rroq.

4. Zo'r odam kuchini o'qishda ko'rsatadi. (Yoki: Yolg'onchi Qodir)

Sarlavhalar reja sifatida olinishi mumkinligi aytildi. O'quvchilar rejani daftarlariiga yozib oladilar.

9. Reja asosida qisqartirib qayta hikoyalatish. O'qituvchi asosiy o'rirlarni bir-biriga bog'lab gapirish zarurligini misollar bin tushuntiradi.

10. Hikoya g'oyasini ochish-tarbiyaviy xulosa chiqarish. Bunda "Qodir va Sobir qanday bolalar? Savoli asosida tizimi usulida tasvir beriladi. O'quvchilar ularni xususiyatlarini taqqoslaidilar:

So'ng quyidagi savollaq asosida suhbat o'tkaziladi:

Qodirning zo'ravonligini qanday baholadingiz? Qodirning maqtanchoq bo'lishiga asosi bormidi? Qodir nima uchun itdan qochdi-yu, Sobir qochmadji? Qodir qanday bola ekan? Sobir-chi? U odobli bolami? Siz o'zingizni maqtanchoqmasman deb hisoblaysizmi? Sizda Qodirning qaysi xususiyatlari bor? O'quvchi qanday bo'lishi lozim deb hisoblaysiz?

11. Darsni yakunlash.

-  **12. Uyga vazifa.** Hikoyani o'qib, qayta hikoyalab berishga tayy-orlanib kelish.
- 13. O'quvchilarni rag'batlantirish.**



MAVZU: NIMA YAXSHI VA NIMA YOMON?

O'quv materiali. Nurxon bilan Burxon. Miraziz A'zam

Darsning maqsadi. 1. She'r mazmuni va uning g'oyasi bilan tanishtirish, asarni qismlarga ajralish va qahramonlarni to'g'ri bholashga o'rgatish.

2. O'quvch ilarni bir-birini hurmat qilishga, kekkaymaslikka, birovni mazax qilmaslikka o'rgatish. Ularni yaxshilik qilishga da'vat etish.

3. Ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

4. Bog'lanishli nutqini o'stirish. Nutq madaniyatini tarbiyalash.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Dars metodi. Mustaqil ish, suhbat, tarmoqlash metodi, guruhlab o'qitish metodi.

Dars jihози. Nima yaxshi, nima yomon mazmunidagi va she'r mazmuniga moslab ishlangan rasmlar, savatcha.

Darsning borishi.

I. O'tilgan darsda o'rganilgan «Qodir bilan Sobir» hikoyasi yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash, mustahkamlash va boyitish.

 **1. Hikoya yuzasidan suhbat.** Qodirning qaysi ishlari sizga yoq-madi? Sobir maqtanchoqmi yoki maqtanchoq emasmi? Javobingizni misollar bilan asoslab bering. Sobirning Qodirga aytgan hamma gapini to'g'ri deb hisoblaysizmi? U o'rtog'ining kam-chiligini tuzatishga yordam berdimi?

2. Hikoyani o'qitish orqali o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini aniqlash: Qodirning maqtanchoqligi ifodalangan o'rinnarini topib o'qing. Qodirning qo'rkoqligi ifodalangan o'rinni o'qing. Qodirning yolg'on gapini Sobir qanday to'g'riladi? Shu o'rinni topib o'qing.

3. Rollarga bo'lib o'qitish.

Hikoyaning «Hali hech narsadan qo'rqlayman demaganmid-ing? — dedi unga Sobir» xat boshisidan boshlab o'qitiladi.

4. Hikoya qahramonlari ustida ishlash. Bir guruuh Sobirga, 2-guruuh Qodirga tarmoqlar usulida (yoki T tizimida) tavsif beradi.


Qodirning xususiyatlarini tarmoqlash usulida tasvirlang.



5. Hikoya yuzasidan tarbiyavi xulosa chiqarish. Qodirni qanday bola deb bilasiz? Uning qaysi xislatlarni qadrlash kerak? Maqtanchoqlik haqida qanday fikrdasiz?

II.Yangi mavzu. «Nurxon bilan Burxon» (Miraziz A'zam) she'ri ustida ishslash.

1. O'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlash.



Doskaga «Nima yaxshi?», «Nima yomon?» savatchasi qo'yiladi. Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. 1-topshiriq. Rasmlarni «Nima yaxshi?», «Nima yomon?» guruhiga ajranig.

Stol ustiga rasmli kartochkalar yoyib qo'yiladi. Har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, biri «Nima yaxshi?» savatchasiga, 2-si «Nima yomon?» savatchasiga mosini ajratib soladi.

2-topshiriq. 1-guruh «Nima yaxshi?», 2-guruh «Nima yomon?» ekanini izohlang.

Rasmlar mazmunidan namuna. Bir bola o'zidan kichkina qizchani yetaklab yo'ldan o'tkazyapti

Bir bola kichkina qizchani qo'lidan ushlamay, unga qaramay yo'ldan o'tyapti

Bir o'quvchi daraxtning shoxlarini sindirib meva olyapti

Bir bola uzumning osilib yotgan shoxini so'riga ilyapti

Bir qiz gul ko'chat ekyapti

Bir bola gulni sug'urib yerga tashlayapti va hokazo.

3-topshiriq. Yaxshilik va yomonlik haqidagi magollardan aytинг

Shirin so'z shakardan shirin

Yaxshini maqtasang yarashur, Yomondan goch,

Yomonni maqtagan adashur. Yaxshiga quloch och!

2. O'quvchilarning shoir Miraziz A'zam haqida bilgan ma'lumotlarini eslatish va boyitish. Miraziz A'zam kim? U bolalar uchun qanday asarlar yozgan? Uning qaysi she'rlarini o'qigansiz?

 O'qituvchining hikoyasi. Shoirning esdaliklaridan: Maktab mudirasining gapi: «O'g'lim, siz juda yaxshi odamning farzandisiz, otangiz xushmuomala, to'g'ri so'z yigit edi. Ko'rinishidan nur yog'ilardi... Siz otangizga o'xshagan bo'ling».

Yozuvchi Hakim akaning gaplari: «Otangiz qo'li ochiq mard yigit edi. Bir o'quvchiga o'z oyog'idagi etikni yechib, in'om qilib yuborganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Ham u juda kambag'alparvar edi. Maktabdagagi yetim bolalarga kitob-daftara berib yordam ko'rsatardi». Shoir M. A'zam — otasiga o'xhash fe'lli inson. Uning she'rida shu xususiyatlar aks etib turadi. Bolalar, o'ylab topingchi, «Nurxon bilan Burxon» she'ri qanday xususiyatlar haqida bo'lishi mumkin.

3. «Nurxon bilan Burxon» she'ri matni bilan tanishtirish. She'rni o'qituvchi ifodali qilib yod aytadi.

4. She'r yuzasidan dastlabki suhbat: She'r kimlar haqida ekan?

Sizda she'rdagi qaysi qahramonga nishbatan nafrat uyg'ondi?

Nima uchun?

— Nurxon sizda qanday kafiyat uyg'otdi? Nima uchun?

5. She'rni ichda o'qitish. Topshiriq. — She'rni ichingizda o'qing. Ifodali o'qishga tayyorlaning. She'rni necha qismga ajratish mumkinligini aniqlang.

6. She'rni qismlarga bo'lib o'qitish.

7. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

8. Reja tuzish.

Reja:

1. Burxonning Nurxon ustidan kulishi.
2. Nurxonning g'amxo'rлиги.
3. Burxon uyaldi.

Reja o'quvchilarning daftariga yozdiriladi. Reja asosida o'quvchilar she'r mazmunini o'z so'zlari bilan qisqa hikoyalab beradilar.

9. O'quvchilar o'qituvchining quyidagi savollari yordamida qahramonlarga munosabatini bildiradilar. Shoир she'rda nima demo-qchi? Siz kimning o'rnida bo'lishni xohlardingiz? Noqulay holatga tushgan o'rtoqlaringizga qanday muomalada bo'lasiz? Bu kabi savollar she'r g'oyasini ochishga yordam beradi.

10. Uyga vazifa. She'rni ifodali o'qishga tayyorlanib kelish. Reja asosida «Burxon uyaldi» mavzusida bayon yozib kelish.

11. Guruhlar to'plagan va o'quvchilar javobiga qo'yilgan bal-larni e'lon qilish.



MAVZU: KAMTARGA KAMOL

O'quv materiali. Xatosini tushungan bola. Xudoyerdi To'xtaboyev.

Darsning maqsadi. I. O'quvchilarda badiiy asarni o'qishga qiziqish uyg'otish.

1. Xudoyerdi To'xtaboyev ijodi haqidagi bilimlarni kengaytirish.
2. O'quvchilarning hayotda inson tajribasizligi tufayli xatoga yo'l qo'yishi mumkinligi, lekin uni tuzatishga or qilmasligi lozimligini anglashlariga erishish. «Egilgan boshni qilich kesmaydi» maqolining ma'nosini ochib berish.

3. O'quvchilarni o'rtoqlarini hurmat qilishga o'rgatish.
4. O'qish malakalarini takomillashtirish. Bog'lanishli nutqini o'stirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars metodi: Izohli o'qish, mustaqil ish. Tarmoqlash, suhbat, hikoya qilish metodi.

Darsning jahozi. X. To'xtaboyev portreti, kitoblari, asar mazmunga ishlangan rasm.

II. Yangi mavzu. Xudoyerdi To'xtaboyevning «Xatosini tushungan bola» hikoyasi.

1. O'quvchilarni xatosini tushungan bola» hikoyasini o'qishga tayyorlash .

Xudoyberdi To'xtaboyev haqida ma'lumot. Suhbat uchun savollar. X. To'xtaboyev kim? Uning qaysi asarlarini o'qigansiz? U yaratgan qaysi qahramonlar sizga yoqadi?

A O'qituvchining hikoyasi. Xudoyberdi To'xtaboyev «Sariq devni minib» qissasini yozgan. Unda Hoshimjoninng sarguzashtlari hikoya qilinadi. U o'qimasdan injener, rassom, shoir, agronom bo'lish mumkin deb hisoblaydi. U saharda ishlab ko'rib fikri noto'g'ri ckaniga amin bo'ladi. O'z xatosini tushunib yetadi. Qishlog'iga kelib, sartaroshga shogird tushadi. Oxiri o'qib militsioner bo'ladi. Hamma ham xatosini tushunavermaydi.

Aqliy hujum. Xudoyberdi To'xtaboyev “Xatosini tushungan bola” asarida nima haqida hikoya qiladi? O'quvchilar javobi doskaga tarmoqlash usulida yozib boriladi.

do'stiga noo'rin yomon
gapirib qo'ygan

Xatosini tushungan
hola

Matematikadan xato
ishlagan, so'ng xatosini
bilib olgan

ukasiga darsni
o'rgatmagan

ona tilidan diktantda
xato qilgan

qizlarni xafa qilib
qo'ygan

2. Asar bilan tanishtirish. Asarning bir darsga mo'ljallangan 1-bo'limi o'qib beriladi.

3. Hikoya yuzasidan dastlabki suhbat.

H — Hikoya kim haqida ekan? — Qosimjonning nimaga qobiliyati bor ekan? — Qosimjon nima uchun o'zgardi?

4. Hikoyani ichda o'qish. Topshiriq. Hikoyani ichingizda o'qib, qismrlarga bo'ling. Asarning 1-bo'limi 6 qismga bo'linadi.

— Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni daftaringizga yozib oling. Ma'nosini darslikdagi lug'atchadan bilib olishga harakat qiling.

5. Lug'at ishi.

Tahririyat — redaksiya

Jiddiy — puxta ish qiladigan, mulohazali.

6. Asarni qismrlarga bo'lib o'qitish.

7. Reja tuzish uchun asarni qismrlarga bo'lib qayta o'qitish.

Reja

1. Qosimjon xafa.
2. Tahririyatdan xat keldi.
3. Qosimjonning Tohirga va'dasi.
4. Muhabbatning iltimosi.
5. Qosimjonga «Men ekkan nihol» she'ri dovrug' keltirdi.
6. Qosimjonning burni ko'tarilib qoldi.

8. Darslikdagi 1-bo'lim yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash. (1-2 savol)

9. Tanlab o'qish. Tabiat tasvirlangan o'rinni topib o'qing. Qaysi fasl tasvirlanganini aytинг. Qosimjonining xafaligi sababi ifodalangan o'rinni topib o'qing. Tohirning xat yozgan kishi haqidagi savoliga Qosimjonning javobi bayon qilingan qismni topib o'qing. Qosimjon qanday xayollarga berildi? Shu o'rinni topib o'qing. Ular foydali xayolmidi?

10. Qosimjonga tarmoqlash usulida tavsif berish.



O'quvchilar bergen tavsiflarini misollar bilan dalillab beradilar.

11. Reja asosida asar mazmunini qayta hikoyalash.

12. Hikoya yuzasidan umumlashtiruvchi suhbat. Bugun kim haqida hikoya o'qidik? Qosimjon to'g'ri ish qildimi? Qosimjonning o'rnida bo'lganiningizda o'zingizni qanday tutardingiz? «Kamtarga kamol» maqolining ma'nosini izohlang. Qosimjonning xususiyatiga qaysi maqol mos keladi? («Egilgan boshni qilich kesmaydi»)

13. Uyga vazifa. Hikoyaning 1-bo'limini o'qib, ifodali o'qishga, qayta hikoyalab berishga tayyorlanib kelish.

14. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantirish.

Izoh: Hikoyaning 2-bo'limiga bag'ishlangan dars ham shu kabi tashkil etiladi.



MAVZU: AHIL BO'LIB O'YNAYMIZ, INTIZOMNI BUZMAYMIZ

O'quv materiali. It — mushuk o'yini. Muhammad Rahmon.

Qo'shimcha material. O'yin she'rlar (Habib Rahmat va xalq qo'shiqlaridan)

Darsning maqsadi. 1. O'yinga asoslangan she'rlar bilan tanishtirish. O'yin she'rlar asosida o'quvchilarning milliy odob-axloq haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. O'yinlar asosida o'quvchilarda do'stlik, inoqlik, mehmondo'stlik

sifatlarini tarbiyalash. O'yinlar orqali ularni hayotga tayyorlash.

3. O'yin she'rlar orqali o'quvchilarni muomala-munosabatga o'rgatish.

Dars turi. Ya'ngi bilim beruvchi dars.

Dars shakli. Noan'anaviy.

Dars metodi. Suhbat, badiiy o'qish metodi.

Dars jahozi. Matn mazmuniga mos ishlangan rasmlar.

Darsning borishi.

Dars yangi mavzu ustida ishlash bilan boshlanadi. O'qituvchi ayrim o'yinlarini oldindan sahnalashtirgan bo'ladi. Ayrim o'yinlarining qahramonlarini maketlari orqali yoki qo'g'irchoq teatri shaklida namoyish qiladi.

I. **O'qituvchining tushuntirishi.** Bugungi darsimizda o'zbek xalqining milliy urf-odatlari ifodalangan she'riy o'yinlarni tomosha qilamiz. O'zingiz qiziqib o'ynaydigan o'yinlaringizni ko'rsatasiz. O'yin she'rlarni ifodali qilib o'qib berasiz.

II. O'quvchi:

O'yin bo'lsa o'ynaymiz,

Yiqilamiz, turamiz

Bo'lmasa-chi, topamiz.

Shu ham o'yin atalar.

Topolmasak zir yelib,

Bizday necha yiqilib,

To'rt tomonga chopamiz.

Katta bo'lgan otalar.

O'yinimiz boshlandi. **1-ko'rinish.** Aqli bo'lsa. Habib Rahmat.

1-o'quvchi: — Hakimjoninng aqli yo'q. 2-o'quvchi: Kimni, kimni aqli yo'q?

Urishganni

I. Aqli bo'lsa,

Yarashtirib qo'yadi.

Ikki do'stni

Aqli bo'lsa,

Gij-gijlatib qo'yarmidi?

To'rt va beshni

Aqli bo'lsa,

Qalashtirib qo'yadi.

Qo'zichoqni

Aqli bo'lsa,

Tirqiratib quvarmidi?

Shox sindirmay

Aqli bo'lsa,

1. Hakimjonning aqli yo'q.

Bolalarni

2. Nega, nega aqli yo'q?

Echki bo'lib suzarmidi?

Boshi bor-ku uning ham.

Aqli bo'lsa,

1. Bo'lgan bilan aqli yo'q.

Qizlar solgan

2. Nimaga, nimaga?

Uychalarni buzarmidi?

Oshkor qilay hammaga.

Aqli bo'lsa,

Balki nihol ekardi.

Aqli bo'lsa,

Sang'ib yurmay

Bog'da terlar to'kardi.

Gar kirmasa
Unga aql
Do'stligimiz uzilar.
Garchi uning
Hanuzgacha aqli yo'q.
Bizlar bilan
Sizlar bilan
O'ynamoqqa haqqi yo'q.

III. Tomosha qilingan o'yinlar yuzasidan suhbat. O'rtoqlaring qanday o'yinlar o'ynadilar. O'yin she'rlar orqali nimalarni bilib oldingiz? Hakimjonni nega aqli yo'q deyishdi? Qanday bolalarni aqli bolalar deymiz?

2-ko'rinishda o'quvchilar o'zлari bilgan o'yinlarini ham o'ynab ko'rsatadilar.

3-ko'rinish. It-mushuk o'yini. Muhammad Rahmon

Bir o'quvchi mushuk, 2- o'quvchi kuchuk kiyimida harakatlar bilan she'rni yoddan aytadi.

She'r yuzasidan suhbat:

O'yin – she'r, sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi?

— It va mushuk nimaga qaror qilishdi?

IV. O'yinlardan tarbiyaviy xulosa chiqarish. O'yinlar sizni nimaga chorlayapti?

— Bo'lmay siz hech. It-mushuk!... — degan qarordan qanday ma'no uqdingiz?

— It va mushukning qaroridan qoniqdingizmi?

— Aqli bolada bo'ladigan qaysi xususiyatlar sizda bor?

V. Darsda o'rganilganlarini umumillashtirib yakunlash.

VI. Faol o'quvchilarni rag'batlantirish.

MAVZU: QUSHLAR — BIZNING DO'STIMIZ

O'quv materiali. Qush tili. Mirtemir

Darsning maqsadi. 1. O'quvchilarga Mirtemir hayoti va ijodi, she'rda ifodalangan qush hayoti haqida ma'lumot berish. *Betilmoch, bemantiq* so'zlarini izohlash. Qofiyadosh so'zlar ustida ishslash.

2. Qushlarning tabiatga tegadigan foydasi haqida so'zlab, o'quvchilarda qushlarga mehr ko'rsatish tuyg'ularini uyg'otish.

3. She'rni ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Darsning metodi. Suhbat, tarmoqlash, mustaqil ish metodlari.

Darsning jahozi. Qushlarning rasmlari, Mirtemirning portreti.

Dars borishi.

1. Uyga berilgan she'r bo'yicha so'rov. Muxtorjon singlisi bilan nima haqda suhbatlashdi? U nimalarni o'ylar edi? Singlisi-chi? Siz nirmalarni o'ylaysiz? Orzu-o'ylaringizni gapirib bering.

2. She'rni ifodali o'qish mashqi.

3. She'rni o'qishga o'quvchilarini tayyorlash.

«Qushlar suhbat» asosida oldindan tayyorlangan o'quvchilar mushoira o'tkazishadi.

Chittak

Ozoda qush men chittak,
Tinim bilmayman qittak.
Uyqumda ham hushyorman,
Kuch-g'ayratga bisyorman.

Kaklik

Kakir-kakir sayrayman,
Tog'da erkin yayrayman.
Ovchi, tinchimni buzma,
Menga qarab o'q uzma.
Yetim qolmasin bolam,
Qo'shiqqa to'lsin olam.

O'ylang, bugun nimalar haqida yozilgan she'rni o'qiymiz?

4. Mirtemir hayoti va ijodi haqida o'qituvchining hikoyasi.

Bugun qushlarni sevuvchi shoir, tabiat shaydosi Mirtemirning hayoti va ijodi, «Qush tili» she'ri bilan tanishasiz. — Mirtemir haqida nimalar bilasiz?

Mirtemir Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog'ida 1910 yilda tug'ilgan. U dastlab qishloqda, so'ng «Almai» nomli erlar bilim yurtda, Samarqand pedakademiyasiga o'qishga kirdi. «Mirtemir tabiatni sevib, «To'rg'ay», «Bulut», «Baliq ovi» kabi she'rlar yozgan. «Qush tili» she'rini ham shoir qushlar hayotiga qiziqib yozgan.

5. «Qush tili» she'rini ifodali o'qish.

6. Notanish so'zlarni ma'nosini izohlash.

Betilmoch (tilmoch — tarjimon) — tarjimonsiz.

Bemantiq (mantiq — ma'noli fikr) — mazmunsiz, ma'nosiz, noto'g'ri fikr.

7. She'rni o'quvchilarga o'qitish.

8. Mustaqil ish. She'rdagi qushlar nomini daftaringizga yozing.

Bo'zto'rg'ay, turumtoy, qaldirg'och... So'ng tarmoqlash usulida doskada yozdiriladi, o'quvchilar yozganlarini tekshirib oladilar.

9. "Qushlar – bizning do'stimiz" o'yini. Stol ustidagi qush rasmlarini olib, nomini aytib daraxt shoxiga iladilar va u haqida so'zlab beradilar.

10. She'r sarlavhasi ustida ishlash.

Aqliy hujum: Nima uchun shoir she'rga «Qush tili» deb nom qo'ygan?

 O'qituvchining hikoyasi. A. Navoiy 5 yoshligida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» (*«Qush nutqi»*) asarini yod olgan. So'ng o'zi “Lison ut-tayr” (*“Qush tili”*) asarini yozgan.

9. She'rni qayta mustaqil ichda o'qish. Topshiriq.

She'r misralari oxiridagi bir-biriga ohangdosh so'zlarni toping: uzoq-tuzoq bo'zlashaylik — so'zlashaylik...

10. She'rni ifodali o'qish musobaqasi.

11. “Zanjir” o'yini. O'yin sharti. Hayvon va parrandalar nomini aytish.

Birinchi so'zni o'qituvchi doskaga yozib qo'yadi. Shu so'z tugagan harf bilan boshlanadigan so'zni o'quvchilar aytib, o'yinni davom ettiradilar: qarqunoq, qarg'a,

12. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy hulosa chiqarish. Shoir qushlarga qanday g'amxo'rlik ko'rsatmoqchi bo'ldi? Qushlar yurti haqida nima deyilgan? «Sayranglar menga yovuz» deganda nimani tushundingiz? «Keling, ha, tillashaylik» deganda-chi? Shoir nimani orzu qildi? Siz qushlarga qanday g'amxo'rlik ko'rsatyapsiz?

 13. Uyda she'rni ifodali o'qishga, she'r matni ostidagi savol-larga javob berishga tayyorlanib keling, «Qushlarga g'amxo'rlik» mavzusida kichik (4-5 gapli) hikoyacha yozing.

HAYVONOT OLAMIDA (11 soat)

Bu bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarning hayvonot olami haqidagi avvalgi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslanib, qo'shimcha ma'lumot beriladi.

Bolalar respublikamiz va qo'shni respublikalar hayvonot olami haqida bir qator tasavvurlarga rasmiy kitoblar ko'rish, kinofilmlar tomosha qilish orqali ega bo'lganlar. Bundan tashqari, o'zları yashab turgan shahar yoki qishloqlardagi uy hayvonlari bilan ham yaqindan tanishlar.

“Hayvonot olamida” mavzusidagi dastlabki darslardayoq o'qituvchi o'quvchilar ongiga O'zbekistonda yashaydigan hayvonlarning turlari, bir-biridan farqi, ularning inson hayoti uchun zarur ekanligi haqida ma'lumot berishni maqsad qilib oladi.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, hayvonot olami, jumladan, uy hayvonlari inson hayotida muhim o'rinni tutajagini his qiladilar. Bo'limdagi barcha materiallarni o'quvchi to'liq o'zlashtira borgan sari uning tasavvuri kengayib, hayvonot olami haqidagi bilim va tushunchalari boyib boradi.

Bu bo'limda berilgan Rahim Bekniyozning "Mo'jiza", Pirimqul Qodirovning "Xatarli uchrashuv", Bahodir Aminovni "Tozi" kabi hikoyalari, G'afur G'ulomning "Ola buzoq", Anvar Obidjonning "Jo'ja" kabi she'rlari orqali o'quvchilarda mardlik, jasurlik, yaxshilik, ochiq ko'ngillilik, do'stlik va o'rtoqlik kabi fazilatlarni tarbiyalash ko'zda tutiladi.



MAVZU: G'ALATI O'LJA

O'quv materiali. Mo'jiza. Rahim Bekniyoz.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarning hikoyani ifodali o'qish, mazmunini so'zlab berish, asarni qismlarga bo'lib reja tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish. Hikoya janri haqida nazariy ma'lumot berish. O'quvchilar lug'atini kamina, hamla, gurung, suyg'un, to'qlitoy, o'nsari, qirqari so'zları bilan boyitish.

2. O'quvchilarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali tabiatga mehr uyg'otish.

3. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Dars jihози: mavzuga doir rasm, darslik.

Dars metodi: suhbat, "zigzag" yoki "qadamba-qadam" metodlari.

Darsning borishi:

I. Yangi mavzuni o'rganishga o'quvchilarni tayyorlash. "Zanjir" o'yini. O'qituvchi doskaga hayvon nomini yozadi. O'quvchilar tugagan tovush bilan boshlanadigan hayvon nomlarini topib, uning ketidan yozib boradilar.



II. Yangi mavzu bayoni.



O'qituvchi: Bugun o'ynagan o'yinimiz orqali tabatda juda ko'p, xilmal-xil jonivorlar bor ekanligini bilib oldik. Hayvonlarni boqishni yaxshi ko'rmaydigan bola bo'lmasa kerak. Chunki hayvonlar hayotini kuzatish insonga zavq bag'ishlaydi. Tabiat qo'ynida hayvonlar bilan bog'liq qiziq voqeaga duch kelgan yozuvchilar ular haqida hikoyalar yozishgan. Hozir shunday yozuvchilardan biri Rahim Bekniyozning

“Mo‘jiza” hikoyasi bilan tanishamiz.

III. “Qadamba-qadam” usuli. 1-qadam. O‘quvchilar 4 guruhgaga bo‘linadi. Guruh ishtirokchilariga ketma-ket raqam beriladi. 4 ta ishtirokchi bo‘lsa, 1 dan 4 gacha raqam beriladi. O‘quvcilar bilan kelishilgan holda, asar matni 4 qismga ajratiladi.

2-qadam. Guruh ishtirokchilariga matn qismi bo‘lib berilib, parchani o‘qib, mazmunini o‘zlashtirish topshiriladi.

3-qadam. Ekspert guruhini tashkil qilish.

Bir xil raqamdagagi o‘quvchilar 1 guruhgaga yig‘iladi. Har kim o‘zi o‘qigan parcha mazmuni bilan boshqalarni tanishtiradi. Hikoya mazmuni to‘liq holda o‘zlashtiriladi.

4-qadam. Taqdimotga tayyorlanish. Taqdimot shartlari: Savollar tuzish; Biror parchani ifodali o‘qish; Tushunarsiz so‘zlar lug‘atini tuzish; Matnda keltirilgan ibora, maqollarni topib, yozish, ma’nosini izohlash; Matnga doir rasm chizish; 4 qism asosida reja tuzish.

5-qadam. Taqdimotga chiqish.

O‘quvchilar guruhlarda taxminan quyidagi ishlarni bajaradilar:

1. Savollar tuzish. Hikoya qahramoni qachon ovga chiqd? “Ovxona” qayerda edi? Quyon qayerni yotoqxona qilgan edi? Birinchi o‘q nimaga tegdi? O‘q ovozini eshitgan quyon nima qildi? O‘q quyonga tegdimi? Ovchi kimga duch keldi? Chol ovchiga nimalarni hikoya qilib berdi? Shu payt quyon nima qildi? Nima sababdan quyon tirilib qolgan ekan?

2. Ifodali o‘qish mashqi.

3. Ma’nosи qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish.

kamina	— men
hamla qildi	— bostirib bordi
gurung	— suhbat
suyg‘un	— bug‘i
to‘g‘litoy	— tuvaloq
o‘nsari	— 10 kg
qirqari	— 5 kg

4. Matnda keltirilgan iboralarni topib yozish, ma’nosini izohlash. Ibolarlar: dog‘da qoldirib ketdi — aldab ketdi; rosa jir boylagan — semirgan; ilon chaqqan ola chivirdan ham qo‘rqadi — ehtiyyotkor bo‘lib qoladi.

5. Matn mazmuniga doir chizilgan rasmlar tanlovi.

6. 4-qism asosida reja tuzish.

Reja:

1. Qamishzordagi “ovxona”

2. O'q quyonga tegmadi.
3. Chol bilan bo'lgan gurung.
4. Quyon qochdi.

Guruhlarning taqdimotini o'qituvchi quydagi jadval asosida baholaydi.

 **IV. Uyga vazifa.** “Mo'jiza” hikoyasini ifodali o'qish, mazmunini so'zlab berishga tayyorlanish. Hikoyaga yangi nom o'ylab topish.



MAVZU: IKKI BO'RRI

O'quv materiali. “Xatarli uchrashuv” Pirimqul Qodirov.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarni Pirimqul Qodirov hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishtirish. Ularning hikoyani ifodali o'qish, qayta hikoyalash, ma'nosi qiyin so'zlarning lug'atini tuzish, reja tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish. I shaxs tilidan yozilgan hikoyani III shaxs tilidan qayta hikoyalash ko'nikmasini oshirish.

2. O'quvchilarda mardlik, to'g'riso'zlik fazilatlarini tarkib topdirish.

3. O'quvchilarning guruhdasi ishlash, mustaqil ishslash ko'nikmasini rivojlantirish. O'z fikrini to'liq anglata olish malakasini oshirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning jahozi: darslik, Pirimqul Qodirovning asarlari ko'rgazmasi.

Darsning borishi:

Ushbu dars mavzusi oldingi darsda o'tilgan “Mo'jiza” hikoyasi kabi o'zlashtiriladi.

Quyida bu darsda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini qaratishi lozim bo'lgan so'zlar va iboralar lug'atini keltiramiz.

Lug'at.

tizma tog'	— bir nechta tog'larning yonma-yon turishi
chakmon	— choponning bir turi
chordevor	— bузилган, вайрона уй
biyday dala	— ochiq, bo'm-bo'sh dala
jur'at	— kuch, quvvat
o'zan	— qurib qolgan ariqning yo'li.



Iboralar:

etim junjikib ketdi — qo'rqib ketdim.

qilichning ensiz tig'ida yurib horayotganday — ehtiyojkorlik bilan yurish; sochlарим tikka bo'lib ketdi — qo'rqib ketdim, dahshatga tushdim.

butun borlig'im qulogqa aylanib — diqqat bilan eshitib.

Topshiriqlar asosida tanlab o'qish.

"Xatarli uchrashuv" hikoyasi qismlarga bo'linib taxminan quyidagicha reja tuziladi:

Reja:

1. Jondorlarni it deb yuribman.
2. Bexosdan cho'chib ketdim.
3. Charchab, qorga o'tirib qoldim.
4. Gap aql va irodada ekan.



MAVZU: OLA BUZOQ

O'quv materiali. "Ola buzoq" she'ri. G'afur G'ulom.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning she'rni ifodali o'qish, she'r tuzilishi, mazmuni jihatidan tahlil qilish ko'nikmasini takomillashtirish. O'xshatish san'ati haqida ma'lomotlarini kengaytirish.

2. O'quvchilarning uy hayvonlarini boqish, parvarish qilishga qiziqishlarini oshirish.

3. O'yinlar orqali o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi dars.

Darsning jahozi. Darslik, mavzuga oid rasmlar, krossword.

Darsning metodi. suhbat, induktiv metod.

Darsning borishi.

I. Da'vat bosqichi. Krossword yechish.

Eniga.

1. Bolalarning sevimli shoiri.

4. Bosh qahramoni

Qoravoy bo'lgan asari.

Bo'yiga.

2. G'. G'ulomning she'riy topishmoq janrida yozilgan asari.

3. Muxtor, Munisa qatnashgan she'r.

Kalit so'z.

Javoblar: 1. G'afur G'ulom. 2. Buni toping qizlarim. 3. O'ylashni o'rganamiz. 4. Shum bola.

Krossword o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari yordamida yechiladi. O'quvchilarga javoblar to'g'ri topilsagina kalit so'z chiqishi, kalit so'z bugungi darsda o'rganiladigan mavzu ekani aytildi.

Kalit so'z – "Ola buzoq".

O'qituvchi: G'afur G'ulom bolalarga atab juda ko'p she'rlar yozgan. Krossword yechish jarayonida uning biz o'rgangan she'rlarini

esga oldik. Kim shu she'rлarni yoddan aytib beradi? (O'quvchilar o'z xohishiga ko'ra G'afer G'ulom she'rлarini yoddan aytib beradilar)

O'qituvchi: Krossvordning kalit so'ziga bejiz "Ola buzoq" birikmasi yashirib qo'yilmagan edi. Demak, bugun darsda shu nomdagi she'rni o'qib o'rganamiz.

II. Da'vat bosqichi. Maqsad. "Ola buzoq" she'rini ifodali o'qish, mazmunini anglash. O'xshatish san'ati haqidagi amaliy bilimlarini boyitish. She'r tuzilishi, qofiyalanishi yuzasidan elementar tahlilga o'rgatish.

1. O'qituvchi "Ola buzoq" she'rini ifodali o'qib beradi.

2. Ichda o'qish. Topshiriq. Ifodali o'qishga tayyorlaning.

3. She'rni ifodali o'qish musobaqasini o'takazish.

O'qituvchi oldindan qizil, sariq rangdagi doirachalar tayyorlab oladi. A'loga o'qigan o'quvchilga qizil, o'rtacha o'qiganga sariq doiralar tarqatadi. Yangi mavzuni o'zlashtirish jarayonida qizil doiralardan 5 ta yig'gan o'quvchi 5 ball bilan rag'batlantiriladi. Har bir qizil doira 1 ball, sariq doira 0,5 ballga teng bo'ladi.

Musobaqada 20 tagacha o'quvchi qatnashsa ham bo'ladi.

4. Mustaqil ish.

O'qituvchi quyidagilarni doskaga yozib qo'yadi. O'quvchilarga nuqtalar o'rnini to'ldirish topshiriladi.

"Ola buzoq" she'ri ... misradan iborat. Misralar ... bo'g'indan tashkil topgan. She'rda ... tinish belgilari qo'llangan. Qofiyadosh so'zlar...

Mustaqil ishni to'g'ri va tez bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

5. Tarmoqlash usuli.

O'qituvchi dastlab doskada quyidagicha tarmoqlashni boshlab beradi. O'quvchilar taxminan quyidagicha davom ettiradilar.

O'qituvchi -day qo'shimchasi va xuddi so'zlarining tagiga chizib chiqadi.



— Nima uchun shoir -day qo'shimchasini qo'llagan? (Shoir buzoqning ko'rinishini biror narsaga o'xshatgan.) Buzoqning tilini nimaga o'xshatgan? Ko'zi, qulog'i, yuzi, tumshug'ini-chi? Buni qanday badiiy vosita degan edik?

O'qituvchi: shoir she'rida buzoqning tashqi ko'rinishini juda ta'sirli ifodalab bergan. Buning sababi she'rda o'xshatishdan foydalanilgan. Siz topgанингиздек, G'. G'ulom buzoqning ko'zini olxo'riga, yuzini bosvoldiga, qulog'ini safsargulga, tilini lolaga, tishini sadafga, baqbaqasini marjonga o'xshatib she'rning ta'sirchanligini oshirgan va sizda she'rni o'qishga qiziqish uyg'ota olgan.

Demak, o'xshatish deganda nimani tushunasiz? (Biror narsa yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga qiyoslash orqali o'xshatishni tushunamiz) O'xshatish san'atining belgisi -day, -dek qo'shimchalarining, kabi, xuddi so'zlarining qo'llanishidir.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad. O'quvchilarни savol-topshiriqlarни mustaqil ravishda, to'liq, har tomonlama mukammal bajarishga o'rgatish. O'yin orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

1. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishslash.

2. Asar tili ustida ishslash. "Ko'zi yordi" birikmasini izohlang. "Og'zimiz oqarib qoldi" iborasi qanday ma'no bildiradi? Qahramon buzog'ini qanday so'zlar bilan erkalar ekan? Buzoqchaning ko'rinishini o'z so'zingiz bilan tasvirlab bering.

3. She'r asosida tarbiyaviy xulosa chiqarish. Uyingizda qanday hayvonlar boqasiz? Ularni qanday parvarishlaysiz? Sevimli jonivorингизни qanday so'zlar bilan erkalaysiz? O'zingiz sevgan jonivorингизning tashqi ko'rinishini tasvirlab bering.

4. **"Davom ettir" o'yini.** O'qituvchi hikoya boshlaydi. O'quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati, ijodiy ishlар yozish ko'nikmasi rivojlanadi. O'yinda o'qituvchi boshlab beradigan hikoya mavzuga oid biror jonivor haqida bo'lishi lozim. Masalan: Buvim menga kichkina mushuk bolasini sovg'a qildilar... O'yinda har bir o'quvchi hikoyaga bittadan gap qo'shishi kerak. O'quvchilar tuzgan gaplarini doskaga yozib boradilar. Mantiqli va chiroyli gap tuzgan o'quvchilarga doirachalar tarqatib boriladi.

5. **O'quvchilarни rag'batlantirish.**

 6. **Uyga vazifa.**

"Ola buzoq" she'rini ijod olish. Sevimli jonivori haqida matn tuzish. Ola buzoqning she'rdagi tasviri yordamida rasmini chizish.



MAVZU: SAMAN TOYCHOQ

O'quv materiali. Tushovli toy. Nosir Fozilov.

I. Darning maqsadi. 1. O'quvchilarga Nosir Fozilov ijodi, uning asarlari haqida ma'lumot berish. Ularning hikoyani ifodali o'qish, mazmunini qayta hikoyalash, qismlarga bo'lib reja tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. O'quvchilarda tabiatni sevish, tabiatdagi o'simliklar-u, hayvonlarga nisbatan ijobiy munosabat va mehr hissini uyg'otish. Ulariga g'amxo'rlik tuyg'usini singdirish.

3. Bog'lanishli nutqini o'stirish. Tushov, usq, uyur, chilvir, o'mrov so'zлari bilan lug'atini boyitish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi dars.

Darsning jihizi. Darslik, testlar to'plami, N. Fozilov asarlari to'plami.

Darsning metodi. Suhbat, qadamba-qadam usuli.

Darsning borishi.

Ushbu dars Rahim Bekniyozning "Mo'jiza" asariga yozilgan dars rejasi bo'yicha o'tilishi mumkin.

O'tilgan mavzularni mustahkamlash bo'yicha test yechish.

1) G'. G'ulom asarlari berilgan qatorni belgilang.

- A. "Ola buzoq", "Kuz"
- B. "O'ylashni o'rganamiz", "Shum bola"
- C. "Buni toping, qizlarim", "Toshkentnoma"

2) Quyonning ayyorligi tasvirlangan hikoya nomini toping.

- A. "Xatarli uchrashuv"
- B. "Ola buzoq"
- C. "Mo'jiza"

3) "Xatarli uchrashuv" asarining qahramonini bo'rilardan nima qutqarib qoldi?

- A. Iroda va aql
- B. Tayoq
- C. Itlar

4) "Tozi" hikoyasining muallifi kim?

- A. G'afur G'ulom
- B. Bahodir Aminov
- C. Pirimqul Qodirov

5) "Ola buzoq" she'rida qo'llangan badiiy til vositasini aniqlang.

- A. O'xshatish

B. Jonlantirish

C. Mubolag'a

II. Yangi mavzu ustida ishlash.

 1. Asarni o'qishga o'quvchilarni tayyorlash. Uy hayvonlari haqida suhbat.

— Uy hayvonlarining ona va bolasi nomini birga aytинг. (Qo'y-qo'zichoq, echki-ulоq, sigir-buzоq, ot-toy, eshak-xo'tik,) Qaysi hayvonlardan mehnat qilishda foydalaniladi? Ulardan qaysi ishlarda foydalaniladi? Qaysi yozuvchi hayvonlar haqida ko'p asar yozgan? (N.Fozilov, Tog'ay Murod,) Nosir Fozilov haqida nimalar bilasiz? Uning qanday asarlarini o'qigansiz?

2. Hikoya matni bilan tanishtirish.

3. Ichda o'qish. Topshiriq. Ichingizda o'qing.

4. Izohli so'zlar lug'atini tuzing. Namuna:

 <i>tushov</i>	— otning oldingi oyoqlarining bog'laydigan arqon;
<i>ufq</i>	— osmon bilan yerning tutashgandek bo'lib ko'rindigan chizig'i;
<i>uyur</i>	— otlar podasi, biyalar to'dasi;
<i>chilvir</i>	— pishiq to'qilgan arqon;
<i>o'mrov</i>	— ko'krak, otning ko'krak qismi.

5. Hikoyani qismlarga bo'lib o'qitish.

Hikoya yuzasidan o'quvchilar tuzgan savollari ustida ishlash: Asardagi voqealar qaysi faslda ro'y bergan? Saman toy nima bilan tushovlangan edi? Qorong'ida saman toyning ko'ziga nimalar ko'rindi? Tushovli toy sakrab qocha oldimi? Saman bo'rilarni ko'rgach nima qildi? Toyga eshitilgan ovoz kimniki edi? Saman toyni ko'rgan yirtqichlar nima qilishdi? Samanga kim yordamga keldi? Bo'rilar nima uchun qochib qolishdi? Qudrat aka samanni ko'rib nimalarni o'yaldi? Nima uchun saman shalpayib qoldi? Nima sababdan Qo'chqor yig'ladi?

6. "Uy hayvonlariga nom qo'y" o'yini.

O'qituvchi alohida itlarga, mushuklarga, sigir, echkiga qo'yiladigan laqablarni yozish shartini beradi. Eng ko'p laqab topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

7. **Topshiriqlar asosida hikoyani o'qitish.** Hikoyadan ob-havo tasvirlangan o'rinni topib o'qing. Saman toyning qo'rquvi ifodalanigan o'rinni topib o'qing. Saman toyga bo'rining hamlesi ifoda qilningan o'rinni topib o'qing. Saman toyning tushovlanish sababi ifo-

dalangan o'rinni o'qing. Qo'chqorning ertalabki holati tasvirlangan o'rinni o'qing va hokazo.

8. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Darsni yakunlashda hikoyaga yangi nom topish musobaqasini yusushtirish mumkin. O'quvchilar quyidagicha sarlavhalar topadilar: "Qo'chqorning xatosi", "Ko'kqashqaning mardligi", "Bo'rilar hujumi".

9. Reja tuzish. Reja.

1. Himoyasiz Saman toy.
2. Sezgir Ko'kqashqaning yordami.
3. Qo'chqor pushaymon bo'ldi.

10. Reja asosida qayta hikoyalash.

11. Hikoyani ijodiy davom ettirish.

12. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirib, tarbiyaviy xulosa chiqarish: Otlarning kishilarning mehnatini yengillatishi haqida nimalarni bilasiz? Qo'chqor to'g'ri ish qildimi? U qanday xatoga yo'l qo'di? Uning o'rnidagi bo'lganining nima qilar edingiz?

 **13. Uyga vazifa.** Hikoyani ifodali o'qib, gapirib berishga tayyorlanish. Saman toyning rasmini chizish.

14. O'quvchilarni rag'batlantirish.

MAVZU: SHOVVOZ JO'JA

O'quv materiali: "Jo'ja" she'ri. Anvar Obidjon.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarning she'rni ifodali o'qish, mazmunini so'zlab berish ko'nikmalarini mustahkamlash. Lug'atini boyitish.

2. O'quvchilarning estetik didini tarbiyalash.

3. O'quvchilarning ijodiy hikoya tuzish malakalarini oshirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, deduktiv metod.

Darsning jahozi: darslik, Anvar Obidjon asarlari, mavzuga oid rasm.

Darsning horishi:

Bu darsni G'afur G'ulomning "Ola buzoq" she'ri uchun yozilgan dars ishlansasi kabi uch bosqichga bo'lib o'tkazsa bo'ladi.

Da'vat bosqichida rebus, boshqotirmadan foydalanib mavzu nomini keltirib chiqarish mumkin.

Boshqotirma:

Bo'yiga.

2. Tuyaning bolasi.

4. "Hayvon" so'zining ma'nodoshi

5. Echkining bolasi.

Eniga.


1. Eshakning bolasi.

3. Sigirning bolasi.

Kalit so'z.

Kalit so'z.


1	2	3	4
---	---	---	---



Javoblar: 1. Xo'tik. 2. Bo'taloq. 3. huzoqcha. 4. Jonivor. 5. Uloqcha.

Anglash bosqichida "Jo'ja" she'ri yuzasidan jo'janing o'ziga bergan tavsifini tarmoqlash topshirig'I beriladi:

Fikrlash bosqichi mavzu yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlar bilan birligida quyidagicha o'yin uyuştirish mumkin. O'yinda o'qituvchi matnni o'qiydi. O'quvchilar mantiqqa zid bo'lgan voqealar ifodalangan jumlanzi ziyraklik bilan topadilar.



Matn namunasi: Bizning xo'jaligimiz katta. Shuning uchun hovlimizda o'tlab yurgan kuchukni, ma'rab turgan tovuqni, ostonada erinib yotgan sigirni, qaqag'lab hech tinchlik bermaydigan mushukni uchratishingiz mumkin.

Ukam bilan mактабдан qaytishimizga onam ishlarni tayyorlab turgan bo'ladiлар. Ukam og'ilxonaga kirib kuchuk oldiga xashak tashlaydi. Men tovuqlarga sut, non bo'laklarini beraman. Onam donlab yurgan mushukni katakka qamaydilar. Kech kиргач hammamiz dasturxon atrofida uxlaymiz.



MAVZU: OQ SHUNQOR

O'quv materiali: "Ko'kyol". Nosir Fozilov.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni "Ko'kyol" hikoyasi bilan, ovchilikning tartib qoidalari bilan tanishtirish. Izohli o'qish

ko'nikmasini rivojlantirish.

2. O'quvchilarni tabiat hodisalaridan zavqlanishga o'rgatish, uni sevish va asrash tuyg'usini oshirish.

3. O'yin orqali ijodiy fikrlash, o'z bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, test metodlari.

Darsning jahozi: darslik, mavzuga oid rasm, test topshiriqlari.

Darsning borishi.

I. Da'vat bosqichi. Maqsad. O'quvcilarining o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini aniqlash va mustahkamlash. Test ishlash ko'nikmasini rivojlantirish. O'yin orqali yangi mavzuni o'rganishga qiziqtirish.

1. Test yechish.

2. "Topag'on" o'yini. O'qituvchi bir qancha yovvoyi va uy hayvonlari nomlarining ro'yhatini tuzib oladi. Doskani 2 ga bo'ladi. Yarmiga "Uy hayvonlari", qolgan yarmiga "Yovvoyi hayvonlar" deb yozadi. O'yinning sharti: ishtirokchi nomi aytilan hayvonning rasmini topib doskaning kerakli tomoniga yopishtirib qo'yadi. O'qituvchi partalar bo'yicha o'quvchilarni doskaga chaqiradi. O'yin tugagach eng faol, topag'on o'quvchi rag'batlantiriladi.

3. O'yin yuzasidan savol-javob. Qanday hayvonlarni yovvoyi hayvonlar deymiz? Nima uchun? Uy hayvonlari nimasi bilan yovvoyi hayvonlardan farq qiladi? Uy hayvonlarining foydasi haqida nimalar bilasiz? Qaysi uy hayvonlari haqidagi hikoyalarni o'qidingiz? Yovvoyi hayvonlar haqida qanday hikoyalar o'qigansiz? Nima uchun ba'zi yovvoyi hayvonlarni yirtqichlar deb ataymiz? Qanday yirtqich hayvonlar nomini bilasiz?

 **O'qituvchi:** Bugun siz sanagan yirtqich hayvonlardan biri – bo'ri haqidagi hikoyani o'qib o'rganamiz. Vahshiy bo'ri haqidagi "Ko'kyol" hikoyasi bolalar yozuvchisi Nosir Fozilov yozgan. Biz oldingi darslarda yozuvching qaysi asarlarini ("Tushovli toy" hikoyasini) o'qib o'rgangan edik.

Nosir Fozilov hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?

II. Anglash bosqichi. Maqsad. "Ko'kyol" hikoyasini ifodali o'qish. Mazmunini to'liq anglash. Matndagi ibora, ma'nosи qiyin so'zlarni izohlash malakasini oshirish. Matnni qismlarga bo'lish, reja tuzish.

1. Ifodali o'qish mashqi. Dastlab o'qituvchi matnning 1-qismini to'liq, ifodali o'qib beradi. Qolgan qismini yaxshi o'qiydigan 2 o'quvchiga o'qitiladi.

O'quvchilarga ko'chirma gaplarni ohangiga e'tibor qilib o'qish uqtiriladi.

2. Ichda o'qish. Topshiriq. Ichingizda o'qing. Ma' nosi tushunarsiz so'zlarning izohli lug'atini tuzing.

D 3. Iboralar va ma'nosi qiyin so'zlarning lug'atini tuzish va izohlash. Matnda berilgan iboralar va tushunarsiz so'zlar quyidagicha izohlanadi:

yassi – tekis; *o'tov* – cho'ponlarning ko'chma uyi; *chaqirim* – masofa o'lchovi; *makkor* – ayyor; *cho'qmor* – gurzi, to'qmoq shaklidagi urush quroli; *jingil* – qirlarda, cho'llarda o'sadigan o'simlik.

4. Matnni qismlargaga bo'lib o'qish va reja tuzish. Asarning 1-bo'limi yuzasidan reja taxminan quyidagicha tuziladi:

1. Amakim bilan ovga chiqdik.
2. Iso boboning g'azabi.
3. Ko'kyolning ayyorligi.
4. Amakimning tuzgan rejasi.
5. Reja asosida qayta hikoyalash.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad: o'yin orqali o'quvchilarни ijodiy fikrlashga o'rgatish. Krossvord tuzish mahoratini oshirish.

1. "U kim? Bu nima?" o'yini. "Ko'kyol" hikoyasi matnida keltirilgan narsalar ta'rifi bo'yicha nomini topish. Bunda o'qituvchi hikoyada yozilgan narsalardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar shu belgilarni asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

"Cho'ponlarning vaqtincha yashaydigan uyi. Bu uyni tikishadi" – javobi: o'tov.

"Bu narsa bilan ov qilishadi. Uni Mansur va uning amakisi yelkasiga osib ovga chiqadilar" – (miltiq).

"U samanga tashlangan yirtqich. Uni Iso boba makkor deb ta'riflagan" – (Ko'kyol nomli bo'ri).

"Uni Ko'kyolning iziga solishdi. Uning ismi Oqshunqor" – tozi it.

2. O'quvchilar topgan javoblari asosida krossvord tuzadilar. Taxminan quyidagicha krossvord tuziladi:

Bo'yiga.

1. Samanni o'ldirgan bo'ri nomi.

3. Ov quroli.


Eniga.

2. Cho'ponlar ko'chma uyi.

4. "Ko'kyol" hikoyasining bosh qahramoni.

3. Uyga vazifa. Darslikda berilgan 1, 2, 3-topshiriqlarni og'zaki, 4-topshiriqni yozma bajarish. Hikoyani ifodali o'qish. Qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.

4. O'quvchilarni rag'batlantirish.



ZUMRAD BAHOR (13 soat)

Bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarning oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslanib, yangi ma'lumot beriladi.

Bolalar serquyosh O'zbekistonning fasllari orasida fasllar kelin-chagi "Bahor" haqida ko'plab taassurotlarga egalar. Ular bu taassurotlarni, albatta, televizor va radio, gazeta-jurnallar orqali va o'zi yashayotgan zaminda har yili olam-olam gul-u bo'ston bo'lib, hamma yoqni ko'm-ko'k maysazor-u, bog'-rog'larni gul-u gulzorga aylantiradigan bahor faslini ko'rish, undan zavq olish orqali ham yaqindan biladilar. Zumrad bahor haqidagi ilk mavzuning o'zidayoq o'qituvchi o'quvchilarga O'zbekiston fasllari, jumladan, go'zal bahor haqida qo'shimcha bilim va tushunchalar berishni maqsad qilib qo'yadi.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, bahor fasli, uning go'zalligi-yu, bor tarovati haqida, bu faslda bo'ladigan bayramlar haqida bilimga, tushunchaga ega bo'lib horadilaf.

Bo'limni to'liq o'zlashtira borib o'quvchining tasavvur doirasi kengayadi, bilim va ko'nikmalari oshib boradi. Bo'lim materiallarini o'qituvchi o'quvchiga o'rgatib borish orqali o'zi yashayotgan shahar yoki qishloq, u yerdagi mahalliy sharoit bilan bog'liq hodisalarini, bahorning erta yoki kech kelishi sabablarini va erta bahorda o'sib-unib chiqadigan bahor chechaklari haqida ma'lumotlar berishni diqqat markazida tutadi.

Bo'limda berilgan Yusuf Xos Hojibning "Bahor ta'rifida" hikoyasi, H. Rahmatning "Jala darakchisi" she'ri kabi asarlarida o'quvchilarga uyg'onish, yasharish, yangilanish fasli – so'lim bahor haqidagi ma'lumotlarni yetkazish nazarda tutilgan.

Bulardan tashqari, bahor fasli haqida Mirtemir, Q. Hikmat, X.To'xtaboyev, F. Musajonov kabi adiblarning ham qator asarları berilgan. O'quvchilar bu asarlarni o'qish orqali go'zal bahor fasli haqidagi tasavvurlarini yanada boyitadilar.



MAVZU: BAHOR SHABODASI

O'quv materiali. Bahor ta'rifida. Yusuf Xos Hojib
Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish. Bahorning uyg'onish fasli ekanligi, tabiatdagi o'zgarishlar haqidagi bilimlarini boyitish.

2. Bahor faslini qadrlash va sevish hissini tarbiyalash.

3. O'quvchilarning o'qish malakalarini yanada rivojlantirish lug'atni nasim, turdosh, chin, sabo, havo so'zlari bilan boyitish. Iboralarning ma'nosini izohlash.

Savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi dars, ilmiy-ommabop asarlarni o'qish darsi.

Darsning metodi. Izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash metodi.

Darsning jahozi. Bahor fasli, tabiat tasvirlangan rasmlar, predmet rasmlari: qushlar, gullar, hayvonlar rasmi.

Darsning borishi.

1. O'quvchilarni yangi o'rganiladigan mavzuga tayyorlash.

1. Men topishmoq aytaman. Siz uning nima haqida ekanini, javobini topasiz. Ilon izli yorug' nur Bulutlarni quchadi. Jarangdor ovozidan yer-u osmon ko'chadi (Chaqmoq).

— Topishmoqni topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi? Bu so'zlar qaysi faslini ta'rifida aytildi?

Aqliy hujum. Bahor fasli qanday so'zlar bilan ta'riflash mumkin? O'quvchilar javobi tarmoqlash usulida har xil ranglar bilan kartonga yozib boriladi.



Tarmoqlash bahor faslining ko'rinishini eslatadigan shaklda tuziladi.

2. Bahor faslidagi tarixiy sanalar haqida suhbat. Savol: Bahor fasida qaysi bayramlar nishonlanadi? Siz qaysi bayrami juda sevatsiz?

3. O'quvchilarga bahor haqida yod olgan she'ri ayttiriladi.

O'qituvchi o'quvchi bilan bo'lgan suhbatni umumlashtiradi: Bahorni yaxshi kayfiyat, mehnat qilishga ishtiyooq uyg'otadigan fasl. Shuning uchun qadimdan shoir- yozuvchilarimiz bahorni madh etib she'rlar bitgan, hikoyalari yozgan. Shunday yozuvchilarimizdan biri Yusuf Xos Hojibdir. Siz bu yozuvchi haqida oldingi darslarimizda eshitgansiz. — Eslang. Yozuvchining qaysi asaridan parcha o'qigansiz? O'sha parcha nima deb nomlangan edi? Unda nima haqida hikoya qilingan edi? (Yaxshilik va yomonlik, bilimdonlik va nodonlik haqida).

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan yana bir parcha o'qiymiz. O'ylang. Bu parcha qaysi mavzuda bo'lishi mumkin? Doskaga mavzu o'quv materiali yoziladi:

1. **Asar bilan tanishtirish.** Matnni o'qituvchi o'qib heradi. Topsiriq.: «Asarni diqqat bilan tinglang. Yusuf Xos Hojib bahorni qanday ta'riflar ekan?

 2. **Kirish suhbatি.** Asar nima haqda ekan? Unda nimalarning ta'ifi berilgan?

3. **Topshiriq asosida ichida o'qish.** Asarni o'qing. O'zingizga ma'nosi notanish so'zlarning izohli lug'atini tuzing.

4. *Lug'at ishi.*

 *Nasim* — shabada, shamol

Firdavs — bog', jannat bog'i

Chin — Xitoy

Musaffo — toza, pokiza

Navo — kuy

Saho yeli — shamol nafasi

Chechaklar — gullar

Ifor — yoqimli hid

Mushk-anbar — xushbo'y hid

5. **Asarni qismlarga bo'lib o'qitish.** Asar 3 qismiga bo'linadi. 3 o'quvchiga o'qtiladi.

2-qayta o'qitilayotganda quyidagi topshiriqlar beriladi.

1-qism yuzasidan: Yozuvchi bahorni ta'riflashda qaysi so'zlardan foydalangan?

Nasim, firdavs, oq rang, bo'z yer, alvon rang musaffo, yashil to'n, oq, sariq, ko'k, qizil rangli harir yaproqchalar, yashil parda, xitoy

karvoni, chechaklar, ifor. (Shu so'zlarning ma'nosi so'rab o'tiladi).

2-qism yuzasidan: Yozuvchi qaysi qushlarni va parrandalarni tilga oladi? G'oz, o'rdak, oqqush, qil quyruq, turka, kaklik, qora qarg'a, bulbul. Shu qush va parrandalarni rasmlar ichidan ko'rsating.

3-qism yuzasidan. Yozuvchi qaysi hayvonlarning nomini tilga olgan? (Bug'u, jayron).

6. Tanlab o'qish. Topshiriqlar. — Bahor faslida daraxtlarning harakatga kelishi tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

1. Kaklik tasviri berilgan qismni topib o'qing.

2. Qora qarg'aning ovozi nimaga o'xshatiladi? Shu misralarni topib o'qing. Yozuvchi yerni o'tlar bilan qoplanishini nimaga o'xshatadi? Shu qismni topib o'qing.

3. Turnalarning uchishi nimaga o'xshatilgan? Shu o'rinni topib o'qing.

4. Asardan jonsiz narsa jonlashtirilgan o'rinni topib o'qing. (Gullar yuz ochib, qahqaha urib kulmoqda).

5. Zerikarli qishni bahor qanday haydadi? (Bahor nafasai bilan haydadi).

6. Daraxtlarning barg yoyishi nimaga o'xshatilgan? Matndan topib o'qing (... daraxtlar yana yashil to'n kiydi).

7. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

8. Darsda o'rganilanlarni umumlashtirish va tarbiyaviy hulosa chiqarish. Siz bugungi o'qigan asarimiz orqali nimalarni bilib oldingiz? Bahor faslida tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi? U kishilarga qanday kayfiyat bag'ishlaydi? Bahor fasli tuhfalariga qanday munosabatda bo'lyapsiz?

 9. O'qituvchi: demak, yozuvchi Yusuf Xos Hojib bahorni ta'riflashda juda ko'p rang bildiruvchi so'zlardan, o'xshatishlardan, jonlantirishlardan foydalangan. Siz ham uyda «Bahor — go'zal fasl» mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda shunday so'zlardan, iboralardan foydalanishga harakat qiling. Bunda quyidagi rejadan foydalaning.

Reja

1. Bulut suzgan osmon.

2. Gullarga burkangan olam.

3. Qushlar navosi (chug'uri).

Asarni bir necha marta o'qing. Hikoyagizda asardagi so'zlardan ko'proq foydalanishga harakat qiling.

10. O'quvchilar faoliyatini baholash.



MAVZU: BAHOR UYG'ONISH FASLI

O'quv materiali. Bahor. Qudrat Hikmat.

Darsning maqsadi. 1. O'quvchilarning. Bahorda tabiatda, hayvonot va qushlar hayotida bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi bilimlarni boyitish.

2. Bahor faslida tabiatni kuzatishga, undagi o'zgarishlarni payqab olishga o'rgatish.

3. Tabiatni sevish, asrash, uning gullab yashnashi uchun hissa qo'shishga yo'llash.

4. O'quvchilar nutqini so'zlar bilan boyitish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Dars shakli. Noan'anaviy dars.

Dars metodi. Kichik guruqlar dars bilan ishlash, mutsaqil ish metodi, suhbat metodi, tarmoqlash metodi.

Darsning jahozi. Korton qog'oz, rangli flomaster, gul, qushlar rasmi, tabiiy hodisalar tasviri.

Tashkiliy qism. Sinf 4 guruhgaga ajratib o'tqaziladi.

Darsning borishi.

I. Da'vaj bosqichi. Maqsad. O'quvchilarning bahor fasli, undagi hayot haqidagi tushunchalarini aniqlash. Yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash va qiziqish uyg'otish.

Metod. Mustaqil ish metodi.

1. O'quvchilar guruhiга o'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar yozilgan kartochka solingan konvertlar beriladi.

Savol-topshiriqlar:

1-guruh uchun: 1. Bahor fasli haqida qaysi asarni o'qib keldingiz? Unda tabiatdagи ob-havo o'zgarishlari qanday tasvirlangan? So'zlab bering. 2. Nasim, firdavs so'zining ma'nosini izohlab bering. 3. «Bahor ta'rifida» matnining 1-qismini ifodalai o'qib bering.

2-guruh uchun: 1. «Bahor ta'rifida» asarida yerning yuz qismidagi, dov-daraxtlardagi o'zgarishlar qanday tasvirlanadi? So'zlab bering. 2. Chin so'zining ma'nosini izohlab bering. 3. Asarning 2-qismini ifodalai o'qib bering.

3-guruh uchun: 1. Qushlar hayoti qanday tasvirlanadi? Shularni so'zlab bering. 2. Kaklik, oqqush, o'rdak rasmlar ichidan tanlab ko'rsating. 3. Asarning 3-qismini ifodalki o'qib bering.

4-guruh uchun: 1. Hayvonlar harakati qanday tasvirlangan? Shu or'nni hikoyalab bering. 2. Jayronning rasmiga qarab, uning tashqi

ko'rinishini tasvirlang. 3. Asarning 4-qismini ifodali o'qib bering. O'quvchilar to'plagan ballar e'lon qilinadi.

2. Baddiy til vositalari ustida ishlash. O'qituvchi: Bugun darsda daxatdagi olmalardan uzishga ruxsat beraman. Faqat uning orqasiga yozilgan savol-topshiriqni bajarsangiz, olma sizniki bo'ladi va uni o'z savatchangizga solasiz.

Har bir guruhdan o'quvchilar navbat bilan chiqib olmadardan oladi va shu vaqtning o'zidayoq savollarga javob beradi:

O'qing. Qanday badiiy vosita qo'llanganini aytинг.

Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to'n kiydi, oq, sariq, ko'k, qizil rangli yoping'ichlar bilan bezandi.

O'qing. Qanday badiiy vositalar qo'llanganini aytинг.

Bo'z yer yuziga yashil parda tortdi, go'yo Xitoy karvonni

Chin hariri ipak matolarini har tomonga yoydi.

O'qing. Qanday badiiy vosita qo'llanganini aytинг.

Qora qarg'a tumshug'ini ko'pitirib qag'illaydi, uning ovozi tan-tiq qizning ovozi kabi yoqimsizdir.

O'qing. Qanday badiiy vosita qo'llanganini aytинг.

Mag'rur turnalar ko'kda ovozini baralla yangratmoqda, tizilgan tuyu karvonidek uchmoqda.

Guruuhlar balli e'lon qilinadi.

3. Matnni topshiriqlar asosida o'qitish. «Bahor ta'rifida» mat-nini o'qing. Undan ko'chma ma'noda qo'llangan so'zлarni top-ing. (Bahor nafasi, firdavs yo'li, o'z hukmiga, harir yopingich, har tomonga yoydi, kaklik kulmoqda, gullar yuz ochib, qah-qah urib kulmoqda kabi). Guruhlarning balli e'lon qilinadi.

4. Bahor fasli haqida o'quvchilar tushunchasini aniqlash. Bahor fasliga xos xususiyatlarning tarmoqlash usulida ifodalng, uni dos-kaga iling va izohlab bering. «Bahor» she'ri muallifi Qudrat Hik-mat haqida nimalar bilasiz? Og'zaki gapirib berishga tayyorlaning. Qaysi she'rлarini yod bilasiz? (O'quvchilar «Qish to'zg'itar momiq par» she'rini aytishadi)

 *O'qituvchi hikoyasi.* Q. Hikmat bolalar uchun she'r yozgan. Shuning uchun bolalar shoiri deb aytishadi. U Toshkentda tug'ilgan. Pedagogika oliygohida o'qigan. U atigi 43 yil yashagan.

Lekin bolalar uchun ko'plab she'rлar to'plamini yaratgan. Uning «Menning Vatanim», «Baxtli bolalar»). «Uch o'rtoqning sovg'asi», «Soat-joninng soati», «O'g'lim bilan suhbat» to'plamlari bor. Guruhnинг balli e'lon qilinadi.

II. Anglashbosqichi. Maqsad. «Bahor» asari orqalio'quvchilarning

bahor tabiatini, qushlarning harakati haqidagi bilimlarini boyitish, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. O'quvchilar nutqiga *mayin shamollar, soyabon tollar, tong yellari, o'tlar tebranar, ko'kni quchgan teraklar* iboralarini kiritish.

Metod. Mustaqil ish metodi.

1-topshiriq. She'rni ichingizda o'qing. Ifodali o'qib berishga tayyorlaning. O'qish uchun 1-2 daqiqaga beriladi. So'ng har bir guruhdan 4-5 o'quvchiga o'qitiladi. Ular baholanib boradi, guruhnинг ifodali o'qish bo'yicha umumiy balli e'lon qilinadi.

2-topshiriq. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlang. Har bir guruh o'z ichida savol-topshiriqlarni bo'lib olib tayyorgarlik ko'rsin. Tayyor o'quvchi turib javobini aytaveradi. Guruhlar bir-birining javobini to'ldiradi.

3-topshiriq. Jonlantirish qo'llangan misralarni topib o'qing. Shoiring murojaatini topib o'qing. Shoiring sizga nima demoqchi?

III. Fikrlash bosqichi.

Maqsad: O'quvchilarning she'r asosida olgan bilimlarini hayotda ko'rgan-kuzatganlarini, eshitganlari bilan bog'lab ifodalab berishga o'rgatish. Dars taassurotlarini eshitish orqali keyin darsning vazifalarini rejalashtirib olish.

Metod. Suhbat metodi.

1. Mavzu yuzasidan o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chigarish. Savollar:

Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz?

She'rni o'qishdan oldin bahor, uning ob-havosi, tabiat ko'rinishi, qushlar hayoti haqida nimalarni bilar edingiz?

"Bahor" she'ri orqali nimalarni bilib oldingiz?

Hissiyotingizga kuchli ta'sir qilgan misralar qaysilar? Ularni o'qib bering. Bahordagi tabiatning uyg'onishini shoiring qo'llagan ifoda bilan tasvirlab bering.

Siz qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?

2. Guruhlar to'plagan ball va ayrim faol o'quvchilarning bahosi e'lon qilinadi.

 3. **Uy vazifasi:** She'rni yod olish. She'r mazmuniga mos rasm chizish.



MAVZU: YAXSHIDAN BOG' QOLADI

O'quv materiali: Erkacholning o'rigi. Xudoyberdi To'xtaboyev

Darsning maqsadi. 1. Xudoyberdi To'xtaboyevning yoshlik yillari va bobosining elga qoladirgan bog'i va nomi haqida ma'lumot berish.

2. O'quvchilarda o'z hayotlarida yuz beradigan muhim va qiziqarli voqealar haqida hikoyachalar yozishga rag'bat uyg'otish.

3. Ajdodlarini eslash va ularning mehnatini qadrash ruhida tarbiyalash. Ularning ongiga yaxshilik, ezzulik kabi fazilatlari singdirish.

4. O'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish va bog'lanishli nutqini o'stirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Dars metodi. Suhbat, mustaqil ish, tarmoqlash metodi.

Dars jahozi. O'rikzor bog'dagi mehnat tasvirlangan rasmlar, yozuvchi portreti.

Darsning borishi.

I. O'rganilgan «Fasllar ko'rki» she'ri yuzasidan o'quvchilar bilimi aniqlash va mustahkamlash.

1. She'rni yod ayttirish. 2. She'r matni ustida ishslash: She'rda bahor haqida nimalar deyilgan? Maysalarning bosh ko'tarishi bilan majnuntolning bosh ko'tarishi nimani anglatadi. She'rda bahor kelganidan darak beruvchi yana qanday o'xshatishlar bor? Shoir bahor faslini nima uchun «fasllar ko'rki» deb atagan?

II. Yangi mavzu ustida ishslash.

1. O'quvchilarni hikoyani o'qishga tayyorlash.

«O'rik» she'ri o'qib beriladi.

Tanishaylik Yeging kelsa

O'rikman, Ko'k g'o'ra

G'aynoliga Bahor chog'ida

Sherikman So'ra... (Do'stjon Matjon)

— Bugungi darsimizda nima haqidagi hikoyani o'qir ekanmiz?

O'qituvchi doskaga («Erkacholning o'rigi». Xudoyberdi To'xtaboyev) yoziladi.

 **Yozuvchi haqida suhbat.** Xudoyberdi To'xtaboyev kim? Uning qaysi hikoyalarini o'qigansiz? («Xatosini tushungan bola» hikoyasini)

2. Hikoya matni bilan tanishtirish. 4 o'quvchi oldindan ifodali qilib o'qib berishga tayyorlab qo'yiladi. Ular o'z qismalarini ifodali qilib o'qib beradilar.

3. Matn yuzasidan dastlabki suhbat. Hikoya nima haqida ekan? Hikoya voqealari kimning tilidan bayon qilingan? Hikoyani nega qismga bo'lib o'qidik?

4. Hikoya topshiriq asosida qismlarga bo'lib o'qitiladi. 1-qismni o'qing. Mazmunini qayta hikoyalab bering. 2-qismini o'qing. X. To'xtaboyevning yuragining xapriqib ketish sababini aytинг. 3-qismni o'qing. Yozuvchining bolalik xotiralarini gapirib bering. 4-qismni rollarga bo'lib o'qing: Bola, bobo va muallif nutqini belgilab oling. Ifodali o'qishda qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oling.

5. Matn yuzasidan suhbat: Hikoya nima uchun «Erkacholning o'rigi» deb nomlangan? Asarga nima uchun «voqeiy hikoya» deb qo'yilgan? Yozuvchi nima uchun yoshlar orasida ko'proq bo'lishni istaydi? Yozuvchining «Erkacholning o'rigi» hikoya-sini yozishga nima turtki bo'ldi?

6. Ichda o'qish. Topshiriq. «Qoraqandak» o'rigiga xos xususiyatlarni aniqlang, (og'izda erib ketadi. Quruq, suvsiz yerni xohlaydi, quriganda rangi qorayib qoladi.) Erkacholning tashqi ko'rinishi tasvirlangan o'rinni aniqlang, yoshi yetmishlarga borib qolgan, baland bo'yli, tik qomatli, tarashadek qotma, cho'ziq yuzli, serzarda, eng muhimi, tinib-tinchimas bir kishi edi). Yozuvchi bobosiga ergashib yurishini nimaga o'xshatadi? (Sutga to'ymagan qo'zi onasining orqasidan qolmagandek). Hikoyadan yozuvchining eng ayanchli ahvoli bayon qilingan parchani aniqlang. (Otam olamdan o'tgach, yigirma yoshida beva qolgan onam ikki-uch yildan so'ng turmushga chiqdi, mening tarbiyam bobomning ixtiyorida qolgan edi). Yozuvchi o'rik eyayotgan kishilarni qanday tasvirlaydi? Shu o'rinni aniqlang. (Suhbatdoshlarimga qayta-qayta tikilaman, yuz-u ko'zlarida yeyotgan o'riklardan olayotgan huzuridan o'zga ifodani sezmayman.) O'quvchilar savollarning javobini qalamda belgilab beradilar va matndan o'qib beradilar.

7. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

8. Aralash berilgan rejani tariblashtirish mustaqil ish qilib beriladi.

Reja:

1. Yo'ldagi suhbat.
2. Yozuvchi yoshlar orasida.
3. O'rik hangomasi.
4. Tinib-tinchimas bobo.

O'quvchilar daftarlariга qo'yidagi tartibda yozadilar:

Reja:

1. Yozuvchi yoshlar orasida.

2. O'rik hangomasi.
3. Tinib-tinchimas bobo.
4. Yo'ldagi suhbat.

9. Reja asosida hikoya mazmunini qayta hikoyalatish.

10. Hikoya qahramonlariga tavsif berish. Yozuvchining bobosi qanday inson ekan? O'quvchilari javobi tarmoqlash usulida yozib beriladi. O'quvchilar har bir kalit so'zning ma'nosini misollar bilan yoritib beradi.



11. Darsda o'rganilganlarini umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.

Yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning yoshligi sizda qanday taassurot qoldirdi? Hikoya bilan tanishgach, siz kimlarga o'xshashni istadingiz?

12. Uya vazifa. Hikoyani o'qib, 3-shaxs tilidan ijodiy qayta hikoyalab berishga tayyorlanib kelish.

13. O'quvchilarni baholash.

Izoh: Hikoyaning II bo'limi ham shu tarzda o'rganiladi.

Bu darsda «Bog'da» rasmi asosida suhbat o'tkaziladi.

Rasmda odamlar mehnati tasvirlangan.

Daraxt shoxlari qirqilyapti, ko'chat o'tqazilyapti.

Daraxtning tanasi oqlanyapti, tagi yumshatilyapti.

Rasm yuzasidan savollar.

— Bahorda bog'larda odamlar qaysi mehnat bilan shug'ullanadi. Nima uchun odamlar mehnat qiladi? Oila a'zolaringiz tamorqangizda qanday ishlar bilan shug'ullanayapti? Sizlar-chi?

Mehnat haqidagi maqollardan aytish.



MAVZU: SUMALAK SAYLI

O'quv materiali. Navro'z — bahor bayrami M. Alaviya.

O'qituvchining maqsadi. 1. O'quvchilarni «Navro'z bahor bayrami» matni bilan tanishtirish ularning navro'z haqidagi tushunchalarini boyitish, yaxshi o'qish sifatlarini takomillashtirish.

2. Milliy an'analarni hurmatlash va qadrlash, davom ettiruvchi guruhida tarbiyalash.

3. Nutqlarini yangi so'zlar bilan boyitish, og'zaki nutqlarini o'stirish.

O'qituvchining maqsadi. 1. Matn mazmunini o'zlashtirish.

2. Yangi so'zlar bilan nutqlarini boyitish.

3. Milliy bayramlardan Navro'z urf-odatlarni o'zlashtirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Darsning metodi. suhbat, ifodali o'qish, aqliy hujum.

Darsning jahozi. Navro'z bayrami tantanalari, urf-odatlari aks ettirilgan rasmlar, videolavhalar, kartochkalar va testlar, magnitafon.

Darsning borishi.

I. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash va mustahkamlash. 1. «Erkacholning o'rigi» hikoyasi yuzasidan suhbat. **Savollar:** «Erkacholning o'rigi» hikoyasi nima uchun voqeiy hikoya deyilgan? Yozuvi Xudoyberdi To'xtaboyev bobosi haqida nimalar deb yozadi? Hikoya nima uchun «Erkacholning o'rigi» deb nomlangan?

2. Turli topshiriqlar asosida hikoya matnnini o'qitish.

3. Oiladagi bahorgi ishlar yuzasidan suhbat.

4. Mehnat haqidagi maqollar aytish musobaqasi.



II. Yangi mavzu. 1. O'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlash. O'quvchilar, bahor qanday fasl? Bahor faslida qaysi bayramlar nishonlanadi? 2. Milliy bayram xalq bayrami deganda nimani tushunarsiz?

Aqliy hujum. Savol: Navro'z bayrami haqida nimalarni bilasiz?

- 21-martda kun-tun tenglashadi.
- 21-martdan yangi kun boshlanadi.

Navro'z bayrami haqida nimalar bilasiz.

Bugun qaysi mavzudagi asarni o'qir ekaniz?

— Bugun siz bilan Olima Muzayana Alaviyaning Navro'z bayrami haqidagi asari bilan tanishasiz. Olimaning adabiyot sohasidagi qilgan ishlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

2. O'quvchilarni matn bilan tanishtirish. Matn magnitofon orqali eshittiriladi. Doskaga asar mazmunini ifodalovchi rasmlar ilib qo'yildi.

3. Asar voqealari yuzasidan dastlabki suhbat. — Asar nimalar haqida ekan?

4. Matnni o'quvchilarga topshiriqlar asosida o'qitish. Ilmiy-om-mabop asarning murakkabligi tufayli sinf o'quvchilari to'rt guruhga ajratiladi. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi. Masalan. 1-guruh «Bilag'onlar», 2-guruh «Navro'z», 3-guruh «Topshiriqlar», 4-guruh «Bahor».

Matn yuzasidan topshiriq kartochkalarda guruhlarga tarqatiladi:

1. Erta bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi? Yerlar haydaladi ko'chalar tozalanadi. 2. Navro'z kunlari qanday ishlar qilinadi? Idish-tovoqlar yuviladi; ariqlar qaziladi hamma yoq supriladi. 3. Navro'zda qanday taomlar pishiriladi? 4. Bahorda ochiladigan qanday gullarni bilasiz?

Savollarga matndan javob topib yozadilar.

To'ldirilgan kartochkalar yig'ib olinib, bir nechasi ovoz chiqarib o'qilib tahlil qilinadi.

5. Lug'at ishi.

O'quvchi matndagi ma'nosi, imlo va talaffuzi ustida ishlaniishi lozim bo'lgan quyidagi so'zlarni avvaldan doskaga yozib qo'yadi. Xattaxtaning ikkinchi betidagi bu so'zlar o'quvchilar diqqatiga havola qilinadi. Suhbat yo'li bilan ularning ma'nosi oydinlashtiriladi.

<i>singiydi</i>	— shimiladi
<i>kurtaklari yozilib</i>	— kurtaklari ochiladi
<i>bo'g'ot</i>	— uy tomining pastki qismi
<i>sumalak</i>	— tarnovlardagi osilgan muzlar
<i>yosh to'kmogda</i>	— erimoqda.

6. Tanlab o'qish. Bahor tabiatи tasvirlangan o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. Bahorda dehqonlarning mehnat faoliyati bayon etilgan o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. Navro'z kuniga odamlar qanday tayyorgarlik ko'tadilar? Shu o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalang. Navro'zda tug'ilgan farzandlarga qaysi ism qo'yiladi?

Shu gaplarni topib o'qing: Navro'zda qariyalar qanday tilak bildiradi? Shu o'rinni topib o'qing va qayta hikoyalab bering. Siz, bolalarga qarata aytigan fikrlarni topib o'qing va qayta hikoyalang.

7. Reja tuzish. O'qituvchi suhbat asosida o'quvchilar bilan birgalikda reja tuzadi. — Matnni necha qismga bo'ldik? Reja necha qismli bo'lishi mumkin? 1-qismni o'qing, unga reja tuzing.

Reja.

1. Yilning o'z umrini yangilashi.
2. Dehqonchilik ishlarining boshlanishi.
3. Navro'z bayramining nishonlanishi.
4. Navro'z bayramidagi milliy an'analar.
5. Olimaning bolalarga istaklari.

Topshiriq. Uyda asarni o'qib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.

8. Test sinovi.

9. Mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini umumlashtirish va tarbi'yaviy xulosa chiqarish: Navro'z bayramida qatnashib, asarni o'qib nimalarni bilib oldingiz? Navro'zni nishonlash uchun nimalar qilishingiz kerak ekan?

10. Bugun darsda o'rganganlaringiz asosida uyda oila a'zolaringiz bilan suhbatlashing. Bilimingizni yana boyiting. Matinni o'qib, qayta hikoyalashga tayyorlanib keling.

11. O'quvchilar faoliyatini baholash.

YASHNASIN TINCHLIK BOR BO'L SIN DO'STLIK (6 soat)

Bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarning tinchlik va do'stlik haqidagi oldingi sinflarda olgan bilimlari va tushunchalariga asoslanib yangi bilimlar beriladi. O'zbekiston istiqbolga erishgach, dadil islohotlar va rivojlanish yo'lidan borayotganligini, unda turli millatlar totuv va tinch hayot kechirayotganligini o'quvchilar muktabda uzluksiz ta'lim jarayonida o'qib-o'rganib, eshitib bilib oladilar.

Bo'limning ilk darsidayoq o'quvchilar tinchlik va do'stlik haqida mukammal tasawurga ega bo'ladilar.

Bo'lim materiallarini o'rganib borar ekan, o'quvchi "Qo'shning tinch — sen tinch" yoki "El-u yurting omon bo'lsa, rang-u ro'ying somon bo'imas" kabi maqol va iboralar bejiz aytilmaganini, shu muqaddas zaminda yashayotgan millat va elatlar orasidagi tinchlik va do'stlik rishtalari mahkam bog'langanini his qiladilar.

Bu bo'limdagi materiallarni yanada chuqurroq o'rgana borgan sari o'quvchi O'zbekiston xalqlarining tinchlik yo'lida qilayotgan sa'y-harakatlarining bosh rahnamosi, o'zbek xalqining asl o'g'loni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning mashhaqqatli mehnati yotganligi bilan yaqindan tanishadilar.

Bo'lim materiallarini o'qituvchi o'quvchiga o'rgatib borish orqali, o'zi oilasi, sinfdoshlari va birga o'ynaydigan o'rtoqlari bilan yaqindan do'st bo'lish va shu do'stlikni qadrlash kabi ma'lumotlarni berishni ko'zda tutadi.

Bu bo'limda berilgan Sh. Sa'dullaning "Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r" yoki Ullibibining "E'zoz" kabi hikoyalarida Vatan, tinchlik, do'stlik tarannum etilganiga o'quvchi diqqatini tortishi lozim.



MAVZU: OQ KABUTAR — TINCHLIK QUSHI

O'quv materiali: Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r.

Shukur Sa'dulla

Darsning maqsadi. 1. O'quvchilarning tinchlik haqidagi tasavvurlarini boyitish.

2. O'quvchilarni tinchlikning qadriga yetish, ruhida tarbiyalash. Tinchlik uchun hissa qo'shishga undash.

3. Ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Dars metodi. Suhbat, aqliy hujum.

Dars jihizi. Tinchlikni tarannum etuvchi rasmlar va plakatlar.

Darsning borishi.

Dars yangi mavzu ustida ishslash bilan boshlanadi.

I. Yangi mavzuga o'quvchilarini tayyorlash.

1. Tinchlik va do'stlik haqida suhbat: O'zbekiston qaysi davlatlar bilan do'stona aloqa o'rnatgan? Tinchlik uchun Prezidentimiz I.A. Karimov qanday ishlar olib boryapti? O'quvchilarining diqqati rasmlarga qaratiladi. 1941—1945-yillarda urush vaqtini namoyish etadigan kinolarni ko'rganmisiz? «Sen yetim emassan» kinosini-chi? Toshkentga boshqa joylaridan yuborilgan bolalarni tarbiyalagan kishi haqida eshitganmisiz?

O'qituvchining hikoyasi. Toshkent — O'zbekistonning poytaxti. Toshkent — non shahri. Toshkent — tinchlik, do'stlik shahri. Bunday deyilishiga asosli sabablar bor. O'zbek xalqi urush yillarda yetim qolgan bolalarni o'z quchog'iga oldi. O'zi yeb turgan nonini ularga berdi. O'z farzandidek tarbiya qildi va o'qitdi. Hindiston va Pokiston davlatlari o'tasida do'stlik aloqalari Toshkent shahrida o'rnatildi.

2. Ilyos Muslimning she'ridan parcha o'qib beriladi.

Yer yuzidagi amakijonlar,

Shunday iltimos bordir sizlarga:

— Chiqarmang quroq, oqmasin qonlar,

Kitob, o'yinchoq bering bizlarga!

3. Aqliy hujum. Nima uchun yer yuzidagi xalqlar tinchlik tarafdoi? Javoblar doskaga yoki doskaga ilingan vatman qog'ozga yozib boriladi.

— Tinchlik bo'lsa, o'qishimiz davom etadi.

— Tinchlik bo'lsa, hamma o'zt sevgan ish bilan shug'ullanadi.

— Odamlar to'q yashaydi...

Bugun darsda qaysi mavzuni o'rganar ekanmiz? Mavzu doskaga yoziladi. O'quvchilar, nima uchun bo'llim "Yashnasin tinchlik, bor bo'lsin do'stlik" deb nomlangan?

O'quvchilar javobi umumlashtiriladi.

- She'r matni bilan tanishtirish. She'r ifodali o'qib beriladi.
- She'r yuzasidan dastlabki suhbat. She'r nima haqida ekan? Tinchlik qushi qanday nomlangan? Oq kaptar nimaning ramzi ekan?

4. She'rni shivirlab o'qish. Topshiriq. She'rni shivirlab o'qing. Notanish so'zlar izohli lug'atini tuzing. Ko'chma ma'noli so'zlarni aniqling. (ko'rар, ko'з)

5. Lug'at ishi:

	<i>qotil</i>	— odam o'ldiruvchi;
	<i>battol</i>	— yovuz, shafqatsiz.

Ko'з solaman deganda nimani tushunasiz?

Uni ko'rар har bir ko'з deganda-chi?

5. She'rni qismlarga bo'lib o'qitish.

6. She'rni qismlarga bo'lib o'qitish (3 qismga bo'linadi).

 7. **She'rning qismlari yuzasidan suhbat.** She'r o'qigan bolaning niyati nima ekan? Shu qismga sarlavha qo'ying. (Tinchlikka hissam). Kaptar boqib, tinchlikka qanday hissa qo'shish mumkin? (Kaptar orqali odamlar bir-biriga xat yuborgan. Kaptar elchilik vazifasini bajargan. Bolalarga «Bobur va kabutar» hikoyati eslatadi. Shuning uchun oq kabutar tinchlik ramzi bo'lib qolgan. Hikoyatga ishlangan rasmga o'quvchilar e'tibori tortiladi. Bolalar uchirgan oq qog'oz — oq kaptarlar nimaning parvozi ekan? Shu qismga sarlavha qo'ying. (Tinchlikning parvozi). Oq kaptar har tong yer yuziga nima deb jar soladi? Shu qismga sarlavha qo'ying. (Tinchlik deya solar jar). «Tinchlik istar yosh avlod» misrasining ma'nosini qanday tushundingiz? O'quvchilar javobi umumlashtirib, to'ldiralid.

8. She'rni to'liq o'qitish.

9. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishslash.

10. **Tinchlik haqidagi maqollar asosida mavzu yuzasidan tarbiyaviy zulosalar chiqarish:** El-u yurtning omon bo'lsa, rang-u ro'ying somon bo'lmas» maqoli qanday ma'noni anglatadi. «Qo'shning tinch-sen tinch» maqolining ma'nosini qanday tushunasiz? O'quvchilar tinchlikka qanday hissa qo'shishi mumkin?

 11. **Uyga vazifa.** She'rni ifodali o'qishga tayyorlanib kelish. «Tinchlik urushni yengadi» mavzusida insho yozishga tayyorlaning.

IV. O'quvcholarining faoliyatini baholash.

AJDODLARIMIZ – FAXRIMIZ (9 soat)

Bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarni ulug' bobolarimizning hayoti va ijodi, ilmiy faoliyatları haqida oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslanib, yangi bilim va ma'lumotlar beriladi. o'quvchilar butun yil davomidagi o'qish jarayonida bobokalonlarimiz qoldirib ketgan bolalarning yoshiga mos asarlar bilan yaqindan tanishganligi nazarda tutiladi.

"Ajdodlarimiz — faxrimiz" mavzusida o'qituvchi ilk darsini boshlashdanoq o'quvchilar ongiga, ruhiga ulug' ma'rifatparvar ajdodlarimizning ziyo tarqatish, itm ularshish yo'lidagi sa'y-harakatlari qanchalik mashaqqatli, ammo sharafli bo'lganligini singdirishni asosiy maqsad qilib oladi.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, muqadas diyorimizda yashab, ijod qilgan ulug' adiblar, buyuk olimlar, ustozlarimiz haqida, ularning ilmiy faoliyatları, bizga meros qilib qoldirgan durdonasarlari katta ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi. Ularning nodir asarlari Vatanga, ona yurtga sodiq, vadodor insonlarni shakllantirishda juda katta o'rinn egallashiga alohida urg'u beriladi.

Bo'lim materiallarini o'qituvchi o'quvchiga o'rgatib borish orqali o'zi yashayotgan viloyat, shahar yoki qishlog'ida yashab o'tgan al-lomalar, buyuk shaxslar haqidagi kerakli ma'lumotlar berish lozimligini ham nazarda tutadi.

Bo'limda berilgan H. Sodiqovning "To'maris", T. Adash-boyevning "Navoiy bobomlar", N. Karimovning "Rivoyat" kabi asarlarida Vatanga sadoqat, do'stga sodiqlik, mehr-oqibat kabi go'zal insoniy fazilatlar tarannum etilganiga diqqatni qarat shiko'zda tutilgan.

Bo'limda berilgan qator tarixiy voqealar va shaxslar haqidagi asarlar o'quvchilar uchun ibrat va namuna vazifasini o'taydi. Bo'lim materiallari quyidagicha rejalashtirilgan



MAVZU: TO'MARIS (2 soat)

O'quv materiali. To'maris. Hamdam Sodiqov.

Darsning maqsadi.

1. O'tmishda yashab o'tgan vatanparvar ajdodlarimizdan

To'maris haqida ma'lumot berish, uning Vatan oldidagi burchini to'g'ri anglaganini o'quvchilar ongiga yetkazish.

2. O'quvchilarda Vatan tuyg'usini kengaytirish, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.

3. O'quvchilar nutqiga To'maris, Sparganiz, Kurush, Krez ismlarini, massaget, forslar kabi qabila nomlarini, Oks (O'kuz)—Amudaryo so'zlarini kiritish; qayta hikoyalash asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi tarixiy hikoya o'qish darsi.

Dars metodi. Izohli o'qish metodi.

Dars jahozi. Janglar tasvirlangan sujetli rasmlar.

Darsning borishi. 1. O'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlash.

 1. Bo'lim yuzasidan suhbat. Ajdodlarimiz deganda kimlarni tus-hunasiz? Nima uchun biz ular bilan faxrlanamiz? To'maris kim? U haqida nimalar eshitgansiz? Massaget, sak, so'g'd qabilalari haqida ma'lumot.

 *O'qituvchining hikoyasi:* Qadimda ajdodlarimiz o'z farzandlarini qiz yoki o'g'il bo'l shidan qat'iy nazar jasur, o'z vatanining haqiqiy himoyachisi qilib tarbiyalaganlar. Ular bolalarini besh yoshdan boshlab o'qitganlar, otda yurish, yoydan o'q otishga o'rnatganlar. Ularni jasurlik, to'g'rilik, botirlilik ruhida, o'z xalqi erki va mustaqilligining himoyachilari qilib tarbiyalaganlar.

To'maris ham shunday tarbiya topgan ayollardan biri.

2. Lug'at ustida ishlash:

 – Bu asarda Kurush, Sparganiz, Krez ismlari hor. Ularni esda saqlang.

Oks (O'kuz) – Amudaryoning qadimgi nomi.

Massaget – qabila nomi.

3. «To'maris» asari bilan tanishtirish.

 4. Asar yuzasidan dastlabki suhbat: – Asar kimlar haqida ekan? (Massaget qabilalari bilan fors qabilasi boshlig'i Kurush haqida ekan.) – Kurush kimning gaplarini tingladi?

5. Asarni qismlarga bo'lib o'qitish. Bolalar, o'qilayotgan paytda forslar podshosi Kurushning xatti-harakatlariga, elchingining aytgan gaplariga, podsho atrofida o'tirgan sarkarda va mulozimlaming holatlariiga e'tibor bering.

6. Topshiriqlar asosida o'qitish: 1-bo'lim necha qismga bo'lindi? (4 qism). 1- qismni o'qing va unga sarlavha toping. ("Oltin – ro'zg'or buyumi" yoki "Massagetlar g'alati xalq".) Qolgan qismlar ham shu tarzda topishmoqlar asosida o'qitiladi. 2- qismga "Sodda xalq" yoki "Sharob nimaligini bilmaydigan xalq"; 3- qismga "Qiziq

tomosha”; 4- qismga “Taklif rad etildi” sarlavhasi qo'yiladi. Oxirida bu sarlavhalar reja tarzida doskaga yozib qo'yiladi.

Reja.

1. Oltin— ro'zg'or buyumi,
2. Sharob nimaligini bilmaydigan xalq.
3. Massagetlar to'yi.
4. Taklif rad etildi.

7. Tanlab o'qish. O'quvchilarga rejaning oltin ro'zg'or buyumi sifatida ishlatilishini ifoda etgan qismini o'qib, qayta hikoya qiling. Qolgan qismi ham shu tarzda o'qitilib, qayta hikoya qildiriladi.

8. To'liq qayta hikoyalash. Bir o'quvchi reja asosida asarni to'liq qayta hikoyalab beradi.

9. Asarning 2- bo'limi birorta yaxshi o'qiydigan, o'qish ko'nikmasini yaxshi egallagan o'quvchiga o'qitilishi yoki magnit tasmasidan eshittirilishi mumkin. Suhbat yo'li bilan bu bo'lim yuzasidan quyidagicha reja tuziladi.

Reja

1. Krez — aqli maslahatchi.
2. Krezning samo bilan aloqasi.
3. Artabazning taklifi.
4. To'marisning elchi bilan suhbat.

Reja asosida tanlab o'qish va qayta hikoyalash mashqi o'tkaziladi.

10. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

11. Qisqartirib qayta hikoyalash. Doskada ikkala bo'limga tuzilgan reja yozilgan bo'ladi. Yaxshi o'qiydigan o'quvchiga asar qisqartirib qayta hikoya qildiriladi.

 **12. Umumlashtiruvchi suhbat.** Darsda kim haqida hikoya qilningan asarni o'rgandik? Kurush nima uchun massagetlar yeriga ko'z olaytirdi? Kurushning taklifini To'maris nima uchun rad etdi? Kurush qanday qarorga keldi? Samo bilan aloqa deganda nimani tushundingiz? To'maris nima uchun jangga tayyorlana boshladi?

13. Qahramonlarga tavsif. Tavsif T yizimi asosida beriladi. Buda o'quvchilar To'maris va Kumushni taqqoslaysilar, to'g'ri xulosa chiqaradilar.

— To'maris — sezgir ayol. Chunki u Kurushning niyatini darrov fahmladi.

— U — ehtiyotkor. U xalqini urush ofatlaridan saqlash uchun Kurush taklifini yumshoqlik bilan boshqa sabablar ko'rsatib rad etadi.

— To'maris — jasur ayol. U dushmanga qarshi urushdan cho'chimaydi. Shuning uchun u elchiga: “Biz urushdan qo'rqlamaymiz va o'z ona yurtimizni himoya qilamiz, shohingga ayt”, — deydi.

Shu tarzda Krezning ayyorligi, mug'ambirligi, Kurushning bosqinchiligi, molparastligi, elchining ayg'oqchiligi haqidagi fikr-mulohazalar eshitiladi.

To'maris	Kurush
sezgir	ayyor
ehtiyotkor	mug'ambir
jasur	bosqinchi
vatanparvar	molparast

Suhbat yakunida tarbiyaviy xulosa chiqariladi:

— “To'maris” asarini o'qish orqali sizda qanday tuyg'u paydo bo'ldi? “Siz kimning o'rnidagi bo'lishni istar edingiz?”, “Siz o'z shaxsingizda qanday xislatlar bo'lishini istaysiz?”

14. Uyga I va 2- bo'limni o'qib, qayta hikoyalashga; ko'z yugurtirdi, ko'zlarida yongan qiziqish, uloq chopish, chavandozlik, nigoh kabi so'z va iboralar ma'nosini izohlab berishga tayyoranib kelish vazifa qilib beriladi.

15. O'quvchilarни rag'batlantirish.

Izoh. O'quvchilar tarixiy davrdan hikoya qiluvchi afsona va rivoyatlarni ham tarixiy haqiqat sifatida anglaydilar. Ular afsonaning ham haqiqatga aylanishini, u real voqelikda yuz bergan deb o'ylashni istaydilar.

Dars yaxshi tashkil etilsa va o'tilsa, To'maris haqidagi afsona o'quvchilarga tarixiy haqiqat kabi tuyuladi. Bunday shaxs va voqealar tarixda bo'lgan deb biladilar. o'quvchilarda unga o'xshash istagi paydo bo'ladi. Vatanning gullab-yashnashi uchun har bir shaxs harakat qilishi lozimligini anglay boradilar. “Bunga erishish uchun nima qilish kerak?” — degan savol berilsa, o'ylashga majbur bo'ladilar. Shunda, hozir ularning oldidagi birdan-bir vazifa yaxshi o'qish, bilimlarini boyitish, o'qiganlariga amal qilish ekanligini o'qituvchi ta'kidlab, ularning shaxsini shakllantirib borishi lozim.



MAVZU: NAJMIDDIN KUBRO

O'quv materiali: Najmiddin Kubro.

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarga Vatanimiz tarixida o'tgan xalq qahramonlari, ularning jasorati haqida, vatan uchun kurashi haqida bilim berish;

2. O'quvchilarни vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
3. O'qish malakasi sifatlarini, tez, to'g'ri anglab o'qish, ifodalii o'qish sifatlarini takomillashtirish, lug'atini boyitish, nutqini o'stirish.

Dars jahozi. Najmuddin Kubroning rasmi, asar mazmuniga mos jang tasviri.

Darsning borishi. 1. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini aniqlash. Darslikdagi savol-topshiriqlardan foydalaniлади. Asar so'ngidagi 3- topshiriqni qanday bajarganliklari so'raladi. O'quvchilarning taxminiy javoblari quyidagicha bo'ladi: 1-bo'lim uchun: "Oks sohilidagi mamlakat", "Elchi hikoyasi", "Massagetlar mamlakati". 2-bo'lim uchun: "Maslahatchilar kengashi", "Kengash". 3-bo'lim uchun "Krezning hiylasi", "To'marisning qayg'usi", "Sparganizning ehtiyoitsizligi". 4-bo'lim uchun: "Dushman yengildi", "Massagetlarning g'alabasi", "Intiqom".

2. Tanlab o'qish. Topshiriq. Massagetlarning urf-odatlari tasvirlangan o'rinni topib o'qing. To'marisning elchiga bergen javobini topib o'qing. Forslar yukmdori nima maqsadda massagetlar yurtiga keldi? Shu o'rinni o'qing. Sarkardalar orasida nima uchun g'ala-g'ovur ko'tarildi? Shu o'rinni tohib o'qing. Krush nima uchun Krezdan hayiqardi? Shu o'rinni o'qing. Quyidagi topshiriqlar asosida tanlab o'qitiladi:

II. Yangi mavzu. 1. Asarni o'qish va o'rganishga o'quvchilarni tayyorlash. O'qituvchining kirish suhbat: Tarixda o'tgan qahramonlardan kimlarni bilasiz? Ularning jasorati haqida so'zlab bering.

2. O'qib berish orqali asar bilan tanishtirish.
3. Asar yuzasidan dastlabki suhbat: Asar sizga yoqdimi? Asar kim haqida hikoya qiladi? Najmuddin Kubro qanday kishi bo'lgan ekan?

4. Asarni qismlargacha bo'lib o'qitish (8 qism).

O'quvchilar asar necha o'quvchiga o'qitilganiga qarab, uni qancha qismga bo'linishini bilib oladilar va aytadilar.

5. 2-qayta o'qitilganda quyidagi topshiriqlar beriladi: Har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlang: Urush-janglardan begona yurt (1- qism). Mo'g'ul bosqinchilari Xorazmga yurish boshlaydi (2-qism). Xorazm qayg'uga tushadi (3- qism). Najmuddin Kubroning ko'ngillari ozor topmasin (4- qism). Taklif qabul qilindi (5- qism). Chopar maktub keltirdi (6- qism). Choparlarning keyingi takliflari

(7- qism). Vatan uchun shahid bo'lgan qahramon (8- qism).

O'qituvchi bu asosiy fikrlarni doskaga yozib boradi. O'quvchilar daftalariga ko'chirib oladilar. Uyda shular asosida asarga reja tuzib kelish topshirig'i beriladi. Reja 8 qismdan iborat bo'lmasligi ham mumkinligi aytildi.

Taxminiy reja namunasi:

Reja

1. Tabiat bo'ston, xalqi — dono yurt.
2. Mo'g'ul bosqinchilarining hiyla-nayranglari.
3. Najmuddin Kubroning Vatan uchun shahid bo'lishi.

6. Asarni tanlab o'qitish. Topshiriq. Xorazm tasvirlangan o'rinni topib o'qing. Ahli Xorazm nima uchun qayg'uga tushibdi? Shu o'rinni topib o'qing. Ayg'oqchining gaplarini topib o'qing. Najmuddin Kubroning javoblarini topib o'qing. To'rtinchi kun yuz bergan voqealar tasvirlangan o'rinni topib o'qing.

7. Lug'at ustida ishlash.

D so'lim — yoqimli, go'zal;

bo'ston — gul-u gulzor, mevalari ko'p bo'lgan joy;
halim — yumshoq ko'ngilli, qattiq va yomon gapirmaydigan;
mo'g'ul — millat nomi;
qava — shahar;
farmon — buyruq;
murid — buyuk kishilarga ergashadigan odamlar.

8. Asardagi ko'chma ma'noli iboralar ustida ishlash:

cho'p qadasang, biror ishga qo'l urmoqchi bo'lsa — biror ishni boshlamoqchi bo'lsa; ko'chma ma'noli so'z: qayg'uga tushibdi — ezilibdi, siqilibdi. Badiiy til vositalari: bir qoshiq qonimdan kechsangiz, ko'ngillari ozor topsa, donolarning donosi, qonga-qon, jonga-jon, jangda shahid bo'libdi kabi.

9. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

10. Qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosa chiqarish: Najmuddin Kubro qanday inson edi? Siz uning o'rnidagi bo'lsangiz qanday ish tutgan bo'lardingiz? Najmuddin Kubro dan nimalar o'rgandingiz?

11. Test sinovi.

12. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

H 13. Uyda asarni o'qish, uning mazmini yuzasidan savollar tuzib kelish topshiriladi.

JAHON BOLALAR ADABIYOTI (9 soat)

Bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarning jahon bolalar adabiyoti durdonalari haqidagi oldingi sinflarda olgan bilim va tus-hunchalariga asoslanib, yangi bilimlar beriladi.

O'rta Osiyo Respublikalari bolalari hayoti hamda xorijiy davlatlar va xalqlari bolalarining hayoti, ijodi, u yerdagi kishilarning yashash sharoitlari va turmush tarzini bolalar kitoblar o'qish orqali, kinofilmlar, videofilmlar ko'rish orqali bilib olgan bo'lishlari mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar ongiga jahon bolalarining hayotlari va hayotda bo'ladigan voqe-a-hodisalarni "Jahon bolalar adabiyoti" bo'limida berilgan asarlar orqali yetkazishni maqsad qilib qo'yadi.

Bo'limda berilgan G. X. Andersennen "Bolalar gurungi", J.Sviftning "Gulliverning sayohatlari" kabi asarlarida bolalarga bo'lgan munosabat, ularga to'g'rilik, halollik, rostgo'ylik va sado-qatlilik kabi fazilatlarni singdirish ko'zda tutilgan.



MAVZU: BAXTLI BOLALIK

O'quv materiali. Bolalar guruhi. G.X.Andersen

Darsning maqsadi. 1. O'quvchilarda chet el bolalar adabiyoti haqida, mashhur ertakchilar G.X.Andersen, aka-uka Grimmlar, J.Svift haqida ma'lumot berish.

2. «Bolalar gurungi» asarida ilgari surilgan kamtarlik, mehnat-sevarlik tuyg'ularini o'quvchilar ongiga singdirish.

3. Matnni mustaqil o'qib, o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi. Suhbat, induktiv metod.

Darsning jihizi. G.X.Andersen portreti, uning asarlari ko'rgazmasi, Andersen ertaklarining bosh qahramonlari surati.

Darsning borishi. I. Da'vat bosqichi. Metod. Suhbat, hikoya qilish metodi.

Darsning maqsadi. O'quvchilarni G.X.Andersen ijodiga qiziqishini oshirish. G.X.Andersen ijodi bilan tanishtirish.

Doskaga G.X.Andersen ertaklari qahramonlarining rasmlari ilib qo'yiladi. (Rasmlarda «Qor malikasi» ertagi qahramonlari bo'ladi).

Rasmlar yuzasidan suhbat o'tkazish: Rasmida qaysi ertak qahramonlari tasvirlangan? («Qor malikasi» ertagi qahramonlari, ertakchi, Kay, Gerda tasvirlangan). «Qor malikasi» ertagi qanday voqeа bilan boshlanadi? (Key o'z o'rtoqlari...). Ertakchi Gerdaga qanday yordam berdi? Nima deb o'ylaysiz, ertakchi kimga o'xshatish mumkin? (Shu ertakni yozgan ertakchiga.) Bu ertakni mashhur ertakchi Gans Xristian Andersen yozgan.

I. Yozuvchi haqida ma'lumot. O'zining ajoyib ertaklari bilan jahonga tanilgan yozuvchi Gans Xristian Andersen Daniyaning Odense shahrida 1805- yilda dunyoga keldi. Adib Spagels maktabida o'qigan. Kopengagen universitetini tugatgach, Fransiya, Shveytsariya, Italiya, Gretsiya, Ispaniya mamlakatlari bo'ylab sayohat qildi. Yozuvchi xalq og'zaki ijodi bilan shug'ullanib, bolalar uchun ko'plab ertaklar yozgan.

II. Anglash bosqichi. Metod. Izohli o'qish, mustaqil ish metodi.

Magsadi. o'quvchilarni «Bolalar gurungi» hikoyasi bilan tansishtirish. Ularning ifodali o'qish, asar yuzasidan savollar tuzish ko'nigmalarini mustahkamlash.

Dastlab o'qituvchi hikoyaning 1- va 2- xatboshilarini ifodali o'qib beradi. Tez, ravon, ifodali o'qiy oladigan 2-3 o'quvchi hikoyaning davomini o'qiysi.

AB 2. Ichda o'qish. Topshiriq. Ma'nosi tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzish:

<i>Badavlat</i>	— boy
<i>dongdor</i>	— mashhur, e'tiborli
<i>gimnaziya</i>	— Yevropada chuqur bilim beradigan maktab
<i>chaygovchilik</i>	— bir joydan tovar olib, ustiga qo'yib boshqa joy da sotish
<i>aslzoda</i>	— nasl-nasabi mashhur kishilar
<i>dimog'dor</i>	— kekkaygan, boshqalarni pisand qilmaydigan
<i>baqqol</i>	— shirinliklar sotuvchi kishi
<i>oqsuyaklar</i>	— aslzodalar.

3. Hikoyani qismlarga bo'lib o'qish.

4. Reja tuzish.

Reja:

1. Savdogar bolalarga ziyofat berdi.
2. Bolalarning o'z otalari haqidagi bahsi.

3. Kambag'al bolaning orzusi.
4. Torvaldsenni kim tanimaydi?

4. Hikoya yuzasidan savollar tuzish. O'quvchilar taxminan shunday savollar tuzishadi: Savdogar kimi larga ziyofat berdi? Uning otasi kim edi? Savdogar qaysi toifadagi kishilar bilan muomala qilar edi? Ziyofatda kim ajralib turar edi? Qizcha nima deb maqtandi? U bolalarga nimani uqtirar edi? Nima uchun savdogarning qizi ranjidi? Bolalar nima haqida bahs qilishdi? Bolalarning oldiga borishga kim uyaldi? Kambag'al bola munozarani eshitib nimalarni o'yaldi? Yillar o'tgach shaharda qanday uy paydo bo'ldi? Xazinalar liq to'la uy kimni edi? Kambag'al bola Torvaldsen kim bo'lib yetishdi?

Tuzilgan savollar doskada o'qituvchi tomonidan yozib boriladi.

Metod. Tarmoqlash metodi. **Maqsad.** O'qilgan asar yuzasidan o'quvchilarni tarbiyaviy xulosalar chiqarishga o'rgatish.

5. Qayta hikoyalash. O'quvchi doskadagi savollar va reja yordamida hikoyani qayta gapirib berishadi.

III. Fikrlash bosqichi.

1. Tarmoqlash usulidan foydalanib, matnda keltirilgan so'zlar orqali hikoya qahramonlariga tavsif berish.

Topshiriq quyidagicha bajariladi:



2. Og'zaki hikoya tuzish.

«Baxtli bolalik» mavzusida hikoya tuzish. Hikoya tuzish uchun o'qituvchi oldindan savollar tuzib keladi. Savollarni o'quvchilarga o'qib beradi. Namuna:

— Bizning ajdodlarimiz kim bo'lган? Ajdodlarimiz qanday yu-mushlar bilan shug'ullaniganlar? Ulardan bizga nimalar meros qol-gan? Ota-onalariniiz qaysi sohalarda xizmat qilmoqdalar? Bizning bolaligimiz qanday o'tmoqda?

Quyidagicha hikoya tuziladi: Bizning ajdodlarimiz — Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Amir Temur buyuk kishilar

bo'tishgan. Ulardan bizga qimmatli asarlar, tiniq osmon, serquyosh o'lka meros qolgan. Bizning ota-onamiz shifokor, o'qituvchi, du-radgor, sotuvchi bo'lib xizmat qilishadi. Bizning bolaligimiz shod-xurram va quvnoq otmoqda.

7. O'quvchilarни rag'batlantirish.

 **8. Uyga vazifa.** «Bolalar gurungi» asarini o'qib, o'rganish. «Otamning kasbi» mavzusida hikoya tuzish.



MAVZU: SOVG'A

O'quv materiali. Bir xurmacha shavla. Aka-uka Grimmilar

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni aka-uka Grimmilar ijodi, «Bir xurmacha shavla» ertagi bilan tanishtirish. Matnni qismlarga bo'lib, reja tuzish, qayta hikoyalash, savol-topshiriqlar ustida mustaqil ishslash ko'nikmasini takomillashtirish.

2. O'quvchilarni sahiylik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

3. O'yin orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Darsning metodi. Qadamba-qadam, suhbat, mustaqil ish metodi.

Darsning jahozi. Darslik, aka-uka Grimmilar asarlari ko'rgazmasi, asar mazmuniga ishlangan rasm.

Darsning borishi.

Ushbu dars «Bolalar gurungi» hikoyasi kabi o'rganiladi.

 O'qituvchi hikoyasi. Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmilar Germaniyada tug'ilishgan. Grimmilar yozgan ertaklarini ertak aytuvchilardan, oddiy dehqonlardan eshitganlar. Ular «Tilla g'oz», «Yalqov Geyts», «Gansning baxti», «Botir tikuvchi», «Bremen musiqachilari» kabi ertaklar yozishgan. Ertakchilar yozgan «Zolushka», «Qorqiz» ertaklari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Biz uning «Bir xurmacha shavla» ertagini o'qib o'rganamiz.

4. «Domino» o'yini. O'yin yangi mavzuni mustahkamlaydigan mavzu yuzasidan xulosa chiqariladigan fikrlash bosqichida o'tkaziladi.

Kartochkalar qalam bilan 2 ga bo'linadi. Birinchi qismiga javob yoziladi, ikkinchi qismiga boshqa savol yoziladi. Savolga kartochkalardan javob topiladi. Ikkinchi qismidagi savolga yana javob izlanadi. Shu tariqa o'yin davom ettiriladi. Masalan:

«Bolalar gurungi» hikoyasi muallifi kim? Gans Xristian Andersen Rassom bo'lgan kambag'al bolaning ismi kim?

Torvaldsen Aka-uka Grimmilar yozgan ertak? «Zolushka» Kam-pirning qizga bergen sovg'asi va hokazo.



MAVZU: QIZIQARLI SAYOHAT

O'quv materiali: Gulliverning sayohatlari. Jonatan Swift (Roman dan parcha)

Darsning maqsadi. 1. «Gulliverning sayohatlari» asari bilan o'quvchilarni tanishtirish. Jonatan Swift hayoti va ijodi haqida tus-huncha berish. O'quvchilarning guruhlarga bo'linib asar mazmunini o'zlashtirish, matnni tahlil qilish, qiyin so'zlar lug'atini tuzish, asar yuzasidan savollar tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

2. O'quvchilarda kasb egallashga ishtiyoq uyg'otish. Asar mazmuni orqali ularning mehmondo'stlik, o'zaro yordam berish tuyg'ularini o'stirish.

3. O'quvchilarda asar mazmunidan anglashilgan xulosani mu-lohaza etish ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, hikoya o'qish darsi.

Darsning metodi. Qadamba-qadam, suhbat metodlari.

Darsning jahozi. Jonatan Swift asarlari ko'rgazmasi, kartochkalar.

Darsning borishi. *1-qadam.* 4-5 kishidan iborat o'quvchilar guruhini shakllantirish.

O'qituvchi 4 xilda o'quvchilar soniga mos kartochkalar tayyорlaydi. Bu guruhrular boshlang'ich guruuh deb nomlanadi.

Boshlang'ich guruhlarning o'tilgan mavzular bo'yicha savollarga javob berishi. O'qituvchi har bir guruuhga alohida savollar tuzib tarqatadi. Masalan, *1-guruuh uchun savollar*: «Bolalar gurungi» asari muallifi qayerda tug'ilgan? «Bolalar gurungi» asarining qahramoni – kambag'al bola kelajakda kim bo'lib etishdi? «Bolalar gurungi» asarida qizcha nimasi bilan maqtandi? «Bolalar gurungi» asarida bolalar nima haqida bahs qilishdi?

2-guruuh uchun savollar: Aka-uka Grimmilar yozgan ertaklari sanab bering. «Bir xurmacha shavla» ertagida kampir nima uchun qizchaga xurmacha sovg'a qildi? «Bir xurmacha shavla» ertagida onasi kerakli so'zlarni esidan chiqqani uchun nima hodisa yuz berdi? Bu hodisadan shahar ahli aziyat chekdimi?

O'qituvchi qolgan guruhlarga ham shu kabi savollar tarqatadi.

2-qadam. Ekspert guruhlarga ajralish.

Boshlang'ich guruuh a'zolari soniga qarab 1 dan 5 gacha va hokazo raqam beriladi.

Bir xil raqam egalari bitta guruhga birlashadi. Bu guruhrular **ekspert guruhrular** deya nomlanadi. Ekspert guruhlarga «Gulliverning sayohatlari» asari 4 qismga bo'lib tarqatiladi.

Ekspert guruqlar uchun topshiriqlar: 1. Berilgan matnni ifodali o'qib mazmunini o'zlashtirish. 2. Matn yuzasidan savollar tuzish. 3. Berilgan qismga sarlavha topish. 4. Qiyin so'zlar lug'atini tuzish.

Guruqlar topshiriqlarni taxminan quyidagicha bajaradilar. 1-ekspert guruhi tuzadigan savollar. «Antilopa» kemasi qayerga suzib ketdi? Qirg'oqda Gulliverning kimlari qoldi? Gulliver yoshligida nimalarga qiziqar edi? U otasining xohishiga ko'ra qaysi kasbni egalladi? Gulliver qaysi kemalarda sayohatga chiqqan edi? Dengiz safarida u nima bilan shug'ullanar edi? U daftarning birinchi betiga nimalarni yozib qo'ydi? Bu qismga «Safarning birinchi kuni» deb sarlavha qo'yish mumkin.

Guruqlar taxminan qismlarga quyidagicha sarlavha topadilar: 1-qism. Safarning birinchi kuni. 2-qism. Bo'ronda qolgan kema. 3-qism. Kichkina odamchalar hujumi. 4-qism. Liliputiya mam-lakatiga yo'l oldik.

Guruqlar quyidagi so'zlarning lug'atini tuzadilar.

A pristan — qirg'oqda kemalar joylashadigan joy

D qoyatosh — tog'ning, ustki qismi

sadoq — o'q solingan idish

mernan — kamondan o'q otadigan odam

minbar — kishilarning xalq oldiga chiqib nutq so'zlaydigan joyi

Imperator — davlat boshlig'i

mash'al — uchiga latta bog'lanib yondirilgan yog'och

3-qadam. Boshlang'ich guruhlarga birlashish.

O'quvchilar o'z boshlang'ich guruhlariiga birlashib quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1. Asarning butun holicha o'zlashtirish.

Bunda ishtirokchilar ekspert guruhidagi o'zlashtirganlarini guruh a'zolariga aytib beradilar. Qaysi qismni o'qigan bo'lsalar, savollar yordamida uning mazmunini hikoya qiladilar. 2. Asar voqealari tasvirlangan rasmlar chizish. 3. Asar matnida qatnashgan so'zlar ishtirokida krossvord tuzish. «Antilopa», Gulliver, Lilipitiya, Hindiston, imperator, gvardiya so'zları bo'yicha krossvord tuzish topshiriladi.

4-qadam. Guruhlarni baholash. Guruh ishtirokchilari quyidagi jadvalni to'ldiradilar.

Eng faol ishtirokchi: Eng faol guruh: Eng bilag'on ishtirokchi:

Uyga vazifa. «Gulliverning sayohatlari» asarini o'qib, mazmuni ni qayta hikoyalashga tayyorlanish.

YOZ – O'TADI SOZ (9 soat)

Bu bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarning yoz haqidagi, bu fasldagi taassurotlar haqidagi olgan bilim va tushunchalariga asoslanib, yangi bilimlar beriladi. Serquyosh O'zbekiston yozining naqadar go'zalligi, xilma-xil mevalarining g'arq pishgan pallasi, bu mevalarni yetishtirgan kishilarning mehnat faoliyatlarini sayrlar, sayohatlar va yozgi ta'til vaqtlarida bilib olganlar.

Bu bo'lim materialini o'quvchi o'rganib borar ekan, o'zbek dehqonining mehnatkash, zahmatkash bir inson ekanligini his qiladi, yoz faslining go'zalligi, bu faslda o'quvchilar miriqib dam olishlari bilan birga, mehnatkash xalqqa, ota-onalariga yaqindan yordam bergenliklari haqida gapiriladi.



MAVZU. QUVNOQ FASL

O'quv materiali: «Yoz» she'ri. Shukur Sa'dulla.

Darsning maqsadi. 1. O'quvchilarning she'rni ifodali o'qish, mazmunini o'zlashtirish, xulosa choqarish malakasini oshirish. She'r matnnini tahlil qilishga o'rgatish. O'xshatish san'atiga misol bo'ladigan misralarni sharhlash ko'nikmasini takomillashtirish.

2. O'quvchilarni mevali daraxtlarni o'tkazish, parvarish qilishga qiziqtrish.

3. O'yinlar orqali o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish. Ularni hozirjavoblikka o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

Darsning metodi. Guruhlarga bo'linib ishslash, suhbat, induktiv metod.

Darsning jahozi. Topishmoqlar to'plami, mevalar rasmi.

Darsning borishi. 1. Yangi bo'lim mavzusiga o'quvchilarni tayyortlash. Dars yangi mavzu ustida ishslash bilan boshlanadi.

Krossvord yechish.

Bo'yiga: 1. O'quvchi dam oladigan vaqt.

2. Yozda bolalar dam oladigan joy.

Eniga: 2. Oromgohlar joylashgan makon.

4. Yozda bolalarning sevimli mashg'uloti.

5. Bolalarning sevimli mevasi.

Javoblar: 1. Ta'til. 2. Tog'. 3. Oromgoh. 4. Cho'milish. 5. Olma.

 **Krossvord yuzasidan suhbat:** Krossvord javoblarida berilgan voqealar qaysi faslda yuz beradi? Sizlarning eng sevimli faslingiz qaysi? Nima uchun bu faslni yaxshi ko'rasiz? Yozda tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi? Bugun qaysi mazmundagi asar ni o'rganar ekanmiz?

O'qituvchi. To'g'ri topdingiz. Bugundan yoz fasliga bag'ishlangan bo'limni o'rganishni boshlaymiz. Bu bo'limda sevimli yozuvchi va shoirlaringizning quvnoq she'r, hikoyalari bilan tanishasiz. Yozgi ta'til rejasini tuzasiz.

2. Shukur Sa'dullaning «Yoz» she'rini o'rganish. Savol-javob: — Yoz haqida qanday she'rlar o'qigansiz? — Sh.Sa'dullaning qaysi asarlarini o'qidik? — Ularlar nima haqida edi?

3. She'rni ifodali yod aytib berish.

4. She'rni o'quvchilarga o'qitish.

5. She'r yuzasidan dastlabki suhbat. — She'rda nimalar haqida gap boradi? — She'r sizda qanday taassurot qoldirdi?

6. She'rda qo'llangan badiiy vositalar haqida suhbat. «Quyosh ko'kda nur sochar, Yangi dunyolar ochar» misralarida shoir nima demoqchi? She'rga kimlarning gaplari kiritilgan? Shoir bunda 90 xil meva bor deyaptimi? O'zbekistonda 90 xil meva bormi? Bu bilan shoir qanday badiiy vositadan foydalangan? She'r misralari oxiridagi ohangdosh- qofiyadosh so'zlarni toping.

7. "Zanjir" o'yini. O'quvchilar ketma-ket meva nomlaridan aytdilar.

8. Ifodali o'qish musobaqasi.

9. Darsda o'rganilganlarga yakun yasash va tarbiyaviy xulosa chiqarish: — Yozda — ta'til oylarida siz nimalar bilan shug'ullanasz? Yoz faqat dam olish faslimi? O'zingizning munosabatingizni bildiring.

 **10. Uya vazifa:** «Yoz» she'rini yod olish. Yozda pishadigan mevalar rasmini chizish va ularni ta'rifini yozish. Shu mevalar bo'yicha krossvord tuzish.

11. O'quvchilarni rag'batlantirish.



MAVZU: BOBOMNING SOVG'ASI

O'quv materiali. «Bobomning sovg'asi» hikoyasi. G'ayratiy

Darsning maqsadi: 1. «Bobomning sovg'asi» hikoyasi bilan tanishtirish. Hikoya matni ustida ishslash malakasini oshirish. Hikoya janri haqidagi bilimlarni boyitish.

2. O'quvchilarda jonivorlarni parvarish qilish, ularga mehr ko'rsatish tuyg'ularini o'stirish.

3. O'quvchilarning modul asosida mustaqil ishlash malakasini oshirish.

Darsning metodi. Modulda suhbat, mustaqil ish, tarmoqlash metodlari.

Darsning jihizi. Bo'rsiq, cho'l ko'rinishlari rasmlari, tarqatma materiallar.

Darsning borishi.

O'quvchilar 2 guruuhga ajraladi.

1-guruuh uchun dars moduli

O'FE	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsalmalar	Ajratilgan vaqt
O'FE-1	<p>Maqsadi: O'tilgan mavzular bo'yicha bilimlarni mustahkamlash.</p> <p>Savollar — Sh.Sa dullaning qaysi she'rlarini bilasiz? — «Yoz» she'rini ifodali yod aytинг. — «Yoz» she'rda qaysi mevalar nomi keltirilgan? — Yozda ro'y beradigan tabiat o'zgarishlarini sanab bering. Tuzgan krossvord-laringizni boshqa guruhlarga yechish uchun bering. Chizgan rasmlaringizni ko'rgazmasini tashkil qiling.</p>	— «Yoz» she'rda qaysi mevalar nomi keltirilgan? — Yozda ro'y beradigan tabiat o'zgarishlarini sanab bering. Tuzgan krossvord-laringizni boshqa guruhlarga yechish uchun bering. Chizgan rasmlaringizni ko'rgazmasini tashkil qiling.	3 daqiqa
O'FE-2	<p>Maqsadi. «Bobomning sovg'asi» hikoyasini o'zlashtirish.</p> <p>Topshiriqlar.</p> <p>1. Hikoyaning birinchi qismini ifodalib o'qing. 2. Shu qismga sarlavha toping. 3. Shu qism mazmuni yuzasidan savollar tuzing.</p>	Guruhdan ifodalib o'qiy oladigan o'quvchini tanlab o'qing. Hamma o'zicha sarlavha topib muhokama qo'yisin. Eng chiroyli sarlavhani tanlab oling. Savollarni ketma-ketlikda tuzing. Savollarga javob orqali hikoya mazmunini to'liq anglash mumkin bo'lsin.	6 daqiqa
O'FE-3	<p>Maqsadi: Yangi mavzuni mustahkamlash.</p> <p>Topshiriqlar. 1. Qolgan guruh-larning 2-O'FE bo'yicha, bajar-gan ishlarini diqqat bilan tinglang. Ularga baho bering. 2. Quyidagi savollarga javob bering. — Bolalar bobosining bog'iida qanday mevalar yeyishdi?</p>	Savollarga boshqa guruh bajar-gan ishlaridan tushunganlarining asosida javob bering. Javoblarni muhokama qiling. Murodjon bobonining qaysi jihatlari yoddi? U nimanining ovozini eshitdi? Bobo qayerni ko'rib hayron qoldi? Ilgari yerni nima deb atashgan? Rustam aka qayerda ishlar ekan?	4 daqiqa
O'FE-4	<p>Maqsad. Hikoya mazmunidan xulosa chiqarish.</p> <p>Topshiriq. 1. Hikoya mazmunidan kelib chiqqan mehmondo'stlilik, saxiylik, mehribonlik, muruvvat ko'rsatish haqidagi maqollar toping. 2. Topgan maqollaringiz asosida rebus tuzing.</p>	Xalq og'zaki ijodi bo'limida o'qigan maqollaringizni eslang.	10 daqiqa

O'FE-5	Maqsadi: Mustaqil fikrleshgaga o'rganish. «Eng ko'p to'g'ri javoblar» o'yini. Konvert ustida berilgan savollarga guruh a'zolari alohida-alohida javob yozib, konvertgajoylasin. (Konvert ustida quyidagi savollar yozilgan: — Hikoyadagi voqealar qayerda bo'lgan? Bobo o'z sovg'asini kimga berdi?)	Savollarga to'liq va aniq javob bering. Qancha ko'p to'g'ri javob ho'lsa, hall shuncha yuqori boladi.	8 daqiqa
--------	---	---	----------

2-guruh uchun dars moduli

O'FE	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali yuzasidan savol-topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan korxatmalar	Ajratilgan vaqt
O'FE-1	Maqsadi: O'tilgan mavzular bo'yicha bilimlarni mustahkamlash. Topshiriq. — «Yoz» she'rida yozga qanday ta'rif berilgan, ya'ni ifodali yod oling. She'rdan bog'bonga tegishli gaplarni toping. Sh.Sa'dullaning qanday she'rлarini o'qigansiz?		
O'FE-2	Maqsadi: «Boboming sovg'asi» hikoyasini o'zlashtirish. Topshiriqlar. 1. Hikoyaning 2 qismini ifodali o'qing. 2. Shu qismda sarlavha toping. 3. Qism mazmuni yuzasidan savollar tuzing.	Berilgan topshiriqlarning bajarilishi asosida hikoya yuzasidan quyidagi reja tuziladi. 1. Mirzacho'lga safarga otlandik. 2. Bo'rsiq tomoshasi. 3. Rustam aka bilan suhbat. 4. Bobom sovg'a qilgan qushlar.	
O'FE-3	Maqsad. Yangi mavzuni mustahkamlash. Topshiriqlar. 1. Qolgan guruhlarning 2-O'FE bo'yicha bajargan ishlarni diqqat bilan tinglang. Ularga baho bering. 2. Quyidagi savollarga javob bering. Bolalar qayerga yo'l olishdi? Mirzacho'lga ular qachon yetib borishdi? Rustam aka boboga qanday qushlarni tutib berdi? Bolalar bobo to'ydan kelguncha nimalar bilan mashg'ul ho'lishdi? Boboning sovg'asini bolalar qayerda taqdim qilishdi?.		
O'FE-4	Maqsad. Hikoyamazmunidan xulosa chiqarish. Topshiriq. 1. Cho'l hayvonlari haqida topishmoqlar toping. 2. Sizga yoqqan topishmoq asosida rebus tuzing.	O'qituvchi guruhlarga yordam beradi. O'quvchilar quyidagicha maqollar va topishmoqlar topadilar va rebus tuzadilar.	
O'FE-5	Maqsad. Mustaqil fikrleshgaga o'rganish. «Eng ko'p to'g'ri javob topish o'yini. Konvert ustida berilgan savollarga guruh a'zolari alohida-alohida javob yozib, konvertgajoylang. Konvert ustida quyidagi savollar yoziladi: — Hikoyada qanday janivorlar nomi keltirilgan? Mirzacho'lda nimalar qurilgan ekan.		

III va IV guruhlarga ham shunga o'xshash dars moduli tuziladi. Dars modulida berilgan topshiriqlarni o'qituvchi o'quvchilar bilim saviyasi, qiziqishlariga qarab o'zgartirishi mumkin.

Maqollar:

Baxil topsa bosib yer

Saxiy topsa, barcha yer.

Mehr bilan qarasang toshdan gul unar.

Topishmoqlar:

Kasbi doim taqir- tuqur,

Qayda ilon ko'rsa cho'qir.

 **Uyga vazifa.** «Bobomning sovg'asi» hikoyasini ifodali o'qish. Qayta hikoyalashga tayyorlanish. Hikoyada tabiat manzarasi tasvirlangan o'rnlarni topib, belgilash.

MAVZU: «YOZ — O'TADI SOZ» BO'LIMI YUZASIDAN UMUMLASHTIRUYCHI DARS

Darsning maqsadi.

1. O'quvchilarning «Yoz — o'tadi soz» bo'limini o'tishda egal-lagan bilim va ko'nikmalarini aniqlash hamda mus-tahkamlash. She'rlarni yoddan ifodali o'qish, hikoyalarning mazmunini gapirib berish malakasini oshirish.

2. O'quvchilarni bo'sh vaqtadan unumli foydalanishga odatlan-tirish.

3. O'quvchilarning test topshiriqlari ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish.

Darsning turi. Mustahkamlovchi dars.

Darsning metodi. Modul asosida ishlash.

Darsning jahozi. Sinf bolaning yoz faslidagi hayoti, tabiat ko'rinishlariga oid rasmlar va o'quvchilar tayyorlagan materiallar bilan sind jihozlanadi.

Darsning borishi. Umumlashtiruvchi dars rejasi «Bobomning sovg'asi» hikoyasi kabi modul asosida yoziladi. O'qituvchi dars modelida berilgan topshiriqlar va o'yinlarni o'zgartirishi mumkin. Quyida dars moduliga kiritilishi mumkin bo'lgan o'yinlardan na-munalar keltiramiz.

1. «Bo'lishi mumkin emas» o'yini. Bu o'yin Sh.Sa'dullaning «Yoz» she'ridan foydalanib o'tkaziladi.

O'qituvchi she'rni quyidagicha ba'zi joylarini noto'g'ri o'qidi:
O'quvchilar noto'g'ri o'qilgan jumlani topadilar.

Keldi ayoz kabi soz,	So'yib beray sumalak
Bizlar sevgan sovuq yoz.	Ov ham ko'kda nur sochar
Ekin o'sdi tog'larda,	Yangi dunyolar ochar:
Bug'doy pishdi bog'larda.	Behi yetirib pishar
Sarg'avibdi olchalar,	Yerlarga to'p- to'p tushar.
Uzar yosh bolachalar.	Olma, anor, nok, bodom
Poliz to'la olxo'ri	To'yib qoladi odam.
— Usta tez uzib bering!	Qish bo'yli bizda har xil
— Sabr qiling, siz andak	Meva pishadi bir xil.

Noto'g'ri jumlalar ajratib ko'rsatilgan.

2. «Qofiyadosh so'zlar topish» o'yini.

Bu o'yinni guruhlilararo o'tkazish mumkin. Bir guruh qofiyadosh so'zlarni topa boshlaydi. Uzilish bo'lib qolsa, gal boshqa guruhga o'tadi. Eng ko'p qofiyadosh so'zlar topgan guruh g'olib sanaladi.



VATAN — MUQADDAS

O'quv materiali. Quyosh sevgan yurt. *Rauf Tolib. Darsning maqsadi.*

1. O'quvchilarning Vatan haqidagi tushunchalarini boyitish, «Vatan yagona», «O'zbekiston — menirig Vatanim» iboralarining ma'nosini anglab yetishlarini ta'minlash, «Men nechun sevaman O'zbekistonni?!» savoliga javob bera olishlariga erishish.

2. Vatanga muhabbat hissini, Vatan bilan faxrlanish tuyg'usini o'stirish.

3. O'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'atini boyitish, matn ustida ish-lashga-badiiy vositalarni izohlashga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvechi, ilmiy ommabop asar o'qish darsi.

Darsning shakli. Noan'anaviy dars.

Dars metodi. Suhbat, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi. O'zbekistonning tabiatи, mehnat jarayoni, dam olish holatlari tasvirlangan rasmlar, sxemalar, karton, rangli qalam...

Darsning borishi.

1. Dars O'zbekiston Daslat Madhiyasini kuylash bilan boshlanadi.

2. O'qituvchi A. Oripovning «O'zbekiston» she'ridan ayrim bandlarni yod aytadi. Bugungi dars mavzusini nima? savoliga javob oladi.

3. Aqliy hujum. *Savol:* Vatan deganda nimani tushunasiz? Nima uchun Vatan yagona deyiladi? O'quvchilar javobi kartonga yoki doskaga yozib boriladi va umumlashtiriladi.

A *O'quvchi:* Bugun yangi bo'lim «O'zbekiston - Vatanim manim» bo'limini o'rganishni boshlaymiz. Siz 1-, 2-, 3- sinflarda ham bu mavzudagi asarlarni o'qib o'rgangansiz. Vatan haqida o'qigan asarlarinigizni aytинг topshirig'i asosida suhbat o'tkaziladi.

4. Krossvord yechish. *Eniga:*

1. Oq samanim osmonda chopar, Yag'irlari quyoshni yopar. (*Bulut*)
2. Zar gilam, zargar gilam Ko'taray desam og'ir gilam. (*Yer*)
3. Oppoq sochli boshlari, Daryo bo'lar yoshlari. (*Tog'*) Bo'yiga:
4. Har kun uyg'otib tongni Yoritardi jahonni. (*Quyosh*)

Topshiriq. Krossvorddagagi harfdan foydalanib, Vatan so'ziga ma'nodosh so'z tuzing. (*Yurt*)

5. Kichik guruhlarda ishslash.

O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish.

1- topshiriq. Stol ustidagi kartochkalardan birin oling.

Shu so'z guruhingizni nomi bo'ladi.

2 -topshiriq. Guruhibiz nomini ta'riflab bering.

«*Quyosh*» *guruhi.* Yer yuzida hayotni quyoshsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Quyosh o'z tafti bilan butun olamni isib, charog'on qiladi. Yer yuzidagi barcha jonzotlar, dov-daraxtlar, maysa-giyohlar quyosh nurlaridan bahra oladi. Shuning uchun hamma quyoshga talpinadi. Shuning uchun hayot va nur manbai ham kuyylanadi.

«*Tog'*» *guruhi.*

Bilmadim osmonda kimlar urishdi,

Havoning chehrasi birdan burishdi.

Mening ko'ksimga oppoq qor tushdi,

Mening bag'rimdan tiniq suv oqdi.

Bag'rimdagи boyliklarimni xalqimga yillar davomida ularshib kelaman.

«*Bulut*» *guruhi.* Bulutlar har xil: oq bulut, qora bulut. Odamlar ko'ngli toza odamlarni oq bulutga, boshqalarni yomonlik tilaydigan odamlarni qora bulutga o'xshatishadi. Bulut insonlar uchun hayot baxsh etadi. Bulutlar tufayli yomg'ir va qor yog'adi. Yomg'ir va qor nihollarga, o'simliklarga jon baxsh etadi. Nihol va o'simliklar insonlarga rizq-ro'z beradi. Biling guruh bulut kabi insonlar boshida parvona bo'lish niyatidir.

«Yer» guruhi. Men tog'lari ko'klargaysalombergan o'lkaman. Yulduz-u oy, quyushlari parvona bir yo'lkaman. Xalqi erk va hurriyatning so'lib qolgan gullariga qayta hayot bergen o'lkaman. Yosh avlodni ufqlarni ko'zlagan bir o'lkaman.

O'qituvchi: Demak, Vatanim/zning gullab-yashnashi, kishilarning to'q-farovqn turmujshe kechirishi uchun tabiiy hodisalar marhamatidan ijisonlaf unumli foydalanishi, to'g'ri foydalanishi lozim. Shurida «Quyosh», «Oq bulut», «Oy» tepamizda parvona bo'ladi. «Tog»lar ta'zim qiladi.

«Yer» to'ydiradi, kiyintiradi, bag'ridan joy beradi. Bizning O'zbekiston deb atalmish Vatinimiz millati, irqidan qat'i nazar bag'ridan joy bergen. Bu Vatianda yashovchi har bir inson uning har bir zarrasini qadrlash lozim.

6. Rauf Tolib haqida ma'lumot berish.

Savol. 1. Vatan madhini kuylagan, Vatan haqida asar yozgan yozuvchi va shoirlar nomini aytинг.

2. Ularning ijodlaridan misollar keltifung.

3. Rauf Tolib haqida nimalar bilasiz? Uriing qaysi asarlarini o'qigansiz?

O'qituvchining hikoyasi. Rauf Tolib 1946-yilda Toshkentda tug'ilgan. U ko'p yillardan beri bolalarga atab she'rlar yozib keladi. Uning «Ilmlilar ming yashar», «Osmon bog», «Ona yurt» «Yurt mehri», «Eshitmadim demanglar», «Suhbat», «Mirjalol nega lol» nomli to'plamlari nashr qilingan.

Shoir hayvonlar haqida ham ko'plab asarlar yozgan: Qadinida jirafa chaqimechi bo'lgan ekan. Bir indan bir ovoz chiqsa, darrov panaga o'tib, bo'yirini cho'zib, qulqoq tutarkan. Daraxtda qushlar nima haqida so'zlashayapti, tag'in bexabar qolmay deb shoxlarga bo'yanni cho'zib qararkan. Shunday qilib, jirafaning bo'yini cho'zilib ketgan ekan. Shoirlarning she'rlarini o'qisangiz, ulardan shunga o'xshash voqealarni bilib olasiz. O'qituvchi quyidagi she'mi o'qib beradi.

DO'STLIK

Ulug' ona yerimiz

Yolg'iz yashoimas daryo,

Quyosh bilan do'st doim.

U bog'lar bilan o'rtoq.

Quyosh ham yerga har tong

Oshib yo'llar, dovonlar

Salom berar muloyim.

Shoshib keladi har choq...

Yomg'ir esa bulut-la

Inson esa — insonlar

Do'st tutingan umrbod.

Bilan doim kuchlidir.

Shu do'stlik, shu mehrdan

Bilsam butun dunyonni

Gurkirar, yashnar hayot.

Ushlab turgan Do'stlikdir.

She'r yuzasidan qisqa suhbat o'tkaziladi. Ularning o'zaro do'stligi misollar bilan ochiladi. Bularni o'rganadigan asarimizni shu yozuvchi yozgan.

7. Yangi mavzu e'lon qilinadi. Aqliy hujum.

O'ylang va javob bering. Asar nima uchun «Quyosh sevgan yurt» deb nomlangan?

8. Ichda o'qish va ifodali o'qishga tayyorlanish.

9. Asar matni guruhlarga bo'lib beriladi. Ifodali o'qish musobaqasi o'tkaziladi.

10. Matn ustida ishslash.

1- topshiriq. Topshiriqlar guruhlarga kartochkalarda tarqatiladi.

1- *guruh uchun:* Vatanimiz tongi. qanday boshlanadi?

2- *guruh uchun:* Turon zamininirig quyoshlari kimlar?

3- *guruh uchun:* Nima uchun bulut o'zining elning rizq-ro'zi deb biladi?

4- *guruh uchun:* Quyosh, «Qarz ikki qo'lidan chiqadi» deganda nimani nazarda tutdi?

2- topshiriq. Matnning badiiy vositasi ustida ishslash.

1- *guruh:* Quyosh tog'lar ortidan bosh ko'taribdi, gullar salom berishibdi;

Yaproqlar shildirab quyoshni olqishlabdi;

Quyosh jilmayib qo'yibdi;

Quyosh tog'lardan, bog'lardan, yaylovlardan ko'z uzolmas ekan — iboralarni matndan topib o'qing, ular qanday badiiy vosita deb yuritiladi? ular ifoda etgan ma'noni izohlang.

2- *guruh uchun:* Ko'zim guvnaydi; dilim yashnaydi; men nur qo'limybilan, turib qolaman, men ularni parvarishlavman birikmalarni matndan toping, tagiga chizilgan so'zlarning qanday ma'noda qo'llanganini izohlang.

Ko'zimga issiq ko'rindi deganda nimani tushundingiz?

4-SINF O'QISH DARSLARINI REJALASHTIRISH**ISTIQLOLIM — ISTIQBOLIM (6 soat)**
1 chorak (45 soat)

Dars-sar-	O'qish va yod olish uchun materiallar	Darsning mavzusi	Ajratil-gan soat
1	O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi. A. Oripov	Mustaqillik — baxt-saodatimiz.	1
2	Mangulikka latigulik kun. S. Barnoyev	1-sentyabr — Mustaqillik kuni.	1
3	Iqboli buyuksan. A. Oripov	Iqboli porloq bolalar.	1
4	Assalom, Neksiya! E. Malikov	Gulla, yashna, hur vatan!	1
5	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takrorlovchi dars	Mustaqillik — sharaf-shonim.	1
6	1-MSN1		1

O'ZBEKISTON — VATANIM MANIM (8 soat)

7	Serquyosh o'lka. Z. Diyor	Saxovatli diyor.	1
8	Toshkentnoma. M. Shayxzoda	Toshkentim — onam.	1
9	Dehqon bobo va o'n uch bolakay qissasi. A. Oripov	O'zbekiston — bepoyon diyor.	1
10	Sinfdan tashqari o'qish		1
11	Mardlik va aql yorug'ligi. M. A'zam	Marddek tursin maydonda.	1
12-13	Xarita. N. Norqobil	Qishlog' imiz xaritasi.	2
14	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takrorlovchi dars	O'zbekiston — Vatanim manim.	1
15	2-MSN1		1

OLTIN KUZ (6 soat)

16	Sahovatli fasl	Kuz ziynati.	1
17	Kuz. Sh. Sa'dulla	Oltin kuz.	1
18-19	Qovun sayli. Sh. Sa'dulla	Shirin qovunlar mamlakatida.	2
20	STO'	Qovun emas, asal-ku bu!	1
21	Dehqon. S. Rahmon		1
22	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlovchi dars	Yer naqqoshi!	1
23	3-MSN1	Oltin kuz.	1

MA'NAVIYAT — QALB QUYOSHI (11 soat)

24	Salomatlashish odobi. H. V. Koshibiy	Ma'naviyat — qalb quyoshi.	1
25	Odamdan nima qoladi? Yusuf Xos Hojib	Yaxshilik — inson ziynati.	1
26	Odamdan nima qoladi?		1
27	Har kim ekkanin o'rар. M. Abdurashidxon	Keksalar — suyanch yoshlar — tayanch.	1
28	Chaqimchiga "mukofot"	Jazo — muqarrar.	1
29	STO'		1
30	Omonatga "xiyonat"	Xiyonatkorlik — illat.	1
31	Hadislardan namunalar	Hikmatlar xazinasi.	1

32-33	Ikki saxiy (1- va 2-bo'lim)	Mehr-sahovat inson husni.	2
34	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takror-lovchi dars	Ma'naviyat — qalb quyoshi.	1
35	4-MSN1		1

XALQ OG'ZAKI IJODI (28 soat)
QO'SHIQLAR QANOTIDA (6 soat)

36	Boychechak	Ko'klam elchisi.	1
37	Ostob chiqdi olamga	Bolalar quvonchi.	1
38	Laylak keldi — yoz bo'ldi	Yoz darakchisi.	1
39	Xo'p hayda	Jonivorlarga g'amxo'rlik.	1
40	STO'	Qo'shiqlar qanotida.	1
41	Qo'shiqlar yuzasidan umumlashtiruvchi- takrorlovchi dars		1
	Ertaklar mamlakatida		
42	Davlat	Ittifoqlik — badavlatlik asosi	1
43-44	Ilm afzal	Bilim ol, hunar tanla.	2
45	5-MSN1		1

ERTAKLAR MAMLAKATIDA (22 soat)
II chorak (35 soat)

46-47	Ko'zacha bilan tulki	Qo'rroqdan hotiq chiqmas.	2
48	Ochko'z hoy	Ochko'zlik kulfat keltirar.	1
49	Hiylagarning jazosi	Xasislik boshga balo keltirar.	1
50-51	Hunarsiz kishi o'limga yaqin	Dangasalik nochorlikka olib keladi.	2
52-53	Ziyrak uch yigit	Ziyraklik — bilimdonlik belgisi.	2
54	6-MSN1		1
55	STO'		1
56	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takror-lovchi dars		1
57	7-MSN1		1
	Adabiy ertaklar		
58-59	Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak. A. Obidjon	Zulm jazosiz qolmas.	2
60-61	Laqma it. Sh. Sa'dulla	Laqmalik — kulfat.	2
62	Baqa bilan taqa. A. Abdurazzoq		1
63	Topishmoqlar		1
64	Buni toping qizlarim G'. G'ulom	Topgan topaloq.	1
65	Maqollar	Xalq hikmatlari.	1
66	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takror-lovchi dars	Ertaklar mamlakatida.	1
67	STO'		1
68	8-MSN1		1

KUMUSH QISH (5 soat)

69	Kumush qish		1
----	-------------	--	---

70	Qish to'zg'itar momiq par. Q. Hikmat	Qor — hayot suvi	1
71	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi	Baxtimiz qomusi	1
72	Rangin qorlar	Kumush qish	1
73	Qish. T. Adashboyev	Ayoz	1
74	Qor odamning sovg'asi		1
75	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlovchi dars	Kumush qish	1

VATANIMIZ O'TMISHIDAN (9 soat)

76-77	Kitob ixlos M. Osim	Kitob — bilim bulog'i	2
78	Pahlavon va shoir. H. Homidov	Pahlovon shoir	1
79	STO'		1
80-81	Alisherning yoshligi. Oybek	Shoirming bolalagi	2
82	Alisherning yoshligi. Oybek		1
83	Shum bola G'. G'ulom	Yetimning alami	1
84	9-MSNİ		1

NIMA YAXSHI-YU, NIMA YOMON? (22 soat)**III chorak (50 soat)**

85	Bolalik. Oybek	Yoshlik.	1
86	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlovchi dars	O'tmishsiz kelajak yo'q.	1
87	Odobli bo'lish osonmi? A. Obidjon	Nima yaxshi-yu, nima yomon?	1
88	Odobli bo'lish osonmi? A. Obidjon	Keksalik hikmatlari.	1
89	Sharq hikoyasi. A. Oripov	Ikki do'st.	1
90	Qodir bilan Sobir. H. Nazir	Nima yaxshi va nima yomon?	1
91	Nurxon bilan Burxon. M. A'zam	Kamtarga kamol.	1
92	Xatosini tushungan bola. X. To'xtaboyev		1
93	Xatosini tushungan bola. X. To'xtaboyev		1
94	STO'		1
95	10-MSNİ		1
96	"It-mushuk" o'yini. M. Rahmon	Ahil bo'lin o'yinaymiz, intizomni buzmaymiz.	1
97	To'g'ri so'z bola. H. H. Niyoziy	Rostig'oylik — inson ziynati.	1
98	Qo'rraq. S. Anorboyev		1
99	Kimning xati chiroyl? S. Jo'ra		1
100	Yaxshi bo'ldi. N. Fozilov	Mehnat insonni ulug'laydi.	1
101	Chumchuq bilan Chumoli. A. Abdurazzoq	Tekinxo'rlik — illat.	1
102	Ota va ona haqini bilmak zikrida. Kaykovus	Ota-ona — oy bilan quyosh.	1
103	11-MSNİ		1
104	STO'		1
105	O'ylashni o'rganamiz. G'. G'ulom	Yaxshi niyat — yarim mol.	1
106	Qush tili. Mirtemir	Qushlar — bizning do'stimiz.	1
107	Yomg'ir		1
108	Olti yuz so'm		1
109	Olti yuz so'm		1
110	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takrorlovchi dars		1

HAYVONOT OLAMIDA (11 soat)

111	Mo'jiza. R. Bekniyoz	G'alati o'lja.	1
112	Xatarli uchrashuv. P. Qodirov	Ikki bo'ri.	1
113	12-MSNI		1
114	STO'		1
115	Ola buzoq. G*. G'ulom	Ola buzoq.	1
116	Tushovli toy. N. Fozilov	Saman toychoq.	1
117	Jo'ja. A. Obidjon	Shovvoz jo'ja.	1
118	Ayiqni yenggan cho'pon. P. Qodirov	Botir cho'pon.	1
119-120	Ko'kyol. N. Fozilov	Oq shunqor.	2
121	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takrorlovchi dars	Hayvonot olamida.	1

ZUMRAD BAHOR (13 soat)

122	Bahor ta'risida. Y. Xos Hojib	Bahor shabodasi.	1
123	Bahor. Q. Hikmat	Bahor uyg'onish fasli.	1
124	Jala darakchisi. H. Rahmat		1
125-126	Erkacholning o'rigi. X. To'xtaboyev	Yaxshidan bog' qoladi.	2
127	Navro'z – bahor bayrami. M. Alaviya	Sumalak sayli.	1
128	Bayram urs' odatlari		1
129	Saxiy bog'bon. F. Musajonov		1
130	Tut. Mirtemir		1
131	Buzilmagan uya. G'ayratiy		1
132	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlovchi dars		1
133	STO'		1
134	13-MSNI		1

YASHASIN DO'STLIK, BOR BO'LSIN TINCHLIK (6 soat)**IV chorak (36 soat)**

135	Tinchlik qushi haqida men o'qigan sh'er. Sh. Sa'dulla	Oq kabutar – tinchilik qushi	1
136	Shoira. H. Nazir		1
137	Do'stlik. X. To'xtaboyev		1
138	Tinchlik nima? U. Abduaazimova		1
139	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlovchi dars		1
140	STO'		1
141	14-MSNI		1

AJDODLARIMIZ – FAXRIMIZ (9 soat)

142	To'maris. H. Sodiqov	Jasur ayol	1
143	Najmuddin Kubro	Najmuddin Kubro – vatan-parvar	1
144	Sulton Mahmud va Beruniy, Nizomi Aruzi Samarqandiy	Sulton Mahmud va Beruniy	1
145	Tanbeh. Kondamir	Porloq yulduz	1
146	Navoiy bobomlar. T. Adashboyev	Tanbeh	1
		Navoiy bobomlar	1

147	Hidi, tilimi va mazasidan	Hidi, tilimi va mazasidan.	1
148	Rivoyat. N. Karimov	Rivoyat.	1
149	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takror-lovchi dars		1
150	15-MSN1		1
151	STO'		1

JAHON BO'LALAR ADABIYOTI (9 soat)

152	Bolalar gurungi. G.X.Andersen	Baxtli bolalik.	1
153	Bir xumcha shavla. Aka-uka Grimmilar	Sovg'a.	1
154-155	Rustrm. F. Erdinch		2
156	Gulliverning sayohatlari. J. Swift	Qiziqarli sayohat.	1
157	Jimjiloq. Ch. aytmatov		1
158	STO'		1
159	16-MSN1		1
160	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takror-lovchi dars		1

YOZ – O'TADI SOZ (9 soat)

161	Yoz. Sh. Sa'dulla	Quvnoq fasl.	1
162	Non qayerdan keladi? Q. D'tayev		1
163	Oydin kecha. Murod Xidi		1
164	Bobomning sovg'asi. G'ayratiy	Bobomning sovg'asi.	1
165	Nihollarning nolasi. X. To'xtaboyev		1
166	Suv bilan suhbat. Z. Diyo		1
167	Quyosh sevgan yurt. Rauf Tolib	Vatan — Muqaddas.	1
168	17-MSN1		1
169	STO'		1
170	Bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi-takror-lovchi dars	Yoz – o'tadi soz.	1

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Istiqlolim — istiqbolim.....	8
O'zbekiston — Vatanim manim.....	26
Oltin kuz.....	47
Ma'naviyat qalb quyoshi.....	59
Xalq og'zaki ijodi. Qo'shiqlar qanotida.....	71
Ertaklar mamlakatida	77
Kumush qish	97
Vatanimiz o'tmishidan	110
Nima yaxshi-yu nima yomon.....	117
Hayvonot olamida.....	136
Zumrad bahor.....	149
Yashnasin tinchlik, bor bo'lsin do'stlik	162
Ajdodlarimiz — faxrimiz.....	165
Jahon bolalar adabiyoti	171
Yoz — o'tadi soz.....	177
4-sinf o'qish darslarini rejalashtirish	186

**SAFO MATCHONOV, XOLIDA G'ULOMOVA,
ZAYNIDDIN DOLIMOV**

**4-SINFDA
OQISH DARSLARI**

O'qituvchi kitobi

Oqituvchilar uchun metodik qo'llanma

Toshkent — “Yangiyul poligraph service” — 2007

Muharrir — *Q. Islomov*

Texnik muharrir — *A. Kaybisheva*

Musahnih — *M. To'ychiyev*

Sahifalovchi — *O. Mamadaliyev*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 13.08.07. Bichimi 60x90¹/16.
«Tayms» garniturasi. Ofset bosma usulda bosildi. Sharqli bosma tabog'i 12,0.

Nashr bosma tabog'i 12,0. Nusxasi 17874. Buyurtma № 38.

Shartnoma № 80.

“Yangiyul poligraph service” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44.